

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**



## **MUSIQA TA'LIMI**

**Musiqashunoslik, etnomusiqashunoslik  
qonuniyatlari, o'qituvchining ijrochilik  
mahorati asoslari**

**MODULI BO'YICHA**

## **O'QUV-USLUBIY MAJMUUA**



**TOSHKENT-2022**



**Mazkur o'quv-uslubiy majmua Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv reja va dastur asosida tayyorlandi.**

**Tuzuvchi: san.f.n., dos. Q.B.Panjiyev**

**Taqrizchi: PhD doktori Frank Laper - Ponter de Parij №10 universiteti (Parij).**

***O'quv-uslubiy majmua TDPU Kengashining 2020 yil 27 avgustdagi 1/3.6- sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.***



## MUNDARIJA

<b>I. ISHCHI DASTUR .....</b>	<b>4</b>
<b>II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....</b>	<b>12</b>
<b>III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI .....</b>	<b>26</b>
<b>IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.....</b>	<b>148</b>
<b>V. GLOSSARIY .....</b>	<b>170</b>
<b>VI. ADABIYOTLAR RO'YXATI .....</b>	<b>175</b>



## I. ISHCHI DASTUR

### Kirish

Mustaqillik yillari tom ma'noda O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti istiqbolini belgilash, jahon hamjamiyati mamlakatlari safidan munosib o'rin egallashga intilish yo'lidagi keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish bilan kechmoqda. Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalarini o'rganish, mahalliy shart-sharoit, iqtisodiy va intellektual resurslarni inobatga olgan holda jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlarning amalga oshirilayotganligi yangidan-yangi yutuqlarga erishishni ta'minlamoqda. Turli sohalarda yo'lga qo'yilayotgan xalqaro hamkorlik garchi o'z samarasini berayotgan bo'lsa-da, biroq, milliy mustaqillikni har jihatdan mustahkamlash, erishilgan yutuqlarni boyitish, mavjud kamchiliklarni tezkor bartaraf etish jamiyat a'zolaridan alohida fidokorlik, jonbozlik, shijoat va qat'iyat ko'rsatishni talab etmoqda.

Ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiya sohalarining mavjud taraqqiyoti zamonaviy jamiyat qiyofasini belgilab bermoqda. Zamonaviy jamiyatning eng muhim xarakterli jihati uning barcha sohalarida globallashtiruvning ko'zga tashlanayotganligidir. Globallashtiruv o'z-o'zidan tezkor harakatlanish, zarur axborotlarni zudlik bilan qo'lga kiritish, ularni qayta ishlash va amaliyotga samarali tatbiq qilishni taqozo etadi. Bu tarzda harakatlanish imkoniyatiga o'z sohasining bilimdoni bo'lgan, kasbiy malakalarni yuqori darajada egallay olgan, boy tajriba va mahoratga ega kadrlargina ega bo'ladilar. Shunday ekan, oliy ta'lim muassasalar (OTM)ida kadrlarni tayyorlash jarayonida davrning mazkur talabini inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

Oliy ta'lim muassasalari pedagoglarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida Musiqa ta'limi fanlarining innovatsion taraqqiyoti va rivojlantirish strategiyalari o'qituvchilarining intellektual salohiyatini oshirish, pedagoglarda kasbiy kompetentlik sifatleri va kreativ qobiliyat mohiyati bilan yaqindan tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Malaka oshirish tizimida "Musiqashunoslik, etnomusiqashunoslik qonuniyatlari, o'qituvchining ijrochilik mahorati asoslari" o'quv modulining o'qitilayotganligi pedagog kadrlarni xalqimizning milliy musiqa san'ati durdonalari bo'lgan aholining ijtimoiy hayoti bilan bog'lanib ketgan etnomusiqa tarixi, janrlari, ijrochilik mahorati asoslaridan xabardor bo'lishlari, ta'lim amaliyotida talaba-yoshlarni milliy musiqa an'analari asosida o'qitish, tarbiyalash, kompetentlik sifatleri va kreativlik qobiliyatini izchil rivojlantirib borish ko'nikma-malakalarini hosil qilish uchun sharoit yaratib qolmay, kasbiy faoliyatda ulardan samarali foydalanish borasidagi malakalarining mustahkamlanishini ham ta'minlaydi.



Ayni vaqtda “Musiqashunoslik, etnomusiqashunoslik qonuniyatlari, o'qituvchining ijrochilik mahorati asoslari” moduli oliy ta'lim peagoglarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarida tinglovchilar tomonidan o'zlashtirilayotgan kasbiy bilim, ko'nikma, malaka va kompetentlik sifatlarini yanada rivojlantirish, keng ko'lamli ilmiy-tadqiqotlarni olib borish, kuchli raqobat mavjud bo'lgan mehnat bozorida o'z o'rinlarini saqlab qolishlariga yordam beradi.

O'quv moduli doirasida tinglovchilar Musiqashunoslik, etnomusiqashunoslik qonuniyatlari, o'qituvchining ijrochilik mahorati asoslarini, ijrochilik maktabalari, ijrochilik xususiyatlari, an'analari va ularning mazmun mohiyati, nazariy asoslari, shakl, tembr, cholg'u ijrochiligi vositalari bilan tanishadi, kasbiy faoliyatda maqsadli qo'llash malakalariga ega bo'ladi, ta'lim jarayonini tashkil etishda milliy musiqa merosi qatlamlaridan foydalangan holda tashkil etadi va talabalarda ushbu tajribalarni yanada boyitadi. Shuningdek, tinglovchilar o'zbek milliy musiqa san'ati taraxi, takomillashuv va rivojlanuv jarayonlari, davrlari, bosqichlaridan xabardor bo'ladi, o'zbek xalq musiqa ijodi, an'anaviy xonandalik, maqom san'ati, musiqashunoslik, etnomusiqashunoslik, ijrochilik tarixi va maktablari kabi bir qator mualliflik dasturlarini ishlab chiqish malakalarini muvaffaqiyatli o'zlashtiradi. Bu esa o'z navbatida o'qitish jarayonida tinglovchilarning faolliklarini ta'minlash, ta'lim sifatini yaxshilash, samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Modulning maqsadi va vazifalari**

“Musiqashunoslik, etnomusiqashunoslik qonuniyatlari, o'qituvchining ijrochilik mahorati asoslari” **modulining maqsadi:** ta'lim tizimining isloh qilinishi tufayli uning mazmunini tubdan yangilashga va ta'lim jarayonini zamonaviy talablar darajasida tashkil qilish hamda sifat samaradorligini ko'tarish zarur bo'lib qoldi.

“Musiqashunoslik, etnomusiqashunoslik qonuniyatlari, o'qituvchining ijrochilik mahorati asoslari” fanlarini o'qitishda bilim zahiralari yaratish jahon amaliyoti saviyasida tashkil etish, kadrlar tayyorlashda musiqashunoslik, etnomusiqashunoslik qonuniyatlari, cholg'u va xonandalik ijrochilik mahorati asoslari, maktablaridan keng foydalanish ko'nikmalarini takomillashtirish, pedagogik ta'lim oluvchi shaxsda mustaqil fikrlovchi, bilimlarni mustaqil ravishda qidiruvchi, axborotlar to'plovchi va ulardan foydalana oluvchi mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligini orttirish, pedagogik tafakkurini kengaytirish kabi zarur nazariy va amaliy bilim, malaka va ko'nikmalarini tinglovchilarda shakllantirish lozim bo'ladi.

“Musiqashunoslik, etnomusiqashunoslik qonuniyatlari, o'qituvchining ijrochilik mahorati asoslari” **modulining vazifalari:**



- Musiqashunoslik, etnomusiqashunoslik qonuniyatlari, o'qituvchining ijrochilik mahorati asoslari fan yutuqlarini amaliyotga tadbiq eta olishi, muammoni echishga ijodiy yondashishi;
- mutaxassisligining ilmiy muammolarini echishda mustaqil qarorlar qabul qila olishi hamda undan kasbiy faoliyatida foydalana bilishi;
- fazoviy, obrazli-siyimli, mantiqiy tasavvur va tafakkurni rivojlantirishi;
- mustaqillik, tashabbuskorlik, mehnatsevarlik va boshqa xislatlarga ega bo'lishi;
- ilmiy tadqiqot natijalaridan foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar va hisobotlar tuzishni;
- ilmiy asoslarda ilmiy jamoani boshqara olishi va metodlarini egallashi lozim.

### **Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

“Musiqashunoslik, etnomusiqashunoslik qonuniyatlari, o'qituvchining ijrochilik mahorati asoslari” kursini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida **tinglovchi:**

“Mashg'ulot turlari (leksiya, amaliy mashg'ulotlar va boshqalar) ni o'tkazish va nazorat qilishning faol shakllarini”, “o'quv jarayonini tashkil etish, ta'lim oluvchilarning diqqatini jalb qilish va mashg'ulot samaradorligini to'la oshirish metodlarini”, “talabalar bilimini, ko'nikma va malakasini nazorat qilish va baholash tizimini”, “o'qitish sifati va kadrlarning kasbiy tayyorgarligiga ta'sir etuvchi faktorlarni”, “pedagogik muloqot asoslarini”, “ilmiy tadqiqot ishining asosiy tushunchalari va metodlarini” kabilarga oid **bilimlarga ega bo'lishi;**

“Musiqashunoslik, etnomusiqashunoslik qonuniyatlari, o'qituvchining ijrochilik mahorati asoslari” fanini o'qitishda o'quv va bilim olish faoliyatini oshirishni tashkil etish, “Musiqashunoslik, etnomusiqashunoslik qonuniyatlari, o'qituvchining ijrochilik mahorati asoslari” fanini o'qitishda talaba va o'quvchilarning bilimi va mustaqil ta'limini boshqarish hamda nazorat qilishning tashkiliy va o'quv-metodik ta'minoti”, “O'quv-metodik tarbiya jarayonini loyihalash va amalga oshirish”, “Musiqashunoslik, etnomusiqashunoslik qonuniyatlari, o'qituvchining ijrochilik mahorati asoslari”dan topshiriqlar, tarqatma kartochkalar va modellar, ko'rgazmali elektron slaydlar kabi o'qitish vositalari (o'quv-metodik materiallar)ni ishlab chiqish”, “Yangi pedagogik texnologiyalar, ularni Musiqashunoslik, etnomusiqashunoslik qonuniyatlari, o'qituvchining ijrochilik mahorati asoslari fanini o'qitishda qo'llash kabilarga doir **ko'nikmalarini egallashi;**



- Musiqashunoslik, etnomusiqashunoslik qonuniyatlari, o'qituvchining ijrochilik mahorati asoslari fanini o'quv jarayonini "jonli", ijodiy tashkil etish;
- Musiqashunoslik, etnomusiqashunoslik qonuniyatlari, o'qituvchining ijrochilik mahorati asoslari faoliyatni tashkil etish;
- innovatsion tafakkur yuritish orqali ta'lim jarayonida ijodiy muhitni yaratish;
- Musiqashunoslik, etnomusiqashunoslik qonuniyatlari, o'qituvchining ijrochilik mahorati asoslari;
- Musiqashunoslik, etnomusiqashunoslik qonuniyatlari, o'qituvchining ijrochilik mahorati asoslari ta'lim texnologiyalarini real amaliyot bilan uyg'unlashtirishga erishish;
- Musiqashunoslik, etnomusiqashunoslik qonuniyatlari, o'qituvchining ijrochilik mahorati asoslari ishlab chiqish va ommalashtirish **malakalarini egallashi;**
- Musiqashunoslik, etnomusiqashunoslik qonuniyatlari, o'qituvchining ijrochilik mahorati asoslari faoliyatni samarali amalga oshirish;
- ta'lim jarayonining musiqashunoslik, etnomusiqashunoslik kasb etishini ta'minlash;
- innovatsion ta'lim texnologiyalari (innovatsion ta'lim texnologiyalari: amaliy o'yinlar, muammoli o'qitish, interfaol ta'lim, modulli-kredit tizimi, case study (keys stadi), masofali o'qitish, mahorat darslari, vebinar va assesment texnologiyalari)ga asoslangan o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish;
- tinglovchilarni izlanishli-ijodiy faoliyatga yo'naltirish **kompetensiyalarni egallashi lozim.**

### **Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

- "Musiqashunoslik, etnomusiqashunoslik qonuniyatlari, o'qituvchining ijrochilik mahorati asoslari" modulini o'qitish jarayonida:
- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
  - o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, va boshqa interfaol ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

### **Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi**

"Musiqashunoslik, etnomusiqashunoslik qonuniyatlari, o'qituvchining ijrochilik mahorati asoslari" moduli bo'yicha mashg'ulotlar o'quv rejadagi "O'zbek xalq musiqasi ijodi", "An'anaviy xonandalik", "Maqom san'ati", "",



“Pedagogik takt va texnika”, “Musiqashunoslik, etnomusiqashunoslik qonuniyatlari, o'qituvchining ijrochilik mahorati asoslari”, “Kreativ pedagogika asoslari” submodullari bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

### Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar “Musiqashunoslik, etnomusiqashunoslik qonuniyatlari, o'qituvchining ijrochilik mahorati asoslari”ni o'zlashtirish, joriy etish va amaliyotda qo'llash malakalari, pedagogik kompetentlik sifatлари va kreativ qobiliyatga ega bo'ladi.

### Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Jami auditoriya soati	Jumladan	
			nazariy	amaliy
1.	O'zbek musiqashunosligi asoslari, uning shakllanish davrlari, dunyo musiqashunoslik ilmini rivojlanishidagi ahamiyati.	6	2	4
2.	Etnomusiqashunoslik, uning xalq ijodiyotidagi o'rni va ahamiyati. O'zbek musiqasining tarkib topish qadriyatlari, an'ana, qadriyat, urf-odat, marosim musiqasi va uning musiqa o'qituvchisi faoliyatidagi ahamiyati.	4	2	2
3.	O'zbek musiqashunosligi asoslari, uning shakllanish davrlari, dunyo musiqashunoslik ilmini rivojlanishidagi ahamiyati.	4	2	2
4.	O'zbek musiqasida ijrochilik maktablari, cholg'u ijrochiligi maktablari, xonandalik mahorati asoslari, o'qituvchining musiqiy pedagogik mahorati, uning rivojlanish bosqichlari, ahamiyati, xususiyatlari. Musiqa o'qituvchining ijrochilik mahorati, musiqiy mahorati asoslari.	6	2	4





5.	Musiqiy asarlarning takomillashuv bosqichlari, cholg'u ijrochiligi tarkibi, janri, o'ziga xos ahamiyati va tinglash madaniyatini shakllantirish talabi. O'zbek milliy musiqa cholg'ulari va ijrochilik maktablari. Xonandalik mahorati asoslari, janrlari, tasnifi va ularda ijrochilik ovoz sozlari. Musiqa o'qituvchisining cholg'u ijrochiligi va xonandalik mahoratini o'stirish bo'yicha amaliy tajribalar.	6	2	4
<b>Jami</b>		<b>26</b>	<b>10</b>	<b>16</b>

## NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

### **1-mavzu. O'zbek musiqashunosligi asoslari, uning shakllanish davrlari, dunyo musiqashunoslik ilmini rivojlanishidagi ahamiyati.**

Ibtidoiy jamiyatga oid ijod shakllari va musiqa ijodiyoti. Musiqiy madaniyatning rivojlanish jarayonlari. Qoraxoniylar davrida musiqiy-madaniy hayot (XI-XIII asrlar). Ilk davlat tizimi davriga oid musiqiy ijod. Qadimgi Xorazm musiqa madaniyati

### **2-mavzu: Etnomusiqashunoslik, uning xalq ijodiyotidagi o'rni va ahamiyati. O'zbek musiqasining tarkib topish qadriyatlari, an'ana, qadriyat, urf-odat, marosim musiqasi va uning musiqa o'qituvchisi faoliyatidagi ahamiyati.**

Etnomusiqashunoslik, uning xalq ijodiyotidagi o'rni va ahamiyati. O'zbek musiqasining tarkib topish qadriyatlari, an'ana, qadriyat, urf-odat, marosim musiqasi va uning musiqa o'qituvchisi faoliyatidagi ahamiyati.

### **3-mavzu: O'zbek musiqashunosligi asoslari, uning shakllanish davrlari, dunyo musiqashunoslik ilmini rivojlanishidagi ahamiyati.**

Islom va musika. O'zbek musiqashunosligi asoslari, uning shakllanish davrlari, dunyo musiqashunoslik ilmini rivojlanishidagi ahamiyati.



**4-mavzu. O'zbek musiqasida ijrochilik maktablari, cholg'u ijrochiligi maktablari, xonandalik mahorati asoslari, o'qituvchining musiqiy pedagogik mahorati, uning rivojlanish bosqichlari, ahamiyati, xususiyatlari. Musiqa o'qituvchining ijrochilik mahorati, musiqiy mahorati asoslari.**

O'zbek musiqasida ijrochilik maktablari, cholg'u ijrochiligi maktablari, xonandalik mahorati asoslari, o'qituvchining musiqiy pedagogik mahorati, uning rivojlanish bosqichlari, ahamiyati, xususiyatlari. Musiqa o'qituvchining ijrochilik mahorati, musiqiy mahorati asoslari.

**5-mavzu: Musiqiy asarlarning takomillashuv bosqichlari, cholg'u ijrochiligi tarkibi, janri, o'ziga xos ahamiyati va tinglash madaniyatini shakllantirish talabi. O'zbek milliy musiqa cholg'ulari va ijrochilik maktablari. Xonandalik mahorati asoslari, janrlari, tasnifi va ularda ijrochilik ovoz sozlari. Musiqa o'qituvchisining cholg'u ijrochiligi va xonandalik mahoratini o'stirish bo'yicha amaliy tajribalar.**

Musiqiy asarlarning takomillashuv bosqichlari, cholg'u ijrochiligi tarkibi, janri, o'ziga xos ahamiyati va tinglash madaniyatini shakllantirish talabi. O'zbek milliy musiqa cholg'ulari va ijrochilik maktablari. Xonandalik mahorati asoslari, janrlari, tasnifi va ularda ijrochilik ovoz sozlari. Musiqa o'qituvchisining cholg'u ijrochiligi va xonandalik mahoratini o'stirish bo'yicha amaliy tajribalar.

## AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

**1-mavzu. O'zbek musiqashunosligi asoslari, uning shakllanish davrlari, dunyo musiqashunoslik ilmini rivojlanishidagi ahamiyati.**

Ibtidoiy jamiyatga oid ijod shakllari va musiqa ijodiyoti. Musiqiy madaniyatning rivojlanish jarayonlari. Qoraxoniylar davrida musiqiy-madaniy hayot (XI-XIII asrlar). Ilk davlat tizimi davriga oid musiqiy ijod. Qadimgi Xorazm musiqa madaniyati

**2-mavzu: Etnomusiqashunoslik, uning xalq ijodiyotidagi o'rni va ahamiyati. O'zbek musiqasining tarkib topish qadriyatlari, an'ana, qadriyat, urf-odat, marosim musiqasi va uning musiqa o'qituvchisi faoliyatidagi ahamiyati.**

Etnomusiqashunoslik, uning xalq ijodiyotidagi o'rni va ahamiyati.

O'zbek musiqasining tarkib topish qadriyatlari, an'ana, qadriyat, urf-odat, marosim musiqasi va uning musiqa o'qituvchisi faoliyatidagi ahamiyati.



**3-mavzu: O'zbek musiqashunosligi asoslari, uning shakllanish davrlari, dunyo musiqashunoslik ilmini rivojlanishidagi ahamiyati.**

Islom va musika. O'zbek musiqashunosligi asoslari, uning shakllanish davrlari, dunyo musiqashunoslik ilmini rivojlanishidagi ahamiyati.

**4-mavzu. O'zbek musiqasida ijrochilik maktablari, cholg'u ijrochiligi maktablari, xonandalik mahorati asoslari, o'qituvchining musiqiy pedagogik mahorati, uning rivojlanish bosqichlari, ahamiyati, xususiyatlari. Musiqa o'qituvchining ijrochilik mahorati, musiqiy mahorati asoslari.**

O'zbek musiqasida ijrochilik maktablari, cholg'u ijrochiligi maktablari, xonandalik mahorati asoslari, o'qituvchining musiqiy pedagogik mahorati, uning rivojlanish bosqichlari, ahamiyati, xususiyatlari. Musiqa o'qituvchining ijrochilik mahorati, musiqiy mahorati asoslari.

**5-mavzu: Musiqiy asarlarning takomillashuv bosqichlari, cholg'u ijrochiligi tarkibi, janri, o'ziga xos ahamiyati va tinglash madaniyatini shakllantirish talabi. O'zbek milliy musiqa cholg'ulari va ijrochilik maktablari. Xonandalik mahorati asoslari, janrlari, tasnifi va ularda ijrochilik ovoz sozlari. Musiqa o'qituvchisining cholg'u ijrochiligi va xonandalik mahoratini o'stirish bo'yicha amaliy tajribalar.**

Musiqiy asarlarning takomillashuv bosqichlari, cholg'u ijrochiligi tarkibi, janri, o'ziga xos ahamiyati va tinglash madaniyatini shakllantirish talabi. O'zbek milliy musiqa cholg'ulari va ijrochilik maktablari. Xonandalik mahorati asoslari, janrlari, tasnifi va ularda ijrochilik ovoz sozlari. Musiqa o'qituvchisining cholg'u ijrochiligi va xonandalik mahoratini o'stirish bo'yicha amaliy tajribalar.

### **O'QITISH SHAKLLARI**

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha echimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar echimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar echimini topish qobiliyatini rivojlantirish).



## II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda jahon ta'lim maydoniga kirishga yo'naltirilgan yangi ta'lim tizimi qaror topdi. Bu jarayon bilan bir vaqtda pedagogik o'quv-tarbiya jarayonining nazariyasi va amaliyotida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lmoqda.

Pedagogik texnologiya - bu ta'lim shakllarini optimizatsiyasini o'ziga maqsad qilib olgan inson va texnik resurslari va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda o'qitish jarayonini tashkil etish, qo'llash va aniqlashning hamda bilimlarni o'zlashtirishning uslublaridir.

Pedagogik texnologiya paydo bo'lgunga qadar ta'lim tizimi doirasida ta'lim jarayonini etarli samarali loyihalash qoidasi ishlab chiqilmagan. Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o'quv maqsadlariga erishishda o'quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, yuzalikda emas, balki rejalashtirilgan natija olish imkonini beruvchi konstruktiv, ko'rsatmali sxemada o'z ifodasini topadi.

Maqsadga yo'naltirilganlik, jarayon natijalarini tashxisli tekshirish, ta'limni alohida o'rgatuvchi qismlarga bo'lib tashlash o'quv jarayonining qirralarini bugungi kunda ta'limni qayta ishlab chiqish sikli g'oyasiga birlashtirish imkonini beradi. U asosan o'z ichiga quyidagilarni oladi.

- ta'limda umumiy maqsadning qo'yilishi;
- tuzilgan umumiy maqsaddan aniq maqsadga o'tish;
- pedagoglarning bilim darajalarini dastlabki baholash;
- bajariladigan o'quv ishlarni majmuasi;
- natijani baholash.

Innovatsiya masalasiga alohida e'tibor berishimizning bir necha muhim sabablari bor. Birinchidan, birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning O'zbekistonni mustaqillikka olib chiqish va mustaqil taraqqiy toptirish yo'li – “o'zbek modeli” behad katta va ulkan, uzoq muddatli, eng ustuvor va olamshumul umummilliy innovatsion loyiha va dasturilamal bo'ldi. Ikkinchidan, innovatsiya, innovatsion faoliyat hamda innovatsion tizim O'zbekistonning o'z mustaqilligi uchun kurashda va taraqqiyot yo'li – “o'zbek modeli”ning tarkibiy qismi yo'nalishlaridan biri sifatida mustaqillik yillarida paydo bo'ldi. Uchinchidan, ma'lum bo'lganidek, bularning har ikkalasi – “o'zbek modeli” va innovatsiya o'zaro uzviy bog'liqlikda dunyoga keldi. Ularning biri ikkinchisini mazmunan boyitdi, jamiyatga ta'sirchanligini oshirdi. To'rtinchidan, “o'zbek modeli” ham, innovatsiya ham faqat bir buyuk maqsadga hizmat qildi va qilmoqda. Bu Vatan va millatni mustaqil qilib, takomillashtirish, jamiyat rivoji, ilm-fani va texnika taraqqiyotini tezlashtirishdan iborat bo'ldi. Bularni to'la to'kis anglash, masalaning mazmuni va mohiyatini yanada chuqurroq his qilish uchun eng avvalo, innovatsiya haqida alohida to'xtalishiga ehtiyoj tug'ilmoqda. Chunki, bu mutlaqo yangi tushuncha va soha bo'lib, hali to'la-to'kis anglanilganicha yo'q.



“O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da ko‘rsatilishicha, innovatsiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega: “Innovatsiya (inglizcha *innovation* – kiritilgan yangilik, ixtiro) 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta‘minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag‘lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg‘or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalaridagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo‘llanishi”.

Bu ensiklopedik qisqa ma‘lumotda innovatsiyaga umumiy ta‘rif-tavsif berilgan. Asosan tabiiy fanlar, texnika, texnologiya, ishlab chiqarishlarga oid yangiliklar yoki umuman insoniy mehnat faoliyatlari, yangilanishlariga sababchi bo‘ladigan yangiliklar, yangi intellektual bilim, g‘oya, nazariya va ta‘limotlar nazarda tutilgan.

Innovatsiya tushunchasi va uning mazmuni ham xuddi fan metodologiyasi kabi keng – umumiy va tor, hususiy xarakterga ega.

Metodologiya bilan innovatsiya o‘rtasida o‘zaro umumjihatlik va maqsad birligi mavjud. Ularning har ikkalasi ham insoniy bilimlar takomil topishi, ishlab chiqarish va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Shuni ham aytish kerakki, har qanday innovatsiya va innovatsion loyihalar amalga oshirilishi, hayotga tadbqiq etilishida aniq bir metodologik ilmiy g‘oya, ta‘limot, nazariya, usul va tamoyillarga amal qilinsagina, ular ro‘yobga chiqadi. Aks holda, u quruq, natijasiz harakat bo‘lib, qoladi. Albatta, har yangilik, ya‘ni innovatsiya ostida yangi g‘oya va texnologiya yotadi. Mana shu ishlab chiqarish yoki biror bir fan uchun ilmiy metodologik asos ya‘ni yo‘l ko‘rsatuvchi, da‘vat etuvchi kuch-quvvat bo‘ladi.

Metodologik asos va usullar qanchalik ilmiy haqiqatga yaqin bo‘lsa, innovatsion loyiha shunchalik muvaffaqiyat va samara bilan yakun topadi.

Ta‘lim-tarbiya jarayoniga innovatsion texnologiyalarni kiritish orqali o‘qituvchi o‘zini yangi yaratilayotgan sharoitga tayyorlashi kerak bo‘ladi. Tajribali pedagog olimlarimiz o‘z vaqtini respublikamizda jamlangan boy tajribalarga suyanib yangi texnologiyalar yaratishga, ularga innovatsion texnologiyalarni singdirib, o‘zimizning zamonaviy pedagogik texnologiyamizni yaratish ustida hamjihatlik bilan ilmiy va metodik ish olib borishga sarflashi maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Yaratilgan o‘zimizning zamonaviy inovatsion pedagogik texnologiyalar asosida “Innovatsion maktab”lar tizimini yaratishga o‘tish zarur.

Bunday maktablarda barcha predmetlarni o‘qitishda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalaniladi. Shunda “o‘qituvchi–o‘quvchi” o‘rnida “o‘qituvchi–kompyuter–o‘quvchi” tizimi hosil bo‘ladi.

Ta‘lim-tarbiya jarayoniga innovatsion yondashish o‘quvchilarda yangi tajriba egallashga intilishni rivojlantirish, ijodkorlik va tanqidiy fikrlash, kelajakka umid bilan qarash kabi xislatlarni tarbiyalaydi.

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanib borayotganligi va o‘z ortidan yangi imkoniyatlar ochib, ta‘lim muassasalari o‘quv jarayoniga ham yangi yondashuv talab etilishiga sabab bo‘layotganligini guvohi bo‘lmoqdamiz.

Ta‘lim jarayonida axborot texnologiyalarining bir qator didaktik imkoniyatlari mavjud. Davrimiz talab ehtiyojiga ko‘ra axborot texnologiyalarini



ta'lim muassalari o'quv jarayonini sistemalashtiruvchi, bog'lovchi, amaliy tashkiliy omil sifatida qaralishi mumkin. Axborot texnologiyalari kutubxonalar, hujjatlar va o'quvchilarning ijodiy ishlari kabi axborotlar jamlanmasi, ma'lumotlar ba'zasini tuzish, ta'lim jarayonini sistemalashtirish, o'quvchilarning amaliy ijodiy ishlarini tashkil qilish imkonini beradi.

Bu barcha vositalarni o'quvchilar o'qituvchining nazorati ostida, darsda shakllantirgan amaliy ko'nikma, malakalarini amalga oshirish imkoni beradi.

Internet tarmog'i o'quvchilarga juda ko'p imkoniyatlarni yaratadi. Internet tarmog'iga chiqish orqali nazorat ishlari tarqatilishi va mahalliy elektron pochtdan qabul qilinishi mumkin. Bunday ko'rinishdagi ishlar darsda masofaviy ta'limning tarmoq shakllarini modellashtirishga yordam beradi.

Kundan-kunga masofaviy tarmoq kurslari va tanlovlari ommalashib bormoqda. O'qituvchi endi bilim axborotlarini etkazuvchi yagona markaz emas, kompyuter texnologiyalarini qo'llash bilan masofaviy ta'lim berish va olish imkoniyatiga ega bo'lib bormoqda.

Talabalar ko'pincha Internet tarmog'i orqali o'z-o'zini o'qitish bilan qiziqib shug'ullanmoqdalar, o'z tengdoshlari bilan muloqotda bo'ladilar, umumiy qiziqishlarni topadilar. Bunday ishlar tarmoqdagi o'zaro munosabatlarni shakllantiradi, Internet tarmog'i talabaga telekommunikatsiya imkoniyatlarini his qilishni, boshqa mamlakatdagi tengdoshlari bilan tanishish va birga ishlash vositasiga aylanmoqda.

Axborot texnologiya vositalari talabaga o'z tasavvurlarini "elektron ko'rinish"da namoyon etish va o'z mahsulotining raqobatbardoshligini, o'z g'oyalarni ommaviyligini tekshirish imkonini beradi. Talabaga haqiqiy qiziqarli va o'ziga xos resurs yaratish uchun u birinchi navbatda, barcha ma'lumotlarni o'rganib chiqishi, uning talablari ruhiyatining xususiyatlarini sezishi, resursning yangiligini belgilashi va amaliy ahamiyatini anglab etishi zarur. Bularning barchasi talabaning o'z bilimdonliklarini shakllantirishga, uning hayotdagi amaliy yo'nalishini belgilashga sabab bo'ladi.

### **"Aqliy hujum" metodi**


**Aqliy hujum** (breynstroming - aqlar to'zoni) – amaliy yoki ilmiy muammolar yechish g'oyasini javoaviy yuzaga keltirish.

#### **Aqliy hujum va masalani yechish bosqichlari**

1. Mustaqil fikrlang xayolingizga kelgan barcha g'oya, fikrlarni qog'ozga yozing.
2. Barcha g'oya va fikrlarni yozing, agar ular takrorlanayotgan bo'lsa, maxsus belgi qo'ying.
3. G'oyalarni baholang.
4. Eng maqbul g'oya guruh g'oyasi sifatida shakllantiradi.

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

**“SWOT-tahlil” metodi.**





**Namuna: Rassom ijodkorlar uchun** SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

<b>S</b>	Rassom kim ? Badiy asar yaratuvchi.	Rassom bu tinmay izlanuvchi ijodkor inson.
<b>W</b>	Umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan rassomlar.	Zamonaviy yunalishda ijod etayotgan taniqli rassom A.Nuridinov asarlarida sevgi, oila, sadoqatlik, tarbiya va jamiyatdagi falsafiy tamoyillar asosida ijod etayotgan ijokorlardandir.
<b>O</b>	Rassomlar chiziqlar, shakllar, ranglar, tasviriy san'at vositalari yordamida badiy obrazli asar yarata oladigan insonlar. (ichki)	Ular tasviriy san'at vositalardan, chiziqlar, shakllar, tasviriy san'at vositalari bilan tasvir orqali o'z g'oyasini, fikrini bayon eta oladilar.
<b>T</b>	To'siqlar (tashqi)	Rassomlarga erkinlik bo'lmasa chiziqlar, shakllar, tasviriy san'at vositalari bilan o'z asarlarida tasvir orqali bayon eta olmaydilar.



### “Baliq skeleti”

Natyurmort kompozitsiyasini “Baliq skeleti” chizmasi Bir qator muammolarni tasvirlash va uni echish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.







Misol: "Rassom ijodkorlar" mavzusidagi matn.


Bilamiz. Bilishni istaymiz? Bilib oldik. (BBB)

Bilamiz	Bilishni istaymiz	Bilib oldik
1. Rassom yangi g'oyada asar yaratadigan inson.	1. Har bir izlanuvchi insonni rassom deb atash mumkinmi?	Ilmiy amaliy izlanishlarni olib boruvchi, yangi usul va vositalarni qo'llay oladigan insonni rassom deymiz.
2. Rassomlar tasviriy vositalardan, chiziqlar shakllar, vositalarni o'z asarlarida tasvir orqali bayon eta oladigan insonlar. Ma'naviy estetik tarbiyalovchi	2. Dunyodagi g'oyaviy kompozitsilarni tasvirla oladigan rassomlar qatoriga kimlarni kiritisa bo'ladi.	R.Ahmedov tasvirlagan asarlar hozirgi rassomlar uchun amaliy metodik o'quv jarayonidagi rivojlanishida foydalanilmoqda.
3. Rassomlar asarida insonlarni ma'naviy-ma'rifiy estetik tarbiyalovchi insonlardir.	3. Rassom bo'lish uchun nima qilish kerak?	O'ral Tansiqboyev manzaralarini butun o'zbekistondagina emas balki evropa davlatlrida xam maroq bilan tomosha qiladilar.
4. Rassom bu tinmay izlanuvchi inson	4. Ijodiy asarlarni tasvirlashni payoni bormi?	Abdulhaq Abdullayev portret janrida ijod etgan taniqli rassomlardandur.
5. Umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan rassomlar.	5. Kompyuterda ijodiy asar yaratasa bo'ladimi ?	Zamonaviy yunalishda ijod etayotgan taniqli rassom A.Nuridinov asarlarida sevgi, oila, sadoqatlik, tarbiya va jamiyatdagi falsafiy tamoyillar asosida ijod etayotgan ijokorlardandir.
6. O'zbekistonlik	6. O'zbekistonda taniqli	O'zbekistonda taniqli



rassomlar	metodik qo'llanmalar, uslubiy qo'llanmalar ustida ishlab kelayotgan taniqli rassom va pedagoglardan kimlarni bilasiz?	metodik qo'llanmalar, uslubiy qo'llanmalar ustida ishlab kelayotgan taniqli rassom va pedagoglardan: R. Xasanov, M. Nabiyeu, X. Egamov, R. Xudayberganov, N.Oripov va boshq.
-----------	---	--

### Inter'erdan natyurmortni aks etirish



xonani ichki ko'rinishini perespektivada aks etiriladi. Tasviriy san'at janrlaridan: natyurmort, portret, tarixiy, maishi animal ko'rinishlarda fon vazifasini o'taydi.

Inter'erdan uyni eshik derazalarning shakli, hajmi, devor va shift, polni bezagi va uy jihozlarining bezagi tasviri orqali qaysi davrga mansubligini bilib olishimiz mumkin. Inter'er - ichki me'moriy muxit xolati orqali xonadon sohibasining didi haqida yoki zavod sexning jihozlanishiga qarab ilmiy, taraqqiyot holati haqida xulosa chiqarish mumkin. Inter'erdan natyurmortni perespektivada aks etirish, tasvirlash jarayonlari ko'rsatilgan.

Inter'er, kompozitsiyasi mavzusidatan tasviriy san'at o'qitishning zamonaviy texnologiyasini qo'llash.



«**Keys-stadi**» - inglizcha so'z bo'lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'rganishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim? (Who), Qachon? (When),



Qaerda? (Where), Nima uchun? (Why), Qanday? Qanaqa? (How), Nima-natija? (What).

### “Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish;</li> <li>✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li> </ul>
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining echimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil echim yo'llarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir echimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish;</li> <li>✓ muqobil echimlarni tanlash</li> </ul>
<b>4-bosqich:</b> Keys echimini echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish</li> </ul>

### “Insert” metodi.

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o'zlashtirilishini engillashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o'taydi.

#### Metodni amalga oshirish tartibi:

- o'qituvchi mashg'ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko'rinishida tayyorlaydi;
- “Tasviriy san'at” bo'yicha yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta'lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko'rinishida namoyish etiladi;



➤ ta'lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, rangtasvir bo'yicha o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda tinglovchilar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:



Belgilar	1-matn	2-matn	3-matn
“V” – tanish ma'lumot.			
“?” – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma'lumot men uchun yangilik.			
“- ” bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta'lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlar professor - o'qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to'liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg'ulot yakunlanadi.



“Brifing” - (ing. Briefing - qisqa) Rangtasvir bo'yicha biror – bir masala yoki savolning muhokamasiga bag'ishlangan qisqa press - konferensiya.

**O'tkazish bosqichlari:**

1. Taqdimot qismi.

2. Muhokama jarayoni (savol-javoblar asosida).



Brifinglardan trening yakunlarini tahlil qilishda foydalanish mumkin. Shuningdek, biror bir asarni chizishdan oldin bir shakl sifatida oldin chizilgan bior asar masalan: “Monaliza” portretini olaylik tinglovchilar bilan birga shu asar qachon va kim tomonidan yaratilganligi muhokama qilinadi va boshqa rassomlarni chizgan portretitahlil qilinadi. Talabalar yoki tinglovchilar tomonidan yaratilgan yangi asar taqdimoti o'tkaziladi.

### “Portfolio” metodi.

“Portfolio” – ( ital. Portfolio - portfel, ingl. hujjatlar uchun papka) ta’limiy va kasbiy faoliyat natijalarini autentik baholashga xizmat qiluvchi zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan hisoblanadi. Portfolio mutaxassisning saralangan o‘quv-metodik ishlari, kasbiy yutuqlari yig‘indisi sifatida aks etadi. Jumladan, har bir tinglovchilarning modul yuzasidan o‘zlashtirish natijasini elektron portfoliolar orqali tekshirish mumkin bo‘ladi. Oliy ta’lim muassasalarida portfolioning quyidagi turlari mavjud:

Faoliyat turi	Ish shakli	
	Individual	Guruhiy
Ta’limiy faoliyat	Talabalar portfoliosi, bitiruvchi, doktorant, tinglovchi portfoliosi va boshq.	Talabalar guruhi, tinglovchilar guruhi portfoliosi va boshq.
Pedagogik faoliyat	O‘qituvchi portfoliosi, rahbar xodim portfoliosi	Kafedra, fakultet, markaz, OTM portfoliosi va boshq.

Har bir tinglovchi kurs mobaynida o‘zining shaxsiy portfoliosini kiritib boradilar.



### O'qitishning to'rt pog'onali usuli

Bu usul AQSh da paydo bo'lib sanoat korxonalarida konveerli ishlab chiqarish ko'paygan sari shunday o'rgatish usullari zarur bo'lib qoldiki, ishchilar bir xilda qaytariladigan qo'l ko'nikmalarini iloji boricha tez va mukammal ravishda o'rganib olishlari kerak edi.

Bu usulda amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayoni 4 pog'ona doirasida kechadi. Bu pog'onalar nomi: «Tushuntirish», «Nima qilish kerakligini ko'rsatib berish», «Ko'rsatilgan tarzda qaytarish», «Mashq qilish». Ya'ni amaliyot o'qituvchisi talabalarga avval kichikroq bir ish bosqichini tushuntirib beradi, keyin nima qilish kerakligini qilib ko'rsatadi. So'ng talaba shu ish bosqichini ko'rsatilgan tarzda qaytarishi (imitatsiya qilishi) kerak. Talaba qaytarib qilayotgan paytida amaliyot o'qituvchisi xatolarini to'g'rilab turadi (maqtaydi yoki tanqid qiladi).

Unday keyin esa shu ish bosqichi mashq tarzida talaba uni mukammal o'zlashtirgunicha ko'p marotaba qaytariladi.


Bu usul psixologiyada asoslangan bo'lib, bixeviorizm (ya'ni inson o'zini tuta olishiga oid) nazariyalardan olingan.

### To'rt pog'ona usuli doirasidagi harakatlar


4 pog'ona deb quyidagi pog'onalar ataladi. Ular davomida bir amaliyot o'qituvchisi bir talaba harakat qiladi:

**1-pog'ona:** Amaliyot o'qituvchisi nima qilish kerakligini tushuntiradi. U talabalarga ma'lum bir ish bosqichi yoki bir ko'nikmani qo'llash uchun kerakli barcha ma'lumotlarni beradi. Talabalar esa amaliyot o'qituvchisi og'zaki tushuntirishlarini tinglashadi.

**2-pog'ona:** Amaliyot o'qituvchisi tushuntirilgan ish bosqichi qanday qilinishi kerakligini qilib ko'rsatadi, talabalar esa qarab turishadi. Odatda amaliyot o'qituvchisi nima qilayotgani haqida talabalarga



### 4 pog'onali usul





izohlar berib boradi. Ya'ni bu erda demonstratsiya (namoyish etish) tushunchasi ham ishlatilishi mumkin.

**3-pog'ona:** Amaliyot o'qituvchisi ko'rsatib bergan ish bosqichini ko'rsatilgan tarzda qaytaradilar. Amaliyot o'qituvchisi ular qilayotgan ish yuzasidan o'z fikrini bildirib, xatolarni to'g'rilab turadi.

**4-pog'ona:** Har bir talaba ish bosqichini ko'rsatilgan tarzda qaytarib, ko'rganidan va ish bosqichini to'g'ri bajarish bo'yicha amaliyot o'qituvchisining izohlarni tushunganidan keyin, bu ish bosqichi ko'p marotaba mashq qilinadi va kerakligicha, ya'ni maqbul natijaga erishilmagunicha takrorlanadi.

Bundan keyin amaliyot o'qituvchisi keyingi ish bosqichiga o'tadi. Bu bosqich ham 4 pog'onadan iborat.

Bu 4 pog'ona usulining asosiy belgisi shuki :

- amaliyot o'qituvchisi tomonidan boshqarilgan nazariy va amaliy ma'lumot berish davrlari (fazalari) eng boshida turadi so'ng esa talabalarning harakatlari bilan almashinadi;

- talabalarning harakatlari amaliyot o'qituvchisi ko'rsatib bergan harakatlar doirasi bilan cheklangan;

- talabalar individual o'rganishga (o'zlashtirishga) yo'naltiriladilar lekin mustaqil fikrlashga haqlari yo'q;

- ish tashkillashtirishi (ish tartibi) odatda hech qanday yangicha yondashuvlarga yo'l qo'ymaydi.

### **Yo'naltiruvchi matn usuli**


Yo'naltiruvchi matn usuli o'tgan asrning 70 yillarida Germaniyada, «Daimler Benz» korxonasi tomonidan ishlab chiqarilgan. Bu usul tovush va tasvirli prezentatsiyalar bilan jihozlangan mustaqil o'rganish dasturlari shaklidagi loyihaviy kasb-hunar ta'limiga qo'shimcha sifatida ishlab chiqarilgan.

Boshlang'ich shaklida bu usul kasb-hunar ta'limi amaliyotchilari tomonidan ishlab chiqarilgan, keyinchalik esa nazariy jihatdan asoslanib ilmiy asosda takomillashtirilib oliy ta'limda qo'llanila boshlangan.

Yo'naltiruvchi matn usulida quyidagi 6 bosqich farqlanadi;

ular doirasimon harakatda almashishadi:

- ma'lumot yig'ish;
- rejalashtirish;
- qaror qabul qilish;
- amalga oshirish;
- tekshirish;
- xulosa chiqarish.



Bu bosqichlar hammasi talaba tomonidan amalga oshiriladi. Bu usulni ishlab chiqarilishiga sabab loyihalar ustida ish bilan bog'liq tashkiliy muammolar edi, chunki o'quvchilar har xil tezlikda ishlashlari tufayli butun guruh uchun instruktaj o'tkazishga qulay vaqtni topish qiyin edi. Bir talaba hammadan tez ishlab yangi ko'nikmani o'rganishga tayyor bo'lgan bo'lsa, sekinroq ishlagan talabalar uchun esa yangi instruktajning foydasi juda kam edi. Qaytaga yangi instruktaj ularning ishlariga xalal berganday yoki keragi yo'q to'xtalish kabi tuyular edi. Ya'ni talabalar qiziqishi (motivatsiyasi) qisman barbod qilinadi.

Yo'naltiruvchi matnlar yordami bilan mustaqil instruktaj imkoniyati paydo bo'ldi va har bir talaba aynan unga yangi ko'nikma uchun bilimlar kerak bo'lgan paytda shu bilimlarni olishi mumkin bo'ldi.

Eng birinchi yo'naltiruvchi matnlar - bu asli og'zaki ravishda o'tkaziladigan instruktajlarning yozma shakli edi. Lekin baribir barcha maxsus ma'lumotlar talabalarga iloji boricha og'zaki berilar edi.





Bugungi kunda esa yo'naltiruvchi matnlar shunday tuzilganki talabalar yo'naltiruvchi savollar yordamida o'zlari kerakli ma'lumotlarni (kitob, jadval, instruksiya, videokassetalar yoki kompyuter diskalaridan olib) ishlab chiqarishni o'rganishadi.

Natijada hozir yangi bir o'rgatish usuli va yangi bir o'rganishni tashkillashtirish tarzi vujudga keldi. Uning asosiy belgisi - bu o'quvchi ko'prok mustaqil ravishda o'rganishidir; amaliyot o'qituvchisi esa zaifroq talabalar bilan ko'proq shug'ullanishi mumkin bo'lib qoldi. Talabalarning mustaqil ishlashi esa o'z navbatida qo'shimcha foyda keltirmoqda: yuqoriroq ko'nikma va qobiliyatlar sohasida ya'ni birgalikda muloqotda bo'lish, birgalikda reja tuzish, qaror qabul qilish hamda o'z ishini tekshirish kabi qobiliyatlar rivojlanadi.

Komandada (birgalikda) ishlash orqali muayan ijtimoiy kompetensiyalar rivoj topadi va ularga mo'ljallangan maqsadlar ham belgilanishi mumkin bo'ladi. Ko'rib turibmizki, vaqt o'tgan sari yo'naltiruvchi matn usuli qo'llanishining ma'nosi o'zgardi chunki bugungi kunga kelib bu usul aynan o'sha «poydevor kvalifikatsiyalar» deb atalgan qobiliyatlarni rivojlantirish maqsadida qo'llanadi. Bu tushunchani Germaniyada ta'limot munozarasiga mehnat bozori tadqiqotchisi D. Mertens kiritgan. U bu tushuncha bilan asosan uslubiy kompetensiyalarni (ya'ni fikrlash, tashkillashtirish va rejalashtirish usullarini) atagan.

Hozirgi kunda esa bu tushuncha bilan shunday qobiliyatlar ko'nikma va o'zini tutish tarzlari ataladiki, ular aynan shu kasb-hunarga oid kvalifikatsiyalardan tashqari va ularga qo'shimcha sifatida barcha boshqa kasb-hunarlarda kerak bo'ladigan hatti-harakatlarni bildiradi.

4 pog'ona usuli bilan solishtiradigan bo'lsak bu usulda amaliyot o'qituvchisining faoliyati ko'proq darsdan oldin va darsdan keyin qilinadigan ishlardan iborat. Lekin bevosita instruktaj jarayonida qilinadigan ishlar emas; o'quvchilar esa qaytaga barcha davrlarda (fazalarda) mustaqil ishlashadi.



### III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

#### **1-mavzu. O'zbek musiqashunosligi asoslari, uning shakllanish davrlari, dunyo musiqashunoslik ilmini rivojlanishidagi ahamiyati.**

##### **Reja:**

1. Ibtidoiy jamiyatga oid ijod shakllari va musiqa ijodiyoti
2. Musiqiy madaniyatning rivojlanish jarayonlari
3. Qoraxoniylar davrida musiqiy-madaniy hayot (XI-XIII asrlar)
4. Ilk davlat tizimi davriga oid musiqiy ijod
5. Qadimgi Xorazm musiqa madaniyati

**Tayanch iboralar:** ibtidoiy jamiyat, musiqa cholg'ulari, dunyo, musiqashunoslik, ilk cholg'u, Markaziy Osiyo.

##### **Ibtidoiy jamiyatga oid ijod shakllari va musiqa ijodiyoti**

Ibtidoiy davr odamlarining hayot shart-sharoitlari hamda diniy qarash, e'tiqod va marosimlarining yuzaga kelishida tarixiy jarayonlarning o'rni va ahamiyati juda katta. Davrlar o'tishi bilan ibtidoiy odamlarning turli topinish va e'tiqodlar bilan bog'liq bo'lgan marosimlarning yuzaga kelishi, ularning badiiy-ijroviy xususiyatlari o'ziga xos tarzda shakllanganligini ko'rish mumkin. Bularning ovoz va qadimgi cholg'ular vositasida "ommaviy o'yin" va "yakkaxonlik" shakllarida namoyon bo'lishida shubhasiz mehnatning o'rni va ahamiyati juda katta ekanligini arxeologik topilmalar va yodgorliklar guvohlik beradi. Mazkur ijroviy shakllarning musiqiy jihatlari hamda birlamchi janr andozalari (nutqdosh ohanglar, o'yin-raqs usullari, darak beruvchi iboralar va b.)ning qaror topishi ibtidoiy odamlar orasida mulokot, so'zlashuv san'atini rivojlanishi turtki berdi. Musiqa cholg'ularining ilk shakl va turlari yuzaga kela boshladi. Ibtidoiy davr odamlari tomonidan tayyorlangan dastlabki "musiqa cholg'ulari" qadimgi davr marosimlarda hamda turmush yumushlarida musiqa qurollarining bajargan vazifalar "darak beruvchi", "o'xshatma", "jodu" va ommaviy o'yin marosimlarida usul beradigan musiqa qurollari va boshqalarni keng rivojlanganligini ko'rishimiz mumkin. Albatta, bu jarayonlar mamlakatimizdagi tarixiy yodgorliklarni saqlanib qolganligi keyingi o'rganishlar natijasida juda ko'p qimmatli ma'lumotlarni ochib bermoqda. Jumladan, Kushon xonligi Markaziy Osiyo xalqlari tarixida massaget qabilalariga mansub tohar sulolasidan birining nomi bilan atalgan. Xitoy manbalarida yozilishicha, Daxya, ya'ni Baqtriyaga ko'chib o'tgan massaget (yuechji)lar beshta vassal hokimlikka bo'lingan bo'lib, ulardan biri Guyshuan deb nomlangan.



Guyshuan so'zi «kushon» atamasining xitoycha transkripsiyasi bo'lib, u o'sha davr yodgorliklari hisoblangan tangalardagi yozuvlardan ma'lumdir. Markaziy Osiyoning janubi va shimoliy Afg'onistondagi arxeologik tadqiqotlar Yunon-Baqtriya va Kushon-Baqtriya madaniyati gullab yashnaganidan darak beradi. Dastlabki yodgorliklar Ayritom va Ko'hna Termezda o'tgan asrning 30-yillarida ochilib, 60-yillarida davom ettirilgan. Keyinchalik ko'hna Termez yaqinidagi qoratepa buddiylik ibodatxonasi, Fayoztepa, Xolchayon va Dalvarzintepa kabi ko'hna shaharchalar ochilib, nihoyat darajada yuksak bo'lgan kushon madaniyati butun dunyoga mashhur bo'ladi.

Kushon davlatiga rasman asos solgan hukmdor Kujula Kadfiz to'rtta qabilani o'ziga bo'ysundirdi va uni Kushon bekligi deb e'lon qildi. Bu davlatning dastlabki hukmdori 30 yil podsholik qildi. Kushon xonlarining eng mashhuri Kanishka hisoblanadi. U (78-123 yillar) hukmronlik qilgan davrda Kushon davlati juda qudratli davlatga aylanib, zamonasining buyuk davlatlari Rim, Parfiya va Xitoy bilan bir qatorda turgan. Hukmdor davlat poytaxtini ham Dalvarzintepadan Peshavorga ko'chiradi.

Kanishka hukmronligining oxirgi yillarida Kushon davlati juda katta hududni o'z ichiga olgan. Uning chegarasi G'arbda Orol va Kaspiy dengiz bo'ylarigacha, janubda Hind daryosining quyi oqimigacha, Sharqda esa Sinhszyanning Xo'tan shahridan Gang bo'ylaridagi Banorasgacha cho'zilgan.

Budda diniga qattiq e'tiqod qilgan podsho o'z davlatida mazkur dini rasmiy ravishda davlat dini sifatida e'lon qiladi.

Markaziy Osiyo xalqlari hayotida bu davrda katta siljishlar bo'ldi. Ya'ni, juda ham ulkan markazlashgan davlat vujudga keldi, shaharlar soni ko'paydi, savdo-sotiq aloqalari xalqaro darajaga ko'tarildi. Jonli savdo hayoti va kolonizatsion faoliyat, savodni va yozuv (xat)ni keng tarqalishiga imkon yaratdi. II asrga taalluqli mashhur "so'g'd yozuvi"dagi namuna aynan Dunxuan (Sharqiy Turkiston)dan topilgan bo'lib, u Samarqandda istiqomat qiluvchi onaning Druan (Dunxuan)da yashovchi qiziga yo'llagan xatida yaqqol isbotini topgan.

Bu xat o'sha davr Markaziy Osiyo xalqlarining yuqori darajadagi madaniy hayoti, jumladan, ayollarning savodliligi va mustaqilligidan dalolat beradi. Bu davrda kushon yozuvi ham paydo bo'lib, u yunon alifbosiga asoslangan edi. Mazkur yozuvni o'sha davrning tangalari, muhrlari va turli buyumlarida uchratish mumkin. Ta'kidlash joizki, bir necha yozuv tizimining mavjud bo'lgani (oromiy, sug'diy, xoraz kabi ajdodlarimiz asrlar davomida musiqaning qudratiga ta'sinlar o'qiganlar, o'z munosabatlarida, mehnat faoliyatlarida, hayotda undan bahramand bo'lganlar. Ezgu niyatlarini amalga oshirganlar.

Endilikda musiqaning jozibali, husnkor ko'lami, uning mavqei yanada kengaydi, jamiyatda tutgan o'rnini mustahkamladi. Musiqa mamlakatimizda



katta tarbiyaviy imkoniyatlarga ega bo'lgan mustaqil sohadir. O'quv tarbiya jarayonida musiqa yosh avlodga ahloqiy-estetik tarbiya berishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi, ta'lim jarayonining bir qadar jadallashuvi samaradorligi unga bog'liq.

Musiqiy jihatdan savodxonlikka ega bo'lishning aniq maqsad hamda vazifalari mavjud. Bu maqsad va vazifalarni amalga oshirishda mavjud ilmiy va uslubiy yondashuv muayyan yo'nalishni belgilaydi. Musiqani o'zlashtirish, tinglash, ijro etish va undan hayotda manfaatdor bo'lish insoniy madaniylik bilan uyg'unlashib ketadi.

Xalqimiz yaratgan durdonalarning biri hisoblangan musiqa har sohada, chunonchi, ta'lim – tarbiyada, mehnatda va ijtimoiy munosabatda ma'lum darajada o'z ifodasini topadi. Murg'ak go'dakdan tortib to nuroniy qariyalargacha, san'at ne'matlaridan bahramand bo'ladi, ertangi kunning yanada porloq bo'lishi uchun kurashadi.

Shunday ekan, musiqa ongli faoliyat, samarali mehnat, samimiy munosabat hamda mo'tadil kayfiyat garovi bo'la oladi. Musiqa kundalik hayotimizga qanchalik singib borsa, hayotimiz shunchalik zavqli va mazmunli o'tadi. Budda diniga qattiq e'tiqod qilgan podsho o'z davlatida mazkur dinni rasmiy ravishda davlat dini sifatida e'lon qiladi. Markaziy Osiyo xalqlari hayotida bu davrda katta siljishlar bo'ldi. Ya'ni, juda ham ulkan markazlashgan davlat vujudga keldi, shaharlar soni ko'paydi, savdo-sotiq aloqalari xalqaro darajaga ko'tarildi; jonli savdo hayoti va kolonizatsion faoliyat, savodni va yozuv (xat)ni keng tarqalishiga imkon yaratdi. II asrga taalluqli mashhur "so'g'd yozuvi"dagi namuna aynan Dunxuan (Sharqiy Turkiston)dan topilgan bo'lib, u Samarqandda istiqomat qiluvchi onaning Druan (Dunxuan)da yashovchi qiziga yo'llagan xatida yaqqol isbotini topgan. Bu xat o'sha davr Markaziy Osiyo xalqlarining yuqori darajadagi madaniy hayoti, jumladan, ayollarning savodliligi va mustaqilligidan dalolat beradi. Bu davrda kushon yozuvi ham paydo bo'lib, u yunon alifbosiga asoslangan edi. Mazkur yozuvni o'sha davrning tangalari, muhrlari va turli buyumlarida uchratish mumkin. Ta'kidlash joizki, bir necha yozuv tizimining mavjud bo'lgani (oromiy, sug'diy, xorazmiy, yunon, kushon) – Kushon xonligi tarkibiga kiruvchi xalqlarning yuksak darajadagi madaniyatining yana bir karra isbotidir.

Kushon saltanati umuman qadimgi Markaziy Osiyoning iqtisodiyoti, madaniyati va san'ati gullab-yashnagan davriga to'g'ri keladi. Bu davrda xalqaro savdo-sotiq keng rivojlangan, yangi shaharlar barpo bo'lgan. Ammo endi jarayon ellinistik yo'nalishda emas edi. Ya'ni, madaniyat va san'at sharqiy, ellinistik, hind va ko'chmanchilar an'anasining sintezidan tashkil topgan yangi kushon yo'nalishiga asoslandi. Bu davrdan qolgan ko'plab me'moriy obidalar va haykallar

Shimoliy Hindistonda, qobulning vodiy tumanlarida, Baqtriyada, Amudaryoning shimoliy va janubiy qirg'oqlarida saqlangan. Hindiston va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi madaniy aloqalar, meloddan avvalgi III asrda xind imperatori Ashok tomonidan buddizm davlat dini sifatida tasdiqlangandan so'ng yanada kuchaydi. Umuman Kushon madaniyati qadimiy tomirga ega joylarda, yangi omillar, yangi odamlar ta'sirida rivojlangan, Yunon-Baqtriya xonligi madaniyatining davomchisi hisoblanadi. Shuni ham aytish kerakki, o'z navbatida kushon san'ati boshqa xalqlar madaniyati bilan uzviy bog'langan holda, ular, xususan Hindiston madaniyatida o'zi ham chuqur iz qoldirdi (Taksila va Matura yodgorliklari); shuningdek, Sharqiy Turkistonda Kuchi va Karashara freska va haykallari; alaniya muhiti orqali ta'sir etilgan Sharqiy Evropa madaniy yodgorliklari so'zimizga yorqin dalil bo'lishi mumkin.

Mamlakatimizning janubiy xududlarida 1932 yili qadimshunoslar tomonidan olib borilgan arxeologik qazilmalar jarayonida Termiz yaqinidagi eramizning I-II asrlariga mansub Ayritom shaharchasidan ibodatxonaning tashqi devor peshtoqlariga o'rnatilgan, sarg'ish oqtoshdan ishlangan haykallar topildi. Toshga o'yib ishlangan, beliga akaif yaproqlari bog'lagan 14 nafar odam qiyofasi tushirilgan bu peshtoqda musiqachi va girlyandachilar tasvirlangan. Bunday manzara antik davr O'rta Sharq tasviriy san'atida juda keng tarqalgan. Peshtoq to'liq saqlanmagan, faqatgina 8 ta bo'lagi topilgan holos. Shuningdek, ayrim qiyofalar o'z shaklini yo'qotgan bo'lib, ular musiqachimi, girlyandachimi ajratib olish qiyin. Musiqachilar soni 5 ta ekanligi aniq bo'lib, qolgan 3 ta qiyofani aniqlash mushkul. Shuning uchun mana shu 5 ta musiqachi qiyofasi nisbatan batafsil o'rganilgan. Ammo qadimiy bu kvintet (beshlik)ni to'liq tarkib, deya aniq aytish qiyn.

Ayritom peshtoqida tasvirlangan orkestrning 2ta torli musiqacha cholg'usi — kichik burchakli, to'qqiz torli (balki o'n uch torlidir) arfa va to'rt torli do'mbira, shuningdek, bitta qush avlos va 2 ta zarbli cholg'u - nog'ora (baraban) va kimvalsimon asbob. Bu erda qat'iy ansambl uslubi saqlanganligi shubxasiz, ya'ni, cholg'ularning barcha asosiy (torli, damli, zarbli) guruhlaridan foydalanilgan. Shuni ham aytish joizki, har bir guruhda bir-birini o'zaro to'ldiruvchi va murakkab, jozibali oxanglarni taratuvchi turli xil cholg'ular jamlangan. Shuningdek, zarbli cholg'ularning ham har xili ishlatilganligi e'tiborlidir. Aftidan bu girlyandalar bilan bog'liq bo'lib, harakat, yurishni anglatgan.

Girlyandalar – shunchaki bezak bo'lmay, balki butun kompozitsiyaning ma'lum ma'nosini anglatadi. Ya'ni, girlyandachilar musiqiy cholg'ular sadosi ostida odimlaganlar. Va aftidan bu yurishlarda raqs unsurlari ham qo'llangan. Bunday tantanani boshqarish harakatini tartiblashtirish uchun esa bir qator qo'l bilan ijro etiluvchi, shaklan uncha katta bo'lmagan zarbli asboblardan kerak bo'lgan.



Mana shunday musiqa sadolari ostida girlyandalar bilan yurish an'anasi Ayritom peshtoqlarida o'z ifodasini topgan.

Yana bir hudud. Xorazm vohasining bu davrga oid tarixi esa juda noaniq. Ammo bu davrda Xorazm shohlarining tangalari o'rmini kushonliklar tangasi egallashiga qaraganda Xorazm Kushon imperiyasi tarkibiga kirgan, deb faraz qilish mumkin. Eramizning III asrlarida Xorazmda mahalliy shohlarning tangalari zarb qilinishi va kushon tangalarining siqib chiqarilishi Xorazmning ilgarigiday mustaqillikka erishganligini ko'rsatadi.

Kushon imperiyasi davrida din, me'morchilik va san'at sohasida ro'y bergan o'zgarishlar Xorazm madaniyatiga ham ta'sir etdi. Shuningdek, qadimgi Baqtriya (Ayritom yodgorligi), Tohariston (Surxondaryo viloyatining Angor tumanidagi Bolaliktepa yodgorligi) madaniyati ham gandhar san'ati an'alarining bevosita ta'siri ostida taraqqiy qilgan. Natijada Xorazmda uchraydigan kushon davri haykalchalarining ko'rinishi ancha o'zgaradi. Endilikda haykalchalardagi kiyim va bezaklar kangyuy davrinikiday serxasham bo'lmay, unda gandhar san'atining ta'siri sezilib turadi. Yangi turdagi haykalchalar hind kiyimlaridagiday ancha eri ochiq bo'lib, bu hol uning budda obrazlari bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Xorazmning kushon davriga oid ma'naviy-madaniy yodgorliklari juda boy va ajoyibdir. Jumladan, 1945-1950 yillar mobaynida olib borilgan eramizning III-IV asriga oid Tuproqqal'a saroyining qazish ishlari vaqtida juda ko'p sonli devoriy yozuvlar topilgan bo'lib, ular orasida uchta musiqiy cholg'uning tasviri ham aniqlangan. Bular: oltita torli kichik arfa, ikkita torli kichik udsimon cholg'u va qumsoat shaklidagi ikkiyoqlama zarbli cholg'u, shuningdek, ushbu uchta cholg'uga monand uchta musiqachi ayollar tasviri tushirilgan. Sozandalardan biri bo'lgan, arfa chalayotgan ayol tasviri juda mashhur bo'lsa, qolgan ikkitasi esa deyarli hech qaerda chop etilmagan.

Sopol idishlarga tushirilgan tasvirlarda sakkizta cholg'u ushlab turgan sozandaning qiyofasi va sopol xumdon devorining bir tomoniga bir rel'efli tasvirlar ishlangan. Barcha haykalcha va rel'eflar turli davrlarga mansub bo'lib, meloddan avvalgi IV-III asrlardan eramizning I asrigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Har bir haykalchaga bittadan musiqiy cholg'u tasviri to'g'ri kelib, rel'eflarga ham shunchadan tasvirlar tushirilgan. Shunday qilib, jami 9 ta cholg'u asbobi mavjud ekanligi yaqqol ko'rinib turibdi. Ularning barchasi turli cholg'ular guruhiga mansub. Torli guruhlarda to'qqiz torli, burchakli arfa, besh torli kifara, to'rt torli udsimon cholg'u va oltita, ikkitorli dutorni eslatuvchi, rezonator shakli bo'yicha ikki kichik guruhga bo'linuvchi sozlar mavjud.

Ikkita haykalcha va rel'efdan tashqari bu sopol idishlardagi tasvirlar chop etilmagan. 1909 yili Xorazm atrofidan topilgan Anikov kumush idishini esa bir qator tadqiqotchilar qadimiy Xorazm torevtikasi asarlariga oid deb hisoblashadi.



Mazkur idishda o'linga mahkum etilganlar qal'asi, ossuariyadan olib chiqilayotgan muqaddas Siyovush hoki tasvirlangan. Bu marosim esa roga (shohsimon soz) sadolari ostida kechayotgani ham ma'lum bo'ladi. Sozandalar etti kishidan iborat bo'lib, ularning uchtasi bir tomonda, to'rttasi ikkinchi tomonda joylashgan. Ular chalayotgan damli asboblarning barchasi chaqiruvchi (signal) tur bo'lib, ularning hajmi, tuzilishi, ijro etish uslublari ham bir xil. Shunday qilib, qadimiy Xorazm musiqiy cholg'ularining jami turi 19 tani tashkil etadi: 11 ta torli, 7 ta damli va 1 ta zarbli sozlardir.

Birinchi guruh cholg'ulari keng va turlicha namoyon etilgan. Bu guruhga kiruvchi musiqiy cholg'ular tarixan ikkita aniq tabaqaga ajraladi. Ular, o'zining kelib chiqishi bilan janubiy erli, dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi tumanlarga tegishli turi va adirli ko'chmanchi qabilalarning musiqiy turmush sharoitiga oid cholg'ular turidir.

Birinchi tabaqa cholg'ulardan eng e'tibor tortgani – bu katta va kichik burchakli arfalar bo'lib, qadimda ular Markaziy Osiyo hududida keng tarqalgan, ammo keyinchalik muomaladan chiqqan.

Antik davrda Xorazmning burchakli arfasi ikki toifaga bo'lingan: katta burchakli va kichik burchakli. Markaziy Osiyo (burchakli) arfalarining mashhur bo'lgan barcha turlari, jumladan, Ayritom peshtoqidagi arfa (meloddan avvalgi II asrdan eramizning I asrigacha davr oid) va Tuproqqal'a arfasi (eramizning III asriga mansub) kichik burchakli arfalar toifasiga kiradi. Qo'yqirilgan qal'adagi katta burchakli arfa tasviri (eramizdan avvalgi IV-III asrlar) – Markaziy Osiyoda hozirgi kungacha topilgan yagona namunadir. Bundan tashqari, mazkur tasvirlar umuman Markaziy Osiyo arfasining eng qadimiysi hisoblanadi. Ta'kidlash kerakki, har ikki holatda ham Xorazmning yuksak musiqiy madaniyatga ega bo'lgan mamlakat ekanligi birinchi o'rinda turadi.

Katta va kichik arfalarining tuzilishi (konstruksiyasi) bir-biridan deyarli farq qilmaydi. Bu erdagi farq, cholg'uning hajmi, ijro etish uslubi, akustik sifatlari va aniq bir vaziyatda u yoki bu arfaning qo'llanilishidir.

Markaziy Osiyo arfalari, xususan, katta va kichik, burchakli (arfa)larning musiqiy sozi haqida aniq bir dalilni ko'rsatish qiyin. Ammo bu sozni aniqlashning yagona imkoniyati bu A.V.Machinskiyning qadimgi Misr arfalari bo'yicha o'tkazgan ishonarli dalillar asosidagi tadqiqotidir. Ya'ni, bu olimning ishlariga tayangan holda muayyan aniqliklar kiritish mumkin; jumladan, katta va kichik, burchakli Xorazm arfalarining korpusi ikki qismdan iborat edi: rezonator va torlar mahkamlanadigan maxsus joy bo'lib, ular bir-biri bilan bir tekisda bir burchak ostida birlashgandir. Cholg'ular faqatgina yog'ochdan yasalgan. Rezonator – 4ta uzun, silliq tayoqchadan iborat bo'lib, o'z navbatida bu tayoqchalar qiyshiq, uzun qovurg'alar bilan shunday qo'shilganki, natijada to'rtburchakli korpus hosil bo'lib,



uning pastki, ingichka qismiga sim(tor)larni ushlagich mahkamlangan. Qarama-qarshi tomonlari esa rezonatorning ichki dekasiga biriktirilgan. Rezonator va tor ushlagichning qo'shilish uslubi xaqida bir narsa deyish qiyin.

Bu cholg'ular sim(tor)larining umumiy soni 9 ta va 6 ta bo'lgan: Qo'yqirilgan qal'adan topilgan arfa tasvirida ular 9 ta bo'lsa, Tuproqqal'a arfasida 6 tani tashkil etadi. Ayritom arfasidagi 9 ta tor yaxshi tasvirlarda berilgan; Shopurning (eramizning III asri mansub) katta, burchakli arfasida torlar soni 6 tadan iborat.

Torlar ichakdan va jilkadan tayyorlangan. Arfalar jarangi (tembri) bir xil bo'lmagan: kattalari - qattiq va past (registr), kichiklari - jarangdor va yuqori (registr) tovushli. Arfalar o'tirgan, tik turgan va yurgan holatlarda ijro etilgan. Hamma vaziyatda ham cholg'uni ushlash holati bir xil bo'lgan. Ya'ni, arfa rezonatorining enli tomoni doimo yuqoriga qaratilgan holda ijro etilgan. Tik turgan holdagi ijro vaqtida arfani oldinda, burchagini belga tiragan holda yoki o'ng qo'l bilan ushlab, chap yonga qistirgan holatda ijro etilgan. Arfaning o'tirgan holda ijro etish usuli biroz boshqacharoq: ya'ni, cholg'u odatda ijrochining chap yoniga qo'yiladi va chap qo'l bilan ushlab ijro etiladi. Cholg'u korpusi chap yonga va chap elkaga tirab turiladi.

Kichik arfani odatda chap tomondan yuqoriga ko'targan holda (bunda cholg'u chap qo'l bilagi bilan chap yonboshga tiralgan holatda) ijro etiladi. Ma'lumki, musiqiy cholg'ular o'zlarining juda ham bejirim tashqi ko'rinishlari bilan ajralib turgan. Hattoki, agarda cholg'u juda kamtar ko'rinishda bo'lsa, u holda sozni turli bo'yoqlar bilan bezatishgan. Bu uslub cholg'uning nafaqat tomoshabinga estetik zavq berishi uchun, balki o'zgacha maqsadlarni ko'zlab ham qo'llanilgan. Masalan, avvalambor cholg'uning akustik sifati yaxshilangan; ikkinchidan cholg'u materiali (yog'och) tez urilmagan (charchamagan) va bundan cholg'uning umrini uzaytirish kabi muammo echimi topilgan deyish mumkin.

Tuproqqal'aning kichik, burchakli arfasi qizg'ish-jigarrangga bo'yalgan. Xuddi shunday tarzda Panjikent arfalari ham bo'yalgan. Dalil tariqasida muayyan manbalarni keltirish mumkin. Jumladan, Tan davrida yashagan Xitoy shoiri Bo Szyuyi o'zining "Chjehji raqqosasi" ("Chjehji" - Markaziy Osiyo, aniqrog'i toshkentcha raqs bo'lib, u Xitoyga keltirilgan) nomli shahrida aynan turli bo'yoqlarga bo'yalgan cholg'u xaqida ma'lumot beradi.

Umumiy xulosa shuki, Kushonlar xukmronligi davri Markaziy Osiyo tarixida o'chmas iz qoldirdi va katta ahamiyatga ega bo'ldi. Sharq va G'arbga qatnab turgan elchilar va karvonlar bilan birga madaniy an'analar ham kirib keldi. Bu an'analar mahalliy madaniy jarayonlar bilan aralashib o'ziga xos Kushon madaniyati va san'atining paydo bo'lishiga olib keldi. Kushon madaniyati o'z navbatida qadimgi Sharq va G'arb madaniyatida chuqur va o'chmas iz qoldirdi.





Kushon saltanatining inqirozi III asrdan boshlanib, natijada ikkita siyosiy markaz – Peshavorda, boshqasi So'g'dda paydo bo'ldi. V asrning yarmida esa Markaziy Osiyoda Kushon xonligining o'rniga kelgan mahobatli Eftalitlar saltanatining shakllanishi o'z nihoyasiga etdi.

### **Musiqiy madaniyatning rivojlanish jarayonlari**

Eramizning IV asriga kelib Markaziy Osiyoda quldorchilik tizimi asta-sekin feodal tizim bilan almashadi va Markaziy Osiyoda yashagan turklar o'z davlatining so'nggi qismini hoqonlik deb atay boshladilar. Ana shu vaqtdan boshlab, turklar bilan maxalliy Sharqiy Eron xalqlarining qo'shib yashash jarayoni boshlanadi. IV-VII asrlargacha bo'lgan davr, Movaraunnahr (Varzrud)ning arxeologik va yozma manbalari guvohlik berishicha, madaniyat va san'at turlarining, jumladan, musiqaning yuqori darajada rivojlangani bilan ta'riflanadi. Qadimiy Panjikent, Samarqand va boshqa shu kabi shaharlarning uylari va saroylari devorlarida Movaraunnahr (Varzrud)ning islomgacha bo'lgan davriga mansub ud, rubob, nay, karnay va arfa cholg'ularida ijro etayotgan musiqachilar qiyofasi tasvirlangan. Xususan, Panjikent sag'analaridan (xram) birining devorlarida arfa chalayotgan ayol xudo tasviri tushirilgan ekan.

Umuman bu davrga mansub ud, rubob nay va skripka (g'ijjak) chalayotgan ayol xudolar tasvirlari tosh haykallar, kumush idishlar, xumdonlar, terrakotalarda aks ettirilgan. Mavjud manbalarning guvohlik berishicha, bu davrda Movaraunnahrning musiqa va raqs san'ati Xitoyda ham juda mashxur bo'lgan. Xitoylik san'at ustalari Movaraunnahrlik san'atkorlarga hattoki hasad qilishar ekan. Xususan, So'g'd musiqachilari o'z kasbining ustalari sifatida doimo izzat-ikromda bo'lganlar. Buxorolik sahnaviy tomosha ustalari, samarqandlik naychi sozanda, xo'tanlik surnaychi sozanda va toshkentlik raqqos; shuningdek, Darvazalik, Keshlik (Shaxrisabz), Maymurglik va Samarqandlik qizlardan Xitoy imperatori Syuano-Szuna saroyida "g'arblik qizlar" nomli ansambl tuzilgan bo'lib, hukmdor ularning raqsini juda sevib tomosha qilgan. Uning ayoli Yani Rokshan esa bu raqsni qiziqib o'rgangan ekan. Raqslar zarbli cholg'ular (baraban), ud va yonlama nay (fleyta)lar jo'rligida ijro etilgan ekan. Manbachilar Movaraunnahr san'atkorlarining bir necha raqslerini ta'riflaganlar: jumladan, "Chapdastlar" raqsi bir guruh raqqoslar tomonidan ijro etilgan bo'lib, raqs o'zining nafis harakatlari bilan ajralgan; ikkinchi raqs "g'ayratli, shijoatli" deb nomlansa, uchinchi "g'arbcha sakrama raqs" deb atalgan ekan. So'nggi raqs turini o'g'il bolalar ijro etishgan. Barcha raqslar milliy liboslarda namoyish etilgan.

O'smirlar va qizlarning qo'shiq jo'rligidagi zamonaviy lapar uslubiga yaqin raqslari ham bo'lgan ekan. 1984 yil qashqadaryo viloyatining Yakkabog' tumanida olib borilgan arxeologik qazilma ishlari jarayonida o'tgan mayitlar hoki

saqlanadigan ossuariy (xonqa)lar topilgan edi. U (ossuariy) to'g'ri to'rt burchakli quti shaklida bo'lib, eramizning VI-VII asrlariga taalluqli ekanligi aniqlanadi. Ossuariy Markaziy Osiyoda islom davrigacha bo'lgan dafn marosimlari bilan bog'liq. Ossuariya devorlariga to'liq bir kompozitsiyani namoyon etuvchi relef shaklidagi tasvirlar tushirilgan. Bu tasvirlar juda qiziqarli bo'lib, ilk o'rta asrlarga oid Markaziy Osiyodagi musiqiy ijrochilik xususidagi tasavvurlarni uyg'otadi. Ossuariyadagi arkalar ostada to'rt qo'lli ilohiy erkak va ayollar raqsga tushayotgan holat tasvirlangan. Ya'ni, bu erda qo'lga quyoshli disk va yarim oyni ushlagan ayol qiyofasi, torli cholg'uda chalayotgan erkak siymosi aks ettirilgan bo'lib, uning (erkakning) yuqorigi qo'llari esa qandaydir qush qo'ndirilgan temir baldoq va doira (buben)ga o'xshash disk ushlagan holat. Taxmin qilish mumkinki, Markaziy Osiyoda bu ilohiy juftlik o'sha davrda juda ardoqlangan.

Tasvirdagi ilohiy erkak qo'lidagi musiqiy cholg'u uzun ingichka dastali va kichkina bodomsimon ko'rinishdagi kosaxonaga ega bo'lib, torlarining soni aniq emas. Bu cholg'uchining oyoq tomonida o'ngdan burchakda tasvirlangan qo'lga katta udsimon cholg'u ushlagan sozanda ayol. Uning boshi yonidan yon tarafdin ko'rinadi. Yuzi dumaloq, bodomqovoq ko'zli, to'g'ri burun va kichikina dudoqli. Chap qo'lida pastga qarata cholg'u ushlagan, o'ng qo'lida esa ovoz chiqaruvchi noxun (plektr) tasvirlangan. Tasvirdagi ud kosaxonasining quyi qismi yumaloq bo'lib, qattiq tortilgan, go'yoki oxirgi qismiga qaytarib birlashtirilgandek. Cholg'uning ikkita tori aniq ko'rinadi. Ossuariyaning chap tomonidan burchaqda ayol xudo oyoqlari ostida musiqachilarning kichikina qiyofasi tasvirlangan. U ayol xudoga qarab o'tirgan holatda. Musiqachining egnida yaktak va shalvar u damli cholg'u ushlagan bo'lib, cholg'uning ko'rinishi kichik karnayni eslatadi. Musiqachi sozni chap qo'lining ustki qismiga yaqin holda ushlagan. Og'zining yaqinida esa o'ng qo'lining kafti bilan ikkinchi cholg'uning mundshtuk qismini ushlagan. Asbobning oxiri kengaytirilgan shoxsimon ko'rinishda. Aftidan sozanda bu asboblarda navbatma-navbat ijro etadi. O'ngdan esa ayol xudonipg oyoq tomonida boshqa sozanda joylashgan bo'lib, u chordana qurib o'tiribdi. Bir-biriga temir sim bilan birlashtirilgan ikkita nog'ora bo'lib, ularning biri sozandaning tizzasi to'g'risida, ikkinchisi esa ko'kragi to'g'risida joylashgan. Musiqachi cholg'uni ikki qo'l barmoqlari bilan chalmoqda. Erkak xudo qo'lidagi cholg'uni udsimon sozlar guruhiga mansub deyish mumkin (uzun udlar (lyutnya)). Uning kosaxonasi juda kichkina (kaftdek) bo'lib, dastasi uzun va ingichka. O'ng qo'l holati ovoz chiqarish asnosida; dastaning yuqorigi qismi chap qo'lning ochiq kaftida.

Juda uzun dastali, kichik kosaxonaga ega udlarni (masalan, Nisodan topilgan Parfiya ritonlari peshtoqlaridagi tasvirlar) taniqli musiqashunos olimi T.S.Vizgo tanbursimon cholg'ularga oid ekanligi haqida o'zining fikrlarini bayon etgan.



Udning bunday turi kelib chiqishi jihatidan juda qadimiy davrlarga borib taqaladi. Ammo ularda ikkita tori bor. Tasvirlardagi mashshoqlar qo'lidagi bu cholg'ular ko'rinishi hozirgi tanburlarga ham mutlaqo o'xshamaydi. Sozandalar qo'lidagi uzun dastali g'ijjak kosaxonasiga o'xshash yumaloq rezonatorli cholg'ular tasviri Xorazmning Tuproq qal'asidan topilgan edi.

Uzun ingichka dastali, kichik kosaxonali chertma tanbur bizning davrgacha saqlangan. Markaziy Osiyodagi ilk o'rta asrlarga mansub bo'lgan torli-chertma sozlar toifasi rang-barangligi tadqiqotchilar tomoidan ta'kidlangan. Ossuariya tasvirlaridagi cholg'ular esa qadimiy sozlarning yana bir turidir. Tasvirdagi Xudoning yuqorgi qo'llaridan birida aftidan doira (buben) tasvirlangan. Doiraning so'g'dda VII asrdan boshlab qo'llanilishi xitoylik sayohatchi ma'lumotlaridan ayon bo'ladi. Musiqachi ayolning qo'lida ud cholg'usining boshqa turi tasvirlangan. Cholg'uning noksimon shakldagi kosaxonasi uni 4,3 yoki 2 torli So'g'd udlari (R.A.Sadokov bu guruhni So'g'd-Baqtriya – Marv guruhi, deb ataydi) guruhiga mansub deyishga asos bo'ladi. Udchi sozandalar So'g'd (Samarqand) terrakotalarida ayniqsa keng miqyosda o'z ifodasini topgan. Bu vaziyatda ular cholg'uni qo'l bilan va noxun (plektr) bilan chalayotganlari ko'rsatilgan. Ud ijrochiligining qashqadaryo vohasida ham keng tarqalganligiga bu erdan topilgan udchi sozanda ayol haykalchasi guvohlik beradi. Ayol cholg'uni Ossuariya tasvirlaridagi kabi kalta noxun (plektr) bilan chalmoqda. Cholg'uning bosh qismi pastga qaratilgan, ammo shakli va torlar sonida farq kuzatiladi.

Yuqorida qayd etilgan tasvirlardan biri, ya'ni bir vaqtning o'zida 2-ta musiqa asbobini (to'g'ri va shoxsimon cholg'ular) ushlagan sozandalarning bu cholg'ulari aftidan karnay turiga mansub bo'lsa kerak. Boisi ularda cholg'u teshikchalari mavjud emas. Surnay, karnay singari damli cholg'ular tasviri Markaziy Osiyo san'atining turli yodgorliklari orqali mashhurdir. Shox karnay (truba) yoki shoxsimon karnaylar kamroq uchraydi. Ular Annikov idishi orqali mashhurdir. Nog'ora (baraban) singari zarbli cholg'ular esa Markaziy Osiyo va hind antik davri hamda ilk o'rta asrlar san'atida keng tarqalgan bo'lib, ular ikkiyoqlama qumsoat shakliga ega. Ammo ularning tuzilishi (konstruksiyasi) turlicha bo'lgan. Ya'ni ular bir yoqlama, idishsimon va xumsimon shaklda bo'lgan. Ossuariyada tasvirlangan nog'oralar rezonatorini tiklashning iloji yo'q. Boisi, tasvirda ularning ustki tekisligi ko'rsatilgan. Ularni qo'sh nog'oralar toifasi deyish mumkin. Bunday nog'ora turi ossuariyadan tashqari boshqa manbalarda ham, tasvirlarda ham uchramaydi. Aftidan bu o'ziga xos, qo'sh urma cholg'u bo'lib, ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyo musiqa madaniyatida ilk bor namoyish etilgandir.

Karnay (shoxsimon truba) va nog'oralar ochiq havoda ijro etilishga mo'ljallangan bo'lib, sport o'yinlari, ov qilish, bola tug'ilishi haqida xabar berish uchun; shuningdek, shodlik hamda ziddiyatli vaziyatlardan ogoh etishda



qo'llanilgan. Karnay, surnay, nog'ora cholg'ularidan **an'anaviy** ansambl sifatida ham keng foydalanilgan.

Ansambl boshqacha ko'rinishini ossuariya tasvirlaridan kuzatish mumkin. Bu tarkib ud, tanbur va doira kabi cholg'ulardan iborat bo'lib, ularga erkak xudosining raqsi jo'r bo'ladi. Aftidan, ayol xudolarga erkak musiqachilar jo'r bo'lishadi, erkak xudolarga esa sozanda ayollar jo'rnavozlik qilishadi. II-IV asrlarga oid Tuproqqalao devoriy tasvirlarida qanotli musiqachilar aks ettirilgan (ular qo'llariga burchakli arfa, g'ijjak, kimvala, chang, doira va nog'ora ushlagan holatda) bo'lib, taxminlarga qaraganda ular joylashgan bino marhum hukmdorlarni xotirlash marosimlarini o'tkazishga mo'ljallangan; shuningdek, bu erda o'lib, yana qayta tiriluvchi xudolar obrazi bilan bog'liqlik mavjud bo'lib, mazkur vaziyatda cholg'ular diniy marosim timsoli sifatida ifodalangan. T.S.Vizgoning fikricha bu foni hayotga chaqirilgan musiqachilar timsoli, ularning epik qahramoni va mifologik xudolar kabi juda qadrlanganidan dalolatdir. Bayon etilayotgan ossuariyadagi musiqachi bu urush xudosining o'zi bo'dib, qo'lidagi cholg'ular uning timsollaridir. Tasvirda xudolar raqsiga ularning oyoq tomonlarida joylashgan musiqachilar jo'r bo'lishmoqda. Xudolarning raqs holati ikki xil ma'noni anglatadi. Ya'ni, tabiatning abadiy almashinuvi bilan bog'lik; xudolikning koinot raqslari va shuningdek, motam marosimi bilan bog'liq raqsar.

To'rtqo'lli ayol xudoning Panjikentdagi devoriy tasviriga binoan u, dafn etish marosimi sahnasida ishtirok etayotganligi ma'lum bo'ladi. Va umuman musiqa shartli ravishda barcha dafn marosimlarida doimiy jo'r bo'lgan. qolaversa, motam yig'ilari hozirgi kungacha o'zbek xalq musiqasi janrlaridan biri sifatida saqlangan. Shuningdek, qadimda motam raqslari ham keng tarqalgan bo'lib, ularning unsurlari yaqingacha Samarqand va Yuqori Zarafshon vodiysi tojiklari **an'analarida** saqlangan edi. Shunday qilib, qashqadaryo vohasidan topilgan ajoyib ossuariyada go'yoki ikki xil ansambl tasvirlangan. Musiqachilar qo'lidagi cholg'ular esa shubhasizki, musavvir yashagan davrdagi sozlardir. Mazkur san'at obidasi ilk o'rta asrlar davrini namoyon etib, musiqiy ansambllar cholg'ularini o'rganishda ham juda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, u qadimiy Markaziy Osiyo musiqa madaniyati tarixiga yangi chizgilar kiritadi.

Ushbu madaniy yodgorliklardan ma'lum bo'ladiki, bu davrda mifologiya, dostonchilik **an'analar** keng tarqalgan. Xususan Abulqosim Firdavsiyning jahon adabiyoti durdonalaridan biri bo'lmish "Shohnoma" asarida tarixdagi dastlabki shohlar – qayumars, Hushang, Tahmuras, Jamshid, Zahhok haqidagi qissalar; Zol va Rudoba haqidagi romantik doston, Suhrob va Siyovushlarning qahramonlik qissalari, Rustami Dostonning ajoyib sarguzashtlari; shuningdek, Kayxusrav podsholigi, Bejan va Manija dostoni, Isfandiyorning etti jasorati, Iskandar haqidagi



doston, Bahrom Go'r, Xusrav Parvez va uning saroy musiqachisi Borbad xaqidagi qissalar bayon etiladi.

Butun Sharqqa tanilgan va keyinchalik sharq adabiyoti namoyandalari asarlarida tasvirlangan Markaziy Osiyoning yirik sozanda va xonandasi, yuzlab kuylar ijodkori Borbadning nomi musiqa olamida muhim ahamiyat kasb etadi (Buyuk san'atkor ijodiy faoliyatiga keyingi mavzuda alohida to'xtalamiz). Borbad VII asr boshlarida Eron sosoniylari sulolasidan bo'lgan shoh Xusrav Parvez saroyida xizmat qiladi. Bu tarixiy davrda mahalliy aholi turklar musiqiy hayotining ba'zi unsurlarini meros qilib olganlar. Natijada esa xalq ijodi va mahalliy ustozona **an'analar** kelajakda og'zaki **an'anadagi** yirik mumtoz asarlar yaratilishi uchun asos bo'lib xizmat qildi. Ayrim keng tarqalgan maqom kuy tuzilmalarining turkcha, masalan, "avji turk" deb atalishi ham bejiz emas. Shunday qilib, bu davr musiqa san'ati nafaqat tarixiy, balki tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, kelajak avlodlarga bebaho maonaviy durdonalarni meros qilib qoldirdi.

### **Qoraxoniylar davrida musiqiy-madaniy hayot (XI-XIII asrlar)**

Movarounnaxrda XI asrga qadar ko'plab turkiylar yashagan. Ular Shosh va Farg'onada ko'proq, Zarafshon va Qashqadaryo daryolarining vodiylarida kamroq edi. Ya'ni, Farg'onada turkiy-qarluqlar, Shoshda turkiy-o'tuzlar ko'proq bo'lgan. X asrda turkiylar oilasi islomni qabul qilishdi va Forob, Shosh oralig'ida o'troqlashdi. Bular turkiy o'g'uzlar bo'lsa kerak. Chunki, ular ta'sirining kuchli ekanligi o'zbek xalq og'zaki ijodidan ham sezilib turadi. O'zbek xalq og'zaki ijodida o'g'uzlar hozirgi o'zbek xalqining ajdodlari qatorida tilga olinadi.

X asrning 2-yarmida qoraxoniylar davlati tarkib topdi. Yangi tashkil topgan davlatpiig birinchi boshlig'i "bo'kraxon" (ya'ni podishoh) deb atoluvchi davlat unvoniga ega bo'lgan, boshqa erlariga bosqinchilik yurishlari boshlandi.

Soliq zulmidan azob chekkan dehqonlar Somoniylar hokimiyatidan norozi bo'lishdi. Eski dehqon zodagonlari markazlashgan amirlik hokimiyati bilan kelishishni xohlamadi. 992 yili Bo'g'raxon dehqonlarning talabi bilan Movarounnahrda keldi va bosib oldi. 999 yili qoraxoniylar Buxoroni qo'lga kiritdilar. Avvalambor, markazlashgan davlat tuzumi butkul quladi. 1001 yili qashg'ardan Amudaryoga qadar cho'zilib, Sharqiy Turkistonni bir qismi, Yettisuv, Shosh, Farg'ona va qadimgi So'g'diyona hududini o'z ichiga olgan qoraxoniylar davlati bilan Shimoliy Hindistondan qariyb Kaspiy dsngizining janubiga qadar cho'zilib, hozirgi Afg'oniston va shimoliy-sharqiy Eronni o'z ichiga olgan g'aznaviylar davlati paydo bo'ldi.

Qoraxoniylar mamlakatni sulola vakillari – ilikxonlar boshqaradigan viloyatlarga bo'lish usulini ta'sis etishdi. Qoraxoniylar hukmdori - buyuk xon ko'pincha poytaxt Bolasog'unda bo'lsa-da, o'zi Qashg'arda yashardi. U Erondagi "shaxanshoh" singari "xonlar xoni" degan unvonga ega edi. 1072 yilga kelib,



O'zgan poytaxt bo'ldi va XI asr oxirida O'zgan qoraxoniylar saltanatining Farg'ona viloyati markazi bo'lib qoldi.

Qoraxoniylarning tilshunos olimi Mahmud Qoshg'ariy XI asrda o'zining arab tilidagi uch jildlik "Devonu lug'atit turk" ("Turkiy so'zlar lug'ati") asarini tuzadi. Yusuf Xos Hojib Bolasog'uniy esa turkiy tilda yaratgan "Qutadg'u bilig" asarida ma'lumot berishicha, qoraxoniylar xunarmandlarga, xususan, temirchi, tuquvchi, etikdo'z, suv tashuvchi va boshqa xil kasb egalariga yaxshi munosabatda bo'lishgan.

Somoniylar davlati tarkibida Xorazm yarim mustaqil bo'lgan. qoraxoniylar va g'aznaviylar davlatlari vujudga kelganda u chekkada joylashgani uchun ularning hech biriga kirmay qoldi.

X asrning 2-yarmida Urganch (Gurganch, arabchada – Jurjon)ni poytaxt qilgan shimoliy Xorazm ajralib chiqdi. Janubiy Xorazm poytaxti qiyot bo'lib, u erda xorazmshoh, Urganchda esa amir hukmronlik qilar edi. 996 yili shimoliy Xorazm hukmdori Ma'mun ibn Muhammad bu mamlaktni yaxlit davlatga aylantirib, Xorazmshoh unvonini qabul etdi va Urganchni poytaxt qilib belgiladi. X asr yashab ijod etgan geografik olimlar Xorazmni dehqonchilik rivojlangan, shaharlari ko'p va madaniyati yuksak mamlakat sifatida ta'riflashadi. Ali ibn Ma'mun (997-999) davrida Urganchda ikkita ajoyib saroy qurildi. Abul Abbos Ma'mun (999-1016) o'z saroyida Ma'mun akademiyasi – "Bayt-ul hikma"ni ta'sis etib, atrofiga turli sohaga mansub o'rta asrning mashhur Sharq olimlarini to'playdi. Bu erda Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Sahl Masihiy, mashhur tabib Abulxayr Hammor va boshqa atoqli olimlar shug'ullanishardi. Beruniy "Ma'mun akademiyasi"ning etakchi a'zosi bo'ldi. Beruniy til, falsafa, falakiyot, riyoziyotni o'rgandi; botanika, mineralogiya va boshqa tabiiy fanlar bilan qiziqdi. U XI asr boshida turli xalqlarning yil hisoblari haqidagi ilk yirik asari – "Osorul boqiya" ("qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar") yoki "Xronologiya" nomli asarini yaratdi. Unda yunonlar, rimliklar, forslar, so'g'diylar, xorazmiylar va boshqa ko'plab qabila va xalqlarning barcha davrlari, bayram hamda taqvimlari, Sharq mamlakatlarining madaniyati va adabiyoti to'la bayon etilgan.

1017 yilga kelib Xorazm, yirik istilochi, ulkan, lekin qisqa davrli imperiya asoschisi Mahmud G'aznaviy qo'l ostiga o'tdi. Biroq Xorazm g'aznaviylarning qo'l ostida uzoq qolmadi. 1040 yili g'aznaviylar davlati quladi. Bu davrda Saljuqiylar davlati vujudga keldi. Uning tarixiy hayoti O'rta osiyodan tashqarida kechdi. Saljuqiylar bosib olgan erlarini viloyatlarga bo'lishdi. Marv bilan Xurosonning katta qismi Dovudga tegdi. To'g'ulbek Saljuqiylar davlatining hukmdoriga aylanib, 1055 yili arablarning bir qismini bo'ysundirdi. U o'ziga poytaxt sifatida Ray shahrini tanladi.



### **Ilk davlat tizimi davriga oid musiqiy ijod**

Kushon xonligi Markaziy Osiyo xalqlari tarixida massaget qabilalariga mansub tohar sulolasidan birining nomi bilan atalgan. Xitoy manbalarida yozilishicha, Daxya, ya'ni Baqtriya ko'chib o'tgan massaget (yuechji)lar beshta vassal hokimlikka bo'lingan bo'lib, ulardan biri Guyshuan deb nomlangan.

Guyshuan so'zi «kushon» atamasining xitoycha transkripsiyasi bo'lib, u o'sha davr yodgorliklari hisoblangan tangalardagi yozuvlardan ma'lumdir. Markaziy Osiyoning janubi va shimoliy Afg'onistondagi arxeologik tadqiqotlar Yunon-Baqtriya va Kushon-Baqtriya madaniyati gullab yashnaganidan darak beradi. Dastlabki yodgorliklar Ayritom va Ko'hna Termezda o'tgan asrning 30-yillarida ochilib, 60-yillarida davom ettirilgan. Keyinchalik ko'hna Termez yaqinidagi qoratepa buddiylik ibodatxonasi, Fayoztepa, Xolchayon va Dalvarzintepa kabi ko'hna shaharchalar ochilib, nihoyat darajada yuksak bo'lgan kushon madaniyati butun dunyoga mashhur bo'ladi.

Kushon davlatiga rasman asos solgan hukmdor Kujula Kadfiz 4 ta qabilani o'ziga bo'ysundirdi va uni Kushon bekligi deb e'lon qildi. Bu davlatning dastlabki hukmdori 30 yil podsholik qildi. Kushon xonlarining eng mashhuri Kanishka hisoblanadi. U (78-123) hukmronlik qilgan davrda Kushon davlati juda qudratli davlatga aylanib, zamonasining buyuk davlatlari Rim, Parfiya va Xitoy bilan bir qatorda turardi. Hukmdor davlat poytaxtini ham Dalvarzintepadan Peshavorga ko'chiradi. Kanishka hukmronligining oxirgi yillarida Kushon davlati juda katta hududni o'z ichiga olgan. Uning chegarasi G'arbda Orol va Kaspiy dengiz bo'ylarigacha, janubda Hind daryosining quyi oqimigacha, Sharqda esa Sinoszyanning Xo'tan shahridan Gang bo'ylaridagi Banorasgacha cho'zilgan.

Budda diniga qattiq e'tiqod qilgan podsho o'z davlatida mazkur dinni rasmiy ravishda davlat dini sifatida e'lon qiladi. Markaziy Osiyo xalqlari hayotida bu davrda katta siljishlar bo'ldi. Ya'ni, juda ham ulkan markazlashgan davlat vujudga keldi, shaharlar soni ko'paydi, savdo-sotiq aloqalari xalqaro darajaga ko'tarildi; jonli savdo hayoti va kolonizatsion faoliyat, savodni va yozuv (xat)ni keng tarqalishiga imkon yaratdi. II asrga taalluqli mashhur "so'g'd yozuvi"dagi namuna aynan Dunxuan (Sharqiy Turkiston)dan topilgan bo'lib, u Samarqandda istiqomat qiluvchi onaning Druan (Dunxuan)da yashovchi qiziga yo'llagan xatida yaqqol isbotini topgan. Bu xat o'sha davr Markaziy Osiyo xalqlarining yuqori darajadagi madaniy hayoti, jumladan, ayollarning savodliligi va mustaqilligidan dalolat beradi. Bu davrda kushon yozuvi ham paydo bo'lib, u yunon alifbosiga asoslangan edi. Mazkur yozuvni o'sha davrning tangalari, muhrlari va turli buyumlarida uchratish mumkin. Ta'kidlash joizki, bir necha yozuv tizimining mavjud bo'lgani (oromiy, sug'diy, xorazmiy, yunon, kushon) – Kushon xonligi tarkibiga kiruvchi xalqlarning yuksak darajadagi madaniyatining yana bir karra isbotidir.



Kushon saltanati umuman qadimgi Markaziy Osiyoning iqtisodiyoti, madaniyati va san'ati gullab-yashnagan davriga to'g'ri keladi. Bu davrda xalqaro savdo-sotiq keng rivojlangan, yangi shaharlar barpo bo'lgan. Ammo endi jarayon ellinistik yo'nalishda emas edi. Ya'ni, madaniyat va san'at sharqiy, ellinistik, hind va ko'chmanchilar an'anasining sintezidan tashkil topgan yangi kushon yo'nalishiga asoslandi. Bu davrdan qolgan ko'plab me'moriy obidalar va haykallar Shimoliy Hindistonda, qobulning vodiy tumanlarida, Baqtriyada, Amudaryoning shimoliy va janubiy qirg'oqlarida saqlangan. Hindiston va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi madaniy aloqalar, meloddan avvalgi III asrda xind imperatori Ashok tomonidan buddizm davlat dini sifatida tasdiqlangandan so'ng yanada kuchaydi.

Umuman Kushon madaniyati qadimiy tomirga ega joylarda, yangi omillar, yangi odamlar ta'sirida rivojlangan, Yunon-Baqtriya xonligi madaniyatining davomchisi hisoblanadi. Shuni ham aytish kerakki, o'z navbatida kushon san'ati boshqa xalqlar madaniyati bilan uzviy bog'langan holda, ular, xususan Hindiston madaniyatida o'zi ham chuqur iz qoldirdi (Taksila va Matura yodgorliklari); shuningdek, Sharqiy Turkistonda Kuchi va Karashara freska va haykallari; alaniya muhiti orqali ta'sir etilgan Sharqiy Yevropa madaniy yodgorliklari so'zimizga yorqin dalil bo'lishi mumkin.

1932 yili qadimshunoslar tomonidan olib borilgan arxeologik qazilmalar jarayonida Termez yaqinidagi eramizning I-II asrlariga mansub Ayritom shaharchasidan ibodatxonaning tashqi devor peshtoqlariga o'rnatilgan, sarg'ish oqtoshdan ishlangan haykallar topilgan edi. Toshga o'yib ishlangan, beliga akaif yaproqlari bog'lagan 14 ta odam qiyofasi tushirilgan bu peshtoqda musiqachi va girlyandachilar tasvirlangan. Bunday manzara antik davr O'rta Sharq tasviriy san'atida juda keng tarqalgan. Peshtoq to'liq saqlanmagan, faqatgina 8 ta bo'lagi topilgan holos. Shuningdek, ayrim qiyofalar o'z shaklini yo'qotgan bo'lib, ular musiqachimi, girlyandchimi ajratib olish qiyin. Musiqachilar soni 5 ta ekanligi aniq bo'lib, qolgan 3 ta qiyofani aniqlash mushkul. Shuning uchun mana shu 5 ta musiqachi qiyofasi nisbatan batafsil o'rganilgan. Ammo qadimiy bu kvintet (beshlik)ni to'liq tarkib, deya aniq aytish qiyin.

Ayritom peshtoqida tasvirlangan orkestrning 2ta torli musiqacha cholg'usi - kichik burchakli, to'qqiz torli (balki o'n uch torlidir) arfa va to'rt torli do'mbira, shuningdek, bitta qush avlos va 2 ta zarbli cholg'u - nog'ora (baraban) vekimvalsimon asbob. Bu erda qatoiy ansamblo uslubi saqlanganligi shubxasiz, ya'ni, cholg'ularning barcha asosiy (torli, damli, zarbli) guruhlaridan foydalanilgan. Shuni ham aytish joizki, har bir guruhda bir-birini o'zaro to'ldiruvchi va murakkab, jozibali oxanglarni taratuvchi turli xil cholg'ular jamlangan. Shuningdek, zarbli cholg'ularning ham har xili ishlatilganligi





e'tiborlidir. Aftidan bu girlyandalar bilan bog'liq bo'lib, harakat, yurishni anglatgan.

Girlyandlar – shunchaki bezak bo'lmay, balki butun kompozitsiyaning ma'lum ma'nosini anglatadi. Ya'ni, girlyandachilar musiqiy cholg'ular sadosi ostida odimlaganlar. Va aftidan bu yurishlarda raqs unsurlari ham qo'llangan. Bunday tantanani boshqarish harakatini tartiblashtirish uchun esa bir qator qo'l bilan ijro etiluvchi, shaklan uncha katta bo'lmagan zarbli asboblari kerak bo'lgan. Mana shunday musiqa sadolari ostida girlyandalar bilan yurish an'anasi Ayritom peshtoqlarida o'z ifodasini topgan.

### **Qadimgi Xorazm musiqa madaniyati**

Yana bir hudud Xorazm vohasining bu davrga oid tarixi esa juda noaniq. Ammo bu davrda Xorazm shohlarining tangalari o'rmini kushonliklar tangasi egallashiga qaraganda Xorazm Kushon imperiyasi tarkibiga kirgan, deb faraz qilish mumkin. Eramizning III asrlarida Xorazmda mahalliy shohlarning tangalari zarb qilinishi va kushon tangalarining siqib chiqarilishi Xorazmning ilgarigiday mustaqillikka erishganligini ko'rsatadi.

Kushon imperiyasi davrida din, me'morchilik va san'at sohasida ro'y bergan o'zgarishlar Xorazm madaniyatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Shuningdek, qadimgi Baqtriya (Ayritom yodgorligi), Tohariston (Surxondaryo viloyatining Angor tumanidagi Bolaliktepa yodgorligi) madaniyati ham gandhar san'ati an'analari bevosita ta'siri ostida taraqqiy qilgan. Natijada Xorazmda uchraydigan kushon davri haykalchalarining ko'rinishi ancha o'zgaradi. Endilikda haykalchalardagi kiyim va bezaklar kangyuy davrinikiday serxasham bo'lmay, unda, gandhar san'atining ta'siri sezilib turadi. Yangi turdagi haykalchalar hind kiyimlaridagiday ancha eri ochiq bo'lib, bu hol uning budda obrazlari bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Xorazmning kushon davriga oid ma'naviy-madaniy yodgorliklari juda boy va ajoyibdir. Jumladan, 1945-1950 yillar mobaynida olib borilgan eramizning III - IV asriga oid Tuproqqal'a saroyining qazish ishlari vaqtida juda ko'p sonli devoriy yozuvlar topilgan bo'lib, ular orasida uchta musiqiy cholg'uning tasviri ham aniqlangan. Bular: oltita torli kichik arfa, ikkita torli kichik udsimon cholg'u va qumsoat shaklidagi ikkiyoqlama zarbli cholg'u. Va ushbu uchta cholg'uga monand uchta musiqachi ayollar tasviri.

Sozandalardan biri bo'lgan, arfa chalayotgan ayol tasviri juda mashhur bo'lsa, qolgan ikkitasi esa deyarli hech qaerda chop etilmagan. Sopol idishlarga tushirilgan tasvirlarda sakkizta cholg'u ushlab turgan sozandaning qiyofasi va sopol xumdon devorining bir tomoniga bir relefli tasvirlar ishlangan. Barcha haykalcha va releflar turli davrlarga mansub bo'lib, meloddan avvalgi IV - III asrlardan eramizning I asrigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Har bir



haykalchaga bittadan musiqiy cholg'u tasviri to'g'ri kelib, releflarga ham shunchadan tasvirlar tushirilgan. Shunday qilib, jami 9 ta cholg'u asbobi mavjud ekanligi aniqlandi. Ularning barchasi turli cholg'ular guruhiga mansub. Torli guruhlarda to'qqiz torli, burchakli arfa, besh torli kifara, to'rt torli udsimon cholg'u va oltita, ikkitorli dutorni eslatuvchi, rezonator shakli bo'yicha ikki kichik guruhga bo'linuvchi sozlar mavjud.

Ikkita haykalcha va relefdan tashqari bu sopol idishlardagi tasvirlar chop etilmagan. 1909 yili Xorazm atrofidan topilgan Anikov kumush idishini esa bir qator tadqiqotchilar qadimiy Xorazm torevtikasi asarlariga oid deb hisoblashadi. Mazkur idishda o'limga mahkum etilganlar qalasi, ossuariyadan olib chiqilayotgan muqaddas Siyovush hoki tasvirlangan. Bu marosim esa roga (shohsimon soz) sadolari ostida kechayotgani ham ma'lum bo'ladi. Sozandalar etti kishidan iborat bo'lib, ularning uchtasi bir tomonda, to'rttasi ikkinchi tomonda joylashgan. Ular chalayotgan damli asboblarning barchasi chaqiruvchi (signal) tur bo'lib, ularning hajmi, tuzilishi, ijro etish uslublari ham bir xil. Shunday qilib, qadimiy Xorazm musiqiy cholg'ularining jami turi 19 tani tashkil etadi: 11 ta torli, 7 ta damli va 1 ta zarbli sozlardir.

Birinchi guruh cholg'ulari keng va turlicha namoyon etilgan. Bu guruhga kiruvchi musiqiy cholg'ular tarixan ikkita aniq tabaqaga ajraladi. Ular, o'zining kelib chiqishi bilan janubiy erli, dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi tumanlarga tegishli turi va adirli ko'chmanchi qabilalarning musiqiy turmush sharoitiga oid cholg'ular turidir.

Birinchi tabaqa cholg'ulardan eng e'tibor tortgani – bu katta va kichik burchakli arfalar bo'lib, qadimda ular Markaziy Osiyo hududida keng tarqalgan, ammo keyinchalik muomaladan chiqqan.

Antik davrda Xorazmning burchakli arfasi ikki toifaga bo'lingan: katta burchakli va kichik burchakli. Markaziy Osiyo (burchakli) arfalarining mashhur bo'lgan barcha turlari, jumladan, Ayritom peshtoqidagi arfa (meloddan avvalgi II asrdan eramizning I asrigacha davr oid) va Tuproqqala arfasi (eramizning III asriga mansub) kichik burchakli arfalar toifasiga kiradi. Qo'yqirilgan qal'adagi katta burchakli arfa tasviri (eramizdan avvalgi IV-III asrlar) – Markaziy Osiyoda hozirgi kungacha topilgan yagona namunadir. Bundan tashqari, mazkur tasvirlar umuman Markaziy Osiyo arfasining eng qadimiysi hisoblanadi. Ta'kidlash kerakki, har ikki holatda ham Xorazmning yuksak musiqiy madaniyatga ega bo'lgan mamlakat ekanligi birinchi o'rinda turadi.

Katta va kichik arfalarining tuzilishi (konstruksiyasi) bir-biridan deyarli farq qilmaydi. Bu erdagi farq, cholg'uning hajmi, ijro etish uslubi, akustik sifatlari va aniq bir vaziyatda u yoki bu arfaning qo'llanilishidir.



Markaziy Osiyo arfalari, xususan, katta va kichik, burchakli (arfa)larning musiqiy sozi haqida aniq bir dalilni ko'rsatish qiyin. Ammo bu sozni aniqlashning yagona imkoniyati bu A.V.Machinskiyning qadimgi Misr arfalari bo'yicha o'tkazgan ishonarli dalillar asosidagi tadqiqotidir.<sup>1</sup> Ya'ni, bu olimning ishlariga tayangan holda muayyan aniqliklar kiritish mumkin; jumladan, katta va kichik, burchakli Xorazm arfalarining korpusi ikki qismdan iborat edi: rezonator va torlar mahkamlanadigan maxsus joy bo'lib, ular bir-biri bilan bir tekisda bir burchak ostida birlashgandir. Cholg'ular faqatgina yog'ochdan yasalgan. Rezonator – 4ta uzun, silliq tayoqchadan iborat bo'lib, o'z navbatida bu tayoqchalar qiyshiq, uzun qovurg'alar bilan shunday qo'shilganki, natijada to'rtburchakli korpus hosil bo'lib, uning pastki, ingichka qismiga sim(tor)larni ushlagich mahkamlangan. Qarama-qarshi tomonlari esa rezonatorning ichki dekasiga biriktirilgan. Rezonator va tor ushlagichning qo'shilish uslubi xaqida bir narsa deyish qiyin.

Bu cholg'ular sim(tor)larining umumiy soni 9 ta va 6 ta bo'lgan: qo'yqirilgan qal'adan topilgan arfa tasvirida ular 9 ta bo'lsa, Tuproqqal'a arfasida 6 tani tashkil etadi. Ayritom arfasidagi 9ta tor yaxshi tasvirlarda berilgan; Shopurning (Eramizning III asri mansub) katta, burchakli arfasida torlar soni 6 tadan iborat. Torlar ichakdan va jilkadan tayyorlangan. Arfalar jarangi (tembri) bir xil bo'lmagan: kattalari - qattiq va past (registr), kichiklari - jarangdor va yuqori (registr) tovushli. Arfalar o'tirgan, tik turgan va yurgan holatlarda ijro etilgan. Hamma vaziyatda ham cholg'uni ushlab holati bir xil bo'lgan. Ya'ni, arfa rezonatorning enli tomoni doimo yuqoriga qaratilgan holda ijro etilgan. Tik turgan holdagi ijro vaqtida arfani oldinda, burchagini belga tiragan holda yoki o'ng qo'l bilan ushlab, chap yonga qistirgan holatda ijro etilgan. Arfaning o'tirgan holda ijro etish usuli biroz boshqacharoq: ya'ni, cholg'u odatda ijrochining chap yoniga qo'yiladi va chap qo'l bilan ushlab ijro etiladi. Cholg'u korpusi chap yonga va chap elkaga tirab turiladi. Kichik arfani odatda chap tomondan yuqoriga ko'targan holda (bunda cholg'u chap qo'l bilagi bilan chap yonboshga tiralgan holatda) ijro etiladi. Ma'lumki, musiqiy cholg'ular o'zlarining juda ham bejirim tashqi ko'rinishlari bilan ajralib turgan. Hattoki, agarda cholg'u juda kamtar ko'rinishda bo'lsa, u holda sozni turli bo'yoqlar bilan bezatishgan. Bu uslub cholg'uning nafaqat tomoshabinga estetik zavq berishi uchun, balki o'zgacha maqsadlarni ko'zlab ham qo'llanilgan. Masalan, avvalambor cholg'uning akustik sifati yaxshilangan; ikkinchidan cholg'u materiali (yog'och) tez urilmagan (charchamagan) va bundan cholg'uning umrini uzaytirish kabi muammo echimi topilgan deyish mumkin.

Tuproqqal'aning kichik, burchakli arfasi qizg'ish-jigarrangga bo'yalgan. Xuddi shunday tarzda Panjikent arfalari ham bo'yalgan. Dalil tariqasida muayyan manbalarni keltirish mumkin. Jumladan, Tan davrida yashagan Xitoy shoiri Bo



Szyuyi o'zining «Chjehji raqqosasi» («Chjehji» - Markaziy Osiyo, aniqrog'i toshkentcha raqs bo'lib, u Xitoyga keltirilgan) nomli she'rida aynan turli bo'yoqlarga bo'yalgan cholg'u haqida ma'lumot beradi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Qadimgi Xorazm musiqa madaniyati
2. Ilk davlat tizimi davriga oid musiqiy ijod
3. Qoraxoniylar davrida musiqiy-madaniy hayot (XI-XIII asrlar)
4. Musiqiy madaniyatning rivojlanish jarayonlari
5. Ibtidoiy jamiyatga oid ijod shakllari va musiqa ijodiyoti

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Apraksina.O.A. Методика музыкального воспитания в школе. (Учебное пособие для пед. институтов по спец. 2119 «Музыка и пение») -М.: Просвещение, 1983-222s
2. Musiqalnaya psixologiya: Uchebnoe posobie. / avtor sost. Kadirov R.G., - T. Musiqa, 2005. -80 s.
3. S.Begmatov, D.A.Karimova Q.MAmirov T.G'ofur G'ulom nashriyoti, 2008 y.
4. Panjiev Q. O'zbek xalq musiqa ijodi. 2020 y. 274 b.
5. Abdukarimov M. "Cholg'ushunoslik" Toshkent 2005 y
6. Lutfullaev A . O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi.-T.: Musiqa.

**2-mavzu. Etnomusiqashunoslik, uning xalq ijodiyotidagi o'rni va ahamiyati. O'zbek musiqasining tarkib topish qadriyatlari, an'ana, qadriyat, urf-odat, marosim musiqasi va uning musiqa o'qituvchisi faoliyatidagi ahamiyati.**

#### **Reja:**

- 1.Etnomusiqashunoslik, uning xalq ijodiyotidagi o'rni va ahamiyati.
- 2.O'zbek musiqasining tarkib topish qadriyatlari,
- 3.An'ana, qadriyat, urf-odat, marosim musiqasi va uning musiqa o'qituvchisi faoliyatidagi ahamiyati.

**Tayanch iboralar:** Etnomusiqashunoslik, marosi, qadriyat, an'ana, urf-odat, musiqa o'qituvchisi.

**1.Etnomusiqashunoslik va uning ijtimoiy xayotda tutgan urni va ahamiyati**



XV asrning ikkinchi yarmidagi o'zaro urushlar shaharlarning bo'shab, vayronaga aylanishi O'rta Osiyo xalq ommasining qashshoqlanishiga olib keldi. Bu protsess o'zlarini o'zbeklar deb atagan ko'chmanchilar boshlig'i Shayboniyxon hokimiyatni qo'lga olgan XVI asrniig boshidayoq faollashgan edi. Ana shu vaqtdan boshlab "o'zbeklar" degan xalq nomi qaror topadi. XVII va XVIII asrlarda feodal tarqoqlik kuchayadi. Katta feodal davlati alohida xonliklar Buxoro, Xiva hamda Qo'qon xonliklariga bo'linib ketdi. Bunday bo'linish o'zbek xalqining musiqa madaniyatida ham aks etdi. O'zbek xonlari saroyidagi musiqiy hayot asosan temuriylarning Hirot va Samarqand saroylaridagi an'alarini davom ettirardi. Ko'pgina shoir va musiqachilar Buxorodagi shayboniylar saroyiga, bir qismi esa Xorazmga ko'chadi. Buxoro va Xorazmning aralash o'zbek va tojik musikal-poetik an'analari yanada taraqqiy topishi ana shular bilan izohlanadi. XVI asr shoirlari va musikachilari, shuningdek, mucika ilmining bilimdonlaridan Najmiddin Kavkabiy ijodi katta qiziqish uyg'otadi. Uning "Musiqqa haqida risola"si ustoz an'analarni Samarqand va boshqa shaharlarda davom ettirgan shogirdlari (Hoji Muhammad, Mavlono Rizo Samarqandiy) uchun musiqali-poetik qo'llanma bo'lgan edi. XVII asrning saroy musiqachi va nazariyotchisi Darvishali Changiy edi. Uning risolasi musiqaga oid fikrlarga boyligi bilan ahamiyatlidir. Muallif boshqalardan farqli holda, faqatgina musiqa nazariyasi asoslarini bayon qilib qolmay, balki o'z asarining katta qismini turli davrlarda yashab ijod etgan birqa tor musiqachilar faoliyati, shuningdek, saroyda mavjud bo'lgan muciqqa asboblari tavsifiga ham bag'ishlaydi. Biroq, bu erda ham xalq muzikasi haqida hech qanday eslatma uchramaydi. Darvishali Changiy oddiy xalq turmushida, ayniqsa xotinqizlar o'rtasida keng tarqalgan dutorni cholg'u asboblari qatoriga kiritmaydi. O'rta Osiyoda musiqiy-nazariy ilm rivojiga to'xtab o'tish alohida ahamiyatga ega. Ayni IX-XI asrlarda musiqa faniga asos solinib, O'rta Osiyoning o'rta asrda yashagan olimlarining deyarli barchasi bu masala bilan shug'ullandilar. IX asrdayoq musiqa haqida risolalar paydo bo'lib, ularda musiqaning nazariy asoslari tadqiq etiladi, musiqa asboblari ilmiy tasvirlanadi, taniqli ijrochilar nomi, ularning repertuari, "keng tarqalgan musiqa janrlarining nomlari keltiriladi. O'rta Osiyo olimlari falsafa, matematika, meditsinaga oid juda ko'p asarlarning butun-butun bo'limlarini musiqaga bag'ishlaydilar. Musiqani tadqiq etishda ularga Pifagor va uning matematika uslubi ma'lum darajada ta'sir ko'rsatdi. Musiqqa asosini she'r tuzilishi asosi bilan bog'lab tushunilgan. Masalan: Forobiy musiqa bilan poeziya chuqur bog'langan, musiqa she'rdagi vaznlar nisbati bilan ham mustahkam aloqada; ritm esa poeziya bilan musiqani birlashtiruvchi boshlanmadir deb bilgan. Musiqqa bilan she'riy vazn o'rtasidagi mustahkam aloqa o'zbek va tojik musiqali poetik san'atining yanada rivojlanishi uchun xarakterlidir. Forobiy faoliyatining ahamiyati haqida gapirib, shuni ta'kidlash kerakki, u Sharq fanini antik fan,

qadimiy Gresiya fani bilan bog'ladi. Forobiy Aristotelning sharhlovchisi sifatida ham mashhur, buning uchun u "ikkinchi muallim" degan faxriy nom olgan. Ayniqsa, Forobiy akustika masalasiga katta e'tibor berdi, buning uchun u gammalar intervalini hisoblash maqsadida ud tovushqatoridan foydalandi. Musiqa nazariyasi masalalari bilan Sharqning ulkan olimi Ibn Sino ham shug'ullandi. Uning asarlarining ayrim bo'limlarida musika va uning fizik xossasi, musiqiy parda va ritmik asosi haqida ma'lumotlar bor. Ibn Sino "Kitob ush-shifo" va "Kitob un-najot"da musiqa fanining akustika, "Donishnoma"da matematika tomonlarini rivojlantiradi. Forobiy, Ibn Sino va boshqa O'rta Osiyo olimlarining o'rta asrdagi ilm va madaniyatning yuqori darajasini aks ettirgan asarlari ana shu davr musiqa madaniyatini o'rganishimizda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Nazariy asarlar musiqa san'atining monodiya (rivojlangai bir ovoqli) tabiatiga asoslangan edi. Birinchi bo'lim (ilmi ta'lif) ovozlarning o'zaro munosabatlari, tovushqatorlarini o'rganishga, ikkinchisi (ilmi iqo) esa ritm haqidagi ta'limotdan iborat edi. XV asrning ikkinchi yarmida o'tmishdoshlari-Forobiy, Ibn Sino, Abdulqodir Marog'iyning musiqa nazariyasiga oid asosiy qonunlarini davom ettirgan va rivojlantirgan tojik shoiri Jomiy (1414-1492) ning "Musiqa haqida risola"si ana shunday asarlardan hisoblanadi.

Jomiy ham o'tmishdoshlari kabi ovozlarning interval holdagi o'zaro munosabatlarini beradi, ularni torning qismlari nisbatidan chiqargan holda asosiy jins - tovushqator (tetraxord va pentaxord)larni tashkil qilish hamda ulardan jam (parda)lar tashkil etish usulini ko'rsatadi. Og'zaki an'anadagi professional musiqa mahsuli o'n ikkn maqomlardan kelib chiqib, Jomiy asosiy tovushqatorlarni o'n etti pog'onali gamma hosil qiluvchi o'n etti bo'lakka bo'ladn (in terval nisbatlari sentlarda belgilangan):

Keyinchalik tovushqator asosini o'zbek musiqasiga xos bo'lgan miksolidiy ladiga muvofiq etti pog'onali gamma tashkil qilishi aniqlandi. Shuningdek, risolada ritm haqidagi ta'limot ham keng rivojlantirilgan. V.Belyaevning Jomiy risolasiga yozgan izohlarida "she'riy ritmika vokal va cholg'u asarlarning ayrim bo'laklari poetik davralar uzunligi bilan mos keladigan ohang chiziqlarining yuzaga kelishi uchun asos sanaladi" deyiladi. Shuningdek, Jomiy asosiy ritmik formula (ya'ni usul)lar tuzilishini tadqiq etadi. Risolaning xotimasida lادلarning tinglovchilarga ta'siri haqida ham so'z yuritiladiki, bu pardalarning axloqiy ta'siri haqidagi qadimgi yunonlar nazariyasini rivojlantirish hisoblanadi. O'rta Osiyoning boshqa musiqachilari asarlaridagi kabi Jomiyning asarida ham kosmologik g'oyalar bayon qilinadiki, ana shunga muvofiq musiqa tabiat garmoniyasi va jamiyatning axloqiy asoslarini ifodalaydi. Forobiy, Ibn Sino, Safiuddin al Urmaviy asarlaridagi qoidalarni ko'proq takrorlagan holda Jomiy ularda hukmron bo'lgan matematik



uslublardan farqli ravishda musiqachining “sog‘lom hissiyoti”ga murojaat qilib, uning nazariyada amaliyot tomon ko‘prik tashlaydi<sup>1</sup>.

Uning qarashlari o‘tmishning Arnstoksen kabi mutafakkirlarining qarashlari bilan to‘g‘ri keladi. O‘rta Osiyo olimlarining musiqa nazariyasiga oid asarlari xalqning musiqiy hayotiga bag‘ishlangan sahifalardan joy olmagan. Lekin shakshubha yo‘qki, saroy va shahar doirasida ommaviylashgan boy, rivojlangan musiqa san‘ati, ajoyib kuylar ijodkori, ijrochilari bo‘lgan O‘rta asr bastakorlarining professionallashishi xalq musiqa madaniyati zaminida o‘sdi va rivojlandi, ijod etishning qat‘iy qoidalari esa xalq musiqa amaliyotning ko‘pincha ijodiy qayta nshlanishi natijasi bo‘ldi.

**Sharq manbashunosligi.** Sharqda o‘ziga xos musiqa fanining yaratilishiga asos bo‘lgan sabablar va manbalar. Abu Nasr Forobiy (873-950), Abu Ali ibn Sino (980-1037) va Ibn Zayla (vafoti 1049) ilmiy ishlarining yaratilishi, tarixiy, ilmiy va amaliy ahamiyati. Qomusiy ilmiy risolalarda o‘zining mukammal ifodasini topgan musiqiy masalalar. Abu Abdullo Xorazmiy (X asr) va uning “Imlar kaliti” qomusiy asari. Unda bayon etilgan musiqiy ma‘lumotlarning sharhi. Ixvonu-s-Safo musiqiy risolalari. Abul Faraj Isfahoniy (897-967) va uning mashhur “Qo‘shiqlar kitobi”. Asosiy mazmuni va ahamiyati. Safiuddin Urmaviy (1216-1294), Qutbiddin Sheroziy (1236-1310), Mahmud Amuliy (vafoti 1349) musiqaga doir ilmiy risolalari. Temuriylar davri musiqa madaniyati bo‘yicha asosiy manbalar. Xoja Abdulqodir Marog‘iy (1363 - 1434) va boshqalar. Alisher Navoiy davrida va uning rahnamoligida yaratilgan musiqiy-nazariy risolalar va ularning hozirgi zamon sharhlari. A.Jomiyning «Risolai musiqiy» asari. Najmiddin Kavkabi (XVI asr) va Darvesh Ali Changiy (XVII asr) musiqiy risolalari. Buxoroda Shashmaqom turkumining uzil-kesil shakllanishiga doir ishonchli yozma manbalar. Xorazm maqomlari turkumining uzil-kesil shakllanishiga doir asosiy manbalar. XIX asrda O‘rta Osiyoda yaratilgan bayoz va kulliyotlarga izohlar. Ularning mavzulari, endilikda manba sifatida qo‘llanilishi.

Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari musiqa manbashunosligining yirik namoyandalarining ilmiy tadqiqotlari. O‘zbekiston musiqiy manbashunosligida amalga oshirilgan yangi tadqiqotlar va ustuvor rejalar o‘z aksini topdi. Har bir xalqning o‘z tarixi, madaniy yuksalishi, san‘atining salnomasi mavjud bo‘lib, bularning barchasi o‘sha xalqning o‘tmishini va kelajagini belgilaydi. O‘zbek xalqi ham o‘zining boy tarixiga, madaniyati va san‘atiga ega bo‘lib, uning rivoj topgan millat sifatida o‘z o‘rniga ega. Ajdodlarimizdan bizgacha etib kelgan

---

<sup>1</sup> Ражабов И. Мақомлар масаласига доир. Т., 1963. 2 Джами Абдурахман. Трактат о музике, 105- бет.



ma'naviy madaniyat asoslari, san'at durdonalari, musiqiy madaniyatimizning noyob ijrolari, xullas madaniyat va san'atimizning barcha yo'nalishlardagi ko'rinishlari bugungi kunda ham bo'y basti bilan namoyon bo'lmoqda.

XX asrning so'ngi o'n yilligidagi yurtimizdagi o'zgarishlar natijasida, mustaqillikning sharofati bilan xalqimiz ajdodlarimizdan meros qolgan, o'zining boy madaniyati va san'ati tarixini chuqur o'rganishga imkoniyatlar yaratildiki, bu bebaho tariximizga yangicha yondashishni, uni yangicha tafakkur bilan anglashlikni taqozo etadi. "Xalqimizning kelajagi, - deb yozadi mamlakatimiz mustaqilligi asoschisi I.Karimov,- eng avvalo, uning o'ziga, ma'naviy qudratiga va milliy ongining ijodiy kuchiga bog'liqdir. Moddiy farovonlikka tabiiy intilish millatning ma'naviy va aqliy o'sish ehtiyojiga g'ov bo'lmasligi lozim. Ma'naviylik va ma'rifiylik xalqimizning ko'p asrlik tarixi davomida uning eng kuchli o'ziga xos xususiyati bo'lib keldi"<sup>1</sup>.

Ushbu fikrlardan kelib chiqib, shunday xulosa qilish mumkinki xalqimizning ko'p asrlik boy madaniy merosini o'rganishda millat tarixi, qadriyatlar, milliy mafkura, milliy o'zlikni anglash asosiy mezon vazifasini bajaradi. Xalqimizning madaniyat va san'at tarixini o'rganishda ana shu mezonlarga suyangan holda fikrlashga undaydi va milliy iftixor tuyg'usini uyg'otadi. Xalqimizning boy madaniyati va san'at tarixi bilan qisqa sathlar orqali yaqindan tanishtirish ya'ni, uning rivojiga yangicha nazar tashlash deb qabul qilish o'rindir. XX asr oxirida mamlakatimizda milliy mafkuraviy siyosat orqali milliy istiqloq g'oyasi tamoyiliga asoslangan madaniyat tushunchasi, komil inson tarbiyasida madaniyat va san'atning o'rni, ma'naviy madaniyat asoslariga tayanuvchi diniy madaniyat, bugungi g'oyaviy kurashlar silsilasidagi milliy madaniyat va san'at, estetik madaniyat jabhalarini birlashtiruvchi umumiy fikrlar jamlangan bo'lib, har bir inson uchun hozirgi kunda zarur bo'lgan ma'naviy tushunchalar tarkib topdi.

Albatta, millatimiz tarixi bilan bog'langan, ibtidoiy jamoa davri san'ati tarixidan boshlab, qadimgi dunyo san'ti, qadimgi sharq san'ati, qadimgi O'rta Osiyo san'ati hamda Markaziy Osiyo o'yg'onish davri madaniyati va san'ati bilan qisqacha voqif etdi. Temuriylar davri xaqida so'z ketganda Amir Temur davridagi milliy uyg'onish, Mirzo Ulug'bek, Zaxiriddin Muxammad Bobur, Alisher Navoiy va Xusayn Boyqarolarning madaniyatimiz va san'atimiz rivojiga ulkan xissa qo'shdi.

Tarixdan ma'lum Turkistonda ma'rifatchilik va jadidchilik harakati uchinchi o'yg'onish davrini boshlanishi deb e'tirof etiladi. Darxaqiqat ma'rifatchilar ta'lim

---

<sup>1</sup> И.Каримов «Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка тахдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари». Тошкент, «Ўзбекистон» 1997 й. 137 бет.





va tarbiyaga yangicha uslub bilan yondashish, yangicha fikrlash bilangina yangi avlod tarbiyasida muvaffaqiyatga erishish mumkin degan g'oyani oldinga suradilar. O'z navbatida o'zbek xalqining qadimiy urf-odatlarini bugungi kunda ham o'z o'rnini yo'qotmaganligi va saqlab qolinganligi, xozirgi avlod vakillari ham o'zbekona udumlarni davom ettirayotganligi milliy mentalitetimizning naqadr ulug'ligi, sofligi va xalqonaliyligi bilan ajralib turadi.

Tarixan rivojlanish davrini boshdan kechirgan XX asr boshlaridan zaminimizga professional san'at sifatida kirib kelgan xalqimizning tomosha san'ati, kino san'ati, teatr san'ati, raqs san'ati va uning tarixiy rivoji o'z aksini topadi. Shuningdek, tarixdan xalq orasida rivojlanib kelgan xalq amaliy san'ati, tasviriy san'at ham musiqa san'ati bilan uyg'un holda rivojlanib, bir-birlarini to'ldirib kelganligini ko'rish mumkin.

O'zbek xalqining musiqa madaniyati alohida tarixiy rivojlanish bosqichlariga ega. Ajdodlarimizdan bizgacha etib kelgan musiqiy merosimiz bugungi kunda ham ma'naviyatimizning sarchashmasi bo'lib xizmat qilmoqda. Musiqa madaniyatimizning tarixi, maqom san'ati, ijrochilik yo'llari va maktablari, xalq folklor va dostonchilik san'ati ham mustaqillik yillarida xalqimizning unutilayozgan udum, an'alinini qayta tiklash yo'lida ulkan ishlarni amalga oshirdi.

Albatta har bir millat, xalq o'z tarixini bilishligi hayotiy zaruratdir. Shunday ekan o'zbek xalqining ham ajdodlardan qolgan boy tarixiy merosini, madaniyati va san'ati tarixini xozirgi avlodlarga, ayniqsa yoshlarga etkazish jarayoni barkamol avlod tarbiyasida muhim manba bo'lib xizmat qilishi tabiiydir. Zero jahonga Abu Ali Ibn Sino, Muxammad al - Xorazmiy, Ahmad al -Farg'oniy, Abu Nasr Farobiy, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zaxiriddin Muxammad Bobur singari ulug' farzandlarni bergan o'zbek xalqi o'zining boy madaniy tarixini ehzozlashga va shunday ulug' ajdodlari bilan faxrlanishga xaqlidir.

Qadimgi sharq xalqlari san'ati va madaniyati tarixi katta davrni o'z ichiga oladi. Qadimgi sharqda mavjud bo'lgan qadimgi Misr podshoxligi, old Osiyodagi Shumer, Akkad, Bobil (Vaviloniya), Ossuriya, Urartu, Xett davlatlari, Eron imperiyasi, O'rta Osiyo, Xindiston, Xitoy, va Janubiy Sharqiy Osiyodagi davlat va podshoxliklar jaxon madaniyati tarixida o'chmas iz qoldirdilar. Sharq xalqlari yashaydigan xududda quyosh nurining mo'lligi, suvi, toshqin daryolari, serunum erlari odamlarni erta dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanishga o'rgatdi. Qadimgi Sharqda san'at uzoq vaqt xunarmandchilikni bir qismi sifatida qoldi. Eramizdan avvalgi 5000-4000 yillardayoq bu erlarda sinfiy jamiyat - quldorlik jamiyati shakllana boshladi va bu jamiyat yangi eraning boshlarigacha davom etdi. Quldorlik jamiyati san'atining vazifasi esa ko'pchilikni boshqaruvchi sinfga,



ekspluatatorlar g'oyasini omma ichida targ'ib qilish bo'lib qoldi. Sharq xalqlarining realizmi ham o'ziga xos xususiyatga ega. U ko'pincha voqelik, kishilar va tushunchalarni fantastik obrazlarda, ramziy va shartli belgilarda tantanali, ulug'vor qilib ifodalaydi. Biz Sharq san'atini o'rganganda aloxida yirik san'atkorlar ijodi to'g'risida to'xtalmaymiz. Chunki, san'at namunalari omma ichidan chiqqan noma'lum iste'dod egalari tomonidan yaratilgan.

Qadimgi sharq san'atida qadimgi Misr san'ati aloxida o'rin tutadi. Qadimgi Misr san'ati deyarli 4000 yilni o'z ichiga olgan davrda tasviriy va amaliy san'at, me'morchilikni nodir durdonalari dunyoga keldiki bugungi kunda ham o'zining mahobati, badiiyligi bilan barchani hayratga soladi. Bu erda birinchi marta inson va uning mehnati san'atkor asarida o'z ifodasini topdi. Qadimgi Misr san'atining yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, u din bilan aloqada va unga tobe bo'lgan. Misr ehromlari qatoridan joy olgan uch dinastiya firavni Joser maqbarasi, IV dinastiya firavnlari Xufu, Xafra va Minkiura piramidalari Fifadagi Karnak va Luksor ibodatxonalari gigant me'morchilik san'atining nodir namunalaridir. Qadimgi Misr tasviriy san'ati me'morchilik bilan bog'liq xolda rivoj topdi. Misr san'ati umumjahon san'ati taraqqiyotida o'ziga xos qaytarilmas o'rinni egallaydi.

Old Osiyo san'ati deganda o'rta er dengizi, xavzasining sharqiy qismi soxillari, Kichik Osiyoning tog'li rayonlari territoriyalarida eramizdan avvalgi Shumer, Akkad, Ossuriya, Urartu, Bobil kabi qator davlatlar mavjud bo'lib, ular jaxon san'ati tarixiga o'z xissalarini qo'shganlar. Bu erda xaykaltaroshlikni go'zal asarlari yaratildi, devoriy suratlar, nozik amaliy-dekorativ buyumlar ishlandi. Akkad podshoxligi davrida Old Osiyo yagona davlatga birlashtirildi. Shu davrda tasviriy san'at realizmi ortdi. Ayni shu davrda Shumer dostoni "Gilgamish" yaratildi. "Sargon xaykali", "Semit portreti", "Narasmin stellasi" o'sha davrning mashhur asarlaridandir. Old Osiyo san'atida nodir me'morchilik va tasviriy san'at yodgorliklari yuzaga keldi.

Axmoniyilar davrida vujudga kelgan san'at o'rta sharq xalqlari tarixida muxim o'rinni egallaydi. Bu san'at bevosita o'rta sharqda yashaydian xalqlarining yangi o'zaro munosabatlari natijasida, atrofda xalqlar san'ati ta'sirida ravnaq topdi. Jumladan podsholar saroylarini qurishda Sug'd, Baktriya va Xorazmdan kelgan usta va san'atkorlar mehnat qilganliklari xaqidagi ma'lumotlar mavjudligi shundan dalolat beradi. Axmoniyilar davri san'ati atrofida mamlakatlar san'atiga ham o'zining sezilarli ta'sirini o'tkazgan.

Qadimgi Sharqda o'ziga xos xisoblangan Xindiston san'ati ham qator taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tdi. Bu taraqqiyot jarayonida xind san'atiga gox Shumer, gox Grek san'atining ta'siri bo'lgan. Lekin shunga qaramay, uning san'atida o'ziga xoslik mavjud bo'lib, u asosan xalq san'ati, ayniqsa hunarmandchilik ta'sirida bo'lgan. Xindiston san'ati qadimdan xar-xil dinlar



tapsirida rivoj topgan. Qadimgi Xindiston san'atining gullagan davri Mauriya sulolasi (e.av. 272-232 y)da sodir bo'ldi. Ashoka xukmronligi davrida buddizm keng tarqaldi. Ibodatxonalar qurilishiga, tasviriy san'at asarlariga keng eptibor berildi. Adjantadagi g'or ichidagi ibodatxona va shunga o'xshash qator san'at asarlari qadimgi xind madaniyatining nodir namunalari.

Xulosa qilib aytganda qadimgi sharq san'ati uyg'onish davri san'atning rivojlanishiga muhim bosqich bo'lib xizmat qiladi.

## **O'rta asr uyg'onish davri namoyondalari**

### **Axmad al-Farg'oniy**

Axmad al-Farg'oniy yaqin va O'rta Sharqda "Xosib" (matematik) martabasiga sazovor bo'lgan. Axmad al-Farg'oniy Markaziy Osiyo o'yg'onish madaniyatining yirik arboblardan biri hisoblanadi. Al-Farg'oniy har tomonlama bilim sohibi bo'lib, ilmi nujum, jo'xrofiya, matematika, tabiatshunoslikning boshqa sohalarida nafaqat musulmon sharqida, balki Yevropada ham katta shuhrat topganligi ma'lum. Ulug' olim tug'ilib o'sgan Farg'ona o'lkasi qadimdan o'z davrining yuksak madaniyatiga ega bo'lgan va taraqqiy etgan o'lka bo'lgan. Xo'jand, Axsikent, Marg'ilon, Qubo, Qo'qonning shuhrati o'sha davrlarda ham yuksak edi. Uning quyidagi asarlari mavjud: "Astrolyubiya xaqida mukammal kitob", "Astrolyubiya san'ati xaqida", "Etti iqlim kitobi", "Marmarning xizmati xaqida kitob", "Samoviy xarakterlar va yulduzlar fanining majmuasi xaqida kitob" asarlari bizgacha etib kelgan. U ilm-fan rivojlangan shaharlarda yashab ijod qildi. Bag'dod xalifasining "Baytul xikma" akademiyasida ishladi. Umrining so'nggi yillarini Misrda o'tkazdi va shu erda vafot etdi. Yevropadan "Al-Fraganus" nomi bilan mashhur bo'lgan. Uning ilmiy asarlari jaxonning eng katta kutubxonalarida saqlanadi.

### **Abu Nasr Farobiy**

Abu Nasr Farobiy 873 yili tavallud topgan. 950 yilda vafot etgan. O'tror shahrida yashagan. Farobiyning madaniyat sohasiga qo'shgan xissasini turli fan sohalarida olib borgan ilmiy tadqiqotlari, yozgan asarlari asosida aniqlash mumkin. "Masalalar manbai", "Qonunlar xaqida kitob", Falakiyotning davomiyligi", "Xajm va miqdor", "Katta musiqa kitobi", "Musiqa xaqida so'z", "Inson ahzolari xaqida risola", "She'r va qofiyalar", "Lug'atlar xaqida kitob" singari ko'plab kitoblar qoldirdi. Masalan, xunarmandchilik, tabiblik, duradgorlik va boshqalar nuqtai nazaridan ularni "xunarmandchilik" va "san'at" soxalariga bo'ladi. Farobiy "Musiqa xaqida katta kitobida" bu bilimni boshqa nazariy bilimlardan farq qilishini, ularni egallash uchun vosita va usullar o'rganish talab qilinishini aytadi. Farobiyning ilm xaqida qarashlarida sharq o'yg'onish davri ijtimoiy tafakkurining



ilg'or yo'nalishlari o'z ifodasini topadi, u ma'naviy madaniyatimiz ravnaqiga qo'shilgan katta xissadir.

### **Abu Ali Ibn Sino**

O'yg'onish madaniyatining ulkan arboblardan biri Ibn Sinoning asli ismi sharifi Abu Ali Al-Xasan ibn Abdulloh Ibn Sino bo'lib, 980 yilda Buxoroning Afshona qishlog'ida tavallud topgan. Zamona zayli bilan Xorazm, Eronni turli shaharlarida xayot kechiradi. Sargardonlik yillarida o'zining yirik asarlarini yozadi. 1037 yilda Isfaxonda vafot etadi. Ibn Sino jaxon madaniyati tarixida qomusiy bilimga ega bo'lgan yirik arbob sifatida alohida o'rin tutadi.

Uning fanni turli sohalariga oid 450 dan ortiq asari mavjudligi to'g'risida ma'lumot berildi. Ularda tibbiyot, musiqa, falsafa, etika, ilohiyotshunoslik, tilshunoslik, estetika masalalariga oid fikrlar beriladi. U yaratgan kitob "Ash-shifo" 21 tomdan iborat bo'lib falsafiy va tibbiy bilimlar qomusi xisoblanadi. Ibn Sino badiiy namunalari, she'rlar, qissalar, ruboiylar ijod qildi. "Tayr qissasi". "Solomon va ibsol", "Xay ibn Yakzon" qissalari va o'zining serqirra boy ijodi bilan jaxon madaniyati taraqqiyotida favqulodda rol o'ynaydi.

### **Abu Rayxon Muxammad Ibn Axmad Beruniy**

Uyg'onish madaniyatining yirik arbobi Beruniy 973 yil sentyabrda Xorazmning qadimgi poytaxti Kat shahrida tug'ildi. ("Berun" so'zi tashqi shahar ma'nosini bildiradi). 16-17 yoshidayoq matematika va asronomiyadan etuk olim bo'lib etishdi. 995 yilda dunyoda birinchi bo'lib globusni yaratdi, oy tutilishini kuzatdi. 997 yilda uning sargardonlik xayoti boshlanadi. Ray, Gurgon, G'azna shaharlarida yashaydi. Shu davrda Ibn Sino bilan uchrashadi. 1048 yilda G'aznada vafot etadi. Uning o'tmish yodgorliklari", "Xorazmning mashhur zotlari", "Geodeziya", "Xindiston", "Qonuni mahsudiy", "Mineralogiya", "Saydona" singari yirik asarlari mavjuddir. "O'tmish yodgorliklari" asarining bir katta bo'limida urf-odatlar, rasm-rusmlar, afsonalar, folpklor san'ati, xayit bayramlari, diniy marosimlar, va Navro'z bayrami xaqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Buyuk asari "Xindiston" kitobida xind madaniyati tarixiga bag'ishlangan xazinalar o'rin olgan. Abu Rayxon Beruniyning ilmiy va falsafiy qarashlari o'sha davrda keng tarqalgan g'oyaviy kurashlarda katta ijobiy axamiyatga ega bo'ldi. Uning xoki 1997 yilda vatandaoshlarimiz tomonidan, olib kelinib Beruniy shahriga dafn qilingan. Bu er barchaning ziyoratgohiga aylangan.

### **2.O'zbek musiqasining tarkib topish qadriyatlarini.**

Islom badiiy va ilmiy ijodiyotga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Ushbu fenomenni tafakkur etish, doimo o'ziga xos muammoli masala bo'lib kelgan. Ammo, shunday bo'lsa-da bu haqda mavjud manbalarga asoslangan holda fikrlar (ilmiy farazlar,

taxminlar) bildirilgan va yozilgan. Har bir tegishli manbada an'anaviy musulmon madaniyati o'ziga xos tarzda talqin etilgan. Islom va musiqa muammolarini chuqur o'rganishda ba'zan manbalar va materiallarning talab darajasida emasligi (ya'ni, masalalar echimiga qoniqarli javob beruvchi ma'lumotlarning etishmasligi) ham bu mavzuni atroflicha yoritish murakkablashtiradi.

Islom va musiqa muammosi ikki yo'nalishda o'rganilishi mumkin. Birinchisi "rasmiy" Islom, ya'ni mazhablari va talqinlari, ikkinchisi esa din ichida vujudga kelgan tasavvuf oqimidir. Ana shu ikki dunyo miqyosida musiqa turli badiiy va falsafiy-yestetik shakllarga ega bo'ldi. Bunda musiqa shakllarining ko'lami, musiqa tinglash va uni o'rganishish man etilishidan tortib, toki musiqa yordamida Ollohga etishish kabi jarayongacha bo'lgan tushunchalar bilan belgilanadi.

Birin-ketin vujudga kelgan bu ikki dunyo murakkab tarzda bir-biri bilan «qorishib» ketgan. O'rta asrlarda yashagan inson "oddiydan – murakkabga" tomon Islom qonunlarini o'rgangan. Ya'ni, Islom asoslari, so'fiylik shariati, tariqati va hokazo. Tasavvuf Islom dini qonunlari, g'oyalari va timsollarini chuqur falsafiy, ramziy-estetik ma'no va mazmun bilan boyitadi. Ma'lumki, Qur'oni Karimda musiqa san'atiga bo'lgan munosabat to'g'ridan-to'g'ri (ochiq) bildirilmagan. Musiqa mavzusi ko'proq xadislarda yoritilgan. Musiqa tarafdorlari va qarshilar aynan shu manbaga tayangan holda ish ko'rishgan. Turli xil ilmiy izlanishlardan shu narsa aniqlanadiki, musiqaga bo'lgan qarshilikning ikkita asosiy sababi mavjud. Har bir sabab ma'lum bir tarixiy davrga to'g'ri keladi va siyosiy-mafkuraviy hamda madaniy rivojlanish bilan bog'liq bo'ladi.

Dastlabki musiqaga bo'lgan qarshilik, VII-VIII asrlarga to'g'ri keladi. Islom dini xristianlik, yahudiylik zardushtiylikka nisbatan qarshiligi bo'lmasa-da, o'zining "ichki dushmanlari" bo'lmish "butparastlik", "ko'pxudolik"ka qarshi ayovsiz kurash olib borgan. Ana shu "unsurlar" arablarda (Islom dini joriy bo'lishidan avval) tovush, so'z, tasvir kabi materiallarda aks ettirilgandir. Masalan, musiqa butparastlar diniy marosimlarida qo'llanilib, ularning afsonalari bilan yo'g'rilgan. Mavjud ma'lumotlar (ilmiy farazlar,taxminlar)ga ko'ra aynan shu sababli Islom dini nozil bo'lganida musiqa man etilgan.

Musiqa bilan bog'liq tasvirlar devorlarga ham chizilgan O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston hududlaridan topilgan musiqachilarning terrakota haykalchalari bu erlarda musiqa ancha yuqori mavqega ega bo'lganidan dalolat beradi. Zardushtiylik va buddaviylikda musiqadan keng foydalanilgan. Ular marosimlarda murakkab tizimli musiqiy timsollarga tayanishgan. Buddizm ramziga mashhur "Ayritom peshtoqlari"ni bog'lash mumkin. Bu davrda musiqa ham tasviriy san'at singari Islomdan bo'lak dinlarning ruhi va g'oyasini ifodalab, ularning timsollarini o'zida namoyon etgan. Ammo musiqa va tasviriy san'atga nisbatan qo'llaniluvchi huquqiy tartibot o'sha paytda hali yo'q edi. Uning joriy



etilishi VIII-IX asrlarga to'g'ri keladi. Boisi, bu davrda xadislar joriy bo'lib, Islomning to'rt asosiy mazhablari – xanbaliy, molikiy, shofeiyy va xanafiyy tashkil topdi (ushbu mazhablar ularning asoschilari nomi bilan atalgan). Mazkur mazhablarning bevosita musiqaga doir fikrlari keyinchalik yozib qoldirilgan qonunga oid, tasavvuf va bahzan musiqashunoslikka oid manbalarga iqtibos tarzida kiritilgan. Islom dinida musiqaning tahqiqlanishiga sabab, boshqa dinlarga o'xshamaslik, ya'ni islom ahlini musiqa bilan chalg'itib, dinning ta'sir kuchini susaytirmaslikda edi. Islom dini o'z marosimlarini har qanday «dunyoviy unsurlar» bilan buzishdan saqladi. Bu holat musiqadan voz kechishning ikkinchi sababidir. IX-XI asrlarda Islom ahli madaniyatida “dunyoviy” rag'bat hukmronlik qila boshlagan. Shaharlarda musiqa etakchi o'ringa ega bo'ladi. Musiqa hissiyot rohati uchun vosita hisoblangan. Musiqa “dunyoviy” yashash tarzining boshqa ko'rinishlari, ya'ni, may, qimor o'yini kabilar qatorida insonni oxiratga bo'lgan ishonchini susaytiradi yoki umuman yo'qotadi, degan fikrni ilgari surgan. Musiqa man etilishining ikkinchi sababiga “mutriblar” ham o'z hissasini qo'shishgan. Mutriblar, ya'ni musiqachilar asosan ziyofatlarda, mayxo'rliklarda qatnashib, musiqa chalishgan (yoki kuylashgan) va evaziga haq olishgan. Bazmu-jamshiddagi musiqa ijrosi din tomonidan qattiq qoralangan. Ahloqan buzuvchi musiqachilarga qarshi musiqa san'atining yirik namoyandalari ham qarshi chiqishgan. Bunday toifa musiqachilarga o'z navbatida Alisher Navoiy ham “munosib tahrif” bergan.

O'sha davrlarda qonunshunoslar inson hayotida musiqa bilan to'qnashadigan turli vaziyatlarni hisobga olgan holda qonunlar ta'sis etardilar. Asosan diniy va tasavvufga oid kitoblarda musiqa 4 turli qoidalarga bo'ysungan holda ijro etilishi belgilangan: halol (shariatga muvofiq ravishda), harom, muboh va makruh.

Din bilan bog'liq bo'lgan, ya'ni qurhoni Karimni qiroat bilan o'qish, azon chaqirish, harbiy musiqa kabilar esa qonuniy ravishda ruxsat etilgan bo'lib, musiqa san'atining shakllari sifatida tan olinardi. Allomalardan biri Al-Faruqiyning tahkidlashicha, “Islom hech qachon musiqa san'atiga qarshi bo'lmagan. Din faqat ayrim holatlardagina ma'lum bir shakllarni qabul qilmagan. Bu holatlar insonga musiqaning salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan bog'liqdir”. Islom dini va musiqaning o'zaro munosabatlari sulolalarning almashuvi bilan ham bog'liq. Sho'ningdek, jamiyatning har bir tabaqasi dinga turlicha munosabatda bo'lganligi sababli, musiqaga bo'lgan munosabat ham albatta shu holat bilan bog'liq bo'lgan. Ayni vaqtda musiqa bobida Islomning nazariy qonunlari zamonaviy jamiyat bilan to'qnasha boshladi. Bu holat XIX asrning oxirlarida yorqin namoyon bo'la boshlagan. Demokratiya, mahrifatparvarlik kabi harakatlar dinga nisbatan yangicha bulgan munosabatni yuzaga keltirdi. Odamlar siyosat, texnika, evropacha ilm kabi sohalarga intilib, dinning ko'pgina qonunlarini bahzan ixtiyoriy, bahzan ixtiyorsiz ravishda buzdilar. Bunday holat dinni ma'lum darajada islohotga uchrashiga sabab



bo'ldi. Mahrifatparvarlik harakati musiqa madaniyati sohasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Masalan, yangicha nodir musiqiy durdonalarning yaratilishi, yangi cholg'ular, musiqiy texnika vositalari, yangicha musiqiy ilm va hokazo. Bunday yangiliklar "Islom va musiqa" muammosini yanada murakkablashtirdi

Musulmonlar o'zlariga yana savol bera boshladi: musiqaga qanday munosabatda bo'lish kerak muammo "yangicha" tafakkur etilib echimini topishi kerak edi. XX asr, "Islom va musiqa" muammosiga o'zgarishlar olib keldi. "Musiqiy sekulyarizatsiya" (musiqani din ta'siridan xalos etish) jarayoni turli vaqtda, turli shakllarda islom dunyosining yirik markazlarida kecha boshladi (arab mamlakatlari, Turkiya, Eron va b.). Islom dinining ichki yo'nalishlaridan biri sanalgan tasavvuf oqimi, o'n asrdan ziyod tarixiy jarayonni o'z ichkiga olgan holda butun musulmon dunyosida tarqalgandir. Xudoga va Haqiqatga erishishning ilohiy jarayoni ("shariat" – musulmonlarning diniy qonuni, tariqat – so'fiylik yo'li, haqiqat – Ollohga etishish) sufiylik ta'limotida san'at bilan bog'liq. So'fiylik ta'limotida musiqa, she'riyat va raqs san'atining etakchi turlariga aylandi. San'at – shayxlarning o'zaro munozaralariga sabab bo'lgan. Ba'zilar Ollohga erishish yo'lida san'at vositasini qulay deb bilsalar, ayrimlar buning aksini aytar edilar. Masalan, bunday baxslar kiromiylar va qodiriylar tariqatlari o'rtasida olib borilgan. Kiromiylar Ollohga erishishda musiqaning o'rnini yuqori deb bilsalar, qodiriylar musiqa, baland tovush vositalarni umuman rad etganlar. Bu singari baxslar qanchalik ko'p bo'lmasin, so'fiylik ta'limoti aynan musiqa sababli o'z mohiyatini ko'rsata oldi. (Aynan san'at tufayli tasavvuf o'zining hayotiy qarama-qarshiliklarini echa oldi va odamzodning yashash sirlari echimini topa oldi.

So'fiy go'sht emagan, dori-darmon ichmagan, cho'milmagan, o'zini ochlikka mahkum qilgan, qarindoshlari xaqida gapirmagan, negaki, bularning barchasi moddiy hayot bilan bog'liq bo'lgan.

Insonning ichki kechinmalari (sub'ektiv kechinmalar) so'fiylikda yuqori darajali ahamiyatga ega bo'lgan.

Tasavvuf nazariyotchilari san'atni Ollohga etishish, yo'lidagi boshlang'ich nuqta deb bilganlar. Tasavvuf uchun barcha san'at turlari orasida musiqa birinchi o'rinda turgan. Islom dini musiqa sohasini tahqiqlagan bo'lsa-da, so'fiylik ta'limotida musiqaga batamom qarama-qarshi nazar bilan qaralgan. Albatta, avvaliga tasavvuf estetikasi musiqadan ochiq-oydin foydalana olmagan musiqa asta-sekinlik bilan kirib kelgan.

Dastlabki tasavvuf oqimining g'oyalari (VIII-IX asrlar) islom diniga "qarama-qarshi" bo'lgan. Yana shunday qarshiliklardan biri musiqa edi. Musiqa so'fiylarda "samoh" (tinglash) atamasi bilan qo'llanilar edi. Dastlabki so'fiylik yig'ilishlarida shayxlar musiqadan keng foydalanishgan (majlisi samoh). Majlislarda musiqiy aytimlar, she'riy shakllardan foydalanishgan. Ammo ular o'ziga xos so'fiylik



ma'nosiga ega edi. Ko'pincha ruboiy-taronalar pand-nasihati va falsafiy-etik karakterda bo'lardi. Markaziy Osiyoda tasavvufning ko'pqirrali dunyosi, darveshlar, qalandarlar, faqirlar tomonidan namoyon etilardi. Tasavvufning Markaziy Osiyo xalqlaridagi shomonchilik bilan genetik munosabati mavjud. Bu hudud xalqlarida "Yassaviyxonlik" tariqati ham keng rivojlangan edi. Tariqat asoschisi Hoji Ahmad Yassaviy bo'lib, uning merosi og'zaki an'ana orqali bizgacha etib kelgan. Ahmad Yassaviy maqbarasi (qabri) 800 yildan buyon Markaziy Osiyo musulmonlarining muqaddas ziyoratgohi hisoblanadi. Inson hayoti ziyoratdan-ziyosatgacha, ya'ni qismlarga bo'lingan. Hayotiy turkumlar chegarasi Yassaviy xonaqosida o'tkazilgan zikr raqslari bilan belgilangan.

Inqilobdan avvalgi davrda Yassaviy xonaqosida "kichik" zikrlar bir haftada bir marta o'tkazilardi (juma kunida). Bir yilda bir marta esa xonaqoga ziyoratga borilgan va zikr tushish marosimi o'tkazilgan. "Katga" zikr marosimi 25 dekabrda 5 fevralgacha bo'lgan vaqt mobaynida amalga oshirilardi (qishki chilla vaqtida). Hozirgi davrda zikr marosimlari o'tkazilmay qo'yilgan. Ammo shunday bo'lsa-da, bu erlarga sayohatchilar, shuningdek, Yevropa, Amerika, Osiyo mamlakatlaridan sharqshunos olimlar kelib turishadi. Madrasa toliblari, Xudo yo'liga kirgan odamlar, ma'naviy va jismoniy sog'ayishni istaganlar ham bu erlarga kelishadi. Yakka holda, oilaviy, guruh bo'lyb odamlar xonaqo atrofini aylanadilar va devor g'ishtlariga qo'l urib, yuz-ko'zlariga surtadilar. Kishi bilmas tarzda bu erga shamanlar ham kelishadi. Ular ham ishlarini boshlashdan avval duo olish ilinjida bo'lihadilar. Ammo ular shuni ham bilishadiki, ziyoratni Yassaviyning birinchi ustozini Arslonbob qabridan boshlash kerak. Shunday tartib bo'lmasa, ziyoratlar qabul bo'lmaydi.

Arslonbob va uning shogirdi bo'lmish Axmad Yassaviy maqbaralarini xalq turli afsonalar bilan bog'lashgan. Aytishlaricha, ikki dindorning mozorlari o'rtasida er osti yo'lagi bor emish. XIV asr oxirlarida Temur hukmiga binoan mozo ustiga xonaqo qurilishi boshlanganida g'ayrioddiy voqealar sodir bo'la boshlagan. quruvchilar anchagacha ish boshlay olmaganlar, Kundalik quruvchilik ishlaridan so'ng, katta ho'kiz kelib, qurilgan joyni buzib ketar ekan. Shu tarzda bir necha kun o'tgan. Temurning tushiga Hoja Ahmad kirib, xonaqo avval Arslonbob mozori ustiga qurilishi kerakligini aytgan. Shundan so'ng ishlar yurishgan. Arslonbobning qabri Chimkent viloyatining qizilqum rayonida joylashgan. Bu erlarda shaman (baxshi)chilik keng rivojlangan. Qadimdan bu erda avliyo shaxslar yashagan. Atrofdagi qishloqlarda yashovchilarning ko'pchiligi Yassaviy bilan qondosh ekanliklarini tahkidlaydilar. Aynan shular Turkiston xonaqosida zikr marosimlari uchun yig'ilardilar. Maxalliy shamanchilik so'fiylik ia Islom tasavvurlari bilan bog'liq. Ana shu asosda Ahmad Yassaviy ta'limoti yuzaga kelgan.



Hoja Ahmad Yassaviy turli nomlar bilash qayd etiladi: Xoja Ahmad, Hazrati Sulton, Hazrat, Piri Turkiston, Ota Yassaviy va hokazo. Ahmad Yassaviy o'z ta'limotini turk xalqlariga bag'ishlagan edi. Yassaviy tariqati (yo'li) aynan undan boshlangan. Ushbu tariqat Markaziy Osiyo va Qozog'iston yashovchi o'troq va ko'chmanchi xalqlar orasida tarqalgan. Yassaviydan "ota" deyilmish geneologik shajara boshlangan. Yassaviy ta'limoti o'z ta'sirini boshqa so'flylik tariqatlariga ko'rsatgan: naqshbandiya, kubroviya, qalandariya va boshqalar.

Ahmad Yassaviy merosi – bu uning "hikmatlari"dir. "Hikmatlar" – o'ziga xos she'r-doston bo'lib, og'zaki tarzda ijod qilinadi. Hikmatlar ohanglarga solingan. Ular yakkaxon yoki jamoa bo'lib ijro etish uchun mo'ljallangan. Og'zaki, yozma tarzlarda tarqatilgan. Nashr qilingan hikmatlar bitta kitobga "Devoni hikmat"ga jamlangan qoidaga ko'ra, hikmatlar to'rtliklardan iborat bo'lib, umumiy mavzu, mazmunga ega bo'lgan.

Hazrati Sultonning qilgan ishlarini musiqasiz tasavvur etish mushkul. Uning hikmatlari Markaziy Osiyo va Qozog'istondagi barcha diniy aytimlar qatlamidan o'rin olgan (qalandarlar, maddohlar, baxshilar, otinlar ijro bisoti shular jumlasidandir). Hikmatlarning ijro etilishi uslublari ko'lami ham ancha keng bo'lgan (sharhli deklamatsion-rechitatsiyadan, maqom san'atiga yaqin yuqori kasbiy darajadagi "xonish"). Xoja Ahmad va uning hikmatlari tarafdorlari "yassaviyxonlik" nomini olgan an'anaga asos soldilar. Va nihoyat, Ahmad Yassaviy va uning hikmatlari so'fiylarda "zikri jaxriy"ning rivojlanishiga sabab bo'lgan. A.Yassaviy haqidagi ma'lumotlarni turli manbalarda uchratish mumkin (hikmatlar, so'fiylikka oid adabiyotlar afsonalar va hokazo). A.Yassaviy shaxsi sirli, echimini topmagan tilsimdir. Ba'zi sharqshunoslar uni hattoki, bu dunyoda yashaganligini ham hali hanuz gumon ostiga qo'yadilar. Shu bilan birgalikda xaqiqat va to'qima o'zaro shu qadar bog'lanib ketganki, ularni ajratib bo'lmaydi.

Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra Yassaviy Yassi shahrida ba'zilarida esa Sayramda tug'ilgan deb e'tirof etiladi. U dindorlar oilasida dunyoga kelgan. Otasi – Shayx Ibrohim ota va onasi qorasoch momo, o'g'illari Ahmad 7 yoshligidayok olamdan o'tgan edilar. Shu yoshida u "buyuk shayxlar"dan biri bo'lmish Arslonbobning tarbiyasiga o'ggan. Arslonbob Ahmadga islom dini asoslarini, undan so'ng esa so'fiylik ta'limoti va zikrni targ'ib etishni o'rgatdi.

Arslonbobning vafotidan so'ng Yassaviy eng katta hikmatlaridan birini unga bag'ishlagan. Arslonbob tarbiyasiga o'tmasdan avval ham Ahmad ilohiy kuchga ega bo'lib, uning hayotida xronologik ravishda turli g'ayri oddiy voqealar sodir bo'lib turgan. Umrining birinchi yilida arvohlar, ikkinchi yilida –payg'ambarlar, uchinchi yilida – chiltonlar, to'rtinchi yilida – Muhammad (s.a.v.) va Xizr buvalar kelib turishgan ekan. Ular kichik Ahmadni Xudo yo'liga xizmat qilish uchun tayyorladilar. Butun umri davomida ilohiy kuchga ega bo'lgan odamlar

Yassaviyga yordam berib turadilar. Arslonbob vafotidan so'ng Yassaviy o'qishini davom ettirish uchun Buxoroga ketadi va u erda Xoja Yusuf Hamadoniya murid tushadi (vafoti taxminan 1140-1141yy.). O'qish so'ngida Yassaviy shayxlik qilish uchun ustozidan duo oladi. Keyin esa uning o'zida muridlari paydo bo'ladi Yassaviy so'fiylar jamoasiga boshchilik qiladi.

Ammo biroz vaqt o'tgandan so'ng Yassaviy Buxorodagi faoliyatini to'xtatib, o'zining dashtlariga qaytadi. Uning muridlari G'ijduvoniyni qo'l ostiga o'tadilar. Yassaviy esa umrining oxirigacha Turkistonda yashaydi (taxm. vafoti 1166-1167 yy.). Uning o'z vataniga qaytishini bir nechta sabablarini aytishadi. "Yuqoridan" turk ko'chmanchi xalqlariga Islomni targ'ib etish haqida belgi beriladi. Yana bir sababi, "egri" yo'lda yurganlarni "to'g'ri", ya'ni Islom yo'liga jalb etish. Islom ahli tomonida A.Yassaviy Muhammad (s.a.v.)dan so'ng turgan. Muhammad (s.a.v.) 63 yoshlarida vafot etgan bo'lsalar, Yassaviy 64 yoshida erdagi "nosoz" hayotdan charchab, er ostiga kirib ketgan deyiladi. Ahmad Yassaviy hikmatlarining muhim mavzui – zikrdir. U to'g'ri ma'noda so'fiyning yuragida paydo bo'lib, so'ngra yig'i va iltijolar ko'rinishida tashqariga chiqadi. Yassaviy izdoshlari zikrni o'z tariqatlarining asosiy tavsifnomasiga aylantirganlar. Ular amaliyotda qo'llaydigan zikr "jaxriya" (yuqori ovozli zikr) deyiladi. Bu so'z tariqat nomiga aylandi ("yassaviy" atamasi vaqt o'tishi bilan o'z o'rnini "jaxriya" atamasiga bo'shatib bergan). Bu hol XVIII-XIX asrlarda bo'lgan. Zikrning boshqa turi "xufiya" deyilardi. "Xufiya" zikri oxista, berk tarzda o'tkazilardi. Ushbu marosimning "zikri arra" turida Yassaviyning o'zi ham ishtirok etgan. Bu haqda Yassaviy hikmatlaridan bilish mumkin. "Zikri – arra" haqidagi batafsil ma'lumotlar tasavvufga oid asarlarda (XVI-XVIII asrlarda) paydo bo'lgan. Zikr, ya'ni Olloh nomlarini (ismlarini) yodga olishni. Haqiqatga erishmoqni istagan har bir so'fiy o'tkazishi shart. Yassaviy zikrni 5 yoshidan amaliyotda qo'llay boshlagan.

Tasavvuf ta'limoti asosida soxta va haqiqiy so'fiylarni aniqlash g'oyasi yotadi. So'fiylik zikrlarida Xudoning etti nomi aytilar edi: Yassaviy hikmatlarida esa Ollohning uchta sifati qo'llangan: xay (tirik), xaq (xaqqoniy), xuva (U, ya'ni Olloh). Yassaviy hikmatlarida "zikri ilohiy", "zikri qalb" kabi zikr turlari haqida ham qaydlar bor. Yassaviy tariqatida zikrning o'ziga xos turi "chaxor zarb" deyiladi. "Chorzarb"ning o'ziga xosligi tavhidning takrorlanishidadir. Chorzarbning ochiq va baland ovozda aytilishi, raqs jo'rligida bo'lardi. Chorzarbning so'z formulasi – "La ilaha illalloh"dir. Bunda har bir bo'g'in ma'lum harakatlar yordamida aytilgan. Chorzarbning ritmik formulasi ham bo'lgan ("yak zarb", "du zarb", "se zarb", "chor zarb"). Ushbu formulalar diniy ruhdagi boshqa aytimlar ham qo'llanilgan. Yak zarb, du zarb, se zarb, chor zarb deb nomlangan

zikkir qismlari kuylari Toshkent va Farg'ona vodiysida XIX-XX asrlarda qo'llanilgan diniy aytimlar bilan hamohang. Jumladan,

Yak zarbda Ollohning nomi bir marta aytiladi;  
Du zarbda Tangrining nomi ikki marta antiladi;  
Se zarbda Yaratganning nomi uch marta aytiladi;  
Chorzarbda Xudoning nomi to'rt marotaba aytiladi.

Zikkir aytuvchilar esa hikmatlarda "zokir"lar deb keltiriladi. Zikkir arrada haqiqatga erishish uchun jazava holati belgilangan. Zikkir arra, afsonalarga ko'ra Zakariyo payg'ambarning o'limi bilan bog'liq ekan. Zakariyo dushmanlaridan qochib daraxt kovagiga berkinadi. Buni payqab qolgan dushmanlar esa daraxtni arralashadi, shunda Zakariyo ham qiynalib vafot etadi. Shu davrdan boshlab zikkir-arralar o'tkazila boshlangan. Zikkirda arraga o'xshash tovushlar, Zakariyoning o'lim oldi nolalari o'xshatma, taqlid etilgan. Yassaviy hikmatlari ikki asosiy yo'nalishda qo'llanilgan: 1) so'fiylik zikkrida, 2) diniy aytimlarda (qalandarlar, maddohlar, otin oyilar, baxshilar ijro bisotida).

Yassaviy hikmatlari ayollar zikkrida ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. XII asrda tasavvuf yo'nalishida "falsafiyashtirilish" kabi rag'bat paydo bo'ldi. Bunda samoh va raqsni so'fiylar marosimida qo'llanilishi asosiy masalalardan biri bo'lib qoldi. Bu davrda tasavvuf ta'limotiga oid bir qator kitoblar yozilgan: Al-Kalobodiyning "Kitab at-tahruf", Al-qushoriyning "Risala ahkam as-sama", Al-G'aznaviyning "Kashf al-maxjub" va boshqalar. Yaratilgan kitoblarning har birida samohga bag'ishlangan bo'lim mavjud bo'lib, bu an'ana asrlar davomida o'zgarmagan. Samoh ko'pgina tortishuvlarga sabab bo'lgan. Samoh tarafdorlari ham, qarshilar ham o'z savollariga javobni qurhon, Hadis, afsona va rivoyatlar bitilgan kitoblardan izlaganlar.

O'rta asrlarda samoh muammolari juda ham ahamiyatli hisoblangan. Unda ayniqsa amaliy muammolar birlamchi bo'lgan. IX-X asrlarda samohning uchta asosiy shartlari mavjud edi: zamon, makon va ixvan (jamo). Dastlabki uchta shartga Abulqosim Junaydiy-Bag'dodiy tomonidan aniq tahrif berilgan Tasavvufda "samoh aytimlari"da qo'llaniladigan so'z va atamalarga alohida e'tibor berilgan. Ularning talqini risola va lug'atlar batafsil yoritilgan. Tinglov va raqs zikkir marosimida vaqt nuqtai nazaridan tartiblashtirilgan edi. Zikkirning markaziy unsuri – vajd holatidir. Vajd holatidan so'ng so'fiy Haqiqatga erishadi.

Zikkirning asosiy ikki turi mavjud: bular, "zikkir-i xafi", "oxista zikkir" va "zikkir-i jaxri" – "baland tovushli zikkir". Zikkir ustoz shayx tomonidan kuzatib turilgan. Dastlab she'r yohud so'fiylik matnlari o'qilib, so'ngra esa qavval ijrosi ko'povozli ijro bilan almashinib kelgan. Ma'lum ruhiy holatga erishilgandan so'ng raqsga o'tilgan. Marosim davomida qurhondan olingan iboralar, ramziy so'zlar qayta-qayta takrorlanib, ma'lum bir ruhiy holat (meditatsiya)ga erishilgan. Masalan, xa,

xi, xaq, xuva va hokazolar shular jumlasidandir. Zikrda aytiladigan asosiy iboralardan biri “La ilaha illalloh”, ya’ni “o’zga iloh yo’qdur” bo’lib, unda Yaratganga hamdu-sano aytishdan iboratdir. Ana shu takrorlanuvchi ta’rif o’rtasida hofiz boshqa aytimlarni ijro etgan. Aytimlar diniy, falsafiy, mavzularda bo’lgan. Zikr avjida “Olloh” so’zi ko’p marotaba ko’p ovozli tarzda ijro etilgan.

Samoh marosimi haqida Yevropa va Rossiyalik sayohatchilar ham guvohlik berishgan. Ular Turkiya, Eron kabi mamlakatlardan Markaziy Osiyoga XVII-XX asrlarda tashrif buyurgan sharqshunos olimlar, elchilar, sayohatchilar kabi vakillar bo’lib, ushbu marosimlarni ko’rganlar va yozib qoldirganlar. Ba’zi tariqatlarda musiqa cholg’ulari keng targ’ib qilingan. O’ziga xos diniy ma’noga ega bo’lgan kuylar muqaddimada, bo’limlar orasida va zikr yakunida ijro etilgan. Jaloliddin Rumi asos solgan Mavlaviylar tariqatida (Turkiyada) nay ramziy cholg’u sifatida qo’llanilgan. Hatto cholg’ularga bag’ishlangan kitoblar ham yozilgan. Masalan, «Rubobnoma» (taxminlarga ko’ra bu asar J.Rumiyning o’g’li Sulton Valad qalamiga mansub), “Naynoma” (J.Rumi) kabi asarlar shular jumlasidandir. Samoh va zikr amaliyoti xonaqo, qalandarxonalarni yirik diniy-musiqiy o’chog’ (markaz)ga aylantirdi. Bu erlarda o’ziga xos shakllar va an’analar rivojlangan. Musiqaning falsafiy qarashlarga jalb etilishi, so’fiylar dunyoqarashi bilan bog’liqdir. So’fiy musiqa yordamida Ilohiy uyg’unlikka erishgan. Uning ko’z oldida bixisht (jannat) paydo bo’lib, undagi daraxtlarga qo’ng’iroqchalar ilingani namoyon bo’lgan.

Bixishtda yashovchilar musiqa tinglamoqni istasalar (samoh); Olloh daraxtga osilgan qo’ng’iroqchalarni harakatlantiradi. Yerdagi odamlar (ahli dunyo) bu tovushlarni eshitsalar, o’sha zahotiy oq jon beradilar. So’fiylikning har bir bosqichi – shariat, tariqat, mahrifat, haqiqat, ma’lum sonlar (maqom)ga to’g’ri keladi. Ularning soni 40-taga etgan (har biriga 10-tadan). Ahmad Yassaviy tariqatiga binoan “har bir so’fiy, har bir darvesh, har bir faqir 40 maqomni bilmasa, amaliyotda qo’llamasa ularning shayxligi, so’fiyligi, faqirligi yolg’ondir”.

Har bir maqom inson hayotining turli jarayonlarini belgilab bergan, ba’zilari esa ruhiy holatni belgilangan. Samoh nazariyotchilari maxsus atamalar tizimini o’ylab topganlar: bu “axval – i maqamat” (ya’ni, maqomlar ahvoli) kabi.

“Vajd” (jazava), samoh jarayonida erishiladigan holat. U ikki asosiy turga bo’linadi: turli ruhiy holat (ahvol), ikkinchi – kashfiyot. Samohning ruhiy holatlari haqida IX asr mualliflari ham yozib qoldirganlar. Masalan, al-Xujviriy: tarab, farax, g’am, shavq xususida ma’lumotlar bergan. X-XI asrlarning tasavvufga oid kitoblarida maqomlar, ahvol, vajd haqida ma’lumotlar keltiriladi. X-XV asrlarda yozilgan musiqiy risolalarda esa maqomlar tavsifi o’zgacha tarzda yoritilgan. Ularda so’fiylik bilan bog’liq ayrim qirrilargina o’z ifodasini topgan. O’n ikki maqomning ruhiy holatga bo’lgan ta’siri xususida Urmaviy, Omuliy, Marog’iy,



Jomiy, Xusayniy kabi mualliflar o'zlarining asarlarida imkonqadar ma'lumot berganlar. Ruhii holatga bo'lgan ta'sir dunyoviy-yestetik harakterga ega edi. Ammo keltirilgan ma'lumotlar samoh va maqomotning o'zaro bog'liqlik jihatlari yo'qligini tasdiqlamaydi.

### **Sharq manbashunosligi**

Sharqda o'ziga xos musiqa fanining yaratilishiga asos bo'lgan sabablar va manbalar. Abu Nasr Forobiy (873-950), Abu Ali ibn Sino (980-1037) va Ibn Zayla (vafoti 1049) ilmiy ishlarining yaratilishi, tarixiy, ilmiy va amaliy ahamiyati. Qomusiy ilmiy risolalarda o'zining mukammal ifodasini topgan musiqiy masalalar. Abu Abdullo Xorazmiy (X asr) va uning "Ilmlar kaliti" qomusiy asari. Unda bayon etilgan musiqiy ma'lumotlarning sharhi. Ixvonu-s-Safo musiqiy risolalari. Abul Faraj Isfahoniy (897-967) va uning mashhur "Qo'shiqlar kitobi". Asosiy mazmuni va ahamiyati. Safiuddin Urmaviy (1216-1294), Qutbiddin Sheroziy (1236-1310), Mahmud Amuliy (vafoti 1349) musiqaga doir ilmiy risolalari. Temuriylar davri musiqa madaniyati bo'yicha asosiy manbalar. Xoja Abdulqodir Marog'iy (1363 - 1434) va boshqalar. Alisher Navoiy davrida va uning rahnamoligida yaratilgan musiqiy-nazariy risolalar va ularning hozirgi zamon sharhlari. A.Jomiyning «Risolai musiqiy» asari. Najmiddin Kavkabi (XVI asr) va Darvesh Ali Changiy (XVII asr) musiqiy risolalari. Buxoroda Shashmaqom turkumining uzil-kesil shakllanishiga doir ishonchli yozma manbalar. Xorazm maqomlari turkumining uzil-kesil shakllanishiga doir asosiy manbalar. XIX asrda O'rta Osiyoda yaratilgan bayoz va kulliyotlarga izohlar. Ularning mavzulari, endilikda manba sifatida qo'llanilishi.

Yaqin va O'rta Sharq xalqlari musiqa manbashunosligining yirik namoyandalarining ilmiy tadqiqotlari. O'zbekiston musiqiy manbashunosligida amalga oshirilgan yangi tadqiqotlar va ustuvor rejalar o'z aksini topdi. Har bir xalqning o'z tarixi, madaniy yuksalishi, san'atining salnomasi mavjud bo'lib, bularning barchasi o'sha xalqning o'tmishini va kelajagini belgilaydi. O'zbek xalqi ham o'zining boy tarixiga, madaniyati va san'atiga ega bo'lib, uning rivoj topgan millat sifatida o'z o'rniga ega. Ajdodlarimizdan bizgacha etib kelgan ma'naviy madaniyat asoslari, san'at durdonalari, musiqiy madaniyatimizning noyob ijrolari, xullas madaniyat va san'atimizning barcha yo'nalishlardagi ko'rinishlari bugungi kunda ham bo'y basti bilan namoyon bo'lmoqda.

XX asrning so'ngi o'n yilligidagi yurtimizdagi o'zgarishlar natijasida, mustaqillikning sharofati bilan xalqimiz ajdodlarimizdan meros qolgan, o'zining boy madaniyati va san'ati tarixini chuqur o'rganishga imkoniyatlar yaratildiki, bu bebaho tariximizga yangicha yondashishni, uni yangicha tafakkur bilan anglashlikni taqozo etadi. "Xalqimizning kelajagi, - deb yozadi mamlakatimiz mustaqilligi asoschisi I.Karimov,- eng avvalo, uning o'ziga, ma'naviy qudratiga va



milliy ongining ijodiy kuchiga bog'liqdir. Moddiy farovonlikka tabiiy intilish millatning ma'naviy va aqliy o'sish ehtiyojiga g'ov bo'lmasligi lozim. Ma'naviylik va ma'rifiylik xalqimizning ko'p asrlik tarixi davomida uning eng kuchli o'ziga xos xususiyati bo'lib keldi"<sup>1</sup>.

Ushbu fikrlardan kelib chiqib, shunday xulosa qilish mumkinki xalqimizning ko'p asrlik boy madaniy merosini o'rganishda millat tarixi, qadriyatlar, milliy mafkura, milliy o'zlikni anglash asosiy mezon vazifasini bajaradi. Xalqimizning madaniyat va san'at tarixini o'rganishda ana shu mezonlarga suyangan holda fikrlashga undaydi va milliy iftixor tuyg'usini uyg'otadi. Xalqimizning boy madaniyati va san'at tarixi bilan qisqa satrlar orqali yaqindan tanishtirish ya'ni, uning rivojiga yangicha nazar tashlash deb qabul qilish o'rinlidir. XX asr oxirida mamlakatimizda milliy mafkuraviy siyosat orqali milliy istiqloq g'oyasi tamoyiliga asoslangan madaniyat tushunchasi, komil inson tarbiyasida madaniyat va san'atning o'rni, ma'naviy madaniyat asoslariga tayanuvchi diniy madaniyat, bugungi g'oyaviy kurashlar silsilasidagi milliy madaniyat va san'at, estetik madaniyat jabhalarini birlashtiruvchi umumiy fikrlar jamlangan bo'lib, har bir inson uchun hozirgi kunda zarur bo'lgan ma'naviy tushunchalar tarkib topdi.

Albatta, millatimiz tarixi bilan bog'langan, ibtidoiy jamoa davri san'ati tarixidan boshlab, qadimgi dunyo san'ati, qadimgi sharq san'ati, qadimgi O'rta Osiyo san'ati hamda Markaziy Osiyo o'yg'onish davri madaniyati va san'ati bilan qisqacha voqif etdi. Temuriylar davri xaqida so'z ketganda Amir Temur davridagi milliy uyg'onish, Mirzo Ulug'bek, Zaxiriddin Muxammad Bobur, Alisher Navoiy va Xusayn Boyqarolarning madaniyatimiz va san'atimiz rivojiga ulkan xissa qo'shdi.

Tarixdan ma'lum Turkistonda ma'rifatchilik va jadidchilik harakati uchinchi o'yg'onish davrini boshlanishi deb e'tirof etiladi. Darxaqiqat ma'rifatchilar ta'lim va tarbiyaga yangicha uslub bilan yondashish, yangicha fikrlash bilangina yangi avlod tarbiyasida muvaffaqiyatga erishish mumkin degan g'oyani oldinga suradilar. O'z navbatida o'zbek xalqining qadimiy urf-odatlarini bugungi kunda ham o'z o'rnini yo'qotmaganligi va saqlab qolingani, hozirgi avlod vakillari ham o'zbekona udumlarni davom ettirayotganligi milliy mentalitetimizning naqadr ulug'ligi, sofligi va xalqonaliyligi bilan ajralib turadi.

Tarixan rivojlanish davrini boshdan kechirgan XX asr boshlaridan zaminimizga professional san'at sifatida kirib kelgan xalqimizning tomosha san'ati, kino san'ati, teatr san'ati, raqs san'ati va uning tarixiy rivoji o'z aksini

---

<sup>1</sup> И.Каримов «Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка тахдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари». Тошкент, «Ўзбекистон» 1997 й. 137 бет.



topadi. Shuningdek, tarixdan xalq orasida rivojlanib kelgan xalq amaliy san'ati, tasviriy san'at ham musiqa san'ati bilan uyg'un holda rivojlanib, bir-birlarini to'ldirib kelganligini ko'rish mumkin.

O'zbek xalqining musiqa madaniyati alohida tarixiy rivojlanish bosqichlariga ega. Ajdodlarimizdan bizgacha etib kelgan musiqiy merosimiz bugungi kunda ham ma'naviyatimizning sarchashmasi bo'lib xizmat qilmoqda. Musiqa madaniyatimizning tarixi, maqom san'ati, ijrochilik yo'llari va maktablari, xalq folklor va dostonchilik san'ati ham mustaqillik yillarida xalqimizning unutilayozgan udum, an'alinini qayta tiklash yo'lida ulkan ishlarni amalga oshirdi.

Albatta har bir millat, xalq o'z tarixini bilishligi hayotiy zaruratdir. Shunday ekan o'zbek xalqining ham ajdodlardan qolgan boy tarixiy merosini, madaniyati va san'ati tarixini hozirgi avlodlarga, ayniqsa yoshlarga etkazish jarayoni barkamol avlod tarbiyasida muhim manba bo'lib xizmat qilishi tabiiydir. Zero jahonga Abu Ali Ibn Sino, Muxammad al - Xorazmiy, Ahmad al -Farg'oniy, Abu Nasr Farobiy, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zaxiriddin Muxammad Bobur singari ulug' farzandlarni bergan o'zbek xalqi o'zining boy madaniy tarixini ehzozlashga va shunday ulug' ajdodlari bilan faxrlanishga xaqlidir.

Qadimgi sharq xalqlari san'ati va madaniyati tarixi katta davrni o'z ichiga oladi. Qadimgi sharqda mavjud bo'lgan qadimgi Misr podshoxligi, old Osiyodagi Shumer, Akkad, Bobil (Vaviloniya), Ossuriya, Urartu, Xett davlatlari, Eron imperiyasi, O'rta Osiyo, Xindiston, Xitoy, va Janubiy Sharqiy Osiyodagi davlat va podshoxliklar jaxon madaniyati tarixida o'chmas iz qoldirdilar. Sharq xalqlari yashaydigan xududda quyosh nurining mo'lligi, suvi, toshqin daryolari, serunum erlari odamlarni erta dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanishga o'rgatdi. Qadimgi Sharqda san'at uzoq vaqt xunarmandchilikni bir qismi sifatida qoldi. Eramizdan avvalgi 5000-4000 yillardayoq bu erlarda sinfiy jamiyat - quldorlik jamiyati shakllana boshladi va bu jamiyat yangi eraning boshlarigacha davom etdi. Quldorlik jamiyati san'atining vazifasi esa ko'pchilikni boshqaruvchi sinfga, ekspluatatorlar g'oyasini omma ichida targ'ib qilish bo'lib qoldi. Sharq xalqlarining realizmi ham o'ziga xos xususiyatga ega. U ko'pincha voqelik, kishilar va tushunchalarni fantastik obrazlarda, ramziy va shartli belgilarda tantanali, ulug'vor qilib ifodalaydi. Biz Sharq san'atini o'rganganda aloxida yirik san'atkorlar ijodi to'g'risida to'xtalmaymiz. Chunki, san'at namunalari omma ichidan chiqqan noma'lum iste'dod egalari tomonidan yaratilgan.

Qadimgi sharq san'atida qadimgi Misr san'ati aloxida o'rin tutadi. Qadimgi Misr san'ati deyarli 4000 yilni o'z ichiga olgan davrda tasviriy va amaliy san'at, me'morchilikni nodir durdonalari dunyoga keldiki bugungi kunda ham



o'zining mahobati, badiiyligi bilan barchani hayratga soladi. Bu erda birinchi marta inson va uning mehnati san'atkor asarida o'z ifodasini topdi. Qadimgi Misr san'atining yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, u din bilan aloqada va unga tobe bo'lgan. Misr ehromlari qatoridan joy olgan uch dinastiya firavni Joser maqbarasi, IV dinastiya firavnlari Xufu, Xafra va Minkiura piramidalari Fifadagi Karnak va Luksor ibodatxonalari gigant me'morchilik san'atining nodir namunalari. Qadimgi Misr tasviriy san'ati me'morchilik bilan bog'liq xolda rivoj topdi. Misr san'ati umumjahon san'ati taraqqiyotida o'ziga xos qaytarilmas o'rinni egallaydi.

Old Osiyo san'ati deganda o'rta yer dengizi, xavzasining sharqiy qismi soxillari, Kichik Osiyoning tog'li rayonlari territoriyalarida eramizdan avvalgi Shumer, Akkad, Ossuriya, Urartu, Bobil kabi qator davlatlar mavjud bo'lib, ular jaxon san'ati tarixiga o'z xissalarini qo'shganlar. Bu yerda xaykaltaroshlikni go'zal asarlari yaratildi, devoriy suratlar, nozik amaliy-dekorativ buyumlar ishlandi. Akkad podshoxligi davrida Old Osiyo yagona davlatga birlashtirildi. Shu davrda tasviriy san'at realizmi ortdi. Ayni shu davrda Shumer dostoni "Gilgamish" yaratildi. "Sargon xaykali", "Semit portreti", "Narasmin stellasi" o'sha davrning mashxur asarlaridandir. Old Osiyo san'atida nodir me'morchilik va tasviriy san'at yodgorliklari yuzaga keldi.

Axmoniyalar davrida vujudga kelgan san'at o'rta sharq xalqlari tarixida muxim o'rinni egallaydi. Bu san'at bevosita o'rta sharqda yashaydian xalqlarining yangi o'zaro munosabatlari natijasida, atrofdagi xalqlar san'ati ta'sirida ravnaq topdi. Jumladan podshohlar saroylarini qurishda Sug'd, Baktriya va Xorazmdan kelgan usta va san'atkorlar mehnat qilganliklari xaqidagi ma'lumotlar mavjudligi shundan dalolat beradi. Axmoniyalar davri san'ati atrofidagi mamlakatlar san'atiga ham o'zining sezilarli ta'sirini o'tkazgan.

Qadimgi Sharqda o'ziga xos xisoblangan Xindiston san'ati ham qator taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tdi. Bu taraqqiyot jarayonida xind san'atiga gox Shumer, gox Grek san'atining ta'siri bo'lgan. Lekin shunga qaramay, uning san'atida o'ziga xoslik mavjud bo'lib, u asosan xalq san'ati, ayniqsa hunarmandchilik ta'sirida bo'lgan. Xindiston san'ati qadimdan xar-xil dinlar tapsirida rivoj topgan. Qadimgi Xindiston san'atining gullagan davri Mauriya sulolasi (e.av. 272-232 y)da sodir bo'ldi. Ashoka xukmronligi davrida buddizm keng tarqaldi. Ibodatxonalar qurilishiga, tasviriy san'at asarlariga keng eptibor berildi. Adjantadagi g'or ichidagi ibodatxona va shunga o'xshash qator san'at asarlari qadimgi xind madaniyatining nodir namunalari.

Xulosa qilib aytganda qadimgi sharq san'ati uyg'onish davri san'atning rivojlanishiga muhim bosqich bo'lib xizmat qiladi.





## O'rta asr uyg'onish davri namoyondalari

### Axmad al-Farg'oniy

Axmad al-Farg'oniy yaqin va O'rta Sharqda "Xosib" (matematik) martabasiga sazovor bo'lgan. Axmad al-Farg'oniy Markaziy Osiyo o'yg'onish madaniyatining yirik arboblardan biri hisoblanadi. Al-Farg'oniy har tomonlama bilim sohibi bo'lib, ilmi nujum, jo'xrofiya, matematika, tabiatshunoslikning boshqa sohalarida nafaqat musulmon sharqida, balki Yevropada ham katta shuhrat topganligi ma'lum. Ulug' olim tug'ilib o'sgan Farg'ona o'lkasi qadimdan o'z davrining yuksak madaniyatiga ega bo'lgan va taraqqiy etgan o'lka bo'lgan. Xo'jand, Axsikent, Marg'ilon, Qubo, Qo'qonning shuhrati o'sha davrlarda ham yuksak edi. Uning quyidagi asarlari mavjud: "Astrolyubiya xaqida mukammal kitob", "Astrolyubiya san'ati xaqida", "Etti iqlim kitobi", "Marmarning xizmati xaqida kitob", "Samoviy xarakterlar va yulduzlar fanining majmuasi xaqida kitob" asarlari bizgacha etib kelgan. U ilm-fan rivojlangan shaharlarda yashab ijod qildi. Bag'dod xalifasining "Baytul xikma" akademiyasida ishladi. Umrining so'nggi yillarini Misrda o'tkazdi va shu yerda vafot etdi. Yevropadan "Al-Fraganus" nomi bilan mashhur bo'lgan. Uning ilmiy asarlari jaxonning eng katta kutubxonalarida saqlanadi.

### Abu Nasr Farobiy

Abu Nasr Farobiy 873 yili tavallud topgan. 950 yilda vafot etgan. O'tror shahrida yashagan. Farobiyning madaniyat sohasiga qo'shgan xissasini turli fan sohalarida olib borgan ilmiy tadqiqotlari, yozgan asarlari asosida aniqlash mumkin. "Masalalar manbai", "Qonunlar xaqida kitob", Falakiyotning davomiyligi", "Xajm va miqdor", "Katta musiqa kitobi", "Musiqa xaqida so'z", "Inson ahzolari xaqida risola", "She'r va qofiyalar", "Lug'atlar xaqida kitob" singari ko'plab kitoblar qoldirdi. Masalan, xunarmandchilik, tabiblik, duradgorlik va boshqalar nuqtai nazaridan ularni "xunarmandchilik" va "san'at" soxalariga bo'ladi. Farobiy "Musiqa xaqida katta kitobida" bu bilimni boshqa nazariy bilimlardan farq qilishini, ularni egallash uchun vosita va usullar o'rganish talab qilinishini aytadi. Farobiyning ilm xaqida qarashlarida sharq o'yg'onish davri ijtimoiy tafakkurining ilg'or yo'nalishlari o'z ifodasini topadi, u ma'naviy madaniyatimiz ravnaqiga qo'shilgan katta xissadir.

### Abu Ali Ibn Sino

O'yg'onish madaniyatining ulkan arboblardan biri Ibn Sinoning asli ismi sharifi Abu Ali Al-Xasan ibn Abdulloh Ibn Sino bo'lib, 980 yilda Buxoroning Afshona qishlog'ida tavallud topgan. Zamona zayli bilan Xorazm, Eronni turli shaharlarida xayot kechiradi. Sargardonlik yillarida o'zining yirik asarlarini yozadi. 1037 yilda Isfaxonda vafot etadi. Ibn Sino jaxon madaniyati tarixida qomusiy bilimga ega bo'lgan yirik arbob sifatida alohida o'rin tutadi.



Uning fanni turli sohalariga oid 450 dan ortiq asari mavjudligi to'g'risida ma'lumot berildi. Ularda tibbiyot, musiqa, falsafa, etika, ilohiyotshunoslik, tilshunoslik, estetika masalalariga oid fikrlar beriladi. U yaratgan kitob "Ash-shifo" 21 tomndan iborat bo'lib falsafiy va tibbiy bilimlar qomusi xisoblanadi. Ibn Sino badiiy namunalari, she'rlar, qissalar, ruboiylar ijod qildi. "Tayr qissasi". "Solomon va ibsol", "Xay ibn Yakzon" qissalari va o'zining serqirra boy ijodi bilan jaxon madaniyati taraqqiyotida favqulodda rol o'ynaydi.

### **Abu Rayxon Muxammad Ibn Axmad Beruniy**

Uyg'onish madaniyatining yirik arbobi Beruniy 973 yil sentyabrda Xorazmning qadimgi poytaxti Kat shahrida tug'ildi. ("Berun" so'zi tashqi shahar ma'nosini bildiradi). 16-17 yoshidayoq matematika va asronomiyadan etuk olim bo'lib etishdi. 995 yilda dunyoda birinchi bo'lib globusni yaratdi, oy tutilishini kuzatdi. 997 yilda uning sargardonlik xayoti boshlanadi. Ray, Gurgon, G'azna shaharlarida yashaydi. Shu davrda Ibn Sino bilan uchrashadi. 1048 yilda G'aznada vafot etadi. Uning o'tmish yodgorliklari", "Xorazmning mashhur zotlari", "Geodeziya", "Xindiston", "Qonuni mahsudiy", "Mineralogiya", "Saydona" singari yirik asarlari mavjuddir. "O'tmish yodgorliklari" asarining bir katta bo'limida urf-odatlar, rasm-rusmlar, afsonalar, folpklor san'ati, xayit bayramlari, diniy marosimlar, va Navro'z bayrami xaqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Buyuk asari "Xindiston" kitobida xind madaniyati tarixiga bag'ishlangan xazinalar o'rin olgan. Abu Rayxon Beruniyning ilmiy va falsafiy qarashlari o'sha davrda keng tarqalgan g'oyaviy kurashlarda katta ijobiy axamiyatga ega bo'ldi. Uning xoki 1997 yilda vatandaoshlarimiz tomonidan, olib kelinib Beruniy shahriga dafn qilingan. Bu er barchaning ziyoratgohiga aylangan.

### **3. An'ana, qadriyat, urf-odat, marosim musiqasi va uning musiqa o'qituvchisi faoliyatidagi ahamiyati.**

An'anaviy xonandalik va uning tarixi, ildizini o'rganar ekanmiz eng avvalo "an'ana", an'anaviylik", "qo'shiq", "ashula", "katta ashula" "an'anaviy qo'shiq", "bastakorlik asarlari" tushunchalariga izoh berib o'tishni joiz deb bildik. An'ana tushunchasi "O'zbek tilining izohli lug'atida"<sup>2</sup> "nasldan naslga o'tuvchi qoida", ya'ni, hayotda qaror topgan va topayotgan urf-odat, udum va boshqa amallarni an'ana tarzda takrorlanib kelishi deb e'tirof etiladi. An'anaviylik esa o'z-o'zidan ushbu jarayonni doimiy ravishda, yillar mobaynida o'ziga xos shaklda takrorlanib kelishi demakdir. Shu nuqtai nazardan biz tadqiq etayotgan an'anaviy qo'shiqlar ham hayotda, kundalik turmush tarzimizda qaror topgan va topayotgan urf-odat,

---

<sup>2</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 107 b.



udum va boshqa amallarni avloddan-avlodga yillar mobaynida o'tib klishi va bu jarayonni doimiy ravishda takrorlanishidir. Yana ham oydiroq aytadigan bo'lsak, an'ana – avloddan-avlodga o'tib boradigan, odamlar va keng jamoatchilik tomonidan e'tirof etilib, doimiy o'tkaziladigan ijtimoiy axloq munosabatlarning umumlashgan norma va prinsiplaridir. Shu o'rinda qo'shiq<sup>3</sup> tushunchasi keng qo'llanilgan. Adabiyotlarda ko'rsatilishicha, qo'shiq atamasi “shlok”, “takshut”, “ir” (yir), “kug” kabi nomlar bilan qadimdan atalib kelgan. Dastlab, Mahmud Koshg'ariyning asarlarida “qoshug'” - qo'shiq, qasida, she'r tarzida atalib, so'zning ma'nosini sharhlashdagi to'rtlik ma'nosida ishlatiladi. An'anaviy qo'shiqlar haqida gap ketganda bu iboraga mutaxassislar fikriga tayanib xulosa chiqarish lozim bo'ladi. Atoqli musiqashunos olim R.Yunusov qo'shiq haqida ta'rif berib, musiqiy atama, iboralardan foydalanish amaliyotida tegishli nuqsonlar borligi haqida fikr bildirib shunday deydi – “kundalik muomilada tez-tez uchraydigan “qo'shiq” bilan “ashula”ni farqlamaslik, farqlay olmaslik ko'zga yaqqol tashlanadi<sup>4</sup>. Darhaqiqat ushbu fikrlar ayni haqiqat. Qo'shiq atamasi haqida ma'lumot berib o'tdik. Ashula bu bir oz qo'shiqqa nisbatan murakkab janr. Qo'shiqni kundalik hayotimizdagi turli toifadagi odamlar ijro etishlari mumkin. Biroq, ashula ijrochisi ma'lum tayyorgarlikdan o'tgan bo'lishi yoki ustoz saboqlarini olgan bo'lishi lozim.

Bugungi kunda ijtimoiy hayotimizda ko'p uchraydigan “an'anaviy xonandalik”, “an'anaviy qo'shiq”, “an'anaviy ashulachilik”, “an'anaviy mumtoz musiqa” iboralariga oydinlik kiritib, tadqiqot davomida qo'llashimiz uchun oson bo'ladigan atamani tavsif etsak. Ya'ni, aslida qanday yuritishimiz lozimligi xususida ham tadqiqot doirasida o'z firk-mulohazalarni bayon etamiz.

Yuqorida “qo'shiq”, “ashula” iboralarga mutaxassislar tomonidan keltirib o'tilgan ta'riflarni bayon etdik. Qo'shiq janrini hech qanday musiqiy tayyorgarligi bo'lmagan, oddiy kasb egasi bo'lgan, musiqa va san'atga qiziqishi bo'lgan fuqarolar ixtiyoriy ravishda ijro eta oladi. Chunki, qo'shiq ijro qilish uchun maxsus tayyorgarlik shart emas. Ma'lum ritmga tayanilgan holda kichik diapazonda kuylash mumkin. Biroq, yuqorida ta'kidlanganidek, ashula janrini ijro etish uchun ma'lum ko'nikma va malaka talab etiladi. Ashula janridagi asarlarning juda ko'pchiligi asosan aruz vazndagi she'riy misralardan tashkil topadi va albatta ashulani avj pardalarda kuylash shart bo'ladi. Bu o'rinda musiqashunos olim R.Yunusovning fikrlariga tayanamiz: - “o'zbek an'anaviy musiqasiga xos ichki

---

<sup>3</sup> “Qo'shiq” so'zi musiqashunoslikda qabul qilingan ikki xil ma'no (1-so'z va kuyning birlashuvidan hosil bo'lgan aytim namunalari, 2-band shaklli aytim janri).

<sup>4</sup> Yunusov R. An'anaviy o'zbek musiqa asoslari”. Ma'ruzalar matni. Toshkent. 2000 y., 4 b.



qonuniyatlarning eng muhim qirralaridan biri – avj masalasidir. Uni ilmiy jihatdan to'g'ri idrok etib olish ko'p chalkashliklarni oldini oladi<sup>5</sup>. Avj atamasi xususida atoqli olim I.Akbarov o'zining “Musiqqa lug'ati” kitobida shunday ta'rif beradi<sup>6</sup>. Avj arabcha bo'lib “cho'qqi, musiqqa bayoni va rivojida eng yuqori nuqta” degan ma'noni anglatishini ma'lum qiladi. Bu o'rinda yana musiqashunos olim R.Yunusovning avj atamasi xususidagi fikrlariga qaytamiz. O'zbek milliy musiqachilar iste'molida bu avj so'zini asosan uch toifaga bo'lib, izohlaydi. Birinchidan, avj – har qanday musiqqa asarning eng baland, cho'qqi pardasining lo'nda ifodasi. Bunday keng ma'noli avj atamasidan xonandalik san'atida cheklanmagan miqyosda foydalanishni aytadi. Ikkinchidan, o'zbek an'anaviy musiqasida rivojlangan shaklning yuqori pardalaridagi maxsus tuzilma tushunilishini hamda hajmada katta, baland pardalarda bayon etiluvchi kuy tuzilmalari asosan bastakorlik ijodiyotining mahsuli ashula, katta ashula, suvora, maqom janrlarga xolisligi va uchinchidan, bir juft kuy avj so'zini qo'shilganligi holda yuritilishini, bunga misol tariqasida “Zebo pari avj”, “Turk avji” kabi asarlarni keltirib o'tadi<sup>7</sup>. Demak, ashulada avj pardalar asosiy rol o'ynaydi. Ushbu tafsilotlarni e'tiborga olgan holda aytish joizki tadqiqotimiz mavzusi hisoblangan an'anaviy xonandalik masalasini bayon etishda faqat ashula, katta ashula ijrochilarini o'rganish masalasi yotadi. Shu o'rinda atoqli musiqashunos olimlar F.Karamotli<sup>8</sup> va O.Ibrohimov<sup>9</sup> tadqiqotlarida o'zbek musiqqa merosini ikki qatlamga ajratgan holda tasnif etadilar va aynan, ikkinchi qism musiqqa an'alariga an'anaviy xonandalik ayimlarini ashula, katta ashula deb yuritadilar.

Musiqqa ijodiyoti yana bir atama borki, bu atama orqali aytimning u yoki bu xususiyatlari tushuniladi. Atoqli olimlar mazkur tushunchaga ta'rif berar ekan uning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni, ijro sharoiti, she'riy matni va kuy-ohangning hajmi, mazmun va shakllanish holati va shakli xususida bir qadar to'xtalib o'tadilar. Janr haqida gap borar ekan O'zbekiston davlat konservatoriyasi “Musiqqa nazariyasi” kafedrasi professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan “Musiqiy asarlar tahlili” nomli ma'ruzalar matn<sup>10</sup>da janrning tarixan vujudga kelganligi hamda u bir qator belgilari bilan ajratilib turishi haqida fikr bildirilib, quyidagi beshta savolga javob berishi lozimligi xususida to'xtaladi. Jumladan, janr bo'lishi

<sup>5</sup> Юнусов Р. Анъанавий ўзбек мусиқа асослари. Маърузалар матни. Тошкент. 2000 й., 7 б.

<sup>6</sup> Акбаров И. Музыка луг'ати. Тошкент. 1987 й., 5 б.)

<sup>7</sup> Юнусов Р. Анъанавий ўзбек мусиқа асослари”. Маърузалар матни. Тошкент. 2000 й., 8 б.

<sup>8</sup> Кароматов Ф. Ўзбек халқи музика мероси (Йигирманчи асрда) 1 том. 1-китоб. Қўшиқ. Тошкент, 1978.

<sup>9</sup> Иброхимов О. Ўзбек халқ мусиқа ижоди (методик тавсияновма). Тошкент. 1994 йил. 1-қисм.

<sup>10</sup>Красуцкая Л.И., Мирходжаева С.Х., Ибрагимова Ш.Э. Мусиқа асарлар тahlili. Маърузалар матни. 2008.



uchun ushbu aytim kim uchun ijro etilayapti (1), kim uchun (2), qayrda (3), kim (4) va nima (5) degan savolga javob berishi lozimligi xususida to'xtaladi.

Albatta janr – bu tur. Uning lug'aviy ma'nosiga ham e'tibor qaratadigan bo'lsak fransuz tilida genre – tur, uslub<sup>11</sup> ma'nolarini anglatadi. Darhaqiqat janr tushunchasi nafaqat musiqashunoslik ilmida, balki adabiyotshunoslik, folklorshunoslik, falsafa, tasavuf va boshqa sohalarda keng qo'llaniladi.

Asrlar mobaynida xalqimizga juda katta ruhiy va ma'naviy quvvat berib kelayotgan milliy qadriyatlarimizni, folklor an'analарimizni yoshlar ongiga chuqur singdirish xar tomonlama etuk barkamol avlodni tarbiyalab voyaga etkazishda muhim ahamiyatga ega. Yurtimiz mustaqillikka erishgach, bunga keng imkoniyatlar yaratildi. Chunki mamlakatimizda kechayotgan milliy o'zlikni anglash va ma'naviy xurlikni his etish ehtiyoji ajdodlarimiz qalb qo'ri, aql zakovati turmush tajribasi asosida yaratilgan madaniy merosimizni bilishni va shu asosda turli bunyodkorlik va yaratuvchilik ishlarini amalga oshirishni taqazo etmoqda – Ijodkor xalqimiz tomonidan yaratilgan nodir mahnaviy boyluk xisoblangan folklor asarlari asrlar osha turli axloqiy tushunchalarni betakror badiiy shaklda kishilar qalbiga singdirishda bebaxo sarchashma sifatida xizmat qilib kelmoqda. O'zbek xalqi etnografiyasi va folklorini o'rganish orqali ajdodlarimizning boy madaniy va marifiy o'tmishini yanadateran anglash mumkin.

Xar bir xalq yoki elat, avvalo tarixi madaniy birligi bilan ajralib turadi. O'zbek xalqi xam uzoq tarixiy davr mobaynida shakllanib juda ko'p ilmiy-madaniy xususiyatlarga ega bo'ldi. O'tmish ajdodlarimiz anhanalari qadriyatlari asrdan asrga avloddan-avlodga saqlanib taraqqiy topib keldi. Xususan, milliy-madaniy xususiyatlarimizni saqlanib qolishida xalq ogzaki badiiy ijodining roli beqiyos bo'ldi. Jumladan xalqimizni o'ziga xosurf-odat va marosimlari bola tarbiyasi, mexmonnavozlik tabiati, axloq-odob qoidalari, pazandachilik malakasi, mexnat va turmush tarsi tartiblari folklor asarlari orqali bizgacha etib keldi. Uzoq o'tmishda gurux-gurux bo'lib xalq sayillarida ommaviy bayramalarda turli tuman tomoshalar ko'rsatgan xalq qiziqchilari, qo'girchoqbozlar, dorbozlar, raqqos va xonandalarni ijodiy uyushmalarini folklor-fanagrafik ansambilini o'ziga xos na'munalari deyish mumkin. Chunki folklor asarlarini ommaviy ravishda ijro etuvchilarni aksariyat professional bo'lmay balki oavaskor ijrochilar bo'lib ularni repertuari xam sof xalqdandur. O'zbek folklori va laparlari tabiati voha va vodiya xos bo'lgan yangi muhitga qarab keng mavzuligi bilan rangbarangdir.

Vatanga bo'lgan muxabbat, ota-ona uchun sevgan yoriga, yashab turgan joyiga, urf-odatlar, qiz yiginlar xaqida, aytishuvlar to'y marosimlari xaqida, allalar,

---

<sup>11</sup> Акбаров И.А. Музыка луг'ати. Тошкент. 1987. 121-бет



yor-yorlar, beshik to'ylar xaqida mehnat jarayonida xasharlar paytida aytiladigan laparlar xalqdan olingan bo'lib bizgacha ogzaki ravishda etib kelgan.

Xalq ijodiyotini asrash va rivojlantirishda folklor-etnografik ansambli raobarlarining bu soxdagi ijodiy iqtidori muxim amaliy axamiyatga ega. Ammo bu yo'lda tinmay izlanish lozim bo'ladi. Xalqning eng sara qo'shiqlarini ansamblga jalb qilingan ijrochilarning o'zidan yozib olish mumkin. Bundan tashqari, muayyan xududdagi keksa avlod vakilllaridan o'rganib olingan qo'shiqlarni ijro etgan yosh ijrochilarni yoki shunday qo'shiqlarni bilgan qarindosh-uruglar va tanish-bilishlarni shu qo'shiqlarni ijro etish uchun ansamblga jalb etish mumkin. Qadimiy an'anadagi qo'shiqlarni xalq orasida tanilgan ijrochilar guruoi yoki yakka xonandalardan ham yozib olsa bo'ladi. Bu folklor ansambllarining mujassamlanishini talab qilishga xaqimiz. Shundagina ular xalq qo'shiqlarini ijro etishda Fargona, Buxoro, Xorazm, Samarqand va boshqa viloyatlardagi mavjud uslublarni uygunlashtira borib, o'zbek milliy madaniyatining niooyatda boy, serqirra ijodiy imkoniyatlarini namoyish eta oladilar.

Folklor ansambli repertuarida ayniqsa ijro uslubining muayyan tomonlari shakllangan bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Ansambl repertuariga an'anaviy xalq og'zaki ijodiy namunalari bilan birga (qayta ishlangan yoki mustaqil yaratilgan), mualliflar asarlarining kiritilishi zamonaviy oxanglarni kuchaytirish, shuningdek, milliy qadriyatlar ustuvorligini taminlashga xizmat qiladi. Bunday yangi qo'shiqlar va mualliflar asarlari vatanparvarlik, Vatan istiqboli tuygusi bilan to'lib-toshgan xozirgi kunimiz qaxramonlarining qalb istaklarini aks ettiruvchi asarlar bo'lib, yoshlar tarbiyasiga aloxida tahsir ko'rsatadi. Unutmaslik kerakki, ko'pincha xalq qo'shiqlarining qayta ishlangan va badiiy sayqal berilgan namunalari axolining estetik didi va badiiy so'zni xis qilish ko'nikmasiga, ko'hna musiqa folkloriga nisbatan ko'proq, ma'qul va mos boladi. Shuning uchun folklor etnografik ansambllari repertuari shakllanishining dastlabki bosqichlarida qayta ishlangan qo'shiqlarga shuningdek, qo'shiq mualliflarining folklor uslubida xalq ruxiyatiga mos yaratgan qo'shiqlariga asosiy e'tiborni qaratish lozim. Bunda folklor ansambl repertuariga mualliflar asarlarini puxta o'ylab, asarga tanqidiy yondashib saralash niooyatda muoim. Ayniqsa, tanlab olingan materiallar ansambl ijodiy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq bo'lishi, ijro etiladigan asar ansamblida shakllangan ijro uslubiga mos kelishi lozim.

Folklor an'analari xalqning turmush tarzi, xayoti, dunyoqarashi, ruoiy-yestetik olami va ichki kechinmalarini yuksak badiiy ifoda ettirgan qadriyatdir. O'zbekistonda sobiq tuzum yillarida xalq ijodiyoti o'zining qadimiy ijrochilik anoanalarini va badiiy merosini muayyan darajada saqlab qolgan bo'lsada, o'sha davrning siyosiy qatagonlari va mafkuraviy tazyiqlari bunday an'anaviy qadriyatlar tizimining ko'pgina poetik tabiatiga salbiy tasir ko'rsatgan edi.



Oqibatda, o'zbek xalq ogzaki badiiy ijodiyotining ko'pgina qadimiy janrlari, etiqodiy qarashlari, tasavvurlari, marosim folklori namunalari, xalq an'analari, sayl va bayramlari bilan aloqador udum va qo'shiqlar, afsona, rivoyat, naqlar unutilayozdi. XX asrgacha yaratilgan o'zbek marosim folklori janrlari o'zining qadimiy an'analari xamda poetik tabiatini mukammal holda saqlab qolgan edi. Biroq sobiq tuzumning mafkuraviy qatagonlari natijasida xalqning oilaviy-maishiy marosimlar folklorining ko'gina ko'ona janrlari, masalan, so'z sexriga asoslangan badixa, kina, olqish kabi janrlari, yil fasllariga aloqador Navro'z, qizil gul sayli, boychechak, "gul sux", birinchi qo'sh chiqarish bilan bogliq "shox moylar", shuningdek, "yo ramazon", "barot keldi", yomgir chaqirish, shamol chaqirish va uni to'otatish maqsadida ijro etilgan qadimiy aytim va qo'shiqlarning matnlari xalq

Mustaqillik tufayli yuzaga kelgan ijodiy erkinlik, ruxiy yangilanish jarayoni folklor asarlarini keng targib qilishga imkon yaratdi. Ayniqsa, marosim folklori, dostonchilik, xalq udumlarini tiklash, shuningdek xalqning xavaskorlik ijodiyotini taraqqiy ettirishga keng yo'l ochildi. Unutilgan qadriyatlarni tiklashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 20 oktyabr "O'zbekiston teatr va musiqa san'atini yanada rivojlantirishini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni xalqimizning nodir musiqa merosi ya'ni, xalq ijrochiligi - folklor qo'shiq ijrochiligi san'atini rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratdi. Hozirgi axborotlar alamashinuvi rivojlangan bir davrdamilliy qadriyatlarni yanada rivojlantirish ta'minlash uchun yoshlarni sharqona odob-axloq, milliy qadriyatlar, an'alarimiz asosida tarbiyalash masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xech kimga sir emas, bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatimizga xorijiy sarmoyalar texnologiya va xokazolar bilan bir qatorda garb madaniyati ham kirib kelmoqda. Teleekranlarda namoyish etilayotgan ayrim bema'ni, buzukchilikni targ'ib etuvchi videofilmlar, ayrim radiolarda yangrayotgan maza-matrasiz, sayoz, engil-yelpi qo'shiqlar bir qism yoshlarimizni o'z "og'ushi"ga olmoqda. Bu xaqda Prezidentimizning kuyunchaklik bilan shunday degan edilar. «Afsuski, sanhatda oshkoralikni pesh qilib, televizor, kino ekranlarida, matbuot vositalarida bo'lmagur lavxalarni aks ettirish, be'manilik va xayosizlik, ba'zan esa xatto axloqiy buzuklikni targ'ib qilishlar ko'rinib qoladi». Afsuski, bu jarayon xozir xam davom etmoqda. Xozir suxbatlarda buning echimiga turlicha yondoshiladi. Ba'zilar bunday nomaqullikni targ'ib qiluvchi maxsulotlarga cheklov joriy qilishni maslaxat bersa, ba'zilar qattiq ma'muriy choralar ko'rishni tavsiya etadi. Bu borada ko'zga ko'ringan faylasuf domlamiz Jondir Tulenovning fikrlariga qo'shilmasdan ilojimiz yo'q. U kishining yozishlaricha: «Fikrimizcha, chet ellardan kirib kelayotgan milliy urf-odat, an'alar va ma'naviyatimizga



tamomila zid bo'lgan axloqiy buzuqlik, xayosizlik va bema'nilikni yoqlovchi asarlarga qarshi o'zimizning ko'p asrlik tarixiga ega, jaxon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan sharqona yuksak madaniyatimizning va ma'naviyatimizni qalqon etib qo'yishimiz kerak». Ana shunday qimmatli, o'rinli fikrlardan kelib chiqilsa, madaniyatimiz, san'atimiz tarixi, uning bosib o'tgan shonli yo'l borasida ko'p ijod qilishga to'g'ri keladi.

O'zbek xalqining an'anaviy folklor qo'shiqchilik san'ati tarixi xaqida so'z borganda uning ildizlari kadim zamonlarga borib takalishini biz bilamiz. Bu ilmiy asoslangan xaqiqatdir. An'anaviy folklor qo'shiqchilik san'atimiz qadimgi zamonlardan boshlab ana shu kunlarga qadar murakkab yo'lnibosi bo'tdi.

O'zbek xalqi folklor qo'shiqchilik san'ati tarixi ko'xna bo'lib, uning shakllanish jarayoni esa xalqimiz tarixi bilan chambarchas bog'liq. O'zbek xalqimizning tarixi esamiloddanoldingibirnechamingyillikka borib taqaladi. Agar yana chuqurroq mulohaza yuritilsa, olimlarning ilmiy tadqiqotlariga suyanilsa, u ibtidoiy jamoa davridan boshlanganligiga ishonch hosil qilamiz. Milliy-an'anaviy folklor qo'shiqchilik tarixiga nazar tashlar ekanmiz, xali dunyoning ayrim burchaklarida yarim kishilar istiqomat qilgan davrlarda bizning xududda folklor san'ati kurtaklari rivojlanganligining guvohi bo'lamiz.

O'tgan asrning 50-70 yillarida O'zbekiston xududida qator arxeologik izlanishlar olib borilgan. Bundan sal avvalroq rus olimi professor, Ovchinnikov rahbarligidagi ekspeditsiya Boysun tumaniga qarashli Machay qishlog'ida joylashgan tog'li hududda "Teshiktosh" g'orini topadi. Keyinchalik mashhur arxeologlar S.Tolstov, Ya. G'ulomovlar qadimiy madaniyat o'choqlaridan biri Qo'yqirilgan qal'a (shaxar xarobalari) topdilar. Taniqli o'zbek olimi A. Kabirov hozirgi Navoiy viloyati xududida joylashgan Sarmishsoy qoyatoshlarini kashf etdi. Teshiktosh g'orining devorlariga ishlangan rasmlar orasida milliy folklor san'atiga oid namunalari topildi.

"Insonga sihat-salomatlik tilash, uning turmushida to'kin-sochinlik, kundalik hayotida omad keltirish yoki inson hayotining muhim nuqtalarini qayd etish, nishonlash maqsadida maxsus o'tkaziladigan, xalq orasida qat'iy an'anaga aylanib qolgan xatti-harakatlar marosim" – deyiladi. Taniqli olim Bahodir Sarimsoqovning ta'rifidan ma'lum bo'ladi, marosim xalq orasida qat'iy an'anaga aylangan tadbir hisoblanar ekan.

Inson tug'ilganidan to hayotdan ko'z yumguniga qadar o'nlab marosimlar guvohiga aylanadi. Gohida uning markaziy qahramoni, gohida ishtirokchi, gohida oddiy kuzatuvchi bo'ladi. Ammo marosimlar hayotning ajralmas qismi sifatida hamisha hamrohlikda sodir bo'laveradi.

Marosim arab tilidagi "marsum" ((مرسوم so'zidan olingan bo'lib, 1 – chizilgan; 2 – rasm qilingan; 3 – odat bo'lgan ma'nolarini anglatadi. Muayyan





qoidalar asosida chizilgan, millat tomonidan rasm qilingan va odat tusiga kirgan tadbirlarni esa shartli ravishda uch turga bo'lish maqsadga muvofiqdir.

### **Nazorat savollari:**

1. Markaziy Osiyoga jahon madaniyating ta'sirini tushuntirib bering?
2. O'yg'onish davrida yangicha tafakkur qanday yaratildi?
3. Madaniy aloqalar rivojidadagi madaniyat ravnaqi qanday?
4. Ilohiy va ilmiy falsafiy madaniyatning rivoji qanday yo'nalishda aks etgan?
5. O'yg'onish davrida Islom dinining ahamiyatini qanday tushunasiz?
6. Tasavvuf falsafasini tushuntirib bering?
7. Dunyoviy madaniyat deganda nimani tushunasiz?
8. Markaziy Osiyo ilmiy merosi xaqida nima deya olasiz?
9. Axmad al-Farg'oniy xaqida nima bilasiz?
10. Abu Nasr Farobiy xaqida so'zlab bering.
11. Abu ali ibn Sino xaqida nima bilasiz?
12. Abu Rayxon Beruniy xaqida nima bilasiz.?

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. D.A.Karimova Musiqiy pedagogik mahorat asoslari o'quv qullanma. T. 2008 y.
2. Sharipova G. Musiqa o'qitish metodikasi. Mahruzalar matni. 2000 y.
3. Zimina A.N.Osnovq muzqkalg'nogo vospitaniya i razvitiya. M. 2000 y.
4. Fayziev O.O'quvchilarda musiqiy nafasat tarbiyasini shakllantirish. T. 1992 yi.
5. X.Rahimov O'zbekiston Vatanim manim. T. 1997 y.
6. Sharipova G.M. Musiqa va uni o'qitish metodikasi. T.Turon-Istiqbol 2006 y.
7. N.Norxo'jayev, H.Rahimov O'zbekiston Vatanim manim. T. 1999 y.
8. G.Sharipova musiqa o'qitish metodikasi T. 2006
9. O.Ibrohimov, J.Sadirov 7-sinf musiqa darsligi T. 2008 G'.G'ulom nashryoti
10. O.Ibrohimov O'zbek xalq musiqa ijodi.T. 1997 y.
11. Maqomat.O.Matyoqubov Musiqa nashriyoti T. 2004 y.



### **3-mavzu: O'zbek musiqashunosligi asoslari, uning shakllanish davrlari, dunyo musiqashunoslik ilmini rivojlanishidagi ahamiyati.**

#### **Reja:**

1. Ilk musiqiy tafakkur, musiqiy-nazariy merosning shakllanish jarayonlari
2. O'rta asarlar musiqashunosligi
3. Xalq musiqa an'analari, og'izaki an'anadagi kasbiy musiqa, dostonchilik ijodiyoti.
4. Islom va musiqa

**Tanyanch iboralar:** budda, tafakkur, meros, musiqashunoslik, etnomusiqashunoslik, xalq an'analari, kasbiy musiqa, dostonchilik.

#### **1. Ilk musiqiy tafakkur, musiqiy-nazariy merosning shakllanish jarayonlari**

Kushon xonligi Markaziy Osiyo xalqlari tarixida massaget qabilalariga mansub tohar sulolasidan birining nomi bilan atalgan. Xitoy manbalarida yozilishicha, Daxya, ya'ni Baqtriya ko'chib o'tgan massaget (yuechji)lar beshta vassal hokimlikka bo'lingan bo'lib, ulardan biri Guyshuan deb nomlangan.

Guyshuan so'zi "kushon" atamasining xitoycha transkripsiyasi bo'lib, u o'sha davr yodgorliklari hisoblangan tangalardagi yozuvlardan ma'lumdir. Markaziy Osiyoning janubi va shimoliy Afg'onistondagi arxeologik tadqiqotlar Yunon-Baqtriya va Kushon-Baqtriya madaniyati gullab yashnaganidan darak beradi. Dastlabki yodgorliklar Ayritom va Ko'hna Termezda o'tgan asrning 30-yillarida ochilib, 60-yillarida davom ettirilgan. Keyinchalik ko'hna Termez yaqinidagi qoratepa buddiylik ibodatxonasi, Fayoztepa, Xolchayon va Dalvarzintepa kabi ko'hna shaharchalar ochilib, nihoyat darajada yuksak bo'lgan kushon madaniyati butun dunyoga mashhur bo'ladi.

Kushon davlatiga rasman asos solgan hukmdor Kujula Kadfiz 4 ta qabilani o'ziga bo'ysundirdi va uni Kushon bekligi deb e'lon qildi. Bu davlatning dastlabki hukmdori 30 yil podsholik qildi. Kushon xonlarining eng mashhuri Kanishka hisoblanadi. U (78-123) hukmronlik qilgan davrda Kushon davlati juda qudratli davlatga aylanib, zamonasining buyuk davlatlari Rim, Parfiya va Xitoy bilan bir qatorda turardi. Hukmdor davlat poytaxtini ham Dalvarzintepadan Peshavorga ko'chiradi. Kanishka hukmronligining oxirgi yillarida Kushon davlati juda katta hududni o'z ichiga olgan. Uning chegarasi G'arbda Orol va Kaspiy dengiz bo'ylarigacha, janubda Hind daryosining quyi oqimigacha, Sharqda esa Sinoszyanning Xo'tan shahridan Gang bo'ylaridagi Banorasgacha cho'zilgan.

Budda diniga qattiq e'tiqod qilgan podsho o'z davlatida mazkur dinni rasmiy ravishda davlat dini sifatida e'lon qiladi. Markaziy Osiyo xalqlari hayotida bu



davrda katta siljishlar bo'ldi. Ya'ni, juda ham ulkan markazlashgan davlat vujudga keldi, shaharlar soni ko'paydi, savdo-sotiq aloqalari xalqaro darajaga ko'tarildi; jonli savdo hayoti va kolonizatsion faoliyat, savodni va yozuv (xat)ni keng tarqalishiga imkon yaratdi. II asrga taalluqli mashhur "so'g'd yozuvi"dagi namuna aynan Dunxuan (Sharqiy Turkiston)dan topilgan bo'lib, u Samarqandda istiqomat qiluvchi onaning Druan (Dunxuan)da yashovchi qiziga yo'llagan xatida yaqqol isbotini topgan. Bu xat o'sha davr Markaziy Osiyo xalqlarining yuqori darajadagi madaniy hayoti, jumladan, ayollarning savodliligi va mustaqilligidan dalolat beradi. Bu davrda kushon yozuvi ham paydo bo'lib, u yunon alifbosiga asoslangan edi. Mazkur yozuvni o'sha davrning tangalari, muhrlari va turli buyumlarida uchratish mumkin. Ta'kidlash joizki, bir necha yozuv tizimining mavjud bo'lgani (oromiy, sug'diy, xorazmiy, yunon, kushon) – Kushon xonligi tarkibiga kiruvchi xalqlarning yuksak darajadagi madaniyatining yana bir karra isbotidir.

Kushon saltanati umuman qadimgi Markaziy Osiyoning iqtisodiyoti, madaniyati va san'ati gullab-yashnagan davriga to'g'ri keladi. Bu davrda xalqaro savdo-sotiq keng rivojlangan, yangi shaharlar barpo bo'lgan. Ammo endi jarayon ellinistik yo'nalishda emas edi. Ya'ni, madaniyat va san'at sharqiy, ellinistik, hind va ko'chmanchilar an'anasining sintezidan tashkil topgan yangi kushon yo'nalishiga asoslandi. Bu davrdan qolgan ko'plab me'moriy obidalar va haykallar Shimoliy Hindistonda, qobulning vodiy tumanlarida, Baqtriyada, Amudaryoning shimoliy va janubiy qirg'oqlarida saqlangan.

Hindiston va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi madaniy aloqalar, meloddan avvalgi III asrda xind imperatori Ashok tomonidan buddizm davlat dini sifatida tasdiqlangandan so'ng yanada kuchaydi. Umuman Kushon madaniyati qadimiy tomirga ega joylarda, yangi omillar, yangi odamlar ta'sirida rivojlangan, Yunon-Baqtriya xonligi madaniyatining davomchisi hisoblanadi. Shuni ham aytish kerakki, o'z navbatida kushon san'ati boshqa xalqlar madaniyati bilan uzviy bog'langan holda, ular, xususan Hindiston madaniyatida o'zi ham chuqur iz qoldirdi (Taksila va Matura yodgorliklari); shuningdek, Sharqiy Turkistonda Kuchi va Karashara freska va haykallari; alaniya muhiti orqali ta'sir etilgan Sharqiy Yevropa madaniy yodgorliklari so'zimizga yorqin dalil bo'lishi mumkin.

1932 yili qadimshunoslar tomonidan olib borilgan arxeologik qazilmalar jarayonida Termez yaqinidagi eramizning I-II asrlariga mansub Ayritom shaharchasidan ibodatxonaning tashqi devor peshtoqlariga o'rnatilgan, sarg'ish oqtoshdan ishlangan haykallar topilgan edi. Toshga o'yib ishlangan, beliga akaif yaproqlari bog'lagan 14 ta odam qiyofasi tushirilgan bu peshtoqda musiqachi va girlyandachilar tasvirlangan. Bunday manzara antik davr O'rta Sharq tasviriy san'atida juda keng tarqalgan. Peshtoq to'liq saqlanmagan, faqatgina 8 ta bo'lgi topilgan holos. Shuningdek, ayrim qiyofalar o'z shaklini yo'qotgan bo'lib, ular



musiqachimi, girlyandachimi ajratib olish qiyin. Musiqachilar soni 5 ta ekanligi aniq bo'lib, qolgan 3 ta qiyofani aniqlash mushkul. Shuning uchun mana shu 5 ta musiqachi qiyofasi nisbatan batafsil o'rganilgan. Ammo qadimiy bu kvintet (beshlik)ni to'liq tarkib, deya aniq aytish qiyin.

Ayritom peshtoqida tasvirlangan orkestrning 2 ta torli musiqa cholg'usi - kichik burchakli, to'qqiz torli (balki o'n uch torlidir) arfa va to'rt torli do'mbira, shuningdek, bitta qush avlos va 2 ta zarbli cholg'u - nog'ora (baraban) vekimvalsimon asbob. Bu erda qat'iy ansambl uslubi saqlanganligi shubxasiz, ya'ni, cholg'ularning barcha asosiy (torli, damli, zarbli) guruhlaridan foydalanilgan. Shuni ham aytish joizki, har bir guruhda bir-birini o'zaro to'ldiruvchi va murakkab, jozibali oxanglarni taratuvchi turli xil cholg'ular jamlangan. Shuningdek, zarbli cholg'ularning ham har xili ishlatilganligi e'tiborlidir. Aftidan bu girlyandalar bilan bog'liq bo'lib, harakat, yurishni anglatgan.

Girlyandalar – shunchaki bezak bo'lmay, balki butun kompozitsiyaning ma'lum ma'nosini anglatadi. Ya'ni, girlyandachilar musiqiy cholg'ular sadosi ostida odimlaganlar. Va aftidan bu yurishlarda raqs unsurlari ham qo'llangan. Bunday tantanani boshqarish harakatini tartiblashtirish uchun esa bir qator qo'l bilan ijro etiluvchi, shaklan uncha katta bo'lmagan zarbli asboblarning kerak bo'lgan. Mana shunday musiqa sadolari ostida girlyandalar bilan yurish an'anasi Ayritom peshtoqlarida o'z ifodasini topgan.

### **O'rta asrlar musiqashunosligi**

XV asrning ikkinchi yarmidagi o'zaro urushlar shaharlarning bo'shab, vayronaga aylanishi O'rta Osiyo xalq ommasining qashshoqlanishiga olib keldi. Bu jarayon o'zlarini o'zbeklar deb atagan ko'chmanchilar boshlig'i Shayboniyxon hokimiyatni qo'lga olgan XVI asrniig boshidayoq faollashgan edi. Ana shu vaqtdan boshlab "o'zbeklar" degan xalq nomi qaror topadi. XVII va XVIII asrlarda feodal tarqoqlik kuchayadi. Katta feodal davlati alohida xonliklar Buxoro, Xiva hamda Qo'qon xonliklariga bo'linib ketdi. Bunday bo'linish o'zbek xalqining musiqa madaniyatida ham aks etdi. O'zbek xonlari saroyidagi musiqiy hayot asosan temuriylarning Hirot va Samarqand saroylaridagi an'alarini davom ettirardi. Ko'pgina shoir va musiqachilar Buxorodagi shayboniylar saroyiga, bir qismi esa Xorazmga ko'chadi. Buxoro va Xorazmning aralash o'zbek va tojik musikal-poetik an'analari yanada taraqqiy topishi ana shular bilan izohlanadi. XVI asr shoirlari va musiqachilari, shuningdek, musiqa ilmining bilimdonlaridan Najmiddin Kavkabiy ijodi katta qiziqish uyg'otadi. Uning "Musiqha haqida risola"si ustoz an'alarinni Samarqand va boshqa shaharlarda davom ettirgan shogirdlari (Hoji Muhammad, Mavlono Rizo Samarqandiy) uchun musiqali-poetik qo'llanma bo'lgan edi. XVII asrning saroy musiqachi va nazariyotchisi Darvishaln Changiy



edi. Uning risolasi musiqaga oid fikrlarga boyligi bilan ahamiyatlidir. Muallif boshqalardan farqli holda, faqatgina musiqa nazariyasi asoslarini bayon qilib qolmay, balki o'z asarining katta qismini turli davrlarda yashab ijod etgan birqa tor musiqachilar faoliyati, shuningdek, saroyda mavjud bo'lgan musiqa asboblari tavsifiga ham bag'ishlaydi. Biroq, bu yerda ham xalq muzikasi haqida hech qanday eslatma uchramaydi. Darvishali Changiy oddiy xalq turmushida, ayniqsa xotin-qizlar o'rtasida keng tarqalgan dutorni cholg'u asboblari qatoriga kiritmaydi. O'rta Osiyoda musiqiy-nazariy ilm rivojiga to'xtab o'tish alohida ahamiyatga ega. Ayni IX-XI asrlarda musiqa faniga asos solinib, O'rta Osiyoning o'rta asrda yashagan olimlarining deyarli barchasi bu masala bilan shug'ullandilar. IX asrdayoq musiqa haqida risolalar paydo bo'lib, ularda musiqaning nazariy asoslari tadqiq etiladi, musiqa asboblari ilmiy tasvirlanadi, taniqli ijrochilar nomi, ularning repertuari, "keng tarqalgan musiqa janrlarining nomlari keltiriladi. O'rta Osiyo olimlari falsafa, matematika, meditsinaga oid juda ko'p asarlarning butun-butun bo'limlarini musiqaga bag'ishlaydilar. Musiqani tadqiq etishda ularga Pifagor va uning matematika uslubi ma'lum darajada ta'sir ko'rsatdi. Musiqa asosini she'r tuzilishi asosi bilan bog'lab tushunilgan. Masalan: Forobiy musiqa bilan poeziya chuqur bog'langan, musiqa she'rdagi vaznlar nisbati bilan ham mustahkam aloqada; ritm esa poeziya bilan musiqani birlashtiruvchi boshlanmadir deb bilgan. Musiqa bilan she'riy vazn o'rtasidagi mustahkam aloqa o'zbek va tojik musiqali poetik san'atining yanada rivojlanishi uchun xarakterlidir. Forobiy faoliyatining ahamiyati haqida gapirib, shuni ta'kidlash kerakki, u Sharq fanini antik fan, qadimiy Gresiya fani bilan bog'ladi. Forobiy Aristotelning sharhlovchisi sifatida ham mashhur, buning uchun u "ikkinchi muallim" degan faxriy nom olgan. Ayniqsa, Forobiy akustika masalasiga katta e'tibor berdi, buning uchun u gammalar intervalini hisoblash maqsadida ud tovushqatoridan foydalandi. Musiqa nazariyasi masalalari bilan Sharqning ulkan olimi Ibn Sino ham shug'ullandi. Uning asarlarining ayrim bo'limlarida musiqa va uning fizik xossasi, musiqiy parda va ritmik asosi haqida ma'lumotlar bor. Ibn Sino "Kitob ush-shifo" va "Kitob un-najot"da musiqa fanining akustika, "Donishnoma"da matematika tomonlarini rivojlantiradi. Forobiy, Ibn Sino va boshqa O'rta Osiyo olimlarining o'rta asrdagi ilm va madaniyatning yuqori darajasini aks ettirgan asarlari ana shu davr musiqa madaniyatini o'rganishimizda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Nazariy asarlar musiqa san'atining monodiya (rivojlangai bir ovozli) tabiatiga asoslangan edi. Birinchi bo'lim (ilmi ta'lif) ovozlarning o'zaro munosabatlari, tovushqatorlarini o'rganishga, ikkinchisi (ilmi iqo) esa ritm haqidagi ta'limotdan iborat edi. XV asrning ikkinchi yarmida o'tmishdoshlari-Forobiy, Ibn Sino, Abdulqodir Marog'iylarning musiqa nazariyasiga oid asosiy qonunlarini davom



ettirgan va rivojlantirgan tojik shoiri Jomiy (1414-1492) ning “Musiqqa haqida risola”si ana shunday asarlardan hisoblanadi.

Jomiy ham o'tmishdoshlari kabi ovozlarning interval holdagi o'zaro munosabatlarini beradi, ularni torning qismlari nisbatidan chiqargan holda asosiy jins - tovushqator (tetraxord va pentaxord)larni tashkil qilish hamda ulardan jam (parda)lar tashkil etish usulini ko'rsatadi. Og'zaki an'anadagi professional musiqqa mahsuli o'n ikkita maqomlardan kelib chiqib, Jomiy asosiy tovushqatorlarni o'n etti pog'onali gamma hosil qiluvchi o'n etti bo'lakka bo'ladn (in terval nisbatlari sentlarda belgilangan):

Keyinchalik tovushqator asosini o'zbek musiqasiga xos bo'lgan miksolidiy ladiga muvofiq etti pog'onali gamma tashkil qilishi aniqlandi. Shuningdek, risolada ritm haqidagi ta'limot ham keng rivojlantirilgan. V.Belyaevning Jomiy risolasiga yozgan izohlarida “she'riy ritmika vokal va cholg'u asarlarning ayrim bo'laklari poetik davralar uzunligi bilan mos keladigan ohang chiziqlarining yuzaga kelishi uchun asos sanaladi” deyiladi. Shuningdek, Jomiy asosiy ritmik formula (ya'ni usul)lar tuzilishini tadqiq etadi. Risolaning xotimasida lادلarning tinglovchilarga ta'siri haqida ham so'z yuritiladiki, bu pardalarning axloqiy ta'siri haqidagi qadimgi yunonlar nazariyasini rivojlantirish hisoblanadi. O'rta Osiyoning boshqa musiqachilari asarlaridagi kabi Jomiyning asarida ham kosmologik g'oyalar bayon qilinadiki, ana shunga muvofiq musiqqa tabiat garmoniyasi va jamiyatning axloqiy asoslarini ifodalaydi. Forobiy, Ibn Sino, Safiuddin al Urmaviy asarlaridagi qoidalarni ko'proq takrorlagan holda Jomiy ularda hukmron bo'lgan matematik uslublardan farqli ravishda musiqachining “sog'lom hissiyoti”ga murojaat qilib, uning nazariyada amaliyot tomon ko'priq tashlaydi<sup>12</sup>.

Uning qarashlari o'tmishning Arnstoksen kabi mutafakkirlarining qarashlari bilan to'g'ri keladi. O'rta Osiyo olimlarining musiqqa nazariyasiga oid asarlari xalqning musiqiy hayotiga bag'ishlangan sahifalardan joy olmagan. Lekin shakshubha yo'qki, saroy va shahar doirasida ommaviylashgan boy, rivojlangan musiqqa san'ati, ajoyib kuylar ijodkori, ijrochilari bo'lgan O'rta asr bastakorlarining professionallashishi xalq musiqqa madaniyati zaminida o'sdi va rivojlandi, ijod etishning qat'iy qoidalari esa xalq musiqqa amaliyotning ko'pincha ijodiy qayta nshlanishi natijasi bo'ldi.

Musiqqa cholg'ularida har bir xalqning milliy o'ziga xos xususiyatlari, an'anasi, urf-odat va qadriyatlarini o'z ifodasini topganki, ulardan taraladigan ovoz

---

<sup>12</sup> Ражабов И. Мақомлар масаласига доир. Т., 1963. 2 Джами Абдурахман. Трактат о музике, 105- бет.



ham shunga moslashtirilgan. Musiqiy cholg'ularda ijrochilik san'ati insoniyat ma'naviyatini tarannum etuvchi vosita sifatida xalq ijodiyoti mahsuli bo'lib, azal-azaldan omma orasida shakllanib, rivojlanib kelmoqda. Milliy cholg'ular mohir soz ustalari tomonidan tobora mukammallashtirilib, jarangliligi, musiqaviyligi va ohangdorligi bilan ajralib turibdi. Musiqiy cholg'ular tarixiy rivojlanish davomida ularga nisbatan talab va ehtiyojni oshib borishi bilan ularning ta'limiy va tarbiyaviy tomonlariga ham e'tibor shu qadar kuchayib bormoqda.

Xalq cholg'ulari uzoq o'tmishda paydo bo'lgan. Ma'lumotlarga qaraganda, dastlabki musiqa cholg'ulari eramizdan avvalgi XIII ming yillikda dunyoga kelgan, deb taxmin qilinadi. Musiqa cholg'ulari oilasi tarixida dastlab urma zarbli cholg'ular paydo bo'lgan. Buning asosiy sababi eng qadimgi ibtidoiy odamlarning mehnatini ijodiy mahsulidir. Ilk ibtidoiy odalar hayvonlarni qorin to'yg'azish g'amida yirtqich hayvonlarni ham turli ov usullaridan foydalangan holda qo'lga kiritishga harakat qilgan. Hayvonlarning terisini qurigan daraxtning kudasini ustiga qoldirib ketgan. Jazirama issiqqa teri qotib qolgan. Keyingi safar odamlar kelib, terini olishga har qancha ham urinsada, biroq, olaolmagan. Keyin turini ustiga qo'li yoki biror tayoq yoki cho'p bilan ursa u o'zidan baland va yoqimli sado chiqargan va uning keyinchalik dovul deb ataganlar. Undan keyin shovqinli cholg'ular paydo bo'ldi, ijrochilar qarsak chalib ritmni ta'kidlagan, shovqinli cholg'ular ta'sirini ko'paytirganlar. Ijrochi ayollarning chapak zarblari o'ziga xos, takrorlanmas go'zal holatni vujudga keltirgan. Shunday mehnat jarayonlarida odamlarning ongi tabiiyki kuy, ohang, qo'shiq bilan band bo'lgan. Samarali mehnat natijasida qo'shiqlar paydo bo'la boshlagan va ular sekin-asta og'izdan-og'izga, otadan-o'g'ilgan, onadan-qizga o'tib shakllangan va odamlar qalbidan bir umrga joy oldi.

Qadimgi sharq madaniyati bag'rida, o'zbek xalq cholg'ulari shakllandi. Ular ko'p asrlik taraqqiyot davomida o'ziga xos xususiyatlarni, tovush tusini saqlab qoldi. Shu tariqa chang, nay, surnay, tanbur, dutor, rubob, g'ijjak, qo'bizlar an'anaviy shakllarda bizgacha etib keldi.

Quldorlik tuzimi davrida Maroqand, Niso, Tuproqqal'a, Termiz va boshqa shaharlar mavjud edi. Ushbu shaharlar hududida olib borilgan qazilma ishlar chog'ida badiiy hunarmandchilik buyumlari, turli xil cholg'ularining tasvirlari topildi. Quldorlik jamiyati O'rta Osiyo xalqlari madaniyati rivojida muhim bosqich bo'ldi. Xalq musiqasi yanada yuksalishi bilan birga, cholg'ular ham takomillashdi.

Asrimizning 30-40-yillarida uyushtirilgan arxeologik ekspeditsiyalar (S.L.Tolstov, V.A.Vyatkin, M.B.Masson va boshqalar rahbarligida) natijasida qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lindi. Topilgan madaniy yodgorliklarda turli xil musiqa asboblari: tanbur, rubobsimon cholg'u, qonun, ud, nay, surnay, karnay, doirasimon cholg'ular chalayotgan mashshoqlar tasvirlangan.



Xalq cholg'ulari O'rta Osiyo aholisining turmushi va mehnat faoliyatining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. Cholg'ular jo'rligida qo'shiq, o'yin va kuylar xalqning katta-katta marosimlari, oilaviy, mavsumiy bayramlarida ijro etilib kelinmoqda. Bayramlar ko'proq yil fasllari bilan bog'liq bo'lgan. O'rta Osiyoda "Navro'z", "Lola sayli", "Hosil bayrami", "Qovun sayli", "Uzum sayli" kabi mavsumiy bayramlar keng tarqalgan. Bunday ommaviy bayramlarni xalq cholg'u ansambllari, xonanda va sozandalar hamda raqqosalarsiz tasavvur qilish qiyin. Bayramlarda, madaniy marosimlarda ayniqsa karnay, surnay, doyra, nog'ora va urma zarbli musiqa cholg'ulari keng qo'llanilgan.

IX asr oxirida Somoniylar mahalliy feodal sulolasi O'rta Osiyoning kattagina qismini birlashtirishga muvaffaq bo'ldi. Somoniylar davlatining poytaxti Buxoro yirik madaniy markazga aylandi. Bu erda adabiyot va musiqa taraqqiy etdi. Hayot sharoitining o'zgarishi tufayli musiqa san'atining ijtimoiy ahamiyati oshdi. Shaharliklar va yuqori tabaqa sinflari turmushida musiqaning roli sezilarli kuchaydi. O'sha paytlardayoq ixtisoslashuv maxsus musiqiy ustaxonalarning paydo bo'lishiga olib keldi yakkanavoz, ansambl musiqachiligi va raqsni o'z ichiga olgan vokal cholg'u musiqa turkumlari mavjud edi.

O'rta asr musiqa ijrochiligi madaniyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shunda ediki, cholg'u ijrochilari nafaqat bir necha turdagi musiqa asboblarini chala olgan, balki o'zlari ham musiqa bastalaganlar. Cholg'uchilar o'z davrining etuk musiqachilari va shoirlari ham bo'lishgan. O'rta asr sharoitida musiqiy asarlari ham ko'paydi. Bu erda ustoz-shogird an'analari qaror topdi va rivojlandi. Ayni shu paytda ansambl ijrochiligi takomillashdi, musiqa san'atining asosiy ko'rinishlari shakllanib cholg'u asboblarining yangi namunalari kashf etildi.

Sharq olimlarining nazariy qarashlari mavjud ijrochilik san'ati tajribasi asosida shakllangan bo'lib, ular o'z risolalarida musiqaning jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati haqida atroflicha ma'lumot berganlar.

Forobiyning (873-950) "Katta musiqa kitobi" ("Kitob al-musiqa al-kabr"), Abu Ali ibn Sinoning (980-1037) "Davolash kitobi" ("Kitobi ush-shifo") qomusidagi "Musiq haqidagi risola", al-Xorazmiyning (X asr) "Bilimlar kaliti", Sayfuddin Urmoviyning (1216-1294) "Olijanoblik haqida kitobi" yoki "Sharofiya kitobi", Jomiyning (1414-1492) "Musiq haqidagi risola" kitoblarida musiqa ijrochiligi va xalq cholg'ulari haqida muhim ma'lumotlar bayon etilgan.

Sayfuddin Urmaviy iste'dodli ud cholg'u ijrochisi, xonanda, mashhur sozanda sifatida tanilgan. U Ozarbayjonning Urmaviya shahrida tug'ilgan. Sayfuddinning eng katta yutug'i lad (modius)larning mukammal sistemasini ishlab chiqqanligidadir.

Ibn Zaylining (1044 yilda vafot etgan) "Musiq haqidagi to'liq kitob"i ("Kitob ul-kabir fil-musiqiy") uning musiqa ilmidagi yagona va bebaho kitobidir.





U yangi usulni – musiqada ladlarni xarflar bilan ifodalash usulini ishlab chiqdi.

Abduqodir Marog'iy (XV asr), Abduqodir ibn-Royibiy (Marog'iy) Ozarbayjonning Marog' shahrida tug'ilgan, lekin hayotining ikkinchi yarmi Amir Temur saroyida - Samarqandda o'tgan va Hirotda vafot etgan. "Musiqqa ilmida ohanglar to'plami" ("Jami al-alhan fi-ilm al-musiqiy") risolasida musiqqa haqidagi ta'limotni-kamoncha, etti torli g'ijjak kabi bir turdagi musiqqa cholg'usi borligi haqidagi ma'lumotlar bilan boyitdi.

Al-Xusaynning (XV asr) "Musiqiy kanonlar" risolasida asosan O'rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan ikki torli musiqqa cholg'usi-dutor haqida bir qator musiqiy cholg'ular xususida juda qimmatli ma'lumotlarni keltirib o'tgan.

Qutbiddin ash-Sheroziy (1236-1310) eronlik musiqqa nazariyotchisi sifatida tanilgan bo'lib, o'z risolasida kamonchali tanbur haqida gapirib, inson ovozi musiqqa asboblari ichida eng yoqimli deb hisoblagan. XVII asrda yashagan Buxorolik musiqashunos Darvish Ali o'z risolasida tanbur, chang, qonun, rubob, qo'biz, g'ijjak kabi musiqqa cholg'ulari haqida batafsil ma'lumotlar bergan.

Buyuk Sharq mutafakkirlarining merosi xalq cholg'ularini o'rganish sohasida ham tarixiy qiymatga ega. Abu Nasr Muhammad Forobiyning mashhur asari "Kitob al - musiqqa al -kabir" ("Musiqqa haqida katta kitob") ulkan ahamiyatga egaligi bilan ham ajralib turadi. O'rta asr olimi o'zining ushbu mashhur kitobida ikki xil musiqqa ijrochiligi: ohangni inson ovozi (qo'shiq san'ati) va cholg'ular vositalarida qayta tiklashga ajratadi. Forobiy mohir ijrochi sifatida musiqqa cholg'ularining jamiyat hayotidagi o'rnini o'rganishga ahamiyat beradi va u: "... Jangu - jadallarda, raqslarda, to'y - tomoshalarda, ko'ngil ochar bazmlarda hamda ishq - muhabbat qo'shiqlarini kuylashda chalinadigan o'ziga xos cholg'ular bor" deb yozadi.

Forobiyning yuqoridagi fikri cholg'ularning nafaqat saroy ahyonlari, balki shahar va qishloq aholisi, chorvodoru-dehqonlar, hunurmandlar orasida shuningdek, musiqqa madaniyati sohasida etakchi o'rin egallagan.

Kitobning ikkinchi qismi boshdan-oxir o'sha davr musiqqa cholg'ulariga bag'ishlangan. Unda lyutnya, tanbur, nay, rubob, chang, qonun va boshqa musiqqa cholg'ulari izchil va batafsil tahriflanadi. Forobiy torli, mizrobli lyutnyani o'sha davrda eng keng tarqalgan cholg'u hisoblagan. Lyutnya o'ziga xos mizrob (chertma) vositasida chalingan, dastasida esa ligatura (lad)lar joylashgan. IX-X asrlarda lyutnya arabcha ud nomini oladi. Bu cholg'u ko'pgina Sharq mamlakatlarida, Kavkaz orti xalqlari orasida hozirgi kungacha saqlanib kelmoqda. Zamonaviy ud namunalari hozirgi kunda O'zbekiston davlat konservatoriyasining milliy cholg'u laboratoriyasi muzeyida saqlanib kelinmoqda.

"Musiqqa haqidagi katta kitob"da Forobiy yana bir cholg'u asbobi- tanburni ham tahriflaydi. Olimning fikricha, tanbur (dilni tirnash) udga eng yaqin turdagi



cholg'ulardan biri deb hisoblaydi.

Tanburda torlar noxun (metaldan yasalgan maxsus chertmak-tirnoq) yordamida chertiladi. Tanbur xuddi ud kabi keng tarqalgan va xalq sevgan cholg'udir. Tanburning ikki yoki uch jez (sim) tori bo'lgan. Uning ikki turi ma'lum: Xuroson va Bag'dod tanburlari. Bag'dod tanburlarining maqom (parda)lari kamroq (beshta), cholg'u dastasi kaltaroq bo'lgan. Xuroson tanburining maqom (parda)lari ko'p bo'lgan, dastasida cholg'u bo'g'zidan to dastaning yarmigacha oralig'ida pardalar joylashgan. Tanburning bu turi shu kungacha o'z shaklini yo'qotmay, musiqa ijrochiligi amaliyotida yakkanavoz hamda ansambl cholg'usi sifatida amaliyotda foydalanib kelinyapti.

Forobiy, shuningdek, nayni ham tahriflaydi. U turli xil damli cholg'ularini ovoz hosil qilishi xususiyatiga ko'ra naysimon guruhga kiritadi. Ulardan biri oddiy nay yoki bir yo'nalishda joylashgan ko'p teshikli nay. Bu turdagi naylar yoki turlicha ataluvchi naylar hozirgi kunda xam Sharq xalqlari orasida mavjud. Uni vietnamliklar "sao", tojiklar "tutek", tatarlar "kaval", qozoqlar "sibizga", ozarbayjonlar "ney" (juda kam uchraydi), qirg'izlar "uoo", "choor" (cho'ponlarning cholg'u asbobi), o'zbeklar "nay" deb ataydi. Olim ko'pincha tut daraxtidan ishlanadigan keng tarqalgan surnay haqida ham to'xtaladi.

Forobiy, shuningdek, dunay (mizmar)ni ham tilga oladi. Dunay hozirgi qo'shnay yoki turkman xalq cholg'usi gosha-dilli "tyuy dyuk" (qo'sh qamish naychalardan tuzilgan cholg'u)ga o'xshaydi.

Forobiy risolasida o'zi yashagan davrda mavjud bo'lgan rubobni ham batafsil tahriflaydi. O'sha davrdagi rubob ham hozirgi Qashqar rubobiga o'xshab, rezanator va ancha uzun dastadan tuzilgan. Ikki xil chertma torli rubob mavjud bo'lgan. 1 yog'och dekali va asosiy qismi yog'ochdan, 2 pastki qismi charmdan ishlangan dekali.

Forobiyning tahkidlashicha, chang ochiq torlarning tebranishi orqali ohang hosil qiluvchi musiqa cholg'ulari turkumiga kiradi. O'sha davrdagi changning 15 tori bo'lgan, ular diatonik sozlangan va ikki oktava oralig'iga teng tovushqatorga ega bo'lgan. Risolada tahriflangan barcha cholg'ular ashula, raqs, yakkanavoz va ansambl ijrochiligiga jo'r bo'lishda foydalanilgan. Forobiyning guvohlik berishicha, ud cholg'usi ansambl ijrochiligida etakchi rol o'ynagan. «Cholg'u asboblari haqida kitob» da olim tanbur, rubob, chang kabi cholg'ularini udda chalinayotgan kuyga yoki yakkanavoz xonandaga uyg'un jo'r bo'lish uchun sozlash usullarini tushuntiradi. Shunday qilib, Sharqning ulug' allomasi musiqa ilmining bir bo'limi sifatida cholg'ularni o'rganuvchi cholg'ushunoslik sohasiga asos soldi. Bu soha keyinchalik boshqa olimlarning asarlarida ham keng boyitildi va rivojlantirildi.

Yashagan davriga ko'ra Buyuk olim ibn Sino Forobiyga juda yaqin. Uning

"Davolash kitobi" deb nomlangan yirik qomusining "Musiqqa haqida risola" bobida o'sha davrning musiqqa ijrochiligiga oid ilmiy-falsafiy bilimlari bayon etilgan. Bu risolalarda cholg'ular tahrifiga anchagina o'rin ajratilgan. Ibn Sino o'z davri musiqalarini ikki guruhga bo'ladi: mizrobli, noxunli (barbod, tanbur, rubob) va butun rezanator qopqog'i bo'ylab tortilgan ochiq torli cholg'ulari (shohruh, chiltor, lira, chang, arfa).

O'sha davrda Sharqning taniqli mutafakkiri Sayfuddin Urmaviy musiqqa ilmi tizimini rivojlantirdi. U usta cholg'uchi, xonanda va mohir bastakor sifatida mashhur edi. Udda olib borgan tajribalariga tayanib, olim o'z nazariy qoidalarini bayon etdi. Urmaviyning "Taqvadorlik kitobi"da cholg'u asboblari ichida ud eng mashhur va eng zamonaviyidir deb ta'kidlaganlar. Udning besh juft tori kvarta tartibidagi 7 ta maqomi (ladi) bo'lgan. Torlari bam, masnas, masna, zir va eng yuqorisi hadd deb atalgan. Besh qo'sh torli takomillashgan ud keyingi paytlarda ham o'z tuzilishini saqlab qolgan. Udning kvartaga sozlangan besh qo'sh tori va etti maqomi (ladasi) haqida Sheroziy (1236-1311), Jomiy (XV asr), al-Husayniy, Marog'iy, ibn Sinolar ham yozishgan. Jomiyning "Musiqqa haqidagi risola"sida keltirilgan ud dastasining to'la chizmasi uni sozlash haqida to'liq tasavvur beradi. Olimning tasdiqlashicha mavjud o'n ikki maqom qadimiy etuk musiqaning asosidir. Jomiy musiqaning tinglovchilariga ta'siri haqida to'xtalib, uning chuqur ruhiy va ma'naviy ahamiyati bor, deb hisoblaydi.

XIII-XVII asrlarda yaratilgan risolalarda chang, qonun, nuzxa, rubob, tanbur kabi torli cholg'ular, shuningdek, damli cholg'u nayning ta'riflari berilgan.

Darvish Alining (XVII asrda) Buxoroda yaratilgan musiqaga doir risolasi an'anaviy cholg'ular haqidagi ma'lumot manbai sifatida xizmat qilishi mumkin. Unda musiqqa madaniyati, chunonchi, O'rta Osiyoning yirik shaharlarida mavjud bo'lgan cholg'ular hamda mohir ijrochilar haqida nodir ma'lumotlar mavjud.

Darvish Alining risolasi XVI-XVII asrlar O'rta Osiyo musiqasini o'rganish uchun qimmatbaho manbadir. Mazkur asarda mashhur xonanda va cholg'uchilar, bastakorlarning ijodiy tarjimai hollari bayon etilgan.

Darvish Ali o'tmishdoshlari singari, torli mizrobli cholg'ular orasida tebranish ohangiga ko'ra eng yaxshisi sanalgan udni cholg'ular "shohi" deb atadi. Risolada yozilishicha, chang cholg'uchilar homiysi Zuhraga bag'ishlangan.

Ta'riflangan changning etti maqom ijrosi uchun yigirma olti torli va etti pardasi bo'lgan. Bulardan tashqari, risolada qonun, rubob, qo'biz, g'ijjak, musiqqa, ekbon-nay, (damli, charmli), Xitoyda tarqalgan ruxavza (olti tordan iborat noxunli) kabi cholg'ular ham tilga olingan.

Darvish Ali ta'rif bergan cholg'ulardan ettitasi, tanbur, chang, qonun, ud, rubob, qo'biz, g'ijjak o'sha davrda keng tarqalgan cholg'ular edi.

Darvish Alining ma'lumotlari musiqqa amaliyotida dastlab ansamblda uyg'un

kalorit hosil qiladigan torli-noxunli va torli -kamonchali cholg'ular qo'llanilganligi haqidagi fikrni tasdiqlaydi. Risolada changchi Dilorom, naychilar Abduqodir va Xo'ja Abudullohlar, Mavlono Qosimi-Rabboniy, Sulton - Ahmadiy - "devona" rubobchilar, aka-uka Shayx Abu - Bakri Rabboniy va Shayx Behduchi, dono qonunchi shayx Shamsi Rabboniy va ko'pgina boshqa mashhur ustalarning nomlari tilga olingan.

Darvish Alining guvohligi yana shunisi bilan qimmatliki, u qayd etgan cholg'ularning kattagina qismi (nay, surnay, chang, qonun, rubob, tanbur, g'ijjak, qo'biz, doyra, nog'ora, ud) O'rta Osiyoning hozirgi O'zbekiston, Tojikiston va boshqa respublikalarida, shuningdek, Ozarbayjonda bizning kunlargacha saqlanib keldi va u takomillashmoqda. Ushbu musiqa cholg'ulari uzoq vaqt mobaynida o'zbek xalqining madaniy turmushidan mustahkam o'rin olib, uning madaniy xayotida keng qo'llanib kelingan. Shunday ekan, bu cholg'ularni o'zbek xalq cholg'ulari, deb atash o'rinlidir. Abdul Fazl Boyhaqiy (XIV asr) asarlarida torli mizrobli (rud, barbad, tanbur), damli va urma zarbli cholg'ular (karnay, litavra va baraban) singarilarning nomlari keltirilgan.

Ma'lumki, Sharq adabiyotida o'tmishda shoirlar asarlariga javob yozish ("nazira") tizimi keng qo'llanilgan. Ko'plab "Xamsa"lar ham shu yo'sinda yaratilgan. Navoiy o'zining "Sabhai sayyor" ("Xamsa" dostonlarining biri) dostonida Bahrom Go'r haqidagi qadimiy afsonani, yangicha talqin etdi. Asar qahramoni - chang cholg'uchisi Dilorom deb atalgan. Shoir uning cholg'usini musiqa timsoli sifatida gavdalantirgan.

Zahiriddin Muhammad Boburning (1483-1530) e'tirof etishicha, Alisher Navoiy o'z davrida ko'plab ud cholg'uchilarning o'z iste'dodlarini namoyon etishiga ko'maklashgan. "Boburnoma"da o'zbek xalq cholg'ulari ijrochilarining nomlari zikr etilgan. Bobur, shuningdek, Shoh Kulmiy-G'ijjakiy, Husayn Udiy, Xo'ja Abdulloh Marvarid Qonuniy kabi mohir ijrochilarni ham tilga oladi.

Navoiy davrida nay, ud, g'ijjak, qonun, karnay, surnay, nog'ora, doyra, chang ijrochiligi keng tarqalgan edi. Ularning hammasi ansambl ijrosida ham, yakka ijroda ham birdek qo'llanilgan. Chang yakka cholg'u sifatida alohida ajralib turgan.

XV-XVII asr yozma yodgorliklari ma'lumotlarini qiyoslab shunday xulosaga kelish mumkinki, bu davrga kelib, O'rta Osiyoda xalq cholg'ularida ijrolik madaniyati o'z kamolotiga etdi. O'zbek xalq cholg'ulari ijrochilari ayni chog'da o'zlari ham musiqa asarlari yaratganlar. O'sha paytdayoq mohir chang, ud, g'ijjak, qonun, nay, tanbur, bulamon ijrochilari va etuk xonandalari bo'lgan, ular o'ziga xos ansambllar tuzishgan. Shuningdek, yakkanavoz ijrochilik ham rivojlangan.

Vosifiy o'z "estaliklar"ida ajoyib uslub o'ylab topgan qonun cholg'uchisi Hoji Abdullo Marvarid nomini keltiradi. U bastalagan kuy va qo'shiqlar xalq



orasida keng tarqalgan. Shunday qilib, XIV-XVII asr tasviriy san'atida va adabiy merosida ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaluvchi musiqa cholg'ulari asosiy tiplarining barqarorligini tasdiqlovchi boy material bo'lgan.

O'rta Osiyo olimlarining musiqa haqidagi risolalari, badiiy adabiyot, rassomchilik bizning kunlargacha etib kelgan o'zbek xalq cholg'ulari tarixiy taraqqiyotining uzun zanjirdagi ayrim uzilgan halqalarini qaysidir darajada tiklash imkonini beradi. Necha yuz yillar o'tdi, musiqa cholg'ulari esa yakka, ansambl va orkestr ijrochiligida o'z o'rnini egallab, bugungi kungacha yashab kelmoqda. Musiqa ijrochiligi san'atida maqom janrini tiklash va rivojlantirish XVII-XIX asrlarda cholg'ular batafsil tahriflangan yirik asarlar yaratilmadi. Bu ko'proq feodal tarqoqligining kuchayishi bilan bog'liq. Ulkan davlat ayrim-ayrim xonliklarga bo'linib ketadi (Buxoro, Xiva, Quqon xonliklari). Bu esa musiqa san'ati taraqqiyotida aks etmay qolmadi. O'zbek musiqa madaniyatida mahalliy xususiyatlar kasb eta boshladi. O'ziga xos musiqa cholg'ulari shakllandi. Musiqa turlaridan-maqomlar bundan buyon har xonlikda o'ziga xos yo'nalishda takomillashdi. Maqom ijrochilari zarurat yuzasidan o'zgarishlar kiritishdi. Shunga qaramay, musiqaning umumiy xususiyatlarini saqlab qolishdi. Har bir ijrochi maqom ijrosiga ijodiy yondashib, musiqa ijrosiga o'ziga xos takrorlanmas jihatlar kiritdi. Og'zaki tarzda cholg'ularni saqlab qolish an'anasi maqomning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib, busiz uning yashab qolish va so'nggi taraqqiyotini tasavvur etish qiyin. Har bir xonlikda o'ziga xos bir yo'nalishda xalq musiqasining yangi turlari yaratildi; bayramona, kuylar, xalq tomosha kuylari (dorbozlik, ko'g'irchoqbozlik) yangi tipdagi raqs kuylari. Bu kuylar o'zining quvnoqligi, sho'xligi bilan bir-biridan farq qilib turgan va keng xalq ommasini o'ziga jalb etgan.

### **Xalq musiqa an'analari, og'zaki an'ana-dagi kasbiy musiqa, dostonchilik ijodiyoti.**

Xalqimizning istiqloлга erishish munosabati bilan azaliy qadryatlarimizni tiklash, o'z tariximizni, milliy urf-odat va an'alarimizni, ma'naviy va shu jumladan, badiiy merosimizni atroflicha o'rganish hamda undan bahramad bo'lish imkoniyati vujudga keldi.

O'zbek xalqining musiqa merosi juda boy va qadimiy tarixga ega. Uning ajoyib an'analari hozirgi kunda ham o'z badiiy va estetik qiymatini saqlab kelmoqda. Bu an'alar zamonaviy o'zbek musiqa madaniyatining ajralmas qismini tashkil qiladi.

Qadim – qadim zamonlardan ona-zaminimiz o'zining boy ma'naviy merosi, yuksak madaniyati, urf-odat, marosim va an'analari bilan jahon sivilizatsiyasida munosib o'rin egallagan. Bu o'lka xalqlarining buyuk siymolari dunyo ilm-fani va



madaniyatining barcha sohalari rivojiga o'zlarining munosib xissalarini qo'shib kelganlar.

“Vatanimiz”, degan edi davlat mustaqilligi asoschisi I.A.Karimov, - bashariyat tafakkur xazinasiga unutilmas xissa qo'shib keldi. Asrlar moboynda xalqimizning yuksak ma'naviyat, vatanparvarlik, mahrifatparvarlik kabi ezgu – fazilatlar sharq falsafasi va islom dini ta'limoti bilan uzviy ravishda rivojlandi va o'z navbatida falsafiy, axloqiy ta'limotlar ham xalqimiz dahosidan bahra olib boyib bordi. Shuni alohida tahkidlash joyizki, o'zbek xalqining tarixiy taraqqiyoti davrida moddiy va ma'naviy mahdaniyati bar tekis ravishda rivojlanmadi. Unda uyg'onish va yuksalish bilan birga depsinish, turg'unlik holatlari ham bo'lib turdi.

Ma'lumki, Markaziy Osiyo xalqlari o'tgan uzoq tarixiy davr mobaynida ko'plab istilochilar tomonidan zabt etilgan. Ular erli aholini boy milliy madaniyatidan begonallashtirish siyosatini olib borganlar. Shunga qaramay xalqimiz o'z milliy ongi, milliy g'ururi, milliy iftixori va ma'naviy dunyosini asrab qolgan va uni boyitib borgan.

Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritganch, ma'naviy-madaniy hayotimizda tub o'zgarishlar yaratish uchun keng imkoniyatlar vujudga keldi. “Ma'naviyat taqdirining ehsoni emas. Ma'naviyat inson qalbida kamol topishi uchun u qalban va vijdonan, aql va qo'l bilan mehnat qilishi kerak. Bu xazina insonga hayotda barqarorlik bag'ishlaydi. Uning qarashlari shunchaliu boylik orttirish yo'lida kun ko'rishga yo'l qo'ymaydi. Fojealar vaqtida omon saqlab qoladi va moddiy qiyinchiliklar kunlarida irodani mustahkamlaydi”, - degan edi birinchi Prezident I.A.Karimov.

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridan boshlab davlatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoev rahbarligida madaniyat va san'at rivojiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki millatning o'tmish va kelajak oldidagi mashuliyati uning ma'naviyatiga alohida e'tibor berishni taqozo etadi. Asosiy maqsad – o'tmish madaniy, ma'naviy merosimizni chuqur o'rganish, uni keng ommalashtirish, shu qadriyatlar vositasida komil insonlarni tarbiyalab, voyaga etkazish, pirovardida ularni kelajak avlodlarga bus-butun etkazishdan iboratdir.

Milliy madaniyat, ma'naviyatimizning chuqur o'rganishda qo'shiqchilik san'ati ham alohida o'rin egallaydi. Milliy qo'shiqchilik san'atimiz tarixi, uning an'anaviy qirralarini o'rganish, ijro usullarining rang-barangligini tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining musiqa san'ati to'g'risidagi qaror va farmonlarida milliy an'anaviy musiqa san'atini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Farmonlarda ko'zda tutilgan eng asosiy maqsad – musiqa san'ati yutuqlarini yanada mustahkamlash va rivojlantirish, ushbu soha ijodiy xodimlarining mehnatini yanada rag'batlantirish va ularni ijtimoiy



himoyalashni nazarda tutishdan iborat edi. Shu farmondan kelib chiqib, respublika qo'shiqchilik, musiqa madaniyatini yanada yuksaltirishning tegishli chora-tadbirlari belgilanib, shu asosda ko'pgina ijodiy ishlarni amalga oshirilmoqda.

Bu yo'ldagi harakatlar, ayniqsa, "O'zbekiston – vatanim manim", "Sharq taronalari" (Xalqaro ko'rik tanlovi), "Nihol" nomidagi Davlat mukofoti va boshqa qator ko'rik tanlovlarda o'z aksini topdi. Bunday ko'rik tanlovlar mamlakatimizda yangi san'at dastalarini elimizga manzur bo'lgan yangi xushovoz xonandalarni, milliy qo'shiqchilik an'analarimizning turli qirralarini o'z ijodlariga asos qilib olgan san'at ijodkorlarini etishtirib chiqarmoqda.

Yuqorida zikr etilgan chora-tadbirlarning respublika televideniyesi, radiosi ijodkorlari tomonidan muttasil o'tkazilib borilayotganligi respublika hukumatining qo'shiqchilik, musiqa sohasida olib borayotgan sobitqadam ishlaridan hisoblanadi.

Buyuk istiqloqlning sinovli davonlaridan o'tishda, mamlakatimizda iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalarda tub islohotlar o'tkazilayotgan bir pallada jamiyatimizda milliy madaniyat va san'at, ma'naviyat va mahrifat kabi insonparvar hamda taraqqiyotparvar omillarga alohida diqqat e'tibor berilmoqda. Bu o'rinda amaliy bebaho qadriyatlarimizni, xalqchil udum va an'analarimizni tobora to'laroq tiklash, tarixiy – madaniy yodgorliklarimizni shu jumladan musiqiy merosimizni mufassal o'rgana borish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Uni yosh avlodlar tomonidan ilmiy hamda amaliy jihatdan puxta o'zlashtirish uchun so'ngi yillarda barcha zaruriy shart – sharoitlar yuzaga keltirilganini ehtirol etish lozim.

Ko'zlangan ezgu maqsadlarga erishish uchun respublikamizning madaniyat va san'at o'quv yurtlarida, shuningdek, xalq ta'limi tizimiga kiruvchi gumanitar yo'nalishdagi oliy va o'rta o'quv yurtlarida o'zbek musiqa ijodiyotining barcha qatlamlarini – rosmna xalq musiqasi, maqomchilik, dostonchilik, o'tmish va zamonaviy bastakorlik, kompazitorlik, badiiy havaskorlik, estrada san'atini qamrab oluvchi qator maxsus o'quv fanlar joriy etildi. O'z navbatida, ularni mukammal dastur, darslik va o'quv qo'llanmalar bilan tahminlash – hozirgi kunda mutaxassislarimiz oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir.

Adabiyotshunoslik, san'atshunoslik sohalarida xususan, mavjud musiqiy adabiyotlarda uslub so'zi har xil ma'nolarda qo'llanib turilishi ma'lum. Bulardan bir hollarda uning keng, umumlashma, boshqalarda esa xiyla tor, yoki ko'chma ma'no va mazmunlari qayd qilinadi. Tahkidlash lozimki, uslub atamasi ham mazmunan, ham mohiyatan turlicha idrok etilsada, ayni paytda u o'zaro yaqin, mushtaraktushunchalarni anglatishi mumkin. Demak, bu masalaga avvalo oydinlik kiritish zarur.

Uslub so'zi yordamida avvalo bir muncha keng, aniqrog'i – yig'ma ma'noda jahon xalqlari musiqa san'atiga xos umumiy yoki muayyan mintaqaviy xususiyatlar tabiati ifodalanadi. Bunga, jumladan, sharqona musiqiy uslub,



“Evropacha musiqa uslubi” kabi iboralar yaqqol misol bo‘la oladi. Boshqa barcha badiiy ijodiyot ko‘rinishlari misoli, musiqada ham milliy o‘ziga xoslikka aynan uslub atamasi yordamida qisqa va lo‘nda tavsif beriladi.

Musiqiy asarlarning ichki tuzilish qonuniyatlari bu masalada yanada muhimroq ahamiyat kasb etadi. Ya’ni, asosiy vositalarning o‘zaro munosabatlarini mezonlardan u yoki bu uslub aniqlanadi. Xususan, “bir ovozli” yoki “manodan”, “ko‘p ovozli”, jumladan “garmonik”, “polifonik”, “gomfonik” nomli uslublar shular toifasiga kiradi. Yirik ijodiy yo‘nalish va oqimlar. Masalan, “klassitsizm”, “romantizm”, “imperesionizm”, “realizm” va boshqalar ham uslub tushunchasi bilan bevosita bog‘liqdir.

Uslub so‘zi yana bastakor, kompozitor, dirijyor, xonanda va sozandalar faoliyatini ijodiy jihatdan chuqurroq yoritish maqsadida ishlatiladi. Ayniqsa, u birorta mashhur san’atkorning ijodiy qiyofasini, uning farqli, betakror chizgi – qirralarini tahlil yoki qiyos ila ko‘rsatishda baholiqudrat hizmat qiladi. Shuningdek, “cholg‘u uslubi”, “maqom uslubi”, “yovvoyi” yoki “patnisaki uslub”, “badiqa uslubi”, “zamonaviy uslub” singari rang – barang ma’nolarni bildiruvchi hollarni kundalik o‘quv – nazariy va amaliy istehmolda tez – tez uchrab turishi mumkin.

Musiqiy folklorshunoslik sohasida uslubga dahldor yana bir tushuncha bor bo‘lib, u biror xalq, millat va elatga mansub ijodiyot ko‘lamida joylardagi tub aholining o‘zgacha betakror ijodiy xususiyat, udum va an’analarga diqqatimizni jalb qiladi. Tabiiyki, “mahalliy uslublar” masalasini o‘zbek xalq musiqa ijodiyoti misolida, ya’ni uning tarixiy – nazariy - amaliy asoslariga tayangan holda ko‘rib chiqish o‘quv fani oldiga qo‘yilgan maqsadlarga muvofiqdir.

O‘zbek halq musiqasining ko‘hna, nihoyatda boy va serjilo an’analari avvalo uning turfa yarim – mahalliy uslublarida yorqin va teran o‘z ifodasini topadi. Darhaqiqat, ayrim hollarda musiqiy – mahalliy uslubning tilshunoslikdagi “sheva”, “lahja”, tushunchalari bilan qiyos qilinishi ham bejiz emas. Biroq, adabiyotshunoslikdan farqli o‘laroq, jami mavjud “musiqiy sheva”larning mushtarak sifatleri o‘z navbatda “umummilliy musiqiy uslub” singari yig‘ma tushunchani yuzaga keltiradi.

Xulosa qilib aytganda, musiqada uslub tom ma’noda turli – tuman, bir hisobda ayricha tushunchalar doyrasini vujudga keltirsada, bunda deyarli barcha tarkibiy vositalarining uzviy bog‘liqligini, tizimiyligini nazarda tutish darkor. Xuddi shu boisdan o‘zbek xalq musiqa ijodiyoti bilan tanish, uni o‘rganish hamda amaliy o‘zlashatirish borasida uslubning o‘rni va ahamiyati benihoya katta.

Ko‘lami keng, serqatlam musiqa merosimizni tashkil etuvchi xilma – xil ko‘xna namunalarini nota yozuviga tushirib, to‘plab, ushbu yo‘nalishda dastlabki ilmiy izlanishlar bilan shug‘ullangan bir qator mutaxassislar ish faoliyatida



kuzatilgan uslubiy tafovutlarga o'z vaqtida alohida etibor berilgan ular bu haqida ilk bor qiziqarli ma'lumotlarni to'plab, teran ilmiy mushohadalar yuritgnalar. Xususan, ehtirol etilganki, O'zbekiston xududining barcha vohalarida, qo'shni Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmanistonda istiqomat qiluvchi o'zbeklar orasida, shunigdek, ayrim boshqa xorijiy mamlakatlarda azaldan tub o'zbek aholisi zich holda yashab kelayotgan erlarda "musiqiy sheva"larning ko'rinishlari o'zgacha ekan. Kuzatilayotgan bunday ancha murakkab etnik, jug'rofiy, siyosiy-ijtimoiy, tarixiy-madaniy voqeylik to'laligicha qamrab olish, unga mukammal tahrifu-tavsiflar berish qiyin masala, albatta bularning orasida hozirga qadar ko'lami jihatidan bir muncha kengligi, tarixan qadimiyligi, xususiyatlari bo'yicha benazir, betakrorligi bilan asosan to'rtta mahalliy uslub tavsif ila alohida-alohida ajratilgan bo'lib, o'zbek musiqashunosligida nisbatan atroflicha o'rganilgan. Ularning har bir muayyan xudud nomi bilan, ya'ni Toshkent – Farg'ona, Buxora – Samarqand, Xorazm va Surxondaryo – Qashqadaryo mahalliy uslublari, - deb yuritiladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, o'zbek xalq musiqasining tarixiy rivojlanishida mazkur mahalliy uslublarning kelib chiqishi juda ko'p narsalarga bog'liq bo'lgan. Shu jumladan, millatimiz shakllanishining tarixi uzun jarayonida serurug' va ko'p qabilali turkiy tili qadimiy qavlarning o'zaro birikib ketganligi, xalq hayotining uzoq – yaqin o'tmishda ro'y bergan olamshumul ahamiyatga molik katta ijtimoiy – siyosiy voqeyliklar (masalan, hozirgi O'zbekiston vohalarining davlatchilik nuqtaiy nazaridan qadimgi zamon va o'rta asrlarda bir qator katta - kichik podsholiklar, saltanatlar, amirlik va xonliklarga kirgan yoki ichidan bo'linib ketgan), erli aholining turmush tarzi, qishloq va shahar madaniyatining o'zaro o'zgarib turgan muvozanatlari, dehqonchilik, chorvachilik, kasb-hunarmandchilikning o'rni, iqtisodiy hamda ichki – tashqi savdo – sotiq ishlarining rivojlanishi darajasi, boshqa millat va elatlar bilan o'rnatilgan iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy aloqalari, yaqin qo'ni – qo'shinichilikning o'zaro ta'siri ahamiyatlidir.

O'ziga xos mahalliy xususiyatlar marosim – maishiy musiqasida ham, nomarosim kuy – qo'shiqchilikda ham, bastakorlik va dostonchilik ijodkorligida ham, ashula va cholg'u ijodkorligida ham bevosita namoyon bo'ladi. An'anaviy uslublarda zaminida bitilgan hozirgi zamon asarlarida ham bu xislatlar ozmi – ko'pmi, hamon namoyon bo'lishi mumkin.

Ajdodlarimiz tomonidan yaratilib, asrlar osha bizgacha etib kelgan musiqa merosimizning bunday sifat ko'rsatkichi va fazilatlarini o'zbek xalqining bitmas – tugammas, bepayon ijodiy salohiyati, yuksak badiiy didi va teran tafakkurlaridan yaqqol dalolat berishi tabiiydir. Zero, moziydan shu kunga qadar mahalliy san'at ahli an'anaviy ijodiyotning shakl va navlarini tobora takomillashtirib, uning badiiy



barkamol namunalarini avaylab-asrab, yangidan-yangi ijodkorlik say – harakatlari ila milliy – ma'naviy boyliklarini doimo ko'paytira borganlar. San'atkorlar xalqning orzu-umidlarini, sevincha va hayratlarini, quvonch va qayg'ularini, jamiki insoniy qalb ehtiyojlarini yuksak musiqiy idrok bilan tasvirlab berib, kishilarga hamisha ruhiy – ma'naviy ozuqa berishgan. Ular mumtoz musiqa orqali nafosat va ezgulik olishga tinglovchini oshno qilish istagida bo'lib, o'lmas qadriyatlar bilan hamisha bahramand etib kelganlar.

Kasbiy musiqa ijrochiligi sohasida san'atkorlar ustoz – shogirdlik an'anasini yuzaga keltirib, uni qadimdan bevosita qo'llagan holda faoliyat ko'rsatib kelishgan. O'zbekiston Markaziy Osiyoning turli vohalaridagi taniqli xonanda, sozanda va bastakorlar bilan o'zaro yaqin aloqalarda bo'lishgan. Ularning o'rta va yaqin sharqqa, qolaversa butun dunyoga mashhur bo'lgan olimlarimiz tomonidan ishlab chiqilgan musiqiy ilm–fan asoslaridan tajribali muallimlar yordamida, ko'plab maxsus nazariy risolalar orqali boxabar bo'lishgani ma'lumdir.

XVII asr oxiri va XIX asr boshlarida o'zbek musiqa madaniyatida xalq va professional musiqa san'atining quyidagi ko'plab yangi turlari takomillasha boshladi; katta ashula, katta o'yin, Shodiyona, Navro'z, Mavrigi, Shashmaqom, Chor maqom (unga Dugoh, Husayniy, Chorgoh, Bayot, Gulyori-Shahnoz kirgan). Joylarda mavjud musiqa cholg'ulari va ijrochilarga bog'liq holda turlicha cholg'u ansambllari tuzilgan. Ko'p hollarda xalq cholg'ulari ansambl tarkibiga g'ijjak, tanbur, dutor, chang, nay, qo'shnay, doira kabi musiqa cholg'ulari kiritilgan.

Musiqachilikda olti turkum asarlardan iborat Shashmaqom ayniqsa mashhur bo'lgan. U O'rta Osiyo xalqlari syuita (turkum) shaklidagi professional musiqasining uzoq taraqqiyoti natijasida vujudga kelgan. I.Rajabov yozadi: Shashmaqom olti xil turli lad tizimlaridan iborat, ularning har biri, o'z navbatida, mushkilot (cholg'u) va nasr (ashula) bo'limlaridan iborat bo'lgan quyidagi maqomlarga (qismlarga) bo'linadi:

“Rost”, “Buzrug”, “Navo”, ”Dugoh”, “Segoh”, “Iroq” ... . Har bir maqom 20 tadan 40 tagacha katta-kichik qismlarni o'z ichiga oladi. Hammasi bo'lib turkumda 250 ga yaqin mushkilot va nasr qismlari bor. Bir maqomning ijrosi bir necha soat davom etgan.

Xalq cholg'ulari xalq og'zaki ijodi va sinfik adabiyot bilan uzviy bog'liqlikda rivojlanadi. Xalq cholg'ulari haqidagi tasavvurlarni badiiy asarlardagi musiqa cholg'ulari ifodalari, kitob miniatyuralaridagi cholg'uchilar tasviri boyitadi. Firdavsiy, Sahdiy, Navoiy, Dehlaviylarning asarlarida 60 dan ziyod xalq cholg'ularining nomi zikr etilgan.

Maqomlar asosan saroy ayonlari huzurida muayyan vaqtda yoki muayyan sharoitlarda ijro etilgan. Hatto mohir qo'shiqchilarning o'ziga xos musobaqasi (ayniqsa, avjlarni ijro etishda, shuningdek, o'ziga xos yangi-yangi qismlarini



to'qishda) tashkil etilgani ma'lum.

Musiqqa ijrochiligi san'atida maqom janrini tiklash va rivojlantirish davom etdi. Maqom o'zining oxang va ritm qonuniyatlariga ko'ra xalq qo'shiqlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, faqat qamrovining kengligi bilan farqlanar edi. Odatda, har bir maqom ikki katta qismga bo'lingan.

Birinchisi – faqat cholg'ularda ijro etilgan qismi bo'lib mushkilot deb atalgan, ikkinchisi – cholg'ular jo'rligida aytiladigan ashula qismi bo'lib, nasr deb atalgan. Nasr o'z ichiga raqs kuyi-uforni ham olgan.

Cholg'uchilar orasida musiqqa tovushlarini yozib ko'rsatadigan maxsus belgilar tizimi notatsiya yaratishga intilish paydo bo'ldi. Buni amalga oshirish shoir-musiqachi Pahlavon Niyoz Mirzaboshi (Komil Xorazmiy 1825-1879)ga nasib etdi. Istehdodli musiqqa ijrochisi mohir tanburchi va g'ijjakchi Paxlavon Niyoz Mirzaboshi sayohat chog'ida nota bo'yicha kuy chalayotgan cholg'uchilarni ko'rib hayratga tushdi. Mirzaboshi - Komil Xorazmiy Xorazmga qaytishi bilanoq ilgari diliga tugib yurgan niyati maqomlarni yozib olishga ilhom bilan kirishdi.

Paxlovon Niyoz Mirzaboshi Komilning shogirdi Muhammad Yoqub Xarratov (1867-1939) mashhur tanburchi edi. U nafaqat chog'uchilik san'atini, balki hattotlik san'atini ham mukammal egallagan edi. Iste'dodli cholg'uchi Komil Xorazmiy rahbarlik qilgan saroy xalq cholg'ulari ansambilining sozandasi bo'lgan Muhammad Yoqub Xarratov (Matyoqub Xarratov) tanbur nototsiyasini tuzishda va xorazmcha maqomlarni yozib olishda qatnashgan. Ustozidan xorazmcha maqom turkumlarini qabul qilib, ularning saqlanib qolishiga katta hissa qo'shgan.

Muhammad Rahimxon (1806-1825) saroyida ishlagan mashhur tanburchi va qo'shiqchi Niyozxo'ja Hojining ijodiy va ijrochilik faoliyati Xivada kechdi. U xorazm musiqqa madaniyatiga katta e'tibor berdi.

Matyoqub Xarratovning aytishicha, Niyozxo'ja Buxoroga "Shashmaqom"ni o'rganish uchun borgan. U Buxorodan qaytgach, buxorocha maqomlar Xiva cholg'uchilari tamonidan o'zlashtirilib, Xorazmda keng tarqala boshladi. Xorazmning mashhur cholg'uchilari Muxammadrahim Feruz, Komil Xorazmiy, Mirzo Muxammadrasul va boshqalar Niyozxo'ja bilan hamkorlikda maqomlarga yangi cholg'u bo'limlari qo'shib, ularni boyitdilar.

XIX asrning ikkinchi yarmida Qo'qon shahri mashhur cholg'uchilar to'plangan markazga aylangan edi. Bu yerda Usta Xudoyberdi rahbarligida o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik maktabini o'rganish bo'yicha o'ziga xos maktab yaratildi. Farg'ona cholg'ulari buxorocha shashmaqomni faol o'zlashtira boshladi. Ota - Jaloliddin Nosirov (1845-1928) maqom ijrochisi, taniqli o'qituvchi, cholg'uchi, usta tanburchi edi. U dastlab musiqqa ilmini onasidan o'rgandi, so'ngra maqomlarning zukko bilimdoni va mohir ijrochisi bo'lgan otasidan ta'lim oldi. Ota-Jalol Nosirov uzoq yillar mobaynida Amir Olimxon (Buxoro), Amir



Muzaffarxon (Shahrisabz)," Amir Otajonlar (Karmana, hozirda Navoiy)lar saroyida o'zbek xalq cholg'ulari ansamblining doimiy rahbari va xonandasi bo'lgan. Ota G'iyos Abdug'ani (1858-1924) o'zbek musiqasining bilimdoni, buxorolik tanburchi edi. U Shashmaqomning Mushkulot qismini yaxshi bilgan va har bir maqomni unga xos usul va xususiyatlarni saqlab qolgan holda ijro etgan.

Xoji Abdulaziz Rasulov (1852-1936) o'zbek va tojik musiqasining taniqli ijrochilaridan biri, mohir tanburchi Hoji Raximqulning shogirdi. 1888 yilda Buxoroga bordi. U erda Ota-Jaloliddin Nazirov raxbarligi ostida bir yil ichida Shashmaqomni mukammal o'rgandi. A.Rasulov Farg'ona, Samarqand, Toshkent shaharlarida o'zbek xalq musiqasi va maqomlarini faol targ'ib qildi. U o'zbek xalq cholg'ulari ijrochiligi rivojiga tanburchi, dutorchi va xonanda sifatida salmoqli hissa qo'shib, xalq va musiqa jamoatchiligining mehr-muhabbatiga sazovor bo'ldi.

Yuqorida nomlari keltirib o'tilgan musiqachi-cholg'uchilar o'z ijodiy yo'lini boshlab o'z davrida ijodiy kamolotga etdilar. Ular hammasi mahrifatchilar, yosh musiqachilarning ustozlari edilar. Ularning pedagogik qarashlari, ta'limotlari o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik bo'yicha yangi pedagogik hayotiy manba bo'lib, o'lmas meros sifatida saqlanmoqda.

1917-1945 yillarda ijrochilik san'atining taraqqiyoti 1917 yildan keyin o'zbek musiqa san'ati jadal va jo'shqin taraqqiy eta boshladi. Birinchi o'n yillikdayoq musiqa ta'limi, folklorshunoslik, ijrochilik san'ati sohalarida muayyan yutuqlarga erishildi.

Musiqa o'quv yurtlari - Toshkentdagi Turkiston xalq konservatoriyasi (1918) va uning Samarqanddagi, Farg'onadagi (1919), Buxorodagi (1920) filiallarida katta ishlar amalga oshirildi. Ularda asosan o'zbek xalq cholg'ularini hamda ba'zi Yevropacha musiqa cholg'ulari (fortepiano, skripka va damli cholg'ulari) ni chalish o'rgatilar edi. Bu musiqa bilim yurtlari tom ma'nodagi konservatoriya bo'lmasa-da, biroq, o'tgan davr musiqa madaniyati ilmini o'rganish imkoniga ega bo'lmaganlarga sodda musiqa nazariy ilmi hamda ijro san'atida saboq berilar edi. Shu tufayli yosh respublikaning ko'pgina shaharlarida musiqa havaskorligi keng quloq yoydi.

O'zbek san'atining asoschisi, dramaturg, bastakor, muallim, jamoat arbobi Hamza Hakimzoda Niyoziy musiqa san'ati rivojiga katta xissa qo'shdi. 1917 yilgacha bo'lgan davrdagi xalq musiqachi va ijrochilari yaratgan an'analar cholg'ularning keyingi avlodi ijodida tarkib topdi va davom etdi. Musiqachi-ijrochilar qayta tuzilgan madaniy-mahrifiy tashkilotlarda ishga kirishib ketdi.

Taniqli tanburchi va xonanda Shorahim Shoumarov 1919 yilda Toshkentdagi "Namuna" maktab-internati qoshida xalq cholg'ulari ansamblini tuzdi. Bu ansambl keyinchalik Toshkent musiqa texnikumini tashkil qilish uchun asos bo'lib xizmat



qildi. 20-yillarda o'quv yurtlari, zavodlar, fabrikalar qoshida, qishloq joylarda "Ko'k ko'ylak", "San'atchi qizlar", "Sanoyi nafisa" kabi musiqiy jamoalar tuzildi. Tashkil qilingan ijodiy jamoalar tarkibida naychi, changchi, dutorchi, tanburchi, g'ijjakchi, doyrachi, nog'arachilar va qashqar rubob sozandalari bo'lgan xalq cholg'ulari ansambllari ham bor edi.

Xalq cholg'ulari ansambllari Farg'onada, Andijonda, Samarqanda ham tuziladi. Ularga mashhur cholg'uchilar usta Olim Komilov, To'xtasin Jalilov, Ahmadjon Umirzoqov, Yusufjon Shakarjonov, usta Ro'zmat Isaboyev, Matyusuf Xarratov, Usta Toyir Marufjon Toshpulatov, Muhiddin Mavlonovlar rahbarlik qilishgan. Ularning samarali ijodi tufayli, o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik san'atidan ko'pchilik bahramand bo'ldi.

1936 yilda Moskvada bo'ladigan dekada munosabati bilan Qori Yoqubovga Davlat filarmoniyasini tuzish topshiriladi, u filarmoniyaning birinchi direktori etib tayinlanadi. Qori Yoqubovning va boshqa musiqa san'ati arboblarning qat'iyligi tufayli, Toshkentda davlat konservatoriyasini tuzish haqida qaror qabul qilinadi.

O'zbek xalq musiqasi an'alarining davomchisi, Toshkentlik mohir xalq cholg'uchisi-dutorchi, tanburchi, naychi Yunus Rajabiyning (1897-1976) ijodiy faoliyatiga mahrifatparvarlik keng musiqiy-ijtimoiy xususiyatlar xos edi. Besh jildlik o'zbek xalq musiqasini yozib olib, nashrga tayyorlaganligi Yunus Rajabiyning ko'p yillik ijodiy faoliyatining eng ajoyib samarasi bo'ldi. 1927 yili Yunus Rajabiy O'zbekiston radio qo'mitasi qoshida 12 cholg'uvchi (xonanda va sozandalar)dan iborat xalq cholg'ulari milliy ansambli tashkil etadi. Bu ansamblga u Toshkentdagi o'sha paytda mashhur musiqachilar - qo'shmaychi Xayrulla Ubaydullayev, dutorchilar Abdusoat Vahobov, Orif Qosimov, tanburchilar Rixsi Rajapov, Mahsudxo'ja Yusupov, g'ijjakchilar Imomjon Ikromov, Nabi Hasanov, Mahmud Yusupov, naychilar Dadaali Soatqulov, Said Kalonov, changchilar Nigmatjon Do'stmuhammedov, Faxriddin Sodiqov, Mahamatjon Rasulov, doyrachi Dadaxo'ja Sottievlarni jalb etdi. Repertuarida o'zbek xalq kuylari bilan bir qatorda zamonaviy bastakor, shu jumladan Yunus Rajabiyning "Chorgoh", "Ko'chabog'i", "Bayot", "Birlashingiz", "Fabrika", "G'alaba", "Hammamiz", "Ilg'or", "Mirzadavlat" kabi asarlari bor edi. Keyinroq bu ansamblda respublikaning mashhur xonandalari Toshkentlik Mulla To'ychi Toshmuhamedov, Buxorolik domla Halim Ibodov, Samarqandlik dutorchi va xonanda hoji Abdurahmon Umarov, tanburchi va xonandalar Matyoqub Xarratov, Safo Mug'oni, Toshkentlik Nazira Axmedova kabi san'atkorlar ishlagan. Ayni paytda ansamblning ijrochilik repertuari "Shashmaqom"ning mushkulot va nasr qismlari: "Nasurulloi", "Navro'zi Sabo", "Talqini ushshoq", "Sarvinozi talqincha", shuningdek, bastakorlarning "Uyg'oning", "Bizning qishloq", "Yashasin", "Kolxozimiz" kabi asarlar hisobiga kengaydi.



1930 yilda Toshkent musiqa oliy maktabi, 1936 yilda esa uning asosida O'rta Osiyoda birinchi musiqa oliy o'quv yurti - Toshkent davlat konservatoriyasi ochildi. 1936-1937 o'quv yili xalq cholg'ularida ijrochilik sohasida musiqiy ta'lim rivoji uchun juda muhim davr bo'ldi. Aynan shu davrda Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtida A.I.Petrosyans tashabbusi bilan Yu.Rajabiy, A.Daroshev, A.Mansurov, B.Gienko, N.Krestyanin, V.Marsinkovskiy, A.Maxsudov, O.Qosimov kabi o'qituvchilar umummaqbul nota tizimi asosida o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik bo'yicha saboq bera boshladilar. Sh.Shoakramov, A.G'ofurov, M.Yunusov (chang), S.Yuldoshov, G.Qodirov (tanbur), A.Ilyosov, M. A'zamov kabilar ularning birinchi o'quvchilardan bo'lishdi.

O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik madaniyatining o'sishi, jahon bastakorlari asarlarining o'zlashtirilishi, O'zbekiston bastakorlarining xalq cholg'ulari uchun maxsus asarlar yaratishdagi faol ijodiy faoliyati o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik san'atini yanada yuksalishi uchun muhim zamin bo'ldi. Shu bilan birga, yuqori malakali ilmiy pedagogik va ijrochi kadrlarni puxta va mukammal qilib tayyorlash masalasini ham kun tartibiga qo'ydi.

O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilikning keyingi davrlardagi yuksalishi Toshkent konservatoriyasining faoliyati bilan chambarchas bog'landi. 1948 yildan boshlab mamlakatimizdagi musiqa oliy ta'lim muassasalarida, shu jumladan; hozirgi O'zbekiston davlat konservatoriyasida ham xalq cholg'ulari ijrochiligi bo'yicha ta'lim berish boshlandi.

O'zbek xalq cholg'ulari bo'limiga (orkestr fakulteti tarkibida) rahbarlik qilish, o'quvchilarni saralab yig'ish, o'quv rejalarini tuzish A.I.Petrosyans tomonidan amalga oshirildi. O'zbekiston davlat konservatoriyasida o'zbek xalq cholg'ulari ijrochiligi bo'yicha professional ta'limni yo'lga qo'yishda V.A.Uspenskiy, M.A.Ashrafiy, A.I.Petrosyans, I.P.Blagoreshchenskiy, B.F.Gienko, G.G.Sobitovlar katta rol o'ynashdi.

1948-1949 yillardagi birinchi o'quv yilida konservatoriyaga O'zbekiston Davlat filarmoniyasi xalq cholg'ulari orkestrining 13 cholg'uchisi o'qishga qabul qilindi. Shulardan 10 kishi: Nazir Nigmatov (qo'shnay), Abbos Bahromov, Aleksandr Yevdokimov (prima-rubob), La'li Sultonova, Mirzaev, Buriboy Mirzaahmedov (qashqar rubob), Mahamatjon Asilov, Obid Xolmuhamedov (g'ijjak), Anvar Liviev (doyra) 1-kursga qabul qilindi. Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtining bitiruvchilari Axmadjon Odilov (chang), Valentina Borisenko (prima rubobi), Feoktist Vasilevlar (qashqar rubobi) esa 2-kursga qabul qilindi.

Muhammadjon Mirzaev respublikadagi rubobchilarning eng mashhuri, kuychi-bastakori. Konservatoriyani qashqar rubobi sinfida A.I.Petrosyans

rahbarligida tamomlagan. 1951 yildan filarmoniya orkestrida ishlash bilan bir qatorda, o'zbek xalq musiqasi merosini o'rganish bo'yicha yosh ijrochilarga murabbiylik qilib kelgan. Xalq artistlari X.Mavlonova, M.Turg'unboevalar bilan ijodiy hamkorlikda "Bahor vals", "Yangi tanovar", "Gulnoz", "Dilbar", "Gulxumor", "Dildor" kabi lirik qo'shiqli raqs kuylarini yaratgan. U yaratgan qo'shiqlar orasida "Shirmonoy", "Oltin sandiq", "Uch dugonalar" ayniqsa mashhurdir. M.Mirzaev O'zbekiston xalq artisti, O'zbekiston bastakorlar uyushmasi a'zosi va bir qancha mukofotlar sohibi. Rubob ijrochiligida (keyinroq yosh ijrochilar tomonidan rivojlantirilgan) hissiy va yorqin uslub asosini yaratgan dastlabki rubobchilardan hisoblanadi.

Mirza Hakimovich Toirov konservatoriyani nay ixtisosligi bo'yicha tamomlagan dastlabki bitiruvchilardan biri (1956). U o'z ustozlari A.I.Petrosyans bilan hamkorlikda "Nay maktabi" o'quv qo'llanmasini yaratgan. Ushbu qo'llanma O'zbekistondagi barcha musiqasi bilim yurtlarida, shu bilan birga, qo'shni respublikalarda ham nay sinflarining ochilishiga imkon yaratdi. M.Toirov 1957 yildan ijrochilik kafedrasida avval o'qituvchi, so'ngra dotsent bo'lib ishlagan. Ayni bir paytda T.Jalilov nomidagi xalq cholg'ulari orkestrida ham ishtirok etgan. M.Toirov musiqasi ijrochilari Butunittifoq konkursining (1957) hamda Yoshlar va o'quvchilarning VI jahon festivalining sovrindori (1957), Estoniya va MDH davlatlari (Moskva, Qozog'iston, Ozarbayjon, Turkmaniston, Tojikiston)da bo'lib o'tgan o'zbek san'ati dekadalarida qatnashgan. M.Toirov bir necha istehdodli naychilarni tarbiyalab kamol toptirgan. Uning I.Qosimov, O.Azizov, Sh.Ahmadjonov, R.Xolmirzaev, K.Yusupov, A.Abdurashidov kabi shogirdlari respublika ko'riklarining sovrindori bo'lishgan. M.Toirov O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist (1969). U 1987 yildan konservatoriyaning professori unvoniga sazavvor bo'ldi.

Fozil Matyusupovich Xarratov (1926-1971) taniqli changchilardan biri edi. Musiqasi bilimi va ijrochilik ilk sabog'ini o'z otasi, mashhur changchi Matyusuf Xarratovdan oldi. Otasi (M.Xarratov) farzandining istagiga ko'ra, unga yarim xromatik tovush qatoriga mansub yangi chang yasab beradi. 1942 yilda F.Xarratovlarning oilasi Toshkentga ko'chib keladi. Fozil bu erda avval Toshkent davlat sirkining aralash musiqasi ansamblida ishlaydi. U 1950-1955 yillarda Toshkent davlat konservatoriyasida A.Odilovning chang cholg'usi sinfida o'qiydi. Keyin bir oz vaqt konservatoriyada dars beradi. Uning shogirdlari orasida G.Nehmatov, F.Shukurova, T.Xo'jamberdiyev kabi taniqli ijrochilar bor. F.Xarratov Moskvada bo'lib o'tgan Yoshlar va o'quvchilarning VI Jahon festivalining sovrindori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist (1964). U "Hurmat Belgisi" ordeni bilan mukofotlangan.

Feoktist Nikiforovich Vasilev (1919-1987) dastlabki professional qashqar



rubobi ijrochilaridan biridir. U 1937 yilda Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtiga o'qishga kiradi. 1938 yildan O'zbekiston filarmoniyasi xalq cholg'ulari orkestrining cholg'uchisi edi. Ikkinchi jahon urushi yillarida Turkiston harbiy okrugining ashula va raqs ansamblida ishlagan. Konservatoriyaning qashqar rubobi sinfi bo'yicha A.I. Petrosyans rahbarligida tamomlagan (1952). 1949 yildan konservatoriyada qashqar rubobi, dutor, tanbur ixtisosligi bo'yicha dars bergan. S. Taxalov, A. Boboxonov, G. Ergashev, T. Rajabov, Q. Usmonov kabi mashhur rubobchilar uning qo'l ostida tarbiyalanganlar. Feoktist Nikiforovich o'zining ilmiy-metodik ishlarida ("Rubob maktabi" darsligi) "qashqar rubobi uchun etyud va mashqlar" rubob chalishni o'rganish bo'yicha tizimli o'qitish metodini ishlab chiqdi. 1983 yildan F. Vasilev professor vazifasini bajaruvchi bo'lib ishlagan edi.

Feoktist Nikiforovichning nomi o'zbek musiqa madaniyati hamda 40 yilga yaqin murabbiy bo'lib xizmat qilgan Toshkent konservatoriyasi bilan chambarchas bog'liq.

Valentina Yakovlevna Borisenko (1919-1990) o'zining ijodiy yo'lini O'zbekiston Davlat filarmoniyasi xalq cholg'ulari orkestrida cholg'uvchi bo'lib boshladi (1939). Prima rubobi ixtisosligida ijrochi va o'qituvchi sifatida tanildi. Hamza nomidagi musiqa bilim yurtini tugatgach (1948), Borisenko orkestrining torli-noxunli cholg'ular guruhida konsertmeyster bo'lib ishladi. Konservatoriyaning prima rubobi ixtisosligi bo'yicha I.G. Blagoveshchenskiy rahbarligida tamomladi (1952). So'ngra orkestrda ishlashni davom ettirdi. 1950 yildan Toshkent konservatoriyasida o'qituvchi, 1962 yildan esa xalq cholg'ulari kafedrasining dotsenti lavozimlarida ishlagan. Borisenkoning mashhur shogirdlari orasida A. Malikov, G. Salayeva (Obidova), B. Yo'ldoshev, M. Rahimov, B. Azimov, Sh. Janaydarov, A. Dadamuhamedov kabi ijrochilar bor.

Sulaymon Manievich Taxalov (1942 yilda tug'ilgan) ajoyib ijro texnikasiga va alohida tovush jozibasiga ega bo'lgan, an'anaviy va akademik ijro usulini birdek mukammal egallagan rubobchilardandir. Konservatoriyada o'qishni tugatgach, F.N. Vasilev sinfida (1958) qashqar va afg'on ruboblari hamda tanbur ixtisosliklari bo'yicha saboq berdi. S. Taxalov Moskvada bo'lib o'tgan Yoshlar va o'quvchilarning VI Jahon festivalida ishtirok etgan (1957). U xalq cholg'ulari ijrochilari Butunittifoq konkursining o'zbek xalq musiqasi nota yozuvi va tavsifini takomillashtirish sohasida katta ilmiy-tadqiqot ishlarining sohibi. U "Afg'on rubobini, chalishni o'rgatish metodikasi asoslari" nomli o'quv qo'llanma muallifidir. S. Taxalov 1985 yildan dotsent, 1988 yildan esa san'atshunoslik fanlari doktori, professor ilmiy daraja va unvonlarini olgan.

Abdusalom Malikovich Malikov (1939-1979). Dotsent vazifasini bajaruvchi bo'lib xizmat qilgan. A. Malikovning rubob-prima ixtisosligi bo'yicha 60-65 yillarda konservatoriyada V.Y. Borisenko rahbarligida olib borgan ijodiy faoliyati





alohida e'tiborga loyiq. U 1967 yildan xalq cholg'ulari ijrochilik kafedrasida ishlagan. I Respublika ko'rik-tanlovining sohibi (1971).

G'ulomqodir Ergashevich Ergashev (1946 yilda tug'ilgan). Toshkent konservatoriyasining sobiq o'quvchisi (1969). F.N.Vasilevning shogirdi, afg'on rubobi ijrochisi, turli xil dasturlar bilan tez-tez konsertlarda qatnashib turadi. 1967 yildan TDKsida o'qituvchi, 1988 yildan kafedra dotsenti lavozimida ishlagan

Chang musiqa cholg'usi tanburning o'ttiz ikki pardasidan olinib ixtiro qilingan. Ba'zi rivoyatlarda go'yo Arastun (Arestotel) Hakim Zuhro yulduziga qiyos qilib ixtiro qilgari deyiladi<sup>13</sup>. Undan tashqari Abdulqodir Marog'iy o'zining "Maqosid ul alhon" (kuylar maqsadlari) kitobida chang musiqa cholg'usini yuziga teri tortilgan unga 24 ta tor ikki tomoniga ip bilan bog'lab qo'yilgan" degan ma'lumot berilgan bo'lib, noxun (tirnoq) vositasida ijro etilgan. Qadimgi chang musiqa cholg'usining bir turi bu cholg'uning yuz qismiga teri emas balki yog'och qoplangan. Torlari ip bilan emas cho'plar vositasida berkitib qo'yilgan.

Hozirgi kunda O'zbekiston hududida musiqa ijrochiligida qo'llanilayotgan "Chang" nomli musiqa cholg'usi Sharq va boshqa xalqlarning milliy musiqa ijrochiligida turli xil nomlanishlarga ega. Belarussiya va Ukrainada - simbala. Uyg'ur xalqlarida - chang, Eronda-santur deb nomlanib O'zbekistondagi - "Chang" musiqa cholg'usiga o'xshash. Ko'pgina musiqiy risolalarda zikr etilgan "Chang" cholg'usi hamda XVI asrlarda yashagan Darvesh Ali Changiy ijro etgan "Chang" nomli musiqa cholg'usi tamoman boshqa ko'rinishda bo'lib, hozirgi kunda musiqa ijrochiligida qo'llanilayotgan "Arfa" musiqa cholg'usining aynan o'zidir.

### **Islom va musiqa**

Ma'lumki, Islom badiiy va ilmiy ijodiyotga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Ushbu fenomenni tafakkur etish, doimo o'ziga xos muammoli masala bo'lib kelgan. Ammo, shunday bo'lsa-da bu haqda mavjud manbalarga asoslangan holda fikrlar (ilmiy farazlar, taxminlar) bildirilgan va yozilgan. Har bir tegishli manbada an'anaviy musulmon madaniyati o'ziga xos tarzda talqin etilgan. Islom va musiqa muammolarini chuqur o'rganishda ba'zan manbalar va materiallarning talab darajasida emasligi (ya'ni, masalalar echimiga qoniqarli javob beruvchi ma'lumotlarning etishmasligi) ham bu mavzuni atroflicha yoritish murakkablashtiradi.

Islom va musiqa muammosi ikki yo'nalishda o'rganilishi mumkin. Birinchisi "rasmiy" Islom, ya'ni mazhablari va talqinlari, ikkinchisi esa din ichida vujudga

---

<sup>13</sup> Наг'маи ниёгон. Таҳқиқ ва таҳияи А. Ражабов. Душанбе. Адиб, 1988.124 с..



kelgan tasavvuf oqimidir. Ana shu ikki dunyo miqyosida musiqa turli badiiy va falsafiy-yestetik shakllarga ega bo'ldi. Bunda musiqa shakllarining ko'lamini, musiqa tinglash va uni o'rganishish man etilishidan tortib, toki musiqa yordamida Olohga etishish kabi jarayongacha bo'lgan tushunchalar bilan belgilanadi.

Birin-ketin vujudga kelgan bu ikki dunyo murakkab tarzda bir-biri bilan «qorishib» ketgan. O'rta asrlarda yashagan inson "oddiydan – murakkabga" tomon Islom qonunlarini o'rgangan. Ya'ni, Islom asoslari, so'fiylik shariati, tariqati va hokazo. Tasavvuf Islom dini qonunlari, g'oyalari va timsollarini chuqur falsafiy, ramziy-estetik ma'no va mazmun bilan boyitadi. Ma'lumki, Qur'oni Karimda musiqa san'atiga bo'lgan munosabat to'g'ridan-to'g'ri (ochiq) bildirilmagan. Musiqa mavzusi ko'proq xadislarda yoritilgan. Musiqa tarafdorlari va qarshilar aynan shu manbaga tayangan holda ish ko'rishgan. Turli xil ilmiy izlanishlardan shu narsa aniqlanadiki, musiqaga bo'lgan qarshilikning ikkita asosiy sababi mavjud. Har bir sabab ma'lum bir tarixiy davrga to'g'ri keladi va siyosiy-mafkuraviy hamda madaniy rivojlanish bilan bog'liq bo'ladi.

Dastlabki musiqaga bo'lgan qarshilik, VII-VIII asrlarga to'g'ri keladi. Islom dini xristianlik, yahudiylik zardushtiylikka nisbatan qarshiligi bo'lmasa-da, o'zining "ichki dushmanlari" bo'lmish "butparastlik", "ko'pxudolik"ka qarshi ayovsiz kurash olib borgan. Ana shu "unsurlar" arablarda (Islom dini joriy bo'lishidan avval) tovush, so'z, tasvir kabi materiallarda aks ettirilgandir. Masalan, musiqa butparastlar diniy marosimlarida qo'llanilib, ularning afsonalari bilan yo'g'rilgan. Mavjud ma'lumotlar (ilmiy farazlar,taxminlar)ga ko'ra aynan shu sababli Islom dini nozil bo'lganida musiqa man etilgan.

Musiqa bilan bog'liq tasvirlar devorlarga ham chizilgan O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston hududlaridan topilgan musiqachilarning terrakota haykalchalari bu erlarda musiqa ancha yuqori mavqega ega bo'lganidan dalolat beradi. Zardushtiylik va buddaviylikda musiqadan keng foydalanilgan. Ular marosimlarda murakkab tizimli musiqiy timsollarga tayanishgan. Buddizm ramziga mashhur "Ayritom peshtoqlari"ni bog'lash mumkin. Bu davrda musiqa ham tasviriy san'at singari Islomdan bo'lak dinlarning ruhi va g'oyasini ifodalab, ularning timsollarini o'zida namoyon etgan. Ammo musiqa va tasviriy san'atga nisbatan qo'llaniluvchi huquqiy tartibot o'sha paytda hali yo'q edi. Uning joriy etilishi VIII-IX asrlarga to'g'ri keladi. Boisi, bu davrda xadislarda joriy bo'lib, Islomning to'rt asosiy mazhablari – xanbaliy, molikiy, shofeiyy va xanafiyy tashkil topdi (ushbu mazhablar ularning asoschilari nomi bilan atalgan). Mazkur mazhablarning bevosita musiqaga doir fikrlari keyinchalik yozib qoldirilgan qonunga oid, tasavvuf va bahzan musiqashunoslikka oid manbalarga iqtibos tarzida kiritilgan. Islom dinida musiqaning tahqiqatlanishiga sabab, boshqa dinlarga o'xshamaslik, ya'ni islom ahlini musiqa bilan chalg'itib, dinning ta'sir kuchini



susaytirmaslikda edi. Islom dini o'z marosimlarini har qanday «dunyoviy unsurlar» bilan buzishdan saqladi. Bu holat musiqadan voz kechishning ikkinchi sababidir. IX-XI asrlarda Islom ahli madaniyatida “dunyoviy” rag‘bat hukmronlik qila boshlagan. Shaharlarda musiqa etakchi o‘ringa ega bo‘ladi. Musiqa hissiyot rohati uchun vosita hisoblangan. Musiqa “dunyoviy” yashash tarzining boshqa ko‘rinishlari, ya’ni, may, qimor o‘yini kabilar qatorida insonni oxiratga bo‘lgan ishonchini susaytiradi yoki umuman yo‘qotadi, degan fikrni ilgari surgan. Musiqa man etilishining ikkinchi sababiga “mutriblar” ham o‘z hissasini qo‘shishgan. Mutriblar, ya’ni musiqachilar asosan ziyofatlarda, mayxo‘rliklarda qatnashib, musiqa chalishgan (yoki kuylashgan) va evaziga haq olishgan. Bazmu-jamshiddagi musiqa ijrosi din tomonidan qattiq qoralangan. Ahloqan buzuq musiqachilarga qarshi musiqa san‘atining yirik namoyandalari ham qarshi chiqishgan. Bunday toifa musiqachilarga o‘z navbatida Alisher Navoiy ham “munosib tahrif” bergan.

O‘sha davrlarda qonunshunoslar inson hayotida musiqa bilan to‘qnashadigan turli vaziyatlarni hisobga olgan holda qonunlar ta‘sis etardilar. Asosan diniy va tasavvufga oid kitoblarda musiqa 4 turli qoidalarga bo‘ysungan holda ijro etilishi belgilangan: halol (shariatga muvofiq ravishda), harom, muboh ia makruh.

Din bilan bog‘liq bo‘lgan, ya’ni qurhoni Karimni qiroat bilan o‘qish, azon chaqirish, harbiy musiqa kabilar esa qonuniy ravishda ruxsat etilgan bo‘lib, musiqa san‘atining shakllari sifatida tan olinardi. Allomalardan biri Al-Faruqiyning tahkidlashicha, “Islom hech qachon musiqa san‘atiga qarshi bo‘lmagan. Din faqat ayrim holatlardagina ma’lum bir shakllarni qabul qilmagan. Bu holatlar insonga musiqaning salbiy ta‘sir ko‘rsatishi bilan bog‘liqdir”. Islom dini va musiqaning o‘zaro munosabatlari sulolalarning almashuvi bilan ham bog‘liq. Sho‘ningdek, jamiyatning har bir tabaqasi dinga turlicha munosabatda bo‘lganligi sababli, musiqaga bo‘lgan munosabat ham albatta shu holat bilan bog‘liq bo‘lgan. Ayni vaqtda musiqa bobida Islomning nazariy qonunlari zamonaviy jamiyat bilan to‘qnasha boshladi. Bu holat XIX asrning oxirlarida yorqin namoyon bo‘la boshlagan. Demokratiya, mahrifatparvarlik kabi harakatlar dinga nisbatan yangicha bulgan munosabatni yuzaga keltirdi. Odamlar siyosat, texnika, evropacha ilm kabi sohalarga intilib, dinning ko‘pgina qonunlarini bahzan ixtiyoriy, bahzan ixtiyorsiz ravishda buzdilar. Bunday holat dinni ma’lum darajada islohotga uchrashiga sabab bo‘ldi. Mahrifatparvarlik harakati musiqa madaniyati sohasiga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Masalan, yangicha nodir musiqiy durdonalarning yaratilishi, yangi cholg‘ular, musiqiy texnika vositalari, yangicha musiqiy ilm va hokazo. Bunday yangiliklar “Islom va musiqa” muammosini yanada murakkablashtirdi

Musulmonlar o‘zlariga yana savol bera boshladi: musnqaga qanday munosabatda bo‘lish kerak muammo “yangicha” tafakkur etilib echimini topishi kerak edi. XX asr, “Islom va musiqa” muammosiga o‘zgarishlar olib keldi.



“Musiqiy sekulyarizatsiya” (musiqani din ta’siridan xalos etish) jarayoni turli vaqtda, turli shakllarda islom dunyosining yirik markazlarida kecha boshladi (arab mamlakatlari, Turkiya, Eron va b.). Islom dinining ichki yo‘nalishlaridan biri sanalgan tasavvuf oqimi, o‘n asrdan ziyod tarixiy jarayonni o‘z ichkiga olgan holda butun musulmon dunyosida tarqalgandir. Xudoga va Haqiqatga erishishning ilohiy jarayoni (“shariat” – musulmonlarning diniy qonuni, tariqat – so‘fiylik yo‘li, haqiqat – Ollohga etishish) sufiylik ta’limotida san’at bilan bog‘liq. So‘fiylik ta’limotida musiqa, she’riyat va raqs san’atining etakchi turlariga aylandi. San’at – shayxlarning o‘zaro munozaralariga sabab bo‘lgan. Ba’zilar Ollohga erishish yo‘lida san’at vositasini qulay deb bilsalar, ayrimlar buning aksini aytar edilar. Masalan, bunday baxslar kiromiylar va qodiriylar tariqatlari o‘rtasida olib borilgan. Kiromiylar Ollohga erishishda musiqaning o‘rnini yuqori deb bilsalar, qodiriylar musiqa, baland tovush vositalarni umuman rad etganlar. Bu singari baxslar qanchalik ko‘p bo‘lmasin, so‘fiylik ta’limoti aynan musiqa sababli o‘z mohiyatini ko‘rsata oldi. (Aynan san’at tufayli tasavvuf o‘zining hayotiy qarama-qarshiliklarini echa oldi va odamzodning yashash sirlari echimini topa oldi.

So‘fiy go’sht emagan, dori-darmon ichmagan, cho‘milmagan, o‘zini ochlikka mahkum qilgan, qarindoshlari xaqida gapirmagan, negaki, bularning barchasi moddiy hayot bilan bog‘liq bo‘lgan.

Insonning ichki kechinmalari (sub’ektiv kechinmalar) so‘fiylikda yuqori darajali ahamiyatga ega bo‘lgan.

Tasavvuf nazariyotchilari san’atni Ollohga etishish, yo‘lidagi boshlang‘ich nuqta deb bilganlar. Tasavvuf uchun barcha san’at turlari orasida musiqa birinchi o‘rinda turgan. Islom dini musiqa sohasini tahqiq qilgan bo‘lsa-da, so‘fiylik ta’limotida musiqaga batamom qarama-qarshi nazar bilan qaralgan. Albatta, avvaliga tasavvuf estetikasi musiqadan ochiq-oydin foydalana olmagan musiqa asta-sekinlik bilan kirib kelgan.

Dastlabki tasavvuf oqimining g‘oyalari (VIII-IX asrlar) islom diniga “qarama-qarshi” bo‘lgan. Yana shunday qarshiliklardan biri musiqa edi. Musiqa so‘fiylarda “samoh” (tinglash) atamasi bilan qo‘llanilar edi. Dastlabki so‘fiylik yig‘ilishlarida shayxlar musiqadan keng foydalanishgan (majlisi samoh). Majlislarda musiqiy aytimlar, she’riy shakllardan foydalanishgan. Ammo ular o‘ziga xos so‘fiylik ma’nosiga ega edi. Ko‘pincha ruboiy-taronalar pand-nasihati va falsafiy-etik harakterda bo‘lardir. Markaziy Osiyoda tasavvufning ko‘pqirrali dunyosi, darveshlar, qalandarlar, faqirlar tomonidan namoyon etilardi. Tasavvufning Markaziy Osiyo xalqlaridagi shomonchilik bilan genetik munosabati mavjud. Bu hudud xalqlarida “Yassaviyxonlik” tariqati ham keng rivojlangan edi. Tariqat asoschisi Hoji Ahmad Yassaviy bo‘lib, uning merosi og‘zaki an’ana orqali bizgacha etib kelgan. Ahmad Yassaviy maqbarasi (qabri) 800 yildan buyon



Markaziy Osiyo musulmonlarining muqaddas ziyoratgohi hisoblanadi. Inson hayoti ziyoratdan-ziyosatgacha, ya'ni qismlarga bo'lingan. Hayotiy turkumlar chegarasi Yassaviy xonaqosida o'tkazilgan zikr raqslari bilan belgilangan.

Inqilobdan avvalgi davrda Yassaviy xonaqosida "kichik" zikrlar bir haftada bir marta o'tkazilardi (juma kunida). Bir yilda bir marta esa xonaqoga ziyoratga borilgan va zikr tushish marosimi o'tkazilgan. "Katga" zikr marosimi 25 dekabr dan 5 fevralgacha bo'lgan vaqt mobaynida amalga oshirilardi (qishki chilla vaqtida). Hozirgi davrda zikr marosimlari o'tkazilmay qo'yilgan. Ammo shunday bo'lsa-da, bu erlarga sayohatchilar, shuningdek, Yevropa, Amerika, Osiyo mamlakatlaridan sharqshunos olimlar kelib turishadi. Madrasa toliblari, Xudo yo'liga kirgan odamlar, ma'naviy va jismoniy sog'ayishni istaganlar ham bu erlarga kelishadi. Yakka holda, oilaviy, guruh bo'lyb odamlar xonaqo atrofini aylanadilar va devor g'ishtlariga qo'l urib, yuz-ko'zlariga surtadilar. Kishi bilmas tarzda bu erga shamanlar ham kelishadi. Ular ham ishlarini boshlashdan avval duo olish ilinjida bo'lihadilar. Ammo ular shuni ham bilishadiki, ziyoratni Yassaviyning birinchi ustozini Arslonbob qabridan boshlash kerak. Shunday tartib bo'lmasa, ziyoratlar qabul bo'lmaydi.

Arslonbob va uning shogirdi bo'lmish Axmad Yassaviy maqbaralarini xalq turli afsonalar bilan bog'lashgan. Aytishlaricha, ikki dindorning mozorlari o'rtasida er osti yo'lagi bor emish. XIV asr oxirlarida Temur hukmiga binoan mozor ustiga xonaqo qurilishi boshlanganida g'ayrioddiy voqealar sodir bo'la boshlagan. quruvchilar anchagacha ish boshlay olmaganlar, Kundalik quruvchilik ishlaridan so'ng, katta ho'kiz kelib, qurilgan joyni buzib ketar ekan. Shu tarzda bir necha kun o'tgan. Temurning tushiga Hoja Ahmad kirib, xonaqo avval Arslonbob mozori ustiga qurilishi kerakligini aytgan. Shundan so'ng ishlar yurishgan. Arslonbobning qabri Chimkent viloyatining qizilqum rayonida joylashgan. Bu erlarda shaman (baxshi)chilik keng rivojlangan. Qadimdan bu erda avliyo shaxslar yashagan. Atrofdagi qishloqlarda yashovchilarning ko'pchiligi Yassaviy bilan qondosh ekanliklarini tahkidlaydilar. Aynan shular Turkiston xonaqosida zikr marosimlari uchun yig'ilardilar. Maxalliy shamanchilik so'fiylik ia Islom tasavvurlari bilan bog'liq. Ana shu asosda Ahmad Yassaviy ta'limoti yuzaga kelgan.

Hoja Ahmad Yassaviy turli nomlar bilash qayd etiladi: Xoja Ahmad, Hazrati Sulton, Hazrat, Piri Turkiston, Ota Yassaviy va hokazo. Ahmad Yassaviy o'z ta'limotini turk xalqlariga bag'ishlagan edi. Yassaviy tariqati (yo'li) aynan undan boshlangan. Ushbu tariqat Markaziy Osiyo va Qozog'iston yashovchi o'troq va ko'chmanchi xalqlar orasida tarqalgan. Yassaviydan "ota" deyilmish geneologik shajara boshlangan. Yassaviy ta'limoti o'z ta'sirini boshqa so'flylik tariqatlariga ko'rsatgan: naqshbandiya, kubroviya, qalandariya va boshqalar.



Ahmad Yassaviy merosi – bu uning “hikmatlari”dir. “Hikmatlar” – o‘ziga xos she‘r-doston bo‘lib, og‘zaki tarzda ijod qilinadi. Hikmatlar ohanglarga solingan. Ular yakkaxon yoki jamoa bo‘lib ijro etish uchun mo‘ljallangan. Og‘zaki, yozma tarzlarda tarqatilgan. Nashr qilingan hikmatlar bitta kitobga “Devoni hikmat”ga jamlangan qoidaga ko‘ra, hikmatlar to‘rtliklardan iborat bo‘lib, umumiy mavzu, mazmunga ega bo‘lgan.

Hazrati Sultonning qilgan ishlarini musiqasiz tasavvur etish mushkul. Uning hikmatlari Markaziy Osiyo va Qozog‘istondagi barcha diniy aytimlar qatlamidan o‘rin olgan (qalandarlar, maddohlar, baxshilar, otinlar ijro bisoti shular jumlasidandir). Hikmatlarning ijro etilishi uslublari ko‘lami ham ancha keng bo‘lgan (sharhli deklamatsion-rechitatsiyadan, maqom san‘atiga yaqin yuqori kasbiy darajadagi “xonish”). Xoja Ahmad va uning hikmatlari tarafdorlari “yassaviyxonlik” nomini olgan an‘anaga asos soldilar. Va nihoyat, Ahmad Yassaviy va uning hikmatlari so‘fiylarda “zikri jaxriy”ning rivojlanishiga sabab bo‘lgan. A.Yassaviy haqidagi ma‘lumotlarni turli manbalarda uchratish mumkin (hikmatlar, so‘fiylikka oid adabiyotlar afsonalar va hokazo). A.Yassaviy shaxsi sirli, echimini topmagan tilsimdir. Ba‘zi sharqshunoslar uni hattoki, bu dunyoda yashaganligini ham hali hanuz gumon ostiga qo‘yadilar. Shu bilan birgalikda xaqiqat va to‘qima o‘zaro shu qadar bog‘lanib ketganki, ularni ajratib bo‘lmaydi.

Ba‘zi ma‘lumotlarga ko‘ra Yassaviy Yassi shahrida ba‘zilarida esa Sayramda tug‘ilgan deb e‘tirof etiladi. U dindorlar oilasida dunyoga kelgan. Otasi – Shayx Ibrohim ota va onasi qorasoch momo, o‘g‘illari Ahmad 7 yoshligidayok olamdan o‘tgan edilar. Shu yoshida u “buyuk shayxlar”dan biri bo‘lmish Arslonbobning tarbiyasiga o‘ggan. Arslonbob Ahmadga islom dini asoslarini, undan so‘ng esa so‘fiylik ta‘limoti va zikrni targ‘ib etishni o‘rgatdi.

Arslonbobning vafotidan so‘ng Yassaviy eng katta hikmatlaridan birini unga bag‘ishlagan. Arslonbob tarbiyasiga o‘tmasdan avval ham Ahmad ilohiy kuchga ega bo‘lib, uning hayotida xronologik ravishda turli g‘ayri oddiy voqealar sodir bo‘lib turgan. Umrining birinchi yilida arvohlar, ikkinchi yilida –payg‘ambarlar, uchinchi yilida – chiltonlar, to‘rtinchi yilida – Muhammad (s.a.v.) va Xizr buvalar kelib turishgan ekan. Ular kichik Ahmadni Xudo yo‘liga xizmat qilish uchun tayyorladilar. Butun umri davomida ilohiy kuchga ega bo‘lgan odamlar Yassaviyga yordam berib turadilar. Arslonbob vafotidan so‘ng Yassaviy o‘qishini davom ettirish uchun Buxoroga ketadi va u erda Xoja Yusuf Hamadoniyya murid tushadi (vafoti taxminan 1140-1141yy.). O‘qish so‘ngida Yassaviy shayxlik qilish uchun ustozidan duo oladi. Keyin esa uning o‘zida muridlar paydo bo‘ladi Yassaviy so‘fiylar jamoasiga boshchilik qiladi.

Ammo biroz vaqt o‘tgandan so‘ng Yassaviy Buxorodagi faoliyatini to‘xtatib, o‘zining dashtlariga qaytadi. Uning muridlari G‘ijduvoniyyning qo‘l ostiga



o'tadilar. Yassaviy esa umrining oxirigacha Turkistonda yashaydi (taxm. vafoti 1166-1167 yy.). Uning o'z vataniga qaytishini bir nechta sabablarini aytishadi. "Yuqoridan" turk ko'chmanchi xalqlariga Islomni targ'ib etish haqida belgi beriladi. Yana bir sababi, "egri" yo'lda yurganlarni "to'g'ri", ya'ni Islom yo'liga jalb etish. Islom ahli tomonida A.Yassaviy Muhammad (s.a.v.)dan so'ng turgan. Muhammad (s.a.v.) 63 yoshlarida vafot etgan bo'lsalar, Yassaviy 64 yoshida erdagi "nosoz" hayotdan charchab, er ostiga kirib ketgan deyiladi. Ahmad Yassaviy hikmatlarining muhim mavzui – zikrdir. U to'g'ri ma'noda so'fiyning yuragida paydo bo'lib, so'ngra yig'i va iltijolar ko'rinishida tashqariga chiqadi. Yassaviy izdoshlari zikrni o'z tariqatlarining asosiy tavsifnomasiga aylantirganlar. Ular amaliyotda qo'llaydigan zikr "jaxriya" (yuqori ovozli zikr) deyiladi. Bu so'z tariqat nomiga aylandi ("yassaviy" atamasi vaqt o'tishi bilan o'z o'rini "jaxriya" atamasiga bo'shatib bergan). Bu hol XVIII-XIX asrlarda bo'lgan. Zikrning boshqa turi "xufiya" deyilardi. "Xufiya" zikri oxista, berk tarzda o'tkazilardi. Ushbu marosimning "zikri arra" turida Yassaviyning o'zi ham ishtirok etgan. Bu haqda Yassaviy hikmatlaridan bilish mumkin. "Zikri – arra" haqidagi batafsil ma'lumotlar tasavvufga oid asarlarda (XVI-XVIII asrlarda) paydo bo'lgan. Zikr, ya'ni Ollah nomlarini (ismlarini) yodga olishni. Haqiqatga erishmoqni istagan har bir so'fiy o'tkazishi shart. Yassaviy zikrni 5 yoshidan amaliyotda qo'llay boshlagan.

Tasavvuf ta'limoti asosida soxta va haqiqiy so'fiylarni aniqlash g'oyasi yotadi. So'fiylik zikrlarida Xudoning etti nomi aytilar edi: Yassaviy hikmatlarida esa Ollahning uchta sifati qo'llangan: xayi (tirik), xaq (xaqqoniy), xuva (U, ya'ni Ollah). Yassaviy hikmatlarida "zikri ilohiy", "zikri qalb" kabi zikr turlari haqida ham qaydlar bor. Yassaviy tariqatida zikrning o'ziga xos turi "chaxor zarb" deyiladi. "Chorzarb"ning o'ziga xosligi tavhidning takrorlanishidadir. Chorzarbning ochiq va baland ovozda aytilishi, raqs jo'rligida bo'lardi. Chorzarbning so'z formulasi – "La ilaha illalloh"dir. Bunda har bir bo'g'in ma'lum harakatlar yordamida aytilgan. Chorzarbning ritmik formulasi ham bo'lgan ("yak zarb", "du zarb", "se zarb", "chor zarb"). Ushbu formulalar diniy ruhdagi boshqa aytimlar ham qo'llanilgan. Yak zarb, du zarb, se zarb, chor zarb deb nomlangan zikr qismlari kuylari Toshkent va Farg'ona vodiysida XIX-XX asrlarda qo'llanilgan diniy aytimlar bilan hamohang. Jumladan,

Yak zarbda Ollahning nomi bir marta aytiladi;

Du zarbda Tangrining nomi ikki marta antiladi;

Se zarbda Yaratganning nomi uch marta aytiladi;

Chorzarbda Xudoning nomi to'rt marotaba aytiladi.

Zikr aytuvchilar esa hikmatlarda "zokir"lar deb keltiriladi. Zikri arrada haqiqatga erishish uchun jazava holati belgilangan. Zikri arra, afsonalarga ko'ra

Zakariyo payg'ambarning o'limi bilan bog'liq ekan. Zakariyo dushmanlaridan qochib daraxt kovagiga berkinadi. Buni payqab qolgan dushmanlar esa daraxtni arralashadi, shunda Zakariyo ham qiynalib vafot etadi. Shu davrdan boshlab zikri-arralar o'tkazila boshlangan. Zikrda arraga o'xshash tovushlar, Zakariyoning o'lim oldi nolalari o'xshatma, taqlid etilgan. Yassaviy hikmatlari ikki asosiy yo'nalishda qo'llanilgan: 1) so'fiylik zikrida, 2) diniy aytimlarda (qalandarlar, maddohlar, otin oyilar, baxshilar ijro bisotida).

Yassaviy hikmatlari ayollar zikrida ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. XII asrda tasavvuf yo'nalishida "falsafiyashtirilish" kabi rag'bat paydo bo'ldi. Bunda samoh va raqsni so'fiylar marosimida qo'llanilishi asosiy masalalardan biri bo'lib qoldi. Bu davrda tasavvuf ta'limotiga oid bir qator kitoblar yozilgan: Al-Kalobodiyning "Kitab at-tahruf", Al-qushoriyning "Risala ahkam as-sama", Al-G'aznaviyning "Kashf al-maxjub" va boshqalar. Yaratilgan kitoblarning har birida samohga bag'ishlangan bo'lim mavjud bo'lib, bu an'ana asrlar davomida o'zgarmagan. Samoh ko'pgina tortishuvlarga sabab bo'lgan. Samoh tarafdorlari ham, qarshilar ham o'z savollariga javobni qurhon, Hadis, afsona va rivoyatlar bitilgan kitoblardan izlaganlar.

O'rta asrlarda samoh muammolari juda ham ahamiyatli hisoblangan. Unda ayniqsa amaliy muammolar birlamchi bo'lgan. IX-X asrlarda samohning uchta asosiy shartlari mavjud edi: zamon, makon va ixvan (jamo). Dastlabki uchta shartga Abulqosim Junaydiy-Bag'dodiy tomonidan aniq tahrif berilgan Tasavvufda "samoh aytimlari" da qo'llaniladigan so'z va atamalarga alohida e'tibor berilgan. Ularning talqini risola va lug'atlar batafsil yoritilgan. Tinglov va raqs zikr marosimida vaqt nuqtai nazaridan tartiblashtirilgan edi. Zikrning markaziy unsuri – vajd holatidir. Vajd holatidan so'ng so'fiy Haqiqatga erishadi.

Zikrning asosiy ikki turi mavjud: bular, "zikr-i xafi", "oxista zikr" va "zikr-i jaxri" – "baland tovushli zikr". Zikr ustoz shayx tomonidan kuzatib turilgan. Dastlab she'r yohud so'fiylik matnlari o'qilib, so'ngra esa qavval ijrosi ko'povozli ijro bilan almashinib kelgan. Ma'lum ruhiy holatga erishilgandan so'ng raqsga o'tilgan. Marosim davomida qurhondan olingan iboralar, ramziy so'zlar qayta-qayta takrorlanib, ma'lum bir ruhiy holat (meditatsiya)ga erishilgan. Masalan, xa, xi, xaq, xuva va hokazolar shular jumlasidandir. Zikrda aytiladigan asosiy iboralardan biri "La ilaha illalloh", ya'ni o'zga iloh yo'qdur" bo'lib, unda Yaratganga hamdu-sano aytishdan iboratdir. Ana shu takrorlanuvchi ta'rif o'rtasida hofiz boshqa aytimlarni ijro etgan. Aytimlar diniy, falsafiy, mavzularda bo'lgan. Zikr avjida "Olloh" so'zi ko'p marotaba ko'p ovozli tarzda ijro etilgan.

Samoh marosimi haqida Yevropa va Rossiyalik sayohatchilar ham guvohlik berishgan. Ular Turkiya, Eron kabi mamlakatlardan Markaziy Osiyoga XVII-XX asrlarda tashrif buyurgan sharqshunos olimlar, elchilar, sayohatchilar kabi vakillar





bo'lib, ushbu marosimlarni ko'rganlar va yozib qoldirganlar. Ba'zi tariqatlarda musiqa cholg'ulari keng targ'ib qilingan. O'ziga xos diniy ma'noga ega bo'lgan kuylar muqaddimada, bo'limlar orasida va zikr yakunida ijro etilgan. Jaloliddin Rumi asos solgan Mavlaviylar tariqatida (Turkiyada) nay ramziy cholg'u sifatida qo'llanilgan. Hatto cholg'ularga bag'ishlangan kitoblar ham yozilgan. Masalan, «Rubobnoma» (taxminlarga ko'ra bu asar J.Rumiyning o'g'li Sulton Valad qalamiga mansub), «Naynoma» (J.Rumi) kabi asarlar shular jumlasidandir. Samoh va zikr amaliyoti xonaqo, qalandarxonalarni yirik diniy-musiqiy o'chog' (markaz)ga aylantirdi. Bu erlarda o'ziga xos shakllar va an'analar rivojlangan. Musiqaning falsafiy qarashlarga jalb etilishi, so'fiylar dunyoqarashi bilan bog'liqdir. So'fiy musiqa yordamida Ilohiy uyg'unlikka erishgan. Uning ko'z oldida bixisht (jannat) paydo bo'lib, undagi daraxtlarga qo'ng'iroqchalar ilingani namoyon bo'lgan.

Bixishtda yashovchilar musiqa tinglamoqni istasalar (samoh); Olloh daraxtga osilgan qo'ng'iroqchalarni harakatlantiradi. Yerdagi odamlar (ahli dunyo) bu tovushlarni eshitsalar, o'sha zahotiy oq jon beradilar. So'fiylikning har bir bosqichi – shariat, tariqat, mahrifat, haqiqat, ma'lum sonlar (maqom)ga to'g'ri keladi. Ularning soni 40-taga etgan (har biriga 10-tadan). Ahmad Yassaviy tariqatiga binoan “har bir so'fiy, har bir darvesh, har bir faqir 40 maqomni bilmasa, amaliyotda qo'llamasa ularning shayxligi, so'fiyligi, faqirligi yolg'ondir”.

Har bir maqom inson hayotining turli jarayonlarini belgilab bergan, ba'zilari esa ruhiy holatni belgilangan. Samoh nazariyotchilari maxsus atamalar tizimini o'ylab topganlar: bu “axval – i maqamat” (ya'ni, maqomlar ahvoli) kabi.

“Vajd” (jazava), samoh jarayonida erishiladigan holat. U ikki asosiy turga bo'linadi: turli ruhiy holat (ahvol), ikkinchi – kashfiyot. Samohning ruhiy holatlari haqida IX asr mualliflari ham yozib qoldirganlar. Masalan, al-Xujviriy: tarab, farax, g'am, shavq xususida ma'lumotlar bergan. X-XI asrlarning tasavvufga oid kitoblarida maqomlar, ahvol, vajd haqida ma'lumotlar keltiriladi. X-XV asrlarda yozilgan musiqiy risolalarda esa maqomlar tavsifi o'zgacha tarzda yoritilgan. Ularda so'fiylik bilan bog'liq ayrim qirrilargina o'z ifodasini topgan. O'n ikki maqomning ruhiy holatga bo'lgan ta'siri xususida Urmaviy, Omuliy, Marog'iy, Jomiy, Xusayniy kabi mualliflar o'zlarining asarlarida imkonqadar ma'lumot berganlar. Ruhiy holatga bo'lgan ta'sir dunyoviy-estetik harakterga ega edi. Ammo keltirilgan ma'lumotlar samoh va maqomotning o'zaro bog'liqlik jihatlari yo'qligini tasdiqlamaydi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Qadimgi sharq san'ati rivoji qaysi davrlarni o'z ichiga oladi?
2. Sharq xalqlari yashaydigan xudud nimasi bilan farqlanadi?.



3. Quldorlik jamiyati san'ati vazifasi qanday bo'lgan?
4. Qadimgi sharqda Misr san'atining o'rni qanday bo'lgan?
5. Old Osiyo san'ati deganda nimani tushunasiz?
6. Qadimgi Eron san'atining axamiyati qanday bo'lgan?
7. Qadimgi Hindiston san'atining o'ziga xosligini qanday tushunasiz?
8. Qadimgi O'rta Osiyo san'ati xaqida tushunchangiz?
9. Markaziy Osiyoda qaysi madaniyatlar o'z nomi bilan ataladi?
10. Turkiy xalqlarning qadimiy yozma madaniyati qanday bo'lgan?
11. Yozma madaniyat rivojida xalq og'zaki ijodini o'rni qanday?
12. O'zbek dostonlarida qadimiy eposlar qanday gavdalantirilgan?
13. «Devoni lug'atut turk» asari xaqida nima bilasiz?

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.A.Karimova Musiqiy pedagogik mahorat asoslari o'quv qullanma. T. 2008 y.
2. Sharipova G. Musiqa o'qitish metodikasi. Mahruzalar matni. 2000 y.
3. Zimina A.N.Osnovq muzqkalg'nogo vospitaniya i razvitiya. M. 2000 y.
4. Fayziev O.O'quvchilarda musiqiy nafosat tarbiyasini shakllantirish. T. 1992 yi.
5. X.Rahimov O'zbekiston Vatanim manim. T. 1997 y.
6. Sharipova G.M. Musiqa va uni o'qitish metodikasi. T.Turon-Istiqbol 2006 y.
7. N.Norxo'jayev, H.Rahimov O'zbekiston Vatanim manim. T. 1999 y.
8. G.Sharipova musiqqa o'qitish metodikasi T. 2006
9. O.Ibrohimov, J.Sadirov 7-sinf musiqqa darsligi T. 2008 G'.G'ulom nashryoti
10. O.Ibrohimov O'zbek xalq musiqqa ijodi.T. 1997 y.
11. Maqomat.O.Matyoqubov Musiqqa nashryoti T. 2004 y.
12. Yu.Rajabiy. «O'zbek xalq musiqasi I, II, III, IV, V». – T., 1958.
13. Turli mualliflar. Nota adabiyotlari. 1956-2008.
14. Razzoqova M.Q. Akademik xonandalik asoslariga kirish. – Toshkent: 2014, Sharq. – B. 200.
15. D.Amanullaeva. «Estrada xonandaligi». Magistrilar uchun darslik (qo'lyozma). – T., 2014.
16. D.Amanullaeva. Vokalizlar (qo'lyozma). – T., 2014.
17. A.Mansurov. “Musiqa san'ati (turlari bo'yicha)” yo'nalishi “Musiqa san'atida zamonaviy tendensiyalar” moduli. Toshkent. 2016 y.



**4-mavzu. O'zbek musiqasida ijrochilik maktablari, cholg'u ijrochiligi maktablari, xonandalik mahorati asoslari, o'qituvchining musiqiy pedagogik mahorati, uning rivojlanish bosqichlari, ahamiyati, xususiyatlari. Musiqa o'qituvchining ijrochilik mahorati, musiqiy mahorati asoslari.**

**Reja:**

1.O'zbek musiqasida ijrochilik maktablari, cholg'u ijrochiligi maktablari, xonandalik mahorati asoslari

2.O'qituvchining musiqiy pedagogik mahorati, uning rivojlanish bosqichlari, ahamiyati, xususiyatlari.

3.Musiqa o'qituvchining ijrochilik mahorati, musiqiy mahorati asoslari

**Tayanch iboralar:** musiqa, cholg'u, maktab, pedagog, maxorat, ijrochilik, xonanda, sozanda.

**1.O'zbek musiqasida ijrochilik maktablari, cholg'u ijrochiligi maktablari, xonandalik mahorati asoslari**

O'zbek musiqa san'ati tarixi ijrochiligida xonandalik san'ati ustozdan-shogirdga an'ana asosida o'tib, shaklanib, rivojlanib, turli sharoitlarga moslashgan holda bizgacha etib kelmoqda. Xalq ijodiyotidagi folklor ayimlari, og'izaki an'anadagi kasbiy musiqa - maqomlar, akademik vokal va zamonaviy musiqa ijodiyotida o'zida milliy xususiyatlarni to'la namayon eta olgan san'at turi sifatida an'anaviy xonandalik asosiy o'rinda turadi. Yuqorida tilga olinayotgan har bir yo'nalish o'zining shakl va ijrochilik nuqtai nazaridan o'z uslubi, qonun-qoidalari va shaklu-shamoillariga egaligi xususida musiqashunos olim S.Bekmatov<sup>14</sup> o'z tadqiqotlarida keltirib o'tgan. Ular orasida tarixiy tajribalar asosida shakllangan va eng mukammal an'analarni o'zida mujassam etgan an'anaviy xonandalik yo'nalishi o'zining ijrochilik uslubi, shakli, ijro yo'li, aytimning murakkabligi va xalqchilligi bilan a'lohida ahamiyatga ega. Mazkur yo'nalish azal-azaldan, o'zbek xalqining eng go'zal urf-odatlarini, an'ana, qadriyat va milliy ruxiyatini yuzaga chiqarib, xalqimizning boy ma'naviyatini dunyo xalqlari oldida aslligi va o'ziga xosligini ko'rsatib kelmoqda. Shu bois ham xonandalik an'anasi va uning aytim yo'nalishlari, uslublari shakllanib, rivojlanib kelmoqda. An'anaviy ashula ijrochiligi san'ati aholi orasida keng ommalashdi. Ayniqsa, ularning xonandalik janri jihatidan keng qamrovligi, ijro uslublarning kengligi, joy va makon an'analarning o'ziga xos mahalliy uslublari namayon bo'lishi bilan ahamiyatlidir. Darhaqiqat, natijada mahalliy unsurlar bilan xarakterlanuvchi ijro

---

<sup>14</sup> Хофизлик Санъати". "Музыка" нашриёти Тошкент. 2007.



uslublar, keyinchalik esa ijro maktablari yuzaga keldi. Andijon, Xorazm, Marg'ilon, Qo'qon xofizlik maktablari yoki Ota Jalol Nazirov, Xamroqul Qori, Usta Shodi Azizov, Xojixon Boltaev, Madraxim Sheroziy (Yoqubov), Mamadbuva Sattrov, Rasulqori Mamadaliev, Murodjon Axmedov, Xoji Abdulaziz Abdurasulov, Mamatbuva Sattorov, Juraxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Komiljon Otaniyozov, Fattohxon Mamadaliyev, Kommuna Ismoilova, Nazira Axmedova, Saodat Qobulova, Berta Dovudova, Faxriddin Umarov, Otajon Xudoyshukurov, Tavakkal Qodirov, Xayrulla Lutfullayev, Maxmudjon Tojiboyev, Munjoat Yo'lchiyeva, Kamodiddin Raximov, Sherali Jo'rayev, Ortiq Otajonov va boshqa qator yuzlab xonandalarning ijro yo'llari yuzaga keldi.

Xonandalik san'atining boshqa yo'nalishlari kabi an'anaviy xonandalikda ham bilim hamda amaliy unsurlar alohida o'rin egallaydi. Shunday unsurlardan biri va birlamchi jarayon bu shubhasiz - ovozdir. Har bir insonning o'z ovoz rangi mavjud. Biz ularning ovoz rangi asosida bir-biridan farqlaymiz va ajratamiz. Xonanda ovozi rangida xonandaning ijro mahorati, so'z talaffuzi, aytim yo'li, kuy va ohangni ijodiy mahorat tajribasi bilan o'zaro mutanosibligiga bog'liq.

Xonandalik amalining zamirida mavjud bo'lgan ana shu o'ziga xos bosqichlar, tom ma'noda o'ziga xos darajalarni yuzaga keltirganki, ular xalq orasida qo'shiqchi, laparchi, yallachi, doston, termachi, ashulachi, talqinchi, savtxon, nasrxon, zikir, jahrchi, go'yandachi, aytimchi, xonanda va nihoyat hofiz kabi nomlar bilan atalishga olib kelingan. Bular esa o'z o'rnida xonandalik san'atining turlari sifatida amaliyotda shakllangan. Ijrochilarning har biri har tomonlama mukammal xisoblanib, eng yukori darajasigacha erishishga muyassar bo'lganini esa "hofiz" deb yuritish an'anaga aylangan<sup>15</sup>. Chunonchi, hofiz keng qamrovli hamda ijrochilik mahoratining yuqori bosqichiga erishgan xonandaning o'z sohasi bo'yicha mutaxassis darajasi berilgan atamadir. O'zbek musiqasining ohanglari, eng muhimi, ruhiyati, ayniqsa hofizlikda o'z aksini topgan. Xonandalikda yuqori saviyaga erishib mumtozlik kasb etganlarni, ya'ni mumtoz musiqa namunalarini ijro etuvchi aytim sohiblarini "ashulachi", "maqomchi" nomlari bilan birga, XIX asrning 30-yillaridan boshlab "hofiz" deb atash tilimizda allaqachon rasm bo'lib ulgurdi.

Yuqorida keltirilgan har bir atamada musiqiy janr xususiyati to'la ifodasini topadigan bo'lsa, "hofiz" ham bu o'rinda qator tarkibiy xususiyatlari bilan bog'liq holda o'zining ayrim jihatlarni namayon etgan. "hofiz"-arabcha "xifz" so'zidan olingan bo'lib, aslida "asrovchi", "yodda saqllovchi" ma'nolarini anglatadi<sup>16</sup>. Shu bois bo'lsa kerak o'tmishda, ijro talqini bilan bog'lik kasb egalari hamda

<sup>15</sup> Bekmatov S. Xofizlik san'ati. O'quv-uslubiy qo'llanma. 2007 y. 135 b.

<sup>16</sup>Худди шу китоб. 135 б.



amallarida xifz, ya'ni esda saqlash muhim hisoblangan va talqin etish jihatlarini o'zida mujassam etganlari bu nom bilan atalib kelingan.

XX asrning 30 yillariga kelib mumtoz musiqa merosi va xalq yo'llariga mansub yirik shakldagi ashulalar ijrochilari - mohir xonanda va mashhur ashulachilarni hofiz deb yuritish rasman keng ommalashdi. Xukumat tomonidan ham 1939 yili "Xalq hofizi" deb nomlangan faxriy unvon ta'sis etildi. Unga birinchilar qatorida mashhur xonandalar Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzokov va Ortiqxo'ja Imomxo'jaevlar sazovor bo'ldilar. 1991 yili mohir ashulachilarga berilgan bu oliy unvon (qariyb 60 yillik tanaffusdan so'ng) qayta tasdiqlanib, Ochilxon Otaxonov, Odiljon Yusupov, Fattoxxon Mamadaliev va Xasan Rajabiylar hamda 1993 yili Muxammadjon Karimov, Ruzmat Jumaniyozov, Orifxon Xotamov va O'lmas Saidjonovlar unga sazovor bo'ldilar. Mustaqillik sharofati bilan "Xalq Xofizi" faxriy unvoniga Quvondiq Iskanadarov, Eson Lutfullaev, Ismoiljon va Isroiljon Vaxobovlar, Maxmudjon Yo'ldoshev, Maxmudjon Tojiboev, Beknazar Do'stmurodov, Farxod Davlatovlar sazovor bo'ldilar.

## **2.O'qituvchining musiqiy pedagogik mahorati, uning rivojlanish bosqichlari, ahamiyati, xususiyatlari.**

Mamlakatimizni mustaqil davlat taraqqiyoti yo'lida barkamol avlod tarbiyasidagi e'tibori nihoyatda katta ahamiyat kasb etmoqda. Har tomonlama rivojlangan, jismonan va aqlan etuk shaxsni tarbiyalash jamiyatimizning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Buning asosiy sababi O'zbekistonda inson omili, inson manfaati davlat rivojlanish dasturining asosiy vazifalari qatorida turganligidan dalolatdir. Vatanimizning kelajagi bugungi yosh avlodning ilmiy salohiyati, mustaqil va oqilona fikr yurita olishlariga har tomonlama bog'liqligi Davlat siyosati darajasiga olib chiqildi. Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq shaxs tarbiyasiga, uning mahnaviyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoniga asosan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha Xarakatlar stretegiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"<sup>17</sup>da amalga oshirishga oid davlat

---

<sup>17</sup> "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 1-ilova: "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi". Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 8 fevral soni va Internet resurs: [www.lex.uz](http://www.lex.uz).



dasturida belgilab berilgan vazifalar ijrosini tahminlash bo'yicha nafaqat Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oldida balki, o'rta maxsus ta'lim muassasalari oldida juda katta vazifalarni bajarish lozimligini ko'rsatdi. 2017 yildan o'quvchi yoshlarni 11 yillik umumiy o'rta ta'lim maktablarini qamrab olishi xalqning mahnaviy madaniyatini rivojlantirish va mustahkamlash ishlari davlatning muhim siyosati darajasiga ko'tarilgan masalalardan biriga aylandi. Amalga oshirilayotgan islohotlar bo'lajak o'quvchi yoshlarni tarbiyalashdek murakkab jarayonga yanada mas'huliyatli bo'lgan holda e'tibor qaratishni talab etmoqda. Davlatning mazkur ta'limi siyosatining nechog'li samarali kechishi uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari uzviy tarzda, yagona mexanizm tarzida faoliyat ko'rsatishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada maktabdan tashqari ta'limning imkoniyatlari alohida e'tiborga molik jarayondir.

“Biz xalkimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli dono va albatta, baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz,- deb takidlagan edi O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov bu borada mahnaviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qathiyat va mas'huliyatimiz ko'rsatmasak, bugungi globallashuv jarayonda o'quvchi yoshlarning ta'lim tarbiyasida bir oz muammolarga duch kelib qolishimiz mumkin bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning bevosita tashabbusi va rahbarligida qabul qilngan hamda izchil amalga oshirilayotgan 2017-2021 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalish bo'yicha harakatlar strategiyasi taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab berdi. Bu jarayonning amaliy natijalari, belgi va xususiyatlari bugungi kunda xayotimizning barcha jabxalarida, eng muhimi, halqimizning ongu tafakkuri, intilish va harakatlarida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Shu mahnode, Harakatlar strategiyasi<sup>18</sup> O'zbekistonni tez surhatlar bilan o'zgarayotgan zamon talablari asosida jadal rivojlantirishning ilmiy-nazariy, amaliy-konstruktiv asoslarini belgilab beradigan, taraqqiyotning yangi davri uchun mo'ljallangan muhim dasturilamaldir, desak, ayni haqiqat bo'ladi. Harakatlar strategiyasining to'rtinchi yo'nalishida Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishining to'rtinchi va beshinchi bo'limlarida ta'lim va fanxasini rivojlantirish: uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy e'tiyajlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish, bolalarni bo'sh vaqtlairni mazmunli o'tkazish,

---

<sup>18</sup> Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.



ularni musiqa va san'atga jalb qilish maqsadida bolalar musiqa va san'at maktablarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish va ulardan oqilona foydalanish masalalariga jiddiy e'tibor qaratish belgilab berilgan. Respublikamizning barcha sohalarida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar, axborot almashish vositalarini turli xillarini ko'rayganligi yosh avlod tarbiyasida jiddiy eotibor berishni taqozo etmoqda. Yosh avlodni ma'naviy jihatdan solom, baquvvat, bilimli qilib tarbiyalash, ayniqsa, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli va kasbga yo'naltirilgan holda maqsadli tashkil etish bugungi kunning dolzarb masalalalirdan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan tavsiya etilgan "Yoshlarni musiqa, rassomlik, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish, qobiliyatlarini namoyon qilishni taominlash"ga qaratilgan 5 ta tashabbusning birinchi sifatida e'tirof etilishi, joylarda o'quvchi-yoshlarni musiqa san'ati turlariga bo'lgan qiziqishi bo'yicha ijodkorligini qo'llab-quvatlashga qaratilganligi o'ta muhimdir.

Tarbiya - deganda har tomonlama etuk, o'zida axloqiy roklik, ma'naviy boylik va jismoniy barkamollikni mujassamlashtirgan insonni etishtirish nazarda tutiladi. Tarbiya tizimida musiqa san'ati etakchi o'rinda turadi. Hozirgi kunda musiqa san'atini inson tarbiyasidagi roli ortib bormoqda. Yoshlarimizni ma'naviy etuk, komil inson etib tarbiyalashda maktabning roli bilan musiqa to'garaklarining faoliyati shak-shubhasiz kattadir. Maktab yoshlarga bilim asoslarini singdiradi. U o'quvchi-yoshlarni ilmiy dunyoqarashini shakllanishi va mustahkamlanishi yo'lida asosiy poydevor bo'lib hizmat qiladi.

O'quvchi-yoshlarning badiiy to'garaklar orqali hayotga qiziqishi, ijodkorlik qobiliyatlarini shakllanishi va rivojlanishida, ayniqsa, hayotga bo'lgan his-tuyularini o'sib borishida, atrof-muhit, jamiyat taraqqiyotida kuzatish qobiliyati va dunyoqarashini shakllanishida musiqa san'ati muhim o'rin tutadi. Boshqa san'at turlariga nisbatan musiqa o'quvchi-yoshlarni estetik tarbiyalashning eng muhim tarbiyaviy vositasidir.

Milliy musiqa madaniyatimiz, xususan, musiqa san'ati turlari hisoblangan xonandalik va choli ijrochiligi mahoratini egallagan har qanday inson qalbida yovuzlik, vatanfurushlik, tajavuzkorlik, fitnakashlik va boshqa insoniylikka xos bo'lmagan xususiyatlardan yiroq bo'lib, qalbida, ongi shuurida bunyodkorlik, ijodkorlik, mehr-muhabbat, Ona-Vatanga sadoqat va millatga hurmat ruhida tarbiyalanadi.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim islohotlarini amalga oshirishda juda katta tajriba yig'ildi. To'plangan milliy tajribaning ta'lili va ta'lim tizimidagi jaxon miqyosidagi ilog' yutuqlarni qo'llash asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar musiqa madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy



hayotda mustaqil ravishda ishlay olish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir. Zamonaviy axborot texnologiyalari va kompyuterlar tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini axborot bilan tahminlash rivojlanib bordi. Fan va ta'limning mehyoriy-huquqiy bazasi shakllantirildi. O'quv-uslubiy, ilmiy, innovatsion, zamonaviy texnologiyalar mukammalashib, o'quv jarayoniga tatbiq etishga kirishildi. O'qitishning yangi shakllari jumladan, sirtidan, kechki, masofadan turib o'qitish tizimi yo'lga qo'yildi.

O'qituvchi o'quvchilarni faollashtiradigan, o'zi va o'rganuvchi uchun qulay bo'lgan yo'llarni, usul va uslublarni, o'qitish shakllari, metod va vaziyatlarni izlaydi, zamonaviy pedagogik texnologiyaga suyanib, o'quv jarayoni samaradorligini oshiradi. o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatib, o'quv jarayonining yuqori sifat va samaradorligiga erishadi.

Shu boisdan ham, pedagogik texnologiya, didaktik texnologiya, ta'lim texnologiyalariga o'quv jarayonidagi eng samarali vositalar deb qaralmoqda. Ulardan dunyo pedagogik amaliyotida keng foydalanilmoqda.

Xozirga kundagi eng dolzarb masala va vazifa ta'lim standartlarini o'quv jarayoniga tatbiq etishdan iboratdir.

Agar bu vazifa amalga oshirilmas ekan, ta'lim – tarbiya sohasida sifat va samaradorlikka erishish, o'quv jarayonini takomilashtirish masalalari hal etilmay qoladi.

Yangi pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga tatbiq etish uchun uning ilmiy – amaliy mehanizmini yaratish zarur.

Shuni e'tirof etish kerakki, hali respublikamizda yangi pedagogik texnologiyalarni, ta'lim innovatsiyalarni to'plash, ular ichidan faoliyatimiz uchun eng samaradorligini tajriba-sinovlardan o'tkazish va o'quv jarayoniga joriy etishni yo'lga qo'yadigan tizim (mehanizm) shakllantirilmaganligi uchun, biz o'qituvchi amaliyotchilarimizning ijodiy faoliyatlariga yordam berish maqsadida shu qo'llanmani yaratishga qo'l urdik. Pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga olib kirishda quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- pedagogik texnologiya amaliyoti va nazariyasini o'qib o'rganishni tashkil etish;
- pedagogik texnologiyalarni o'rganish, kuzatish, nazorat qilish qilish
- pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish bo'yicha seminarlar, treninglar o'tkazish;
- pedagogik texnologiyalarni to'plash, tanlash, qo'llash bo'yicha tegishli mahlumotlar bankini yaratish, ularni ta'lil qilish asosida o'quv jarayoniga tatbiq etish;





- ilg'or pedagogik texnologiyalarni amalda qo'llash tajribalarini ta'lil etish, umumlashtirish, ommalashtirish bo'yicha tavsiya qo'llanmalar yaratib, ta'lim muassasalariga etkazish.

Pedagogik texnologiya hozirda barcha pedagogik kasblar hamda ta'lim – tarbiya jarayonini tashkil qilish, boshqarish, nazorat qilish bilan bog'liq kasblarning asosini tashkil qiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan barcha pedagoglar xabardor bo'lishlari zarur.

Ana shularni nazarda tutgan holda, ushbu qo'llanmada o'quvchiga bilim berishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash va ularni o'quv jarayoniga joriy etish mexanizmini ochishga harakat qildik.

Ta'lim – tarbiya mazmuni, maqsad va vazifalari davrlar o'tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari ham takomillashib bormoqda. hozirda inson faoliyatining asosiy yo'nalishlari shu faoliyatdan ko'zda tutilgan maqsadlarni to'liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimga, ya'ni texnologiyalarga aylanib bormoqda. Xuddi shu kabi ta'lim – tarbiya sohasida ham so'ngi yillarda pedagogik texnologiya amal qila boshladi.

Pedagogik texnologiya tushunchasi XX asrda paydo bo'ldi va turli rivojlanish bosqichlaridan o'tib kelmoqda.

o'tgan asrning 50 – yillari o'rtasidan 60 – yillargacha «ta'lim texnologiyasi» atamasi qo'llanilib, bunda dasturlashtirilgan ta'lim nazarda tutilgan.

70 – yillarda «pedagogik texnologiya» atamasi qo'llanilib, u avvaldan loyihalashtirilgan va aniq belgilangan maqsadlarga erishishni kafolatlovchi o'quv jarayonini ifodalangan.

80 – yillarning boshidan pedagogik texnologiya deb ta'limning kompyuterli va axborot texnologiyalarni yaratishga aytilgan.

«Pedagogik texnologiya – barkamol insonni shakillantirish faoliyati».

Shu bilan birga, pedagogik texnologiyaning keng qo'llamli, serqirra tushuncha ekanligini hisobga olgan holda uning quyidagi yana bir nechta tahriflarini keltirishimiz mumkin:

Pedagogik texnologiya axborotlarini o'zlashtirish, ulardan amalda foydalanish, ulardagi yangi mahno – mazmunlarni hamda axborotlar orasidagi turli bog'liqliklarni ochish orqali yangi axborotlar yaratishga o'rgatish jarayonidan iborat.

Pedagogik texnologiya – ta'lim metodlari, usullari, yo'llari hamda tarbiyaviy vositalar yig'indisi; u pedagogik jarayonning tashkiliy – uslubiy vositalari majmuidir.

Pedagogik texnologiya – bu o'z oldiga ta'lim shakillarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi, butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini texnik



resurslar va odamlarning o'zaro munosabatlarini hisobga olgan holda yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodidir.

Pedagogik texnologiya – mahlumotlarni o'zlashtirish uchun qulay shakl va usulda uzatish va o'zlashtirish jarayonidan iborat.

Demak, pedagogik texnologiya insonga (ta'lim-tarbiya oluvchiga) oldindan belgilangan maqsad bo'yicha tahsir o'tkazish faoliyatidan iborat.

Pedagogik texnologiya o'quvchini mustaqil o'qishga, bilim olishga, fikrlashga o'rgatishni kafolatlaydigan jarayondir.

Pedagogik texnologiya jarayonida o'qituvchi rahbarligida o'quvchi mustaqil ravishda bilim oladi, o'rganadi, o'zlashtiradi. O'zbekistonning «Ta'lim to'g'risida»gi konunga ko'ra, 9 yillik umumiy o'rta ta'lim joriy etildi. Ta'limni demokratlashtirish, individuallashtirish, mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olish tamoyillari asosida barcha o'quv predmetlar, shu jumladan musiqa predmeti bo'yicha ham o'qitish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Musiqa madaniyati o'quv predmeti o'quvchilarning mahnaviy, badiiy va ahloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi. Musiqa madaniyati o'quv predmeti umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan barcha o'quv predmetlari, jumladan, adabiyot, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya, mehnat va boshqa fanlar bilan boglanadi. Barcha o'quv fanlari qatori musiqiy ta'limda ham DTSlarning joriy etilishi milliy musiqiy meroslardan to'laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular amaliy xalq kuy va qo'shiqlarida, xonanda va Sozandalarning ijodiy faoliyatlari, maqom, shashmaqom dostonlar va bugungi zamonaviy musiliyatda o'z aksini topdi. Musiqa san'atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalashda ularning barkamol bo'lib etishlarida o'ziga xos va takrorlanmas manbaa bo'lib xizmat qiladi. Azaldan Shark, jumladan, o'zbek musika ta'lim-tarbiyasi pedagogikasi va uning mukammal ustoz va shogird an'analari misolida takomillashib borgan. Davlat ta'lim standartlarida ommaviy xalq musiqa pedagogikasi, professional musiqa ijodkorlari, musiqa ijrochilari (sozanda, xonandalar) katta ashulachilar, makomchilar, dostonchilar asarlarning elementar asoslarini o'rganish mehyorlashtirilgan. Musiqa ta'limida davlat ta'lim standartlari asosida yangi ta'lim mazmuni o'quvchilarning musiqiy bilim va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazli tassavur qilish, ularda ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, badiiy va musiqiy did kabi hislatlarni rivojlantirishni tahminlaydi. Musiqa madaniyati ta'limining yangi mazmuni yosh avlodni milliy musiqiy merosimizga vorislik qila Oladigan, umumbashariy, musiqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga etkazishni nazarda tutadi. Bunda o'quvchilar musiqa san'atini butun



nafosati bilan o'rganishlari, ommaviy musiqa faoliyatlari: musiqani badiiy idrok etish, yakka va jamoa bo'lib qo'shiq kuylash, raqsga tushish va ijodkorlik malakalarini shakllantirish asosiy maqsad bo'lib hisoblaniladi. Shuningdek, o'quvchilar Musiqiy iqtidorni rivojlantirish, musiqa san'atiga mehr va ishtiyoqni oshirish, musiqa san'atiga qiziquvchi o'quvchilarning iqtidorini rivojlantirish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratib berish, ularning badiiy extiyojlarini qondirish.

Musiqa ta'lim – tabiyasining asosiy vazifasini tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda jaxon xalqlarining umuminsoniy musiqiy qadriyatlarini ham chuqur o'rganish yosh avlodni xalqaro nufuzga molillik bo'lgan madaniy durdonalardan bahramand bo'lishni tahminlaydi.

Jamiyat taraqqiyotning hech qachon to'xtab qolmaydi, uning g'ildiragi doimo oldinga qarab aylanaveradiyu u tabiiy, tarixiy jarayondir. Shuning uchun ham muvsiqa madaniyati o'qituvchisi, o'quvchilarni mahnaviy, badiiy va ahloqiy madaniyatining shakitllantirishi, milliy g'ururi va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishini, ijodiy mahoratning, nafosatda, badiiy didni o'stirishi, fikr doirasini kengaytirishi mustaqillik va tashabbuskorlikni muntazam ravishda shakillantirib berish lozimdir. Shuning bilan musiqa madaniyati o'quv predmetini umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'tikaziladigan barcha o'quv predmetlari jumladan: adabiyot, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya, mehnat va boshqa fanlar bilan bog'lashning biligshi kerak.

Musiqa madaniyati o'qituvchisi davlat ta'lim standartlari asosida yangi ta'lim mazmuni o'quvchilarning musiqiy bilim va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazli tasavvur qilish, ularda ijodkorlik, badiiy va musiqiy did kabi hislatlarni rivojlantirishi kerak. Shu bilan birga musiqa madaniyati o'qituvchisi yosh avlodni milliy musiqiy merosimizga vorislik qila oladigan, umumbashariy musiqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga etishi lozim bo'ladi. Shuningdek, jahon xaqlarining umuminsoniy musiqiy qadriyatlarini ham chuqur o'rganishi yosh avlodni halqaro nufuzga moyillik bo'lgan durdonalardan bahramand bo'lishiga tayyorlashi kerak. Biz bilamizki pedagogika tarbiya haqidagi fan sifatida tarbiyaning mohiyatini tushunishini, uning qonunlarini ochib berishi va shu orqali inson manfatlari tarbiya jarayoniga tahsir etishini nazarda tutadi.

Musiqa madaniyati o'kituvchisining pedagogik mahoratlaridan eng avval birinchisi ta'lim – tarbiya sohasida ortirilgan tarjimalarni o'rganishi lozim. Bu albatta ko'pgina muammolarni hal etishda yaqindan yordam beradi.

Ilg'or o'qituvchilar tajribasi bilan bir qatorda oddiy o'qituvchilarning faoliyatlari ham o'rganib boriladi. Chunki tajribalrni o'rganish jarayondagi muammo: yutuq va kamchiliklar aniqlanadi. Bunda kuzatish, intervyu olish,



anketalashtirish, o'quvchilarning yozma va ijodiy ishlari, pedagogik xujjatlarini o'rganish metodlardan foydalaniladi, masalan: kuzatishda o'rganish lozim bo'lgan pedagogik hodisani ma'lum maqsadda kelib chiqqan xolda kuzatish bayonnomasini olib boradi. Bu jarayon aniq reja asosida olib boradi.

Suhbat esa fakt – dalillar to'plash yoki kuzatish davomida to'plangan materiallarga aniqlik kiritish maqsadida olib boriladi.

«Suhbat mustaqil yoki yordamchi metod sifatida qo'llaniladi».

Axborotli, ya'ni bilim, malaka, ko'nikmalarini shakllantirish va mustahkamlashga yo'naltirilgan;

-mazmun xususiyatlari bo'yicha: dunyoviy, texnokratik, umumta'lim mazmunida bo'lib, ta'lim – tarbiya jarayonida tashkil qilish va olib borishda didaktikaga markaziy o'rin beriladi;

-boshqaruv turi bo'yicha: an'anaviy-mumtoz (klassik) bo'lib, unga ta'limning texnika vositalari qo'shilgan;

-bolaga yondashuv bo'yicha: avtoritator;

-ko'p qo'llaniladigan metodlari bo'yicha: tushuntirish-illyustrsiyalash;

-ta'lim oluvchilar toifalari bo'yicha: ommaviy.

Shu bilan bir vaqtda, jamiyatning rivojlanishi alohida mamlakatlarda va umuman jaxonda insonparvar falsafiy asosdagi yangi pedagogik texnologiyalarni yaratdi. Bular ham yuqorida aytilgan

Belgilarga ko'ra quyidagicha tasnif qilinishi mumkin: hamkorlik pedagogikasi, o'yin texnologiyalari, muammoli ta'lim, dasturlashtirilgan ta'lim, guruxli texnologiyalar va boshqalar.

Nima uchun musiqani hamma eshitadiyu, lekin hamma ham idrok eta olmaydi? Nima uchun evropalik tinglovchi Sharq musiqasini, sharq tinlovchisi Yevropa musiqasini Har doim to'la tushunavermaydi? Musiqiy idrokning to'laqonliligi, musiqiy ifoda vositalarini tushunish imkoniyati, intensivlik va musiqiy kechinma turlari har bir odamda har xil bo'lib, o'z xususiyatlari, sababiga ega. Musiqa tarixi va amaliyotidan bir necha misol keltiramiz.

XX asr boshlarida O'zbekistonda yashab ijod etgan musiqachi, etnograf Avgust Eyxgorn shaharlik o'zbeklarning qo'shiqlari haqida, jumladan, shunday degan: «Ularning qo'shiqlari ijrosini davomiy eshitish biz uchun yoqimsiz, bu narsa asabimizga tegadi»<sup>19</sup> Sharq tinglovchilari tomonidan ham operadagi vokal ariyalar, romanslar haqida shunga o'xshash fikrlar bildirilgan. Ular bu musiqani «qo'pol va notabiiy» deb hisoblaydilar.

Musiqiy asarni to'g'ri va to'la baholay oluvchi rivojlangan musiqiy eshitish

---

<sup>19</sup> «Музыкальная фолклористика в Узбекистане», Т., 1963, с.98.



qobiliyatiga ega kishilarda bunga qarama-qarshi fikrlar mavjud. Ikki jildlik «O'zbek xalq qo'shiqlari» to'plamini yiqqan musiqashunos Ye.E.Romanovskayaga nazariyotchi va kompozitor B.V.Asafev shunday xat yozgan: «Hozircha qo'shiqlarni naridan-beri ko'rib chiqdim, lekin bu ularning xuddi tirik gullarday musaffo va xushbo'yligini his etishim uchun etarli bo'ldi. Doimo Hali «sayqal berilmagan» asl xalq ijodiga duch kelganimda menda shunday hissiyot paydo bo'ladi» (...). Sahifa ortidan sahifani huzur qilib ko'raman va eshitaman, ohang va naqshlar bezagidan hayajonga tushaman (...). Qo'shiqda nafis harakatlar bisyor. Mazkur butunlay o'ziga xos nafis ohangdorlik butun melosda sinchkov «texnik sinkopalash»dan yuzaga kelsa kerak. Men melosning bu turini juda ham yoqtiraman. Afsus, tilni bilmayman. Ayting-chi, unda urg'u alomati biror ohangda mavjudmi (ya'ni, ovoz urg'usi vokalizatsiyaga bog'liqmi yoki gap davomiyliklar nisbatidami)? Yoxud barcha sinkopalik musiqa cholg'ularidan kelib chiqadimi? Yoki bu qo'llar nafisligi, yuz ifodalari, gavda, butun tana, qadam tashlashning o'ziga xosligi, oyoqlar o'yini, ya'ni aslida raqsdan kelib chiqayotganmikin? Bunday nafis kuy asosida qanday balet qilish mumkin bo'lardi-ajoyib! Bu plastikada ochiq hissiyotlarsiz qancha lirizm, qancha dilkash xayollar va tuyg'ular iliqligi bor. Bilmadim, hammasi shundaymi yoki bu mening tasavvurlarimmi-lekin mening tirik qo'shiqli ritm-kuy-plastikasi va maysa, gullar hamda asal kabi xushbo'y talaffuz haqidagi taassurotlarim shunday (...). Siz o'zingizning muvaffaqiyatli ishingiz bilan menga ko'p quvonch keltirdingiz»<sup>20</sup>.

Boshqa bir mashhur musiqashunos, kompozitor, pedagog X.S.Kushnaryov doira va nog'ora usullari jarangi haqida shunday deydi: «Har bir usul nafaqat ma'lum bir ohang, balki o'ziga xos intonatsiyasi bilan ham tavsiflanadi (balandlikka ko'ra harakati bilan). Usul –ritm tomoni oldinga o'ringa olib chiqilgan va yetakchi, intonatsion hamda muayyan tus berib turuvchi kuy»<sup>21</sup>.

Yevropa musiqasining Sharq tinglovchisi tomonidan tushunilishi va qabul qilinishi haqida mashhur o'zbek shoiri Furqatning misoli e'tiborga molik. U 1890 yilda Toshkentdagi rus musiqa jamiyati konsertida qatnashgan va bu haqda «Nag'ma va nag'magar va aning cholg'usi va ul nag'ma ta'siri xususida» she'rini yozadi. Mazkur she'rda u fortepiano ijrosi haqida shunday yozadi:

**Ilmiy ijod-** bu ilmiy bilishni rivojlantirish, yangi ilmiy bilim olish va undan foydalanish, ilmiy bilimni yangi qonunlar va qonuniyatlar, yangi ilmiy prinsiplar

---

<sup>20</sup> Ye.E.Романовская. Стати и доклады. Записи музыкального фольклора. / Сост. М.С.Ковбас (Maqola va ma'ruzalar. Musiqiy folklor yozuvlari / Tuzuvchi M.S.Kovbas). –T., 1957, s.25-26.

<sup>21</sup> X.S.Kushnaryovning 1943 yil O'zbekiston san'atshunoslik institutida qilgan ma'ruzasi. Matn saqlanib qolmagan. Yu.Konning «Tonkost nablyudeniy, glubina vьyvodov» maqolasida iqtibos keltirilgan, M., Sov. muzyka, 4-son, 1969, s.66-68.



va nazariyalar, inson faoliyatining har xil sohalaridagi amaliyotga faol chiqishlar orqali boyitish bilan bog'liq bilish va bunyodkorlik faoliyatidir.

**Ilmiy ijod**- bu asosiy jihati o'rganilayotgan xodisalar va jarayonlarning, ularning harakat va rivojlanish qonunlarining mohiyatini abstrakt tushunchalar, sxemalar, formulalar, tenglamalar va hokazalar shaklida ifodalashdan iborat bo'lgan o'ektiv voqelikni sub'ektiv aks ettirishdir.

**Ijod** – bu insonning sifat jixatidan yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlarni yaratishga qaratilgan ruhiy va amaliy faoliyati. Inson o'z ijodi bilan mehnat qurollarini, mehnat vositalari, mehnat predmetlari, sanoat mahsulotlari, qishloq xo'jalik mahsulotlari, qurilish texnikasi materiallari, o'simliklar va hayvonlarning yangi turlarini, turar joylar, transport, aloqa, axborot vositalarini va boshqalarni yaratadi. U tabiiy muhit ichida «sun'iy muhitni» vujudga keltiradi. Keng ma'noda jamiyat ham insonning ijodiy mahsulidir. Hamma ijtimoiy xodisalar, munosabatlar, aloqalar, qadriyatlar inson tomonidan vujudga keltirilgan. Inson o'z ongli ijodi bilan badiiy asarlarni, san'at, axloqiy munosabatlar, qadriyatlar, dinni va fanni yaratgan.

Ijodning ishlab chiqarish, texnik, ixtirochilik, ilmiy, siyosiy, tashkilotchilik, falsafiy, badiiy, afsonaviy, diniy, kundalik turmush va boshqa turlari mavjud.

Ishlab chiqarish ijodi yangi moddiy boyliklarni yaratishga qaratilgan.

Ixtirochilik ijodi- bu insonning tabiat va jamiyat qonunlarini ochish, bilish va o'rganish asosida mashina, asbob- uskunalar, moslamalar, qurilmalar, inshootlar yaratishidir.

Tashkilotchilik ijodi esa insonning jamiyatda kishilarni boshqarish, ularni uyushtirish, birlashtirish, ulug' ishlarga boshlash va boshchilik qilish, xullas bir butun jamiyat ishlarini tashkil qilish qobiliyatidir.

Badiiy ijod esa, insonning san'at va madaniyat sohalarida tabiat va jamiyat hodisalarini, insonning o'zini nafosat qonunlari va prinsiplari asosida badiiy ifodalash faoliyatidir.

Ilmiy ijod insonning tabiat, jamiyat va o'z tafakkurida amal qiladigan qonun va qonuniyatlarini kashf qilish, bilib olish bilan bog'liq bo'lgan yaratuvchilik faoliyatidir. Ilmiy ijodni muammoni echishni topishdangina iborat qilib qo'yadigan qarashlar ham bor. Ammo bunda ijodiy jarayonning boshlanishi, uning avj oldirishning boshlanishi hisobga olinmagan. Extiyojlarni anglab etish, muammoni qo'yish va uni ifodalash – muammoni hal qilishni izlash jarayonining boshlang'ich nuqtalari, asoslaridir. Konkret muammoli vaziyatni aniqlash, qo'yish, tadqiqotning maqsadini belgilash bilan muammo natijani olishga qaratilgan murakkab harakatning butun ijodiy jarayoniga qaratadi. Ijodiy jarayonning markaziy zvenosi bo'lgan ideallik muammolikning bevosita ta'siri natijasida paydo bo'ladi va sub'ektning muayyan extiyojlarini qondirish uchun vujudga keladi.



Ilmiy saloxiyatini o'stirish bo'yicha kelajak rejalarni belgilash. Soha fani, ilmiy yo'nalish bo'yicha ilmiy izlanishlar professor-o'qituvchining faoliyatida tarkibiy qism hisoblanadi.

Xozirgi paytda dolzarb bulgan muammoni bilishi va echimini topishda soha muammosini echib ilmiy salohiyatni oshirish va kelgusida ilimiy-amaliy yoki xalq xo'jaligining iqtisodiyot tarmoqlariga muhim hissa qo'shishga erishish asosiy vazifalardandir.

Fanning ma'lum yo'nalishida, Dunyo miqyosida tan olingan ilmiy yo'nalish ilmiy maktab deyiladi. Ma'lumki bir soha bo'yicha Jahonda e'tirof etilgan mukammal yutuqlarga erishish fan muammolarini Dunyo miqyosida hal etish ham kiradi. Respublikada asosan tayanch OTMlarida ilmiy maktablar shakllangan. Viloyat OTMlarida ilmiy maktablar shaxobchalarini shakllantirish muhimdir.

### **3.Musiqa o'qituvchining ijrochilik mahorati, musiqiy mahorati asoslari**

O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimi asosida shaxsni rivojlantirishda juda katta e'tibor berilib kelinmoqda. Bu o'rinda shubhasiz musiqa darslarida e'tibor tubdan takomillashtirilib, uni yanada rivojlantirish masalasiga e'tibor o'zgacha tus oldi. Kelajak avlodni barkamol inson etib tarbiyalashga alohida urg'u berilishi juda ham ahamiyatli va quvonarli holdir. Shaxs shakllanishida ayniqsa o'zbek xalq musiqasi tarixi fanining o'rni bir qadar ahamiyatli ekanligini ta'kidlab o'tmoqchimiz.

Bugungi globallashtirish jarayonida musiqiy ta'lim-tarbiya jarayoni, sifati va samaradorligini oshirish maqsadida mavjud muammolarni aniqlash, jumladan, bugungi kun musiqasi o'qituvchilarining dars mashg'ulotlarini interfaol texnologiyalardan etarli darajada foydalanilmayotganligi mazkur amaliy-ijodiy jabha bilan birga, uning nazariy-ilmiy asoslarini ishlab chiqish bugungi kun va kelajagimizning dolzarb ehtiyojlaridan biridir.

“Musiqasi – millat ruhining tili, musiqasi – millat his-tuyg'ularining tarjimonidir. Shuning uchun faqat estetik tarbiyada emas, axloqiy, ma'naviy, ruhiy, hattoki, diniy-ilohiy tarbiyada musiqaning xizmatlari beqiyosdir” deb aytadi filologiya fanlari doktori, adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul o'zining adabiy suhbatlaridan birida va shu o'rinda Ibn Xaldunning ushbu fikrini eslatib o'tadi: “Musiqasi bir san'at sifatida faqat ijtimoiy va madaniy jihatdan yuksalgan muhitlarda rivoj topadi. Iqtisodiy farovonlikka erishgan jamiyatlargina musiqaga kuchli ehtiyoj sezadi [2]. Musiqasi (yunon tilida mousiche - muzalar san'ati) - inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovush (ton, nag'ma)lar izchilligi yoki majmui vositasida aks ettiruvchi sanat turi. Uning mazmuni o'zgaruvchan ruhiy holatlarni ifodalovchi muayyan musiqiy badiiy obrazlardan iborat. Musiqasi insonning turli kayfiyatlari (masalan ko'tarinkilik, shodlik, zavklanish, mushohadalik, g'amginlik, xavf-qo'rquv va boshqalar)ni o'zida



mujassamlashtiradi. Bundan tashqari, musiqa shaxsning irodaviy sifatlari (kat'iyatlik, intiluvchanlik, o'ychanlik, vazminlik va b.)ni, uning tabiati (mijozi)ni ham yorqin aks ettiradi.

Musiqaning ushbu ifodaviy tasviriy imkoniyatlari yunon olimlari - Pifagor, Platon, Aristotel va Sharq mutafakkirlari - Forobiy, Ibn Sino, Jomiy, Navoiy, Bobur, Kavkabiy kabi tasavvuf arboblari Imom G'azoliy,

Kalobodiy Buxoriy va boshqalar tomonidan yuqori baholangan, sharh va ilmiy tadqiq qilingan. Musiqaning odam ongi va hissiyotiga ta'sir etishning ajoyib kuchi uning ruhiy jarayonlarga hamohang bo'lgan protsessual - muayyan jarayonli tabiati bilan bog'liqdir.

Inson shaxsini rivojlantirishda musiqa san'atining roli va pedagogik ahamiyati xususida B.V.Asafev, Yu.B.Aliyev, O.A.Apraksina, T.I. Baklanova, L.A. Barenboym, O.A. Blox, N.Ya. Bryusova, N.A. Vetlugina, K.V.Golovskaya, N.L. Grodzenskaya, D.B.Kabalevskiy, 3.Koday, E.B.Abdullin, L.A.Mazel, V.V.Medushevskiy, N.M.Mixaylovskaya, Ye.N.Nazaykinskiy, Ye.V.Nikolayeva, G.P.Novikova, K.Orf, V.I.Petrushin, O.P.Radshovalarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan.

O'zbekistonda musiqiy ta'lim-tarbiya bo'yicha XX asrning 60-90 yillarda H.Nurmatov, F.Jo'rayev, R.Qodirov, Q.Mamirov, S.Annamuratova, T.Tursunov, mustaqillik davrida O.Ibroximov, N.Toshtemirov, Q.Panjiyev va boshqalar tomonidan yaratilgan ilmiy ishlarda musiqiy ta'limning maqsad va vazifalari, musiqiy faoliyat turlari, musiqa ta'limida qo'llaniladigan qator an'anaviy usullar yoritilgan bo'lib, bunda musiqaning juda katta tarbiyaviy imkoniyatlari - musiqa o'qituvchisining jiddiy kasbiy tayyorgarligi o'quvchi shaxsiga hamda uning musiqiy- ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga bog'liqligi alohida ta'kidlab o'tilgan. Ammo insonga kuchli hissiy ta'sir ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan musiqa ta'limining tarbiyaviy potensialini yuzaga chiqarishda faqatgina an'anaviy metodlar va umumdidaktik tamoyillarga tayanib ish olib borish zamon talabiga javob bermay qo'ydi.

Zamonaviy pedagogikada taniqli rus olimi G.K.Selevko "pedagogik texnologiya"ni fan sifatida e'tirof etadi va shunday deydi: "Pedagogik texnologiya o'qitishning birmuncha oqilona yo'llarini tadqiq qiluvchi fan sifatida ham ta'limda qo'llanadigan usullar, prinsiplar va regulyativlar sifatida ham, real o'qitish jarayoni sifatida ham mavjuddir"[3.]. Musiqa ta'limida pedagogik texnologiyaning qo'llanishi va undan ko'zda tutilgan natijaga erishish faqat pedagogik faoliyat jarayonida samarali amalga oshadi.

Musiqa asarlari mazmunida badiiy g'oyalar umumlashgan holda berilib, musiqali obrazlarning o'zaro munosabatlari (taqqoslanish, to'qnashuv, rivojlanish kabi) jarayonida shakllanadi. Mazkur jarayonning xususiyatlariga ko'ra musiqa





mazmuni ham turli - epik, dramatik, lirik belgilarga ega bo'lishi mumkin. Bulardan insonning ichki dunyosi, ruhiy holatlarini ifodalashga moyil bo'lgan lirika musiqaning «botiniy» tabiatiga ancha yaqindir.

Musiqaning mazmuni - shaxsiy, milliy va umumbashariy badiiy qiymatlarning birligidan iborat bo'lib, bunda ma'lum xalq, jamiyat va tarixiy davrga xos ruhiy tarovat, sur'at, ijtimoiy fikr va kechinmalar umumlashgan holda ifodalanadi. Musiqa shakllari har bir davrning ma'naviy ma'rifiy talablariga javob bergan holda, ayni vaktida inson faoliyatining ko'pgina jabhalari (muayyan jamoaviy tadbirlar, odamlarning o'zaro etik va estetik ta'sir etish, muloqot qilish jarayonlari) bilan mushtarakdir. Musiqaning, ayniqsa, insonning axloqiy va estetik didini shakllantirish, hissiy tuyg'ularini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini rag'batlantirish vositasi sifatida roli juda muhimdir.

Ammo, san'at turi sifatida musiqa fakat ungagina xos bo'lgan xususiyatlar (masalan badiiy-estetik maqsadlarni ko'zlashi, mazmun va shakl badiiy qiymat sifatida kasb etilishi, ayniqsa, musiqa tovushlarining muayyan musika tizimlarida tashkil etilishi) bilan nutkdan farq qiladi.

Xar bir alohida olingan musiqa tovushi birlamchi ifodaviy imkoniyatga ega bo'lsada musiqa tovushlarining muvaqqat nisbatlari esa baland - pastlik munosabatlari lad tuzilmalarida, musiqiy ritm va metrda o'z aksini topadi. Dunyoning aksariyat xalqlari musiqa madaniyati, jumladan, o'zbek musiqa folklori, an'anaviy musiqa va bastakorlik ijodiyotida lad asosini turli ko'rinishdagi diatonika tashkil etadi. Kompozitorlik musiqada (ayniqsa, XX asrda rivoj toptan yo'nalishlarda) diatonika bilan birga xromatika ham keng o'rin olgan.

Musiqada asosiy badiiy vosita - kuy (melodiya)dir. Musiqaning og'zaki an'anadagi (monodiya) uslublarida kuy badiiy obrazning yagona va tugal musiqiy ifodasi hisoblanadi. Ko'p ovoqli kompozitorlik yo'nalishlarda garmoniya, polifoniya unsurlari ham muhim o'rin egallaydi. Musiqa asaridagi kuy (mavzu)lar rivoji uning kompozitsiyasini (shakl)ni tashkil etadi. Musiqa shakli asar mazmunining moddiy tajassumi va vujudga kelish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Musiqa asarlari shakliga muntazam takrorlanuvchi tarkib va unsurlar xos bo'lib, bular badiiy mazmundagi o'zgaruvchanlik, harakatchanlik kabi xususiyatlarga ma'lum darajada ziddir. O'zaro aloqa va birlik doirasidagi bunday dialektik ziddiyatlar musiqa asarini yaratish va ijro etish jarayonida hamisha xilma-xil ravishda o'z echimini topadi. Turli xalqlar musiqa madaniyati va an'alarida Musiqaning barkaror va beqaror unsurlarining o'zaro munosabatlari ham o'zgachadir. Macalan, an'anaviylik mezoniga asoslangan og'zaki yo'nalishdagi musiqa uslublarida muayyan badiiy mazmun, estetik qoidalar bilan birga musiqa asarlari shakliga badixago'ylik xususiyatlari, nomusiqaviy (asarning ijro etish vaqti, joyi, sharoiti kabi) holatlar o'z ta'sirini o'tkazadi. Individual badiiy



obrazlarni ifodalashga qaratilgan yozma an'anadagi kompozitorlik san'ati asarlari esa ko'proq aynan musiqiy rivojlanish qoidalariga, ya'ni tugallangan, yaxlit va barqaror shakllarga asoslanadi. Shuning uchun, kompozitorlik musikada mazkur shakllarni ifodalashga hamda ob'ektiv holatda saqlashda asosiy omil bo'lgan nota yozuvi muhim o'rin tutadi.

Musiqqa inson madaniyatida va jamoaviy hayotda o'ziga xos o'ringa egadir. U dam olish va ko'ngil ochish paytlari, turli marosim, bayram, bazm va sayillar, diniy va rasmiy tadbirlar, ommaviy va harbiy yurishlar, sport mashklari va mehnat jarayonida muayyan vazifalar bajaradi. Shuning uchun musiqqa asarlari o'z mazmuniga muvofiq holda bir nechta uslub, tur va janr guruhlariga ajratiladi. Alla, zikr, marsiya, sarbozcha, vals, marsh, messa kabi janrlar hayotdagi maishiy va b. sharoitlar bilan bog'liq bo'ladi. Ashula, dastgoh, cholg'u kuy, maqom yo'llari, konsert, miniatyura, romans va boshkalarda estetik ta'sir o'tkazish vazifalari asosiy o'rin tutadi. Janrlar, o'z navbatida, diniy musiqqa, yoshlar musikasi, maishiy musiqqa, ommaviy musiqqa, harbiy musika, kamer musiqqa, simfonik musiqqa, xor musiqasi kabi musiqqa turlariga birlashadi. Tarixiy, milliy, mahalliy, shaxsiy (individual) musiqqa uslublari ham musiqiy tafakkur tarzi, ohang, ritm, shakl kabi musiqiy unsurlarni o'ziga qamrab olib, muayyan bir davr yoki milliy madaniyatga mansub bo'lgan turli janrdagi asarlar umumiyatini aks ettiradi (Avangardizm, Barokko, Klassitsizm, Og'zaki an'anadagi musika, Romantizm, Sentimentalizm).

Insonning musiqqa faoliyati asosan 3 bosqichda amalga oshiriladi: ijod, ijro va tinglash (o'quv). Har bir bosqichda asarning mazmun va shakli o'zgacha ko'rinishga ega bo'ladi. Ijod bosqichida badiiy g'oya va shakl muallif ongida mushtarak holda tug'iladi. Ijro jarayonida shakl va mazmun ijrochi tomonidan uning dunyokarashi, estetik tasavvurlari, shaxsiy tajriba va maxoratiga mos ravishda uzgartiriladi. Musiqqa ixlosmandlari ham ijro etilayotgan asarni o'zlarining xususiy didi, hayotiy va badiiy tajribasiga asoslanib qabul qilishadi. Shunday qilib, musiqqa faoliyati hamma bosqichlarda ijodiy tabiatga ega bo'ladi.

Turli (kompozitorlik va og'zaki an'anadagi) uslublarda musiqqa ijrochiligi ahamiyati turlichadir. Professional yunalishdagi madaniyat tizimida musiqqa ko'pincha badiiy asarlarni ijro etadigan san'atkorlar faoliyati orqali namoyon bo'ladi. Shuning uchun musiqqa ijrochi (sozanda, xonanda)larining aksariyati kompozitor va bastakorlarning haqiqiy hamkorlaridir. Ular ustoz-shogird munosabatlari jarayonida o'zlashtirgan yoki nota yozuvi yordamida o'rgangan asarlarni jonli ravishda tinglovchilar oldida talqin etadilar. Musiqiy folklor tizimida musiqqa namunalari omma ongining badiiy mahsuloti sifatida yuzaga kelib, havaskor qo'shiqchi, sozanda yoki jamoaviy tarzda ijro etiladi.



Musiqashunoslik ijrochiligi musiqashunoslik cholg'ulari hamda inson ovozi vositasida amalga oshiriladi. Bular yakka tarzda, ansambl, xor, orkestr kabi birikma shakllarida namoyon bo'ladi.

Musiqashunoslik ijodiyoti, ijrochiligi va tinglanishi musiqashunoslik faoliyatining boshqa turlari — masalan, musiqashunoslik tarbiyasi, musiqashunoslik ta'limi, i. t. (Musiqashunoslik), musiqashunoslik tanqid va boshqalar bilan birga jamiyat musiqashunoslik madaniyat tizimini tashkil etadi.

Musiqashunoslik inson tafakkurining alohida mahsuli bo'lib, uning mazmun va mohiyati asar bilan bevosita muloqotda, ya'ni uning jaranglovchi ohangini o'zlashtirish jarayonidagina namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan zamonaviy musiqashunoslik ta'lim metodikasi talaba yoshlarda musiqashunoslik va musiqashunoslik haqidagi bilimlar, yirik shakldagi musiqashunoslik asarlarini hissiy ongli idrok etish malakalarini shakllantirish, hissiy va musiqashunoslik tajribalarni boyitish, dunyoqarashni kengaytirishga yordam beruvchi bir qator metodlarni tavsiya etadi. Bular musiqashunoslik haqida fikr yuritish metodi, muammoli metod, perspektiv va retrospektiv metod, musiqashunoslik umumlashtiruv metodi, badiiy kontekst yaratish metodi, hayotiy assotsiatsiyalar metodi, polifonik metodlardir.

#### **Nazorat savollari:**

1. O'n ikki maqom tizimi, shashmaqom;
2. Farg'ona-Toshkent chor maqomi,
3. Xorazm maqomlari, doston va suvoralar.
4. 1-Islomgacha bo'lgan davr yoki qadimgi davr musiqashunoslik an'analari.
5. 2-Islomiy madaniyat yoki tasavvur an'analari kesimida Maqom.
6. "Tasavvuf va musiqashunoslik" mavzuviga doir zamonaviy musiqashunoslik ilmidagi qanday tadqiqotlar bajarilgan
7. Tasavvuf an'anasiga "musiqashunoslik" qanday o'rinda turadi va nima deb nomlangan
8. Dostonchilik maktablari.
9. "Doston" so'zi qaysi tildan olingan va mahnuosi nima
10. «Alpomish», Go'ro'g'li turkum dostonlari deganda nima tushunasiz.
11. «Baxshi» so'zi ma'nosi nima
12. O'zbek dostonchiligida doston kuylash an'anasini qadimda uch yo'nalishda rivojlangan. Ular qaysilar.
13. Xorazm dostonchiligi
14. O'zbek dostonchilik an'anasini

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. T.1997
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T.1997



3. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi . T.: Sharq 1998 y-182 b.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish-ustuvor maqsadimizdir. T.: O'zbekiston ovozi 28.01.2010 y 1-3 betlar.
5. Karomatov F.M. O'zbek xalq muzika ijodi tarixi. 1-qism, 1972, 1981, 2-qism.
6. Ibroximov O. O'zbek xalq musiqa ijodi. 1994 y. 81 b.
7. Panjiev Q. O'zbek xalq musiqa ijodi. O'quv qo'llanma. 2020 y. 274 b.
8. Odilov A., Lutfullaev A. Musiqa asboblari – «Chang». Toshkent, 2002
9. Qosimov R. Musiqa asboblari – «Ud». Toshkent, 2002.
10. Qosimov R. An'anaviy tanbur ijrochiligi. Toshkent, 2002.
11. Ikromov I. Doyra darsligi. Toshkent, 1997.
12. Toshmuxamedov M. G'ijjak darsligi. Toshkent, 1996.
13. Petrosyans A. Instrumentovedenie «Uzbekskie narodnye instrumenty». T., «Izd. im. G.Gulyama». 1990.
14. M.Asilov, F.Vasilev. Toshkent, Dutor darsligi. 1987.
15. Abdulkarimov M. "Cholg'ushunoslik" Toshkent 2005 y. Lutfullaev A . O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi.-T.:

**5-Ma'ruza. Musiqiy asarlarning takomillashuv bosqichlari, cholg'u ijrochiligi tarkibi, janri, o'ziga xos ahamiyati va tinglash madaniyatini shakllantirish talabi. O'zbek milliy musiqa cholg'ulari va ijrochilik maktablari. Xonandalik mahorati asoslari, janrlari, tasnifi va ularda ijrochilik ovoz sozlari. Musiqa o'qituvchisining cholg'u ijrochiligi va xonandalik mahoratini o'stirish bo'yicha amaliy tajribalar**

### **Reja**

- 1.Musiqiy asarlarning takomillashuv bosqichlari, cholg'u ijrochiligi tarkibi, janri, o'ziga xos ahamiyati va tinglash madaniyatini shakllantirish talabi.
- 2.O'zbek milliy musiqa cholg'ulari va ijrochilik maktablari.
- 3.Xonandalik mahorati asoslari, janrlari, tasnifi va ularda ijrochilik ovoz sozlari.
4. Musiqa o'qituvchisining cholg'u ijrochiligi va xonandalik mahoratini o'stirish bo'yicha amaliy tajribalar

**Tayanch iboralar:** asar, cholg'u, janr, tinglash, madaniyat, ijrochilik, mahorat, tasnif, ovoz, mahorat, tajriba.



## **1. Musiqiy asarlarning takomillashuv bosqichlari, cholg'u ijrochiligi tarkibi, janri, o'ziga xos ahamiyati va tinglash madaniyatini shakllantirish talabi.**

Musiqqa cholg'ularida har bir xalqning milliy o'ziga xos xususiyatlari, an'anasi, urf-odat va qadriyatlari o'z ifodasini topganki, ulardan taraladigan ovoz ham shunga moslashgan. Musiqiy cholg'ularda ijrochilik san'ati insoniyat ma'naviyatini tarannum etuvchi vosita sifatida xalq ijodiyoti ma'suli bo'lib, azal-azaldan omma orasida shakllanib, rivojlanib kelmoqda. Milliy cholg'ular mohir soz ustalari tomonidan tobora mukammallashtirilib, jarangliligi, musiqaviyligi va ohangdorligi bilan ajralib turibdi. Musiqiy cholg'ular tarixiy rivojlanish davomida ularga nisbatan talab va ehtiyojni oshib borishi bilan ularning ta'limiy va tarbiyaviy tomonlariga ham e'tibor shu qadar kuchayib bormoqda.

Xalq cholg'ulari uzoq o'tmishda paydo bo'lgan. Ma'lumotlarga qaraganda, dastlabki musiqqa cholg'ulari eramizdan avvalgi XIII ming yillikda dunyoga kelgan, deb taxmin qilinmoqda. Musiqqa cholg'ulari oilasi tarixida dastlab urma zarbli cholg'ular paydo bo'lgan. Buning asosiy sababi eng qadimgi ibtidoiy odamlarning mehnatini ijodiy mahsulidir. Ilk iptidoiy odamlar hayvonlarni qorin to'yg'azish g'amida yirtqich hayvonlarni ham turli ov usullaridan foydalangan holda qo'lga kiritishga harakat qilgan. Hayvonlarning terisini qurigan daraxtning kundasini ustiga qoldirib ketgan. Jazirama issiqqa teri qotib qolgan. Keyingi safar odamlar kelib, terini olishga har qancha ham urinsada, biroq, olaolmagan. Keyin qotib qolgan terini ustiga qo'li yoki biror tayoq yoki cho'p bilan ursa u o'zidan baland va yoqimli sado chiqargan va uning keyinchalik dovul deb ataganlar. Undan keyin shovqinli cholg'ular paydo bo'ldi, ijrochilar qarsak chalib ritmni ta'kidlagan, shovqinli cholg'ular ta'sirini ko'paytirganlar. Ijrochi ayollarning chapak zarblari o'ziga xos, takrorlanmas go'zal holatni vujudga keltirgan. Shunday mehnat jarayonlarida odamlarning ongi tabiiyki kuy, ohang, qo'shiq bilan band bo'lgan. Samarali mehnat natijasida qo'shiqlar paydo bo'la boshlagan va ular sekin-asta og'izdan-og'izga, otadan-o'g'ilgan, onadan-qizga o'tib shakllangan va odamlar qalbidan bir umrga joy oldi.

Qadimgi sharq madaniyati bag'rida, o'zbek xalq cholg'ulari shakllandi. Ular ko'p asrlik taraqqiyot davomida o'ziga xos xususiyatlarni, tovush tusini saqlab qoldi. Shu tariqa chang, nay, surnay, tanbur, dutor, rubob, g'ijjak, qo'bizlar an'anaviy shakllarda bizgacha etib keldi.

Quldorlik tuzimi davrida Maroqand, Niso, Tuproqqal'a, Termiz va boshqa shaharlar mavjud edi. Ushbu shaharlar hududida olib borilgan qazilma ishlar chog'ida badiiy hunarmandchilik buyumlari, turli xil cholg'ularining tasvirlari topildi. Quldorlik jamiyati O'rta Osiyo xalqlari madaniyati rivojida muhim bosqich bo'ldi. Xalq musiqasi yanada yuksalishi bilan birga, cholg'ular ham takomillashdi.



Asrimizning 30-40-yillarida uyushtirilgan arxeologik ekspeditsiyalar (S.L.Tolstov, V.A.Vyatkin, M.B.Masson va boshqalar rahbarligida) natijasida qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lindi. Topilgan madaniy yodgorliklarda turli xil musiqa asboblari: tanbur, rubobsimon cholg'u, qonun, ud, nay, surnay, karnay, doyrasimon cholg'ular chalayotgan mashshoqlar tasvirlangan.

Xalq cholg'ulari O'rta Osiyo aholisining turmushi va mehnat faoliyatining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. Cholg'ular jo'rligida qo'shiq, o'yin va kuylar xalqning katta-katta marosimlari, oilaviy, mavsumiy bayramlarida ijro etilib kelinmoqda. Bayramlar ko'proq yil fasllari bilan bog'liq bo'lgan. O'rta Osiyoda "Navro'z", "Lola sayli", "Hosil bayrami", "«Qovun sayli", "Uzum sayli" kabi mavsumiy bayramlar keng tarqalgan. Bunday ommaviy bayramlarni xalq cholg'u ansambllari, xonanda va sozandalar hamda raqqosalarsiz tasavvur qilish qiyin. Bayramlarda, madaniy marosimlarda ayniqsa karnay, surnay, doyra, nog'ora va urma zarbli musiqa cholg'ulari keng qo'llanilgan.

IX asr oxirida Somoniylar mahalliy feodal sulolasi O'rta Osiyoning kattagina qismini birlashtirishga muvaffaq bo'ldi. Somoniylar davlatining poytaxti Buxoro yirik madaniy markazga aylandi. Bu erda adabiyot va musiqa taraqqiy etdi. Hayot sharoitining o'zgarishi tufayli musiqa san'atining ijtimoiy ahamiyati oshdi. Shaharliklar va yuqori tabaqa sinflari turmushida musiqaning roli sezilarli kuchaydi. O'sha paytlardayoq ixtisoslashuv maxsus musiqiy ustaxonalarning paydo bo'lishiga olib keldi yakkanavoz, ansambl musiqachiligi va raqsni o'z ichiga olgan vokal cholg'u musiqa turkumlari mavjud edi.

O'rta asr musiqa ijrochiligi madaniyatining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shunda ediki, cholg'u ijrochilari nafaqat bir necha turdagi musiqa asboblarni chala olgan, balki o'zlari ham musiqa bastalaganlar. Cholg'uchilar o'z davrining etuk musiqachilari va shoirlari ham bo'lishgan. O'rta asr o'rtalarida musiqiy cholg'ularning rang barrang ko'rinishlari paydo bo'la boshladi. Shular bilan bir qatorda bu erda ustoz-shogird an'analari qaror topdi va rivojlandi. Ayni shu paytda ansambl ijrochiligi takomillashdi, musiqa san'atining asosiy ko'rinishlari shakllanib cholg'u asboblarning yangi namunalari kashf etildi.

Sharq olimlarining nazariy qarashlari mavjud ijrochilik san'ati tajribasi asosida shakllangan bo'lib, ular o'z risolalarida musiqaning jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati haqida atroflicha ma'lumot berganlar.

Forobiyning (873-950) "Katta musiqa kitobi" ("Kitob al-musiqa al-kabr"), Abu Ali ibn Sinoning (980-1037) "Davolash kitobi" ("Kitobi ush-shifo") qomusidagi "Musiqha haqidagi risola", al-Xorazmiyning (X asr) "Bilimlar kaliti", Sayfuddin Urmoviyning (1216-1294) "Olijanoblik haqida kitobi" yoki "Sharofiya kitobi", Jomiyning (1414-1492) "Musiqha haqidagi risola" kitoblarida musiqa ijrochiligi va xalq cholg'ulari haqida muhim ma'lumotlar bayon etilgan.



Sayfuddin Urmaviy iste'dodli ud cholg'u ijrochisi, xonanda, mashhur sozanda sifatida tanilgan. U Ozarbayjonning Urmaviya shahrida tug'ilgan. Sayfuddinining eng katta yutug'i lad (modius)larning mukammal tizimini ishlab chiqqanligidadir.

Ibn Zaylining (1044 yilda vafot etgan) "Musiqqa haqidagi to'liq kitob"i ("Kitob ul-kabir fil-musiqiy") uning musiqqa ilmidagi yagona va bebaho kitobidir. U yangi usulni – musiqada lادلarni xarflar bilan ifodalash usulini ishlab chiqdi.

Abduqodir Marog'iy (XV asr), Abduqodir ibn-Royibiy (Marog'iy) Ozarbayjonning Marog' shahrida tug'ilgan, lekin hayotining ikkinchi yarmi Amir Temur saroyida-Samarqandda o'tgan va Hirotda vafot etgan. "Musiqqa ilmida ohanglar to'plami" ("Jami al-alhan fi-ilm al-musiqiy") risolasida musiqqa haqidagi ta'limotni-kamoncha, etti torli g'ijjak kabi bir turdagi musiqqa cholg'usi borligi haqidagi ma'lumotlar bilan boyitdi.

Al-Xusaynning (XV asr) "Musiqiy kanonlar" risolasida asosan O'rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan ikki torli musiqqa cholg'usi - dutor haqida bir qator musiqiy cholg'ular xususida juda qimmatli ma'lumotlarni keltirib o'tgan.

Qutbiddin ash-Sheroziy (1236-1310) eronlik musiqqa nazariyotchisi sifatida tanilgan bo'lib, o'z risolasida kamonchali tanbur haqida gapirib, inson ovozi musiqqa asboblari ichida eng yoqimlisi deb hisoblagan. XVII asrda yashagan buxorolik musiqashunos Darvish Ali o'z risolasida tanbur, chang, qonun, rubob, qo'biz, g'ijjak kabi musiqqa cholg'ulari haqida batafsil ma'lumotlar bergan.

Buyuk Sharq mutafakkirlarining merosi xalq cholg'ularini o'rganish sohasida ham tarixiy qiymatga ega. Abu Nasr Muhammad Forobiyning mashhur asari "Kitob al – musiqqa al -kabir" ("Musiqqa haqida katta kitob") ulkan ahamiyatga egaligi bilan ham ajralib turadi. O'rta asr olimi o'zining ushbu mashhur kitobida ikki xil musiqqa ijrochiligi: ohangni inson ovozi (qo'shiq san'ati) va cholg'ular vositalarida qayta tiklashga ajratadi. Forobiy mohir ijrochi sifatida musiqqa cholg'ularining jamiyat hayotidagi o'rnini o'rganishga ahamiyat beradi va u: "... Jangu - jadallarda, raqslarda, to'y - tomoshalarda, ko'ngil ochar bazmlarda hamda ishq - muhabbat qo'shiqlarini kuylashda chalinadigan o'ziga xos cholg'ular bor" deb yozadi.

Forobiyning yuqoridagi fikri cholg'ularning nafaqat saroy a'yonlari, balki shahar va qishloq aholisi, chorvodoru-dehqonlar, hunurmandlar orasida shuningdek, musiqqa madaniyati sohasida etakchi o'rin egallagan. Kitobning ikkinchi qismi boshdan-oxir o'sha davr musiqqa cholg'ulariga bag'ishlangan. Unda lyutnya, tanbur, nay, rubob, chang, qonun va boshqa musiqqa cholg'ulari izchil va batafsil ta'riflanadi. Forobiy torli, mizrobli lyutnyani o'sha davrda eng keng tarqalgan cholg'u hisoblagan. Lyutnya o'ziga xos mizrob (chertma) vositasida chalingan, dastasida esa ligatura (lad)lar joylashgan. IX-X asrlarda lyutnya arabcha

ud nomini oladi. Bu cholg'u ko'pgina Sharq mamlakatlarida, Kavkaz orti xalqlari orasida hozirgi kungacha saqlanib kelmoqda. Zamonaviy ud namunalari hozirgi kunda O'zbekiston davlat konservatoriyasining milliy cholg'u laboratoriyasi muzeyida saqlanib kelinmoqda.

“Musiqqa haqidagi katta kitob”da Forobiy yana bir cholg'u asbobi- tanburni ham ta'riflaydi. Olimning fikricha, tanbur (dilni tirnash) udga eng yaqin turdagi cholg'ulardan biri deb hisoblaydi.

Tanburda torlar noxun (metaldan yasalgan maxsus chertmak-tirnoq) yordamida chertiladi. Tanbur xuddi ud kabi keng tarqalgan va xalq sevgan cholg'udir. Tanburning ikki yoki uch jez (sim) tori bo'lgan. Uning ikki turi ma'lum: Xuroson va Bag'dod tanburlari. Bag'dod tanburlarining maqom (parda)lari kamroq (beshta), cholg'u dastasi kaltaroq bo'lgan. Xuroson tanburning maqom (parda)lari ko'p bo'lgan, dastasida cholg'u bo'g'zidan to dastaning yarmigacha oralig'ida pardalar joylashgan. Tanburning bu turi shu kungacha o'z shaklini yo'qotmay, musiqa ijrochiligi amaliyotida yakkanavoz hamda ansambl cholg'usi sifatida amaliyotda foydalanib kelinyapti.

Forobiy, shuningdek, nayni ham ta'riflaydi. U turli xil damli cholg'ularini ovoz hosil qilishi xususiyatiga ko'ra naysimon guruhga kiritadi. Ulardan biri oddiy nay yoki bir yo'nalishda joylashgan ko'p teshikli nay. Bu turdagi naylar yoki turlicha ataluvchi naylar hozirgi kunda xam Sharq xalqlari orasida mavjud. Uni vietnamliklar “sao”, tojiklar “tutek”, tatarlar “kaval”, qozoqlar “sibizg'a”, ozarbayjonlar “ney” (juda kam uchraydi), qirg'izlar “uoo”, “choor” (cho'ponlarning cholg'u asbobi), o'zbeklar “nay” deb ataydi. Olim ko'pincha tut daraxtidan ishlanadigan keng tarqalgan surnay haqida ham to'xtaladi.

Forobiy, shuningdek, dunay (mizmar)ni ham tilga oladi. Dunay hozirgi qo'shnay yoki turkman xalq cholg'usi gosha-dilli “tyuy dyuk” (qo'sh qamish naychalardan tuzilgan cholg'u)ga o'xshaydi.

Forobiy risolasida o'zi yashagan davrda mavjud bo'lgan rubobni ham batafsil ta'riflaydi. O'sha davrdagi rubob ham hozirgi qashqar rubobiga o'xshab, rezanator va ancha uzun dastadan tuzilgan. Ikki xil chertma torli rubob mavjud bo'lgan. 1 yog'och dekali va asosiy qismi yog'ochdan, 2 pastki qismi charmdan ishlangan dekali.

Forobiyning ta'kidlashicha, chang ochiq torlarning tebranishi orqali ohang hosil qiluvchi musiqa cholg'ulari turkumiga kiradi. O'sha davrdagi changning 15 tori bo'lgan, ular diatonik sozlangan va ikki oktava oralig'iga teng tovushqatorga ega bo'lgan. Risolada ta'riflangan barcha cholg'ular ashula, raqs, yakkanavoz va ansambl ijrochiligiga jo'r bo'lishda foydalanilgan. Forobiyning guvohlik berishicha, ud cholg'usi ansambl ijrochiligida etakchi rol o'ynagan. “Cholg'u asboblari haqida kitob” da olim tanbur, rubob, chang kabi cholg'ularini udda



chalinayotgan kuyga yoki yakkanavoz xonandaga uyg'un jo'r bo'lish uchun sozlash usullarini tushuntiradi. Shunday qilib, Sharqning ulug' allomasi musiqa ilmining bir bo'limi sifatida cholg'ularni o'rganuvchi cholg'ushunoslik sohasiga asos soldi. Bu soha keyinchalik boshqa olimlarning asarlarida ham keng boyitildi va rivojlantirildi. Yashagan davriga ko'ra, Buyuk olim ibn Sino Forobiyga juda yaqin bo'lgan. Uning "Davolash kitobi" deb nomlangan yirik qomusining "Musiqqa haqida risola" bobida o'sha davrning musiqa ijrochiligiga oid ilmiy-falsafiy bilimlari bayon etilgan. Bu risolalarda cholg'ular ta'rifiga anchagina o'rin ajratilgan. Ibn Sino o'z davri musiqalarini ikki guruhga bo'ladi: mizrobli, noxunli (barbod, tanbur, rubob) va butun rezanator qopqog'i bo'ylab tortilgan ochiq torli cholg'ulari (shohruh, chiltor, lira, chang, arfa).

O'sha davrda Sharqning taniqli mutafakkiri Sayfuddin Urmaviy musiqa ilmi tizimini rivojlantirdi. U usta cholg'uchi, xonanda va mohir bastakor sifatida mashhur edi. Udda olib borgan tajribalariga tayanib, olim o'z nazariy qoidalarini bayon etdi. Urmaviyning "Taqvadorlik kitobi"da cholg'u asboblari ichida ud eng mashhur va eng zamonaviyidir deb ta'kidlaganlar. Udning besh juft tori kvarta tartibidagi 7 ta maqomi (ladi) bo'lgan. Torlari bam, masnas, masna, zir va eng yuqorisi hadd deb atalgan. Besh qo'sh torli takomillashgan ud keyingi paytlarda ham o'z tuzilishini saqlab qolgan. Udning kvartaga sozlangan besh qo'sh tori va etti maqomi (ladasi) haqida Sheroziy (1236-1311), Jomiy (XV asr), al-Husayniy, Marog'iy, ibn Sinolar ham yozishgan. Jomiyning "Musiqqa haqidagi risola"sida keltirilgan ud dastasining to'la chizmasi uni sozlash haqida to'liq tasavvur beradi. Olimning tasdiqlashicha mavjud 12 maqom qadimiy etuk musiqaning asosidir. Jomiy musiqaning tinglovchilariga ta'siri haqida to'xtalib, uning chuqur ruhiy va ma'naviy ahamiyati bor, deb hisoblaydi.

XIII-XVII asrlarda yaratilgan risolalarda chang, qonun, nuzxa, rubob, tanbur kabi torli cholg'ular, shuningdek, damli cholg'u nayning ta'riflari berilgan.

Darvish Alining (XVII asrda) Buxoroda yaratilgan musiqaga doir risolasi an'anaviy cholg'ular haqidagi ma'lumot manbai sifatida xizmat qilishi mumkin. Unda musiqa madaniyati, chunonchi, O'rta Osiyoning yirik shaharlarida mavjud bo'lgan cholg'ular hamda mohir ijrochilar haqida nodir ma'lumotlar mavjud.

Darvish Alining risolasi XVI-XVII asrlar O'rta Osiyo musiqasini o'rganish uchun qimmatbaho manbadir. Mazkur asarda mashhur xonanda va cholg'uchilar, bastakorlarning ijodiy tarjimai hollari bayon etilgan. Darvish Ali o'tmishdoshlari singari, torli mizrobli cholg'ular orasida tebranish ohangiga ko'ra eng yaxshisi sanalgan udni cholg'ular "shohi" deb atadi. Risolada yozilishicha, chang cholg'uchilar homiysi Zuhraga bag'ishlangan.

Ta'riflangan changning etti maqom ijrosi uchun yigirma olti torli va etti pardasi bo'lgan. Bulardan tashqari, risolada qonun, rubob, qo'biz, g'ijjak, musiqa,



ekbon-nay, (damli, charmli), Xitoyda tarqalgan ruxavza (olti tordan iborat noxunli) kabi cholg'ular ham tilga olingan.

Darvish Ali ta'rif bergan cholg'ulardan ettitasi, tanbur, chang, qonun, ud, rubob, qo'biz, g'ijjak o'sha davrda keng tarqalgan cholg'ular edi.

Darvish Alining ma'lumotlari musiqa amaliyotida dastlab ansamblda uyg'un kalorit hosil qiladigan torli-noxunli va torli - kamonchali cholg'ular qo'llanilganligi haqidagi fikrni tasdiqlaydi. Risolada changchi Dilorom, naychilar Abduqodir va Xo'ja Abudullohlar, Mavlono Qosimi-Rabboniy, Sulton - Ahmadiy – “devona” rubobchilar, aka-uka Shayx Abu - Bakri Rabboniy va Shayx Behduchi, dono qonunchi shayx Shamsi Rabboniy va ko'pgina boshqa mashhur ustalarning nomlari tilga olingan.

Darvish Alining guvohligi yana shunisi bilan qimmatliki, u qayd etgan cholg'ularning kattagina qismi (nay, surnay, chang, qonun, rubob, tanbur, g'ijjak, qo'biz, doyra, nog'ora, ud) O'rta Osiyoning hozirgi O'zbekiston, Tojikiston va boshqa respublikalarida, shuningdek, Ozarbayjonda bizning kunlarga saqlanib keldi va u takomillashmoqda. Ushbu musiqa cholg'ulari uzoq vaqt mobaynida o'zbek xalqining madaniy turmushidan mustahkam o'rin olib, uning madaniy xayotida keng qo'llanib kelingan. Shunday ekan, bu cholg'ularni o'zbek xalq cholg'ulari, deb atash o'rinlidir. Abdul Fazl Boyhaqiy (XIV asr) asarlarida torli mizrobli (rud, barbad, tanbur), damli va urma zarbli cholg'ular (karnay, litavra va baraban) singarilarning nomlari keltirilgan. Ma'lumki, Sharq adabiyotida o'tmishda shoirlar asarlariga javob yozish (“nazira”) tizimi keng qo'llanilgan. Ko'plab “Xamsa” lar ham shu yo'sinda yaratilgan. Navoiy o'zining “Sab' ai sayyor” (“Xamsa” dostonlarining biri) dostonida Bahrom Go'r haqidagi qadimiy afsonani, yangicha talqin etdi. Asar qahramoni - chang cholg'uchisi Dilorom deb atalgan. Shoir uning cholg'usini musiqa timsoli sifatida gavdalandirgan.

Zahridin Muhammad Boburning (1483-1530) e'tirof etishicha, Alisher Navoiy o'z davrida ko'plab ud cholg'uchilarning o'z iste'dodlarini namoyon etishiga ko'maklashgan. “Boburnoma”da o'zbek xalq cholg'ulari ijrochilarining nomlari zikr etilgan. Bobur, shuningdek, Shoh Kulmiy-G'ijjakiy, Husayn Udiy, Xo'ja Abdulloh Marvarid Qonuniy kabi mohir ijrochilarni ham tilga oladi. Navoiy davrida nay, ud, g'ijjak, qonun, karnay, surnay, nog'ora, doyra, chang ijrochiligi keng tarqalgan edi. Ularning hammasi ansambl ijrosida ham, yakka ijroda ham birdek qo'llanilgan. Chang yakka cholg'u sifatida alohida ajralib turgan.

XV-XVII asr yozma yodgorliklari ma'lumotlarini qiyoslab shunday xulosaga kelish mumkinki, bu davrga kelib, O'rta Osiyoda xalq cholg'ularida ijrolik madaniyati o'z kamolotiga etdi. O'zbek xalq cholg'ulari ijrochilari ayni chog'da o'zlari ham musiqa asarlari yaratganlar. O'sha paytdayoq mohir chang, ud, g'ijjak, qonun, nay, tanbur, bulamon cholg'u ijrochilari va etuk xonandalari bo'lgan, ular



o'ziga xos ansambllar tuzishgan. Shuningdek, yakkanavoz ijrochilik ham rivojlangan.

Vosifiy o'z "estaliklar"ida ajoyib uslub o'ylab topgan qonun cholg'uchisi Hoji Abdullo Marvarid nomini keltiradi. U bastalagan kuy va qo'shiqlar xalq orasida keng tarqalgan. Shunday qilib, XIV-XVII asr tasviriy san'atida va adabiy merosida ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaluvchi musiqa cholg'ulari asosiy tiplarining barqarorligini tasdiqlovchi boy material bo'lgan.

O'rta Osiyo olimlarining musiqa haqidagi risolalari, badiiy adabiyot, rassomchilik bizning kunlarga etib kelgan o'zbek xalq cholg'ulari tarixiy taraqqiyotining uzun zanjirdagi ayrim uzilgan halqalarini qaysidir darajada tiklash imkonini beradi. Necha yuz yillar o'tdi, musiqa cholg'ulari esa yakka, ansambl va orkestr ijrochiligida o'z o'rmini egallab, bugungi kungacha yashab kelmoqda. Musiqa ijrochiligi san'atida maqom janrini tiklash va rivojlantirish XVII-XIX asrlarda cholg'ular batafsil ta'riflangan yirik asarlar yaratilmadi. Bu ko'proq feodal tarqoqligining kuchayishi bilan bog'liq. Ulkan davlat ayrim-ayrim xonliklarga bo'linib ketadi (Buxoro Amirligi, Xiva, Quqon xonliklari). Bu esa musiqa san'ati taraqqiyotida aks etmay qolmadi. O'zbek musiqa madaniyatida mahalliy xususiyatlar kasb eta boshladi. O'ziga xos musiqa cholg'ulari shakllandi. Musiqa turlaridan - maqomlar bundan buyon har xonlikda o'ziga xos yo'nalishda takomillashdi. Maqom ijrochilari zarurat yuzasidan o'zgarishlar kiritishdi. Shunga qaramay, musiqaning umumiy xususiyatlarini saqlab qolishdi. Har bir ijrochi maqom ijrosiga ijodiy yondashib, musiqa ijrosiga o'ziga xos takrorlanmas jihatlar kiritdi. Og'zaki tarzda cholg'ularni saqlab qolish an'anasi maqomning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib, busiz uning yashab qolish va so'nggi taraqqiyotini tasavvur etish qiyin. Har bir xonlikda o'ziga xos bir yo'nalishda xalq musiqasining yangi turlari yaratildi; bayramona, kuylar, xalq tomosha kuylari (dorbozlik, ko'g'irchoqbozlik) yangi tipdagi raqs kuylari. Bu kuylar o'zining quvnoqligi, sho'xligi bilan bir-biridan farq qilib turgan va keng xalq ommasini o'ziga jalb etgan.

XVII asr oxiri va XIX asr boshlarida o'zbek musiqa madaniyatida xalq va professional musiqa san'atining quyidagi ko'plab yangi turlari takomillasha boshladi; katta ashula, katta o'yin, Shodiyona, Navro'z, Mavrigi, Shashmaqom, Chor maqom (unga Dugoh, Husayniy, Chorgoh, Bayot, Gulyori-Shahnoz kirgan). Joylarda mavjud musiqa cholg'ulari va ijrochilarga bog'liq holda turlicha cholg'u ansambllari tuzilgan. Ko'p hollarda xalq cholg'ulari ansambl tarkibiga g'ijjak, tanbur, dutor, chang, nay, qo'shnay, doira kabi musiqa cholg'ulari kiritilgan.

Musiqachilikda olti turkum asarlardan iborat Shashmaqom ayniqsa mashhur bo'lgan. U O'rta Osiyo xalqlari syuita (turkum) shaklidagi professional musiqasining uzoq taraqqiyoti natijasida vujudga kelgan. I.Rajabov yozadi:



Shashmaqom olti xil turli lad tizimlaridan iborat, ularning har biri, o'z navbatida, mushkilot (cholg'u) va nasr (ashula) bo'limlaridan iborat bo'lgan quyidagi maqomlarga (qismlarga) bo'linadi:

“Rost”, “Buzrug”, “Navo”, “Dugoh”, “Segoh”, “Iroq” ... . Har bir maqom 20 tadan 40 tagacha katta-kichik qismlarni o'z ichiga oladi. Hammasi bo'lib turkumda 250 ga yaqin mushkilot va nasr qismlari bor. Bir maqomning ijrosi bir necha soat davom etgan.

Xalq cholg'ulari xalq og'zaki ijodi va sinfik adabiyot bilan uzviy bog'liqlikda rivojlanadi. Xalq cholg'ulari haqidagi tasavvurlarni badiiy asarlardagi musiqa cholg'ulari ifodalari, kitob miniatyuralaridagi cholg'uchilar tasviri boyitadi. Firdavsiy, Sa'diy, Navoiy, Dehlaviylarning asarlarida 60 dan ziyod xalq cholg'ularining nomi zikr etilgan.

Maqomlar asosan saroy ayonlari huzurida muayyan vaqtda yoki muayyan sharoitlarda ijro etilgan. Hatto mohir qo'shiqchilarning o'ziga xos musobaqasi (ayniqsa, avjlarni ijro etishda, shuningdek, o'ziga xos yangi-yangi qismlarini to'qishda) tashkil etilgani ma'lum.

Musiqa ijrochiligi san'atida maqom janrini tiklash va rivojlantirish davom etdi. Maqom o'zining oxang va ritm qonuniyatlariga ko'ra xalq qo'shiqlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, faqat qamrovining kengligi bilan farqlanar edi. Odatda, har bir maqom ikki katta qismga bo'lingan. Birinchisi – faqat cholg'ularda ijro etilgan qismi bo'lib mushkilot deb atalgan, ikkinchisi – cholg'ular jo'rligida aytiladigan ashula qismi bo'lib, nasr deb atalgan. Nasr o'z ichiga raqs kuyi-uforni ham olgan.

## **2.O'zbek milliy musiqa cholg'ulari va ijrochilik maktablari.**

Cholg'uchilar orasida musiqa tovushlarini yozib ko'rsatadigan maxsus belgilar tizimi notatsiya yaratishga intilish paydo bo'ldi. Buni amalga oshirish shoir-musiqachi Pahlavon Niyoz Mirzaboshi (Komil Xorazmiy 1825-1879)ga nasib etdi. Iste'dodli musiqa ijrochisi mohir tanburchi va g'ijjakchi Paxlavon Niyoz Mirzaboshi sayohat chog'ida nota bo'yicha kuy chalayotgan cholg'uchilarni ko'rib hayratga tushdi. Mirzaboshi - Komil Xorazmiy Xorazmga qaytishi bilanoq ilgari diliga tugib yurgan niyati maqomlarni yozib olishga ilhom bilan kirishdi.

Paxlovon Niyoz Mirzaboshi Komilning shogirdi Muhammad Yoqub Xarratov (1867-1939) mashhur tanburchi edi. U nafaqat chog'uchilik san'atini, balki hattotlik san'atini ham mukammal egallagan edi. Iste'dodli cholg'uchi Komil Xorazmiy rahbarlik qilgan saroy xalq cholg'ulari ansambilining sozandasi bo'lgan Muhammad Yoqub Xarratov (Matyoqub Xarratov) tanbur nototsiyasini tuzishda va xorazmcha maqomlarni yozib olishda qatnashgan. Ustozidan xorazmcha maqom turkumlarini qabul qilib, ularning saqlanib qolishiga katta hissa qo'shgan.

Muhammad Rahimxon (1806-1825) saroyida ishlagan mashhur tanburchi va qo'shiqchi Niyozxo'ja Hojining ijodiy va ijrochilik faoliyati Xivada kechdi. U



xorazm musiqa madaniyatiga katta e'tibor berdi.

Matyoqub Xarratovning aytishicha, Niyozxo'ja Buxoroga "Shashmaqom"ni o'rganish uchun borgan. U Buxorodan qaytgach, buxorocha maqomlar Xiva cholg'uchilari tamonidan o'zlashtirilib, Xorazmda keng tarqala boshladi. Xorazmning mashhur cholg'uchilari Muxammadrahim Feruz, Komil Xorazmiy, Mirzo Muxammadrasul va boshqalar Niyozxo'ja bilan hamkorlikda maqomlarga yangi cholg'u bo'limlari qo'shib, ularni boyitdilar.

XIX asrning ikkinchi yarmida Qo'qon shahri mashhur cholg'uchilar to'plangan markazga aylangan edi. Bu erda Usta Xudoyberdi rahbarligida o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik maktabini o'rganish bo'yicha o'ziga xos maktab yaratildi. Farg'ona cholg'ulari buxorocha shashmaqomni faol o'zlashtira boshladi. Ota - Jaloliddin Nosirov (1845-1928) maqom ijrochisi, taniqli o'qituvchi, cholg'uchi, usta tanburchi edi. U dastlab musiqa ilmini onasidan o'rgandi, so'ngra maqomlarning zukko bilimdoni va mohir ijrochisi bo'lgan otasidan ta'lim oldi. Ota-Jalol Nosirov uzoq yillar mobaynida Amir Olimxon (Buxoro), Amir Muzaffarxon (Shahrisabz)," Amir Otajonlar (Karmana, hozirda Navoiy)lar saroyida o'zbek xalq cholg'ulari ansamblining doimiy rahbari va xonandasi bo'lgan. Ota G'iyos Abdug'ani (1858-1924) o'zbek musiqasining bilimdoni, buxorolik tanburchi edi. U Shashmaqomning Mushkulot qismini yaxshi bilgan va har bir maqomni unga xos usul va xususiyatlarni saqlab qolgan holda ijro etgan.

Xoji Abdulaziz Rasulov (1852-1936) o'zbek va tojik musiqasining taniqli ijrochilaridan biri, mohir tanburchi Hoji Raximqulning shogirdi. 1888 yilda Buxoroga bordi. U erda Ota-Jaloliddin Nazirov raxbarligi ostida bir yil ichida Shashmaqomni mukammal o'rgandi. A.Rasulov Farg'ona, Samarqand, Toshkent shaharlarida o'zbek xalq musiqasi va maqomlarini faol targ'ib qildi. U o'zbek xalq cholg'ulari ijrochiligi rivojiga tanburchi, dutorchi va xonanda sifatida salmoqli hissa qo'shib, xalq va musiqa jamoatchiligining mehr-muhabbatiga sazovor bo'ldi.

Yuqorida nomlari keltirib o'tilgan musiqachi-cholg'uchilar o'z ijodiy yo'lini boshlab o'z davrida ijodiy kamolotga etdilar. Ular hammasi ma'rifatchilar, yosh musiqachilarning ustozlari edilar. Ularning pedagogik karashlari, ta'limotlari o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik bo'yicha yangi pedagogik hayotiy manba bo'lib, o'lmas meros sifatida saqlanmoqda.

1917-1945 yillarda ijrochilik san'atining taraqqiyoti 1917 yildan keyin o'zbek musiqa san'ati jadal va jo'shqin taraqqiy eta boshladi. Birinchi o'n yillikdayoq musiqa ta'limi, fol'klorshunoslik, ijrochilik san'ati sohalarida muayyan yutuqlarga erishildi.

Musiqa o'quv yurtlari - Toshkentdagi Turkiston xalq konservatoriyasi (1918) va uning Samarqanddagi, Farg'onadagi (1919), Buxorodagi (1920) filiallarida

katta ishlar amalga oshirildi. Ularda asosan o'zbek xalq cholg'ularini hamda ba'zi Yevropacha musiqa cholg'ulari (fortepiano, skripka va damli cholg'ulari)ni chalish o'rgatilar edi. Bu musiqa bilim yurtlari tom ma'nodagi konservatoriya bo'lmasada, biroq, o'tgan davr musiqa madaniyati ilmini o'rganish imkoniga ega bo'lmaganlarga sodda musiqa nazariy ilmi hamda ijro san'atida saboq berilar edi. Shu tufayli yosh respublikaning ko'pgina shaharlarida musiqa havaskorligi keng quloq yoydi.

O'zbek san'atining asoschisi, dramaturg, bastakor, muallim, jamoat arbobi Hamza Hakimzoda Niyoziy musiqa san'ati rivojiga katta xissa qo'shdi. 1917 yilgacha bo'lgan davrdagi xalq musiqachi va ijrochilari yaratgan an'analar cholg'ularning keyingi avlodi ijodida tarkib topdi va davom etdi. Musiqachi-ijrochilar qayta tuzilgan madaniy-ma'rifiy tashkilotlarda ishga kirishib ketdi.

Taniqli tanburchi va xonanda Shorahim Shoumarov 1919 yilda Toshkentdagi "Namuna" maktab-internati qoshida xalq cholg'ulari ansamblini tuzdi. Bu ansambl keyinchalik Toshkent musiqa texnikumini tashkil qilish uchun asos bo'lib xizmat qildi. 20-yillarda o'quv yurtlari, zavodlar, fabrikalar qoshida, qishloq joylarda "Ko'k ko'ylak", "San'atchi qizlar", "Sanoyi nafisa" kabi musiqiy jamoalar tuzildi. Tashkil qilingan ijodiy jamoalar tarkibida naychi, changchi, dutorchi, tanburchi, g'ijjakchi, doyrachi, nog'arachilar va qashqar rubob sozandalari bo'lgan xalq cholg'ulari ansambllari ham bor edi.

Xalq cholg'ulari ansambllari Farg'onada, Andijonda, Samarqanda ham tuziladi. Ularga mashhur cholg'uchilar usta Olim Komilov, To'xtasin Jalilov, Ahmadjon Umirzoqov, Yusufjon Shakarjonov, usta Ro'zmat Isaboev, Matyusuf Xarratov, Usta Toyir Marufjon Toshpulatov, Muhiddin Mavlonovlar rahbarlik qilishgan. Ularning samarali ijodi tufayli, o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik san'atidan ko'pchilik bahramand bo'ldi. 1936 yilda Moskvada bo'ladigan dekada munosabati bilan Qori Yoqubovga Davlat filarmoniyasini tuzish topshiriladi, u filarmoniyaning birinchi direktori etib tayinlanadi. Qori Yoqubovning va boshqa musiqa san'ati arboblarning qat'iyligi tufayli, Toshkent davlat konservatoriyasini tuzish haqida qaror qabul qilinadi.

O'zbek xalq musiqasi an'alarining davomchisi, Toshkentlik mohir xalq cholg'uchisi, dutorchi, tanburchi, naychi Yunus Rajabiyning (1897-1976) ijodiy faoliyatiga ma'rifatparvarlik keng musiqiy-ijtimoiy xususiyatlar xos edi. Besh jildlik o'zbek xalq musiqasini yozib olib, nashrga tayyorlaganligi Yunus Rajabiyning ko'p yillik ijodiy faoliyatining eng ajoyib samarasi bo'ldi.

1927 yili Yunus Rajabiy O'zbekiston radio qo'mitasi qoshida 12 cholg'uvchi (xonanda va sozandalar)dan iborat xalq cholg'ulari milliy ansambl tashkil etadi. Bu ansamblga u Toshkentdagi o'sha paytda mashhur musiqachilar - qo'shmaychi Xayrulla Ubaydullaev, dutorchilar Abdusoat Vahobov, Orif Qosimov, tanburchilar



Rixsi Rajapov, Mahsudxo'ja Yusupov, g'ijjakchilar Imomjon Ikromov, Nabi Hasanov, Mahmud Yusupov, naychilar Dadaali Soatqulov, Said Kalonov, changchilar Nigmatjon Do'stmuhammedov, Faxriddin Sodiqov, Mahamatjon Rasulov, doyrachi Dadaxo'ja Sottievlarni jalb etdi. Repertuarida o'zbek xalq kuylari bilan bir qatorda zamonaviy bastakor, shu jumladan Yunus Rajabiyning "Chorgoh", "Ko'chabog'i", "Bayot", "Birlashingiz", "Fabrika", "G'alaba", "Hammamiz", "Ilg'or", "Mirzadavlat" kabi asarlari bor edi. Keyinroq bu ansamblda respublikaning mashhur xonandalari Toshkentlik Mulla To'ychi Toshmuhamedov, Buxorolik domla Halim Ibodov, Samarqandlik dutorchi va xonanda hoji Abdurahmon Umarov, tanburchi va xonandalar Matyoqub Xarratov, Safo Mug'oni, Toshkentlik Nazira Axmedova kabi san'atkorlar ishlagan. Ayni paytda ansamblning ijrochilik repertuari "Shashmaqom"ning mushkulot va nasr qismlari: "Nasurulloi", "Navro'zi Sabo", "Talqini ushshoq", "Sarvinozi talqincha", shuningdek, bastakorlarning "Uyg'oning", "Bizning qishloq", "Yashasin", "Kolxozimiz" kabi asarlar hisobiga kengaydi. 1930 yilda Toshkent musiqa oliy maktabi, 1936 yilda esa uning asosida O'rta Osiyoda birinchi musiqa oliy o'quv yurti - Toshkent davlat konservatoriyasi ochildi.

1936-1937 o'quv yili xalq cholg'ularida ijrochilik sohasida musiqiy ta'lim rivoji uchun juda muhim davr bo'ldi. Aynan shu davrda Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtida A.I.Petrosyans tashabbusi bilan Y.Rajabiy, A.Daroshev, A.Mansurov, B.Gienko, N.Krestyanin, V.Marsinkovskiy, A.Maxsudov, O.Qosimov kabi o'qituvchilar umummaqbul nota tizimi asosida o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik bo'yicha saboq bera boshladilar. Sh.Shoakramov, A.G'ofurov, M.Yunusov (chang), S.Yuldoshov, G.Qodirov (tanbur), A.Ilyosov, M. A'zamov kabilar ularning birinchi o'quvchilardan bo'lishdi.

O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik madaniyatining o'sishi, jahon bastakorlari asarlarining o'zlashtirilishi, O'zbekiston bastakorlarining xalq cholg'ulari uchun maxsus asarlar yaratishdagi faol ijodiy faoliyati o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik san'atini yanada yuksalishi uchun muhim zamin bo'ldi. Shu bilan birga, yuqori malakali ilmiy pedagogik va ijrochi kadrlarni puxta va mukammal qilib tayyorlash masalasini ham kun tartibiga qo'ydi.

O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilikning keyingi davrlardagi yuksalishi Toshkent konservatoriyasining faoliyati bilan chambarchas bog'landi. 1948 yildan boshlab mamlakatimizdagi musiqa oliy o'quv yurtlarida, shu jumladan; hozirgi O'zbekiston davlat konservatoriyasi (avval M.Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasi)da ham xalq cholg'ulari ijrochiligi bo'yicha ta'lim berish boshlandi.

O'zbek xalq cholg'ulari bo'limiga (orkestr fakulteti tarkibida) rahbarlik qilish,



o'quvchilarni saralab yig'ish, o'quv rejalarini tuzish A.I.Petrosyans tomonidan amalga oshirildi. Toshkent davlat konservatoriyasida o'zbek xalq cholg'ulari ijrochiligi bo'yicha professional ta'limni yo'lga qo'yishda V.A.Uspenskiy, M.A.Ashrafiy, A.I.Petrosyans, I.P.Blagoveshchenskiy, B.F.Gienko, G.G.Sobitovlar katta rol o'ynashdi.

1948-1949 yillardagi birinchi o'quv yilida konservatoriyaga O'zbekiston Davlat filarmoniyasi xalq cholg'ulari orkestrining 13 cholg'uchisi o'qishga qabul qilindi. Shulardan 10 kishi: Nazir Nigmatov (qo'shnay), Abbos Bahromov, Aleksandr Yevdokimov (prima-rubob), La'li Sultonova, Mirzaev, Buriboy Mirzaahmedov (qashqar rubob), Mahamatjon Asilov, Obid Xolmuhamedov (g'ijjak), Anvar Liviev (doyra) 1-kursga qabul qilindi. Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtining bitiruvchilari Axmadjon Odilov (chang), Valentina Borisenko (prima rubobi), Feoktist Vasilevlar (qashqar rubobi) esa 2-kursga qabul qilindi.

Muhammadjon Mirzaev (1913 yilda tug'ilgan) respublikadagi rubobchilarning eng mashhuri, kuychi-bastakori. Konservatoriyani qashqar rubobi sinfida A.I.Petrosyans raxbarligida tamomlagan. 1951 yildan filarmoniya orkestrida ishlash bilan bir qatorda, o'zbek xalq musiqa merosini o'rganish bo'yicha yosh ijrochilarga murabbiylik qilib kelgan. Xalq artistlari X.Mavlonova, M.Turg'unboevalar bilan ijodiy hamkorlikda "Bahor valsi", "Yangi tanovar", "Gulnoz", "Dilbar", "Gulxumor", "Dildor" kabi lirik qo'shiqli raqs kuylarini yaratgan. U yaratgan qo'shiqlar orasida "Shirmonoy", "Oltin sandiq", "Uch dugonalar" ayniqsa mashhurdir. M.Mirzaev O'zbekiston xalq artisti, O'zbekiston bastakorlar uyushmasi a'zosi va bir qancha mukofatlar sohibi. Rubob ijrochiligida (keyinroq yosh ijrochilar tomonidan rivojlantirilgan) hissiy va yorqin uslub asosini yaratgan dastlabki rubobchilardan hisoblanadi.

Mirza Hakimovich Toirov (1930 yilda tug'ilgan). Konservatoriyani nay ixtisosligi bo'yicha tamomlagan dastlabki bitiruvchilardan biri (1956). U o'z ustozlari A.I.Petrosyans bilan hamkorlikda "Nay maktabi" o'quv qo'llanmasini yaratgan. Ushbu qo'llanma O'zbekistondagi barcha musiqa bilim yurtlarida, shu bilan birga, qo'shni respublikalarda ham nay sinflarining ochilishiga imkon yaratdi. M.Toirov 1957 yildan ijrochilik kafedrasida avval o'qituvchi, so'ngra dotsent bo'lib ishlagan. Ayni bir paytda T.Jalilov nomidagi xalq cholg'ulari orkestrida ham ishtirok etgan. M.Toirov musiqa ijrochilari Butunittifoq konkursining (1957) hamda Yoshlar va o'quvchilarning VI jahon festivalining sovrindori (1957), Estoniya va MDH davlatlari (Moskva, Qozog'iston, Ozarbayjon, Turkmaniston, Tojikiston)da bo'lib o'tgan o'zbek san'ati dekadalarida qatnashgan. M.Toirov bir necha iste'dodli naychilarni tarbiyalab kamol toptirgan. Uning I.Qosimov, O.Azizov, Sh.Ahmadjonov, R.Xolmirzaev, K.Yusupov, A.Abdurashidov kabi



shogirdlari respublika ko'riklarining sovrindori bo'lishgan. M.Toirov O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist (1969). U 1987 yildan konservatoriyaning professori unvoniga sazavvor bo'ldi.

Fozil Matyusupovich Xarratov (1926-1971) taniqli changchilardan biri edi. Musiqa bilimi va ijrochilik ilk sabog'ini o'z otasi, mashhur changchi Matyusuf Xarratovdan oldi. Otasi (M.Xarratov) farzandining istagiga ko'ra, unga yarim xromatik tovush qatoriga mansub yangi chang yasab beradi. 1942 yilda F.Xarratovlarning oilasi Toshkentga ko'chib keladi. Fozil bu erda avval Toshkent davlat sirkining aralash musiqa ansamblida ishlaydi. U 1950-1955 yillarda Toshkent davlat konservatoriyasida A.Odilovning chang cholg'usi sinfida o'qiydi. Keyin bir oz vaqt konservatoriyada dars beradi. Uning shogirdlari orasida G.Ne'matov, F.Shukurova, T.Xo'jamberdiev kabi taniqli ijrochilar bor. F.Xarratov Moskvada bo'lib o'tgan Yoshlar va o'quvchilarning VI Jahon festivalining sovrindori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist (1964). U "Hurmat Belgisi" ordeni bilan mukofotlangan.

Feoktist Nikiforovich Vasilev (1919-1987) dastlabki professional qashqar rubobi ijrochilaridan biridir. U 1937 yilda Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtiga o'qishga kiradi. 1938 yildan O'zbekiston filarmoniyasi xalq cholg'ulari orkestrining cholg'uchisi edi. Ikkinchi jahon urushi yillarida Turkiston harbiy okrugining ashula va raqs ansamblida ishlagan. Konservatoriyaning qashqar rubobi sinfi bo'yicha A.I.Petrosyans rahbarligida tamomlagan (1952). 1949 yildan konservatoriyada qashqar rubobi, dutor, tanbur ixtisosligi bo'yicha dars bergan. S.Taxalov, A.Boboxonov, G.Ergashev, T.Rajabov, Q.Usmonov kabi mashhur rubobchilar uning qo'l ostida tarbiyalanganlar. Feoktist Nikiforovich o'zining ilmiy-metodik ishlarida ("Rubob maktabi" darsligi) "qashqar rubobi uchun etyud va mashqlar" rubob chalishni o'rganish bo'yicha tizimli o'qitish metodini ishlab chiqdi. 1983 yildan F.Vasilev professor vazifasini bajaruvchi bo'lib ishlagan edi.

Feoktist Nikiforovichning nomi o'zbek musiqa madaniyati hamda 40 yilga yaqin murabbiy bo'lib xizmat qilgan Toshkent konservatoriyasi bilan chambarchas bog'liq.

Valentina Yakovlevna Borisenko (1919-1990) o'zining ijodiy yo'lini O'zbekiston Davlat filarmoniyasi xalq cholg'ulari orkestrida cholg'uvchi bo'lib boshladi (1939). Prima rubobi ixtisosligida ijrochi va o'qituvchi sifatida tanildi. Hamza nomidagi musiqa bilim yurtini tugatgach (1948), Borisenko orkestrning torli-noxunli cholg'ular guruhida konsertmeyster bo'lib ishladi. Konservatoriyaning prima rubobi ixtisosligi bo'yicha I.G.Blagoveshchenskiy rahbarligida tamomladi (1952). So'ngra orkestrda ishlashni davom ettirdi. 1950 yildan Toshkent konservatoriyasida o'qituvchi, 1962 yildan esa xalq cholg'ulari kafedrasining dotsenti lavozimlarida ishlagan. Borisenkoning mashhur shogirdlari orasida



A.Malikov, G.Salaeva (Obidova), B.Yo'ldoshev, M.Rahimov, B.Azimov, Sh.Janaydarov, A.Dadamuhamedov kabi ijrochilar bor.

Sulaymon Manievich Taxalov (1942 yilda tug'ilgan) ajoyib ijro texnikasiga va alohida tovush jozibasiga ega bo'lgan, an'anaviy va akademik ijro usulini birdek mukammal egallagan rubobchilardandir. Konservatoriyada o'qishni tugatgach, F.N.Vasilev sinfida (1958) qashqar va afg'on ruboblari hamda tanbur ixtisosliklari bo'yicha saboq berdi. S.Taxalov Moskvada bo'lib o'tgan Yoshlar va o'quvchilarning VI Jahon festivalida ishtirok etgan (1957). U xalq cholg'ulari ijrochilari Butunittifoq konkursining o'zbek xalq musiqasi nota yozuvi va tavsifini takomillashtirish sohasida katta ilmiy-tadqiqot ishlarining sohibi. U "Afg'on rubobini, chalishni o'rgatish metodikasi asoslari" nomli o'quv qo'llanma muallifidir. S.Taxalov 1985 yildan dotsent, 1988 yildan esa san'atshunoslik fanlari doktori, professor ilmiy daraja va unvonlarini olgan.

Abdusalom Malikovich Malikov (1939-1979). Dotsent vazifasini bajaruvchi bo'lib xizmat qilgan. A.Malikovning rubob-prima ixtisosligi bo'yicha 60-65 yillarda konservatoriyada V.Y.Borisenko rahbarligida olib borgan ijodiy faoliyati alohida e'tiborga loyiq. U 1967 yildan xalq cholg'ulari ijrochilik kafedrasida ishlagan. I Respublika ko'rik-tanlovining sohibi (1971).

G'ulomqodir Ergashevich Ergashev (1946 yilda tug'ilgan). Toshkent konservatoriyasining sobiq o'quvchisi (1969). F.N.Vasilevning shogirdi, afg'on rubobi ijrochisi, turli xil dasturlar bilan tez-tez konsertlarda qatnashib turadi. 1967 yildan O'zDKSida o'qituvchi, 1988 yildan kafedra dotsenti lavozimida ishlagan.

### **3.Xonandalik mahorati asoslari, janrlari, tasnifi va ularda ijrochilik ovoz sozlari.**

XVII asr oxiri va XIX asr boshlarida o'zbek musiqa madaniyatida xalq va professional musiqa san'atining quyidagi ko'plab yangi turlari takomillasha boshladi; katta ashula, katta o'yin, Shodiyona, Navro'z, Mavrigi, Shashmaqom, Chor maqom (unga Dugoh, Husayniy, Chorgoh, Bayot, Gulyori-Shahnoz kirgan). Joylarda mavjud musiqa cholg'ulari va ijrochilarga bog'liq holda turlicha cholg'u ansambllari tuzilgan. Ko'p hollarda xalq cholg'ulari ansambl tarkibiga g'ijjak, tanbur, dutor, chang, nay, qo'shnay, doira kabi musiqa cholg'ulari kiritilgan.

Musiqachilikda olti turkum asarlardan iborat Shashmaqom ayniqsa mashhur bo'lgan. U O'rta Osiyo xalqlari syuita (turkum) shaklidagi professional musiqasining uzoq taraqqiyoti natijasida vujudga kelgan. I.Rajabov yozadi: Shashmaqom olti xil turli lad tizimlaridan iborat, ularning har biri, o'z navbatida, mushkilot (cholg'u) va nasr (ashula) bo'limlaridan iborat bo'lgan quyidagi maqomlarga (qismlarga) bo'linadi:

"Rost", "Buzrug", "Navo", "Dugoh", "Segoh", "Iroq" ... . Har bir maqom 20



tadan 40 tagacha katta-kichik qismlarni o'z ichiga oladi. Hammasi bo'lib turkumda 250 ga yaqin mushkilot va nasr qismlari bor. Bir maqomning ijrosi bir necha soat davom etgan.

Xalq cholg'ulari xalq og'zaki ijodi va sinfik adabiyot bilan uzviy bog'liqlikda rivojlanadi. Xalq cholg'ulari haqidagi tasavvurlarni badiiy asarlardagi musiqa cholg'ulari ifodalari, kitob miniatyuralaridagi cholg'uchilar tasviri boyitadi. Firdavsiy, Sahdiy, Navoiy, Dehlaviylarning asarlarida 60 dan ziyod xalq cholg'ularining nomi zikr etilgan.

Maqomlar asosan saroy ayonlari huzurida muayyan vaqtda yoki muayyan sharoitlarda ijro etilgan. Hatto mohir qo'shiqchilarning o'ziga xos musobaqasi (ayniqsa, avjlarni ijro etishda, shuningdek, o'ziga xos yangi-yangi qismlarini to'qishda) tashkil etilgani ma'lum.

Musiqa ijrochiligi san'atida maqom janrini tiklash va rivojlantirish davom etdi. Maqom o'zining oxang va ritm qonuniyatlariga ko'ra xalq qo'shiqlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, faqat qamrovining kengligi bilan farqlanar edi. Odatda, har bir maqom ikki katta qismga bo'lingan.

Birinchisi – faqat cholg'ularda ijro etilgan qismi bo'lib mushkilot deb atalgan, ikkinchisi – cholg'ular jo'rligida aytiladigan ashula qismi bo'lib, nasr deb atalgan. Nasr o'z ichiga raqs kuyi-uforni ham olgan.

Cholg'uchilar orasida musiqa tovushlarini yozib ko'rsatadigan maxsus belgilar tizimi notatsiya yaratishga intilish paydo bo'ldi. Buni amalga oshirish shoir-musiqachi Pahlavon Niyoz Mirzaboshi (Kamil Xorazmiy 1825-1879)ga nasib etdi. Istehdodli musiqa ijrochisi mohir tanburchi va g'ijjakchi Paxlavon Niyoz Mirzaboshi sayohat chog'ida nota bo'yicha kuy chalayotgan cholg'uchilarni ko'rib hayratga tushdi. Mirzaboshi - Kamil Xorazmiy Xorazmga qaytishi bilan oq ilgari diliga tugib yurgan niyati maqomlarni yozib olishga ilhom bilan kirishdi.

Paxlovon Niyoz Mirzaboshi Komilning shogirdi Muhammad Yoqub Xarratov (1867-1939) mashhur tanburchi edi. U nafaqat chog'uchilik san'atini, balki hattotlik san'atini ham mukammal egallagan edi. Iste'dodli cholg'uchi Komil Xorazmiy rahbarlik qilgan saroy xalq cholg'ulari ansambilining sozandasi bo'lgan Muhammad Yoqub Xarratov (Matyoqub Xarratov) tanbur nototsiyasini tuzishda va xorazmcha maqomlarni yozib olishda qatnashgan. Ustozidan xorazmcha maqom turkumlarini qabul qilib, ularning saqlanib qolishiga katta hissa qo'shgan.

Muhammad Rahimxon (1806-1825) saroyida ishlagan mashhur tanburchi va qo'shiqchi Niyozxo'ja Hojining ijodiy va ijrochilik faoliyati Xivada kechdi. U xorazm musiqa madaniyatiga katta e'tibor berdi.

Matyoqub Xarratovning aytishicha, Niyozxo'ja Buxoroga "Shashmaqom"ni o'rganish uchun borgan. U Buxorodan qaytgach, buxorocho maqomlar Xiva cholg'uchilari tamonidan o'zlashtirilib, Xorazmda keng tarqala boshladi.



Xorazmning mashhur cholg'uchilari Muxammadrahim Feruz, Komil Xorazmiy, Mirzo Muxammadrasul va boshqalar Niyozxo'ja bilan hamkorlikda maqomlarga yangi cholg'u bo'limlari qo'shib, ularni boyitdilar.

XIX asrning ikkinchi yarmida Qo'qon shahri mashhur cholg'uchilar to'plangan markazga aylangan edi. Bu erda Usta Xudoyberdi rahbarligida o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik maktabini o'rganish bo'yicha o'ziga xos maktab yaratildi. Farg'ona cholg'ulari buxorocho shashmaqomni faol o'zlashtira boshladi. Ota - Jaloliddin Nosirov (1845-1928) maqom ijrochisi, taniqli o'qituvchi, cholg'uchi, usta tanburchi edi. U dastlab musiqa ilmini onasidan o'rgandi, so'ngra maqomlarning zukko bilimdoni va mohir ijrochisi bo'lgan otasidan ta'lim oldi. Ota-Jalol Nosirov uzoq yillar mobaynida Amir Olimxon (Buxoro), Amir Muzaffarxon (Shahrisabz)," Amir Otajonlar (Karmana, hozirda Navoiy)lar saroyida o'zbek xalq cholg'ulari ansamblining doimiy rahbari va xonandasi bo'lgan. Ota G'iyos Abdug'ani (1858-1924) o'zbek musiqasining bilimdoni, buxorolik tanburchi edi. U Shashmaqomning Mushkulot qismini yaxshi bilgan va har bir maqomni unga xos usul va xususiyatlarni saqlab qolgan holda ijro etgan.

Xoji Abdulaziz Rasulov (1852-1936) o'zbek va tojik musiqasining taniqli ijrochilaridan biri, mohir tanburchi Hoji Raximqulning shogirdi. 1888 yilda Buxoroga bordi. U erda Ota-Jaloliddin Nazirov raxbarligi ostida bir yil ichida Shashmaqomni mukammal o'rgandi. A.Rasulov Farg'ona, Samarqand, Toshkent shaharlarida o'zbek xalq musiqasi va maqomlarini faol targ'ib qildi. U o'zbek xalq cholg'ulari ijrochiligi rivojiga tanburchi, dutorchi va xonanda sifatida salmoqli hissa qo'shib, xalq va musiqa jamoatchiligining mehr-muhabbatiga sazovor bo'ldi.

Yuqorida nomlari keltirib o'tilgan musiqachi-cholg'uchilar o'z ijodiy yo'lini boshlab o'z davrida ijodiy kamolotga etdilar. Ular hammasi mahrifatchilar, yosh musiqachilarning ustozlari edilar. Ularning pedagogik qarashlari, ta'limotlari o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik bo'yicha yangi pedagogik hayotiy manba bo'lib, o'lmas meros sifatida saqlanmoqda.

1917-1945 yillarda ijrochilik san'atining taraqqiyoti 1917 yildan keyin o'zbek musiqa san'ati jadal va jo'shqin taraqqiy eta boshladi. Birinchi o'n yillikdayoq musiqa ta'limi, folklorshunoslik, ijrochilik san'ati sohalarida muayyan yutuqlarga erishildi.

Musiqa o'quv yurtlari - Toshkentdagi Turkiston xalq konservatoriyasi (1918) va uning Samarqanddagi, Farg'onadagi (1919), Buxorodagi (1920) filiallarida katta ishlar amalga oshirildi. Ularda asosan o'zbek xalq cholg'ularini hamda ba'zi Yevropacha musiqa cholg'ulari (fortepiano, skripka va damli cholg'ulari) ni chalish o'rgatilar edi. Bu musiqa bilim yurtlari tom ma'nodagi konservatoriya bo'lmasa-da, biroq, o'tgan davr musiqa madaniyati ilmini o'rganish imkoniga ega



bo'lmaganlarga sodda musiqa nazariy ilmi hamda ijro san'atida saboq berilar edi. Shu tufayli yosh respublikaning ko'pgina shaharlarida musiqa havaskorligi keng quloq yoydi.

O'zbek san'atining asoschisi, dramaturg, bastakor, muallim, jamoat arbobi Hamza Hakimzoda Niyoziy musiqa san'ati rivojiga katta xissa qo'shdi. 1917 yilgacha bo'lgan davrdagi xalq musiqachi va ijrochilari yaratgan an'analar cholg'ularning keyingi avlodi ijodida tarkib topdi va davom etdi. Musiqachi-ijrochilar qayta tuzilgan madaniy-mahrifiy tashkilotlarda ishga kirishib ketdi.

Taniqli tanburchi va xonanda Shorahim Shoumarov 1919 yilda Toshkentdagi "Namuna" maktab-internati qoshida xalq cholg'ulari ansamblini tuzdi. Bu ansambl keyinchalik Toshkent musiqa texnikumini tashkil qilish uchun asos bo'lib xizmat qildi. 20-yillarda o'quv yurtlari, zavodlar, fabrikalar qoshida, qishloq joylarda "Ko'k ko'ylak", "San'atchi qizlar", "Sanoyi nafisa" kabi musiqiy jamoalar tuzildi. Tashkil qilingan ijodiy jamoalar tarkibida naychi, changchi, dutorchi, tanburchi, g'ijjakchi, doyrachi, nog'arachilar va qashqar rubob sozandalar bo'lgan xalq cholg'ulari ansamblari ham bor edi.

Xalq cholg'ulari ansamblari Farg'onada, Andijonda, Samarqanda ham tuziladi. Ularga mashhur cholg'uchilar usta Olim Komilov, To'xtasin Jalilov, Ahmadjon Umirzoqov, Yusufjon Shakarjonov, usta Ro'zmat Isaboev, Matyusuf Xarratov, Usta Toyir Marufjon Toshpulatov, Muhiddin Mavlonovlar rahbarlik qilishgan. Ularning samarali ijodi tufayli, o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik san'atidan ko'pchilik bahramand bo'ldi.

1936 yilda Moskvada bo'ladigan dekada munosabati bilan Qori Yoqubovga Davlat filarmoniyasini tuzish topshiriladi, u filarmoniyaning birinchi direktori etib tayinlanadi. Qori Yoqubovning va boshqa musiqa san'ati arboblarning qat'iyligi tufayli, Toshkentda davlat konservatoriyasini tuzish haqida qaror qabul qilinadi.

O'zbek xalq musiqasi an'alarining davomchisi, Toshkentlik mohir xalq cholg'uchisi-dutorchi, tanburchi, naychi Yunus Rajabiyning (1897-1976) ijodiy faoliyatiga mahrifatparvarlik keng musiqiy-ijtimoiy xususiyatlar xos edi. Besh jildlik o'zbek xalq musiqasini yozib olib, nashrga tayyorlaganligi Yunus Rajabiyning ko'p yillik ijodiy faoliyatining eng ajoyib samarasi bo'ldi. 1927 yili Yunus Rajabiy O'zbekiston radio qo'mitasi qoshida 12 cholg'uvchi (xonanda va sozandalar)dan iborat xalq cholg'ulari milliy ansambli tashkil etadi. Bu ansamblga u Toshkentdagi o'sha paytda mashhur musiqachilar - qo'shmaychi Xayrulla Ubaydullaev, dutorchilar Abdusoat Vahobov, Orif Qosimov, tanburchilar Rixsi Rajapov, Mahsudxo'ja Yusupov, g'ijjakchilar Imomjon Ikromov, Nabi Hasanov, Mahmud Yusupov, naychilar Dadaali Soatqulov, Said Kalonov, changchilar Nigmatjon Do'stmuhammedov, Faxriddin Sodiqov, Mahamatjon Rasulov, doyrachi Dadaxo'ja Sottievlarni jalb etdi. Repertuarida o'zbek xalq kuylari bilan



bir qatorda zamonaviy bastakor, shu jumladan Yunus Rajabiyning “Chorgoh”, “Ko‘chabog‘i”, “Bayot”, “Birlashingiz”, “Fabrika”, “G‘alaba”, “Hammamiz”, “Ilg‘or”, “Mirzadavlat” kabi asarlari bor edi. Keyinroq bu ansamblda respublikaning mashhur xonandalari Toshkentlik Mulla To‘ychi Toshmuhamedov, Buxorolik domla Halim Ibodov, Samarqandlik dutorchi va xonanda hoji Abdurahmon Umarov, tanburchi va xonandalar Matyoqub Xarratov, Safo Mug‘oniy, Toshkentlik Nazira Axmedova kabi san‘atkorlar ishlagan. Ayni paytda ansamblning ijrochilik repertuari “Shashmaqom”ning mushkulot va nasr qismlari: “Nasurulloi”, “Navro‘zi Sabo”, “Talqini ushshoq”, “Sarvinozi talqincha”, shuningdek, bastakorlarning “Uyg‘oning”, “Bizning qishloq”, “Yashasin”, “Kolxozimiz” kabi asarlar hisobiga kengaydi.

1930 yilda Toshkent musiqa oliy maktabi, 1936 yilda esa uning asosida O‘rta Osiyoda birinchi musiqa oliy o‘quv yurti - Toshkent davlat konservatoriyasi ochildi. 1936-1937 o‘quv yili xalq cholg‘ularida ijrochilik sohasida musiqiy ta‘lim rivoji uchun juda muhim davr bo‘ldi. Aynan shu davrda Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtida A.I.Petrosyans tashabbusi bilan Yu.Rajabiy, A.Daroshev, A.Mansurov, B.Giyenko, N.Krestyanin, V.Marsinkovskiy, A.Maxsudov, O.Qosimov kabi o‘qituvchilar umummaqbul nota tizimi asosida o‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik bo‘yicha saboq bera boshladilar. Sh.Shoakramov, A.G‘ofurov, M.Yunusov (chang), S.Yuldoshov, G.Qodirov (tanbur), A.Ilyosov, M. A‘zamov kabilar ularning birinchi o‘quvchilardan bo‘lishdi.

#### **4. Musiqa o‘qituvchisining cholg‘u ijrochiligi va xonandalik mahoratini o‘stirish bo‘yicha amaliy tajribalar**

O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik madaniyatining o‘sishi, jahon bastakorlari asarlarining o‘zlashtirilishi, O‘zbekiston bastakorlarining xalq cholg‘ulari uchun maxsus asarlar yaratishdagi faol ijodiy faoliyati o‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik san‘atini yanada yuksalishi uchun muhim zamin bo‘ldi. Shu bilan birga, yuqori malakali ilmiy pedagogik va ijrochi kadrlarni puxta va mukammal qilib tayyorlash masalasini ham kun tartibiga qo‘ydi.

O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilikning keyingi davrlardagi yuksalishi Toshkent konservatoriyasining faoliyati bilan chambarchas bog‘landi. 1948 yildan boshlab mamlakatimizdagi musiqa oliy ta‘lim muassasalarida, shu jumladan; hozirgi O‘zbekiston davlat konservatoriyasida ham xalq cholg‘ulari ijrochiligi bo‘yicha ta‘lim berish boshlandi.

O‘zbek xalq cholg‘ulari bo‘limiga (orkestr fakulteti tarkibida) rahbarlik qilish, o‘quvchilarni saralab yig‘ish, o‘quv rejalarini tuzish A.I.Petrosyans tomonidan amalga oshirildi. O‘zbekiston davlat konservatoriyasida o‘zbek xalq cholg‘ulari ijrochiligi bo‘yicha professional ta‘limni yo‘lga qo‘yishda V.A.Uspenskiy,

M.A.Ashrafiy, A.I.Petrosyans, I.P.Blagoveshchenskiy, B.F.Gienko, G.G.Sobitovlar katta rol o'ynashdi.

1948-1949 yillardagi birinchi o'quv yilida konservatoriyaga O'zbekiston Davlat filarmoniyasi xalq cholg'ulari orkestrining 13 cholg'uchisi o'qishga qabul qilindi. Shulardan 10 kishi: Nazir Nigmatov (qo'shnay), Abbos Bahromov, Aleksandr Yevdokimov (prima-rubob), La'li Sultonova, Mirzaev, Buriboy Mirzaahmedov (qashqar rubob), Mahamatjon Asilov, Obid Xolmuhamedov (g'ijjak), Anvar Liviev (doyra) 1-kursga qabul qilindi. Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtining bitiruvchilari Axmadjon Odilov (chang), Valentina Borisenko (prima rubobi), Feoktist Vasilevlar (qashqar rubobi) esa 2-kursga qabul qilindi.

Muhammadjon Mirzaev respublikadagi rubobchilarning eng mashhuri, kuychi-bastakori. Konservatoriyani qashqar rubobi sinfida A.I.Petrosyans rahbarligida tamomlagan. 1951 yildan filarmoniya orkestrida ishlash bilan bir qatorda, o'zbek xalq musiqa merosini o'rganish bo'yicha yosh ijrochilarga murabbiylik qilib kelgan. Xalq artistlari X.Mavlonova, M.Turg'unboevalar bilan ijodiy hamkorlikda "Bahor vals", "Yangi tanovar", "Gulnoz", "Dilbar", "Gulxumor", "Dildor" kabi lirik qo'shiqli raqs kuylarini yaratgan. U yaratgan qo'shiqlar orasida "Shirmonoy", "Oltin sandiq", "Uch dugonalar" ayniqsa mashhurdir. M.Mirzaev O'zbekiston xalq artisti, O'zbekiston bastakorlar uyushmasi a'zosi va bir qancha mukofatlar sohibi. Rubob ijrochiligida (keyinroq yosh ijrochilar tomonidan rivojlantirilgan) hissiy va yorqin uslub asosini yaratgan dastlabki rubobchilardan hisoblanadi.

Mirza Hakimovich Toirov konservatoriyani nay ixtisosligi bo'yicha tamomlagan dastlabki bitiruvchilardan biri (1956). U o'z ustozlari A.I.Petrosyans bilan hamkorlikda "Nay maktabi" o'quv qo'llanmasini yaratgan. Ushbu qo'llanma O'zbekistondagi barcha musiqa bilim yurtlarida, shu bilan birga, qo'shni respublikalarda ham nay sinflarining ochilishiga imkon yaratdi. M.Toirov 1957 yildan ijrochilik kafedrasida avval o'qituvchi, so'ngra dotsent bo'lib ishlagan. Ayni bir paytda T.Jalilov nomidagi xalq cholg'ulari orkestrida ham ishtirok etgan. M.Toirov musiqa ijrochilari Butunittifoq konkursining (1957) hamda Yoshlar va o'quvchilarning VI jahon festivalining sovrindori (1957), Estoniya va MDH davlatlari (Moskva, Qozog'iston, Ozarbayjon, Turkmaniston, Tojikiston)da bo'lib o'tgan o'zbek san'ati dekadalarida qatnashgan. M.Toirov bir necha istehdodli naychilarni tarbiyalab kamol toptirgan. Uning I.Qosimov, O.Azizov, Sh.Ahmadjonov, R.Xolmirzaev, K.Yusupov, A.Abdurashidov kabi shogirdlari respublika ko'riklarining sovrindori bo'lishgan. M.Toirov O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist (1969). U 1987 yildan konservatoriyaning professori unvoniga sazavvor bo'ldi.



Fozil Matyusupovich Xarratov (1926-1971) taniqli changchilardan biri edi. Musiqa bilimi va ijrochilik ilk sabog'ini o'z otasi, mashhur changchi Matyusuf Xarratovdan oldi. Otasi (M.Xarratov) farzandining istagiga ko'ra, unga yarim xromatik tovush qatoriga mansub yangi chang yasab beradi. 1942 yilda F.Xarratovlarning oilasi Toshkentga ko'chib keladi. Fozil bu erda avval Toshkent davlat sirkining aralash musiqa ansamblida ishlaydi. U 1950-1955 yillarda Toshkent davlat konservatoriyasida A.Odilovning chang cholg'usi sinfida o'qiydi. Keyin bir oz vaqt konservatoriyada dars beradi. Uning shogirdlari orasida G.Nehmatov, F.Shukurova, T.Xo'jamberdiyev kabi taniqli ijrochilar bor. F.Xarratov Moskvada bo'lib o'tgan Yoshlar va o'quvchilarning VI Jahon festivalining sovrindori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist (1964). U "Hurmat Belgisi" ordeni bilan mukofotlangan.

Feoktist Nikiforovich Vasilev (1919-1987) dastlabki professional qashqar rubobi ijrochilaridan biridir. U 1937 yilda Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtiga o'qishga kiradi. 1938 yildan O'zbekiston filarmoniyasi xalq cholg'ulari orkestrining cholg'uchisi edi. Ikkinchi jahon urushi yillarida Turkiston harbiy okrugining ashula va raqs ansamblida ishlagan. Konservatoriyani qashqar rubobi sinfi bo'yicha A.I.Petrosyans rahbarligida tamomlagan (1952). 1949 yildan konservatoriyada qashqar rubobi, dutor, tanbur ixtisosligi bo'yicha dars bergan. S.Taxalov, A.Boboxonov, G.Ergashev, T.Rajabov, Q.Usmonov kabi mashhur rubobchilar uning qo'l ostida tarbiyalanganlar. Feoktist Nikiforovich o'zining ilmiy-metodik ishlarida ("Rubob maktabi" darsligi) "qashqar rubobi uchun etyud va mashqlar" rubob chalishni o'rganish bo'yicha tizimli o'qitish metodini ishlab chiqdi. 1983 yildan F.Vasilev professor vazifasini bajaruvchi bo'lib ishlagan edi.

Feoktist Nikiforovichning nomi o'zbek musiqa madaniyati hamda 40 yilga yaqin murabbiy bo'lib xizmat qilgan Toshkent konservatoriyasi bilan chambarchas bog'liq.

Valentina Yakovlevna Borisenko (1919-1990) o'zining ijodiy yo'lini O'zbekiston Davlat filarmoniyasi xalq cholg'ulari orkestrida cholg'uvchi bo'lib boshladi (1939). Prima rubobi ixtisosligida ijrochi va o'qituvchi sifatida tanildi. Hamza nomidagi musiqa bilim yurtini tugatgach (1948), Borisenko orkestrning torli-noxunli cholg'ular guruhida konsertmeyster bo'lib ishladi. Konservatoriyani prima rubobi ixtisosligi bo'yicha I.G.Blagoveshchenskiy rahbarligida tamomladi (1952). So'ngra orkestrda ishlashni davom ettirdi. 1950 yildan Toshkent konservatoriyasida o'qituvchi, 1962 yildan esa xalq cholg'ulari kafedrasining dotsenti lavzimlarida ishlagan. Borisenkoning mashhur shogirdlari orasida A.Malikov, G.Salaeva (Obidova), B.Yo'ldoshev, M.Rahimov, B.Azimov, Sh.Janaydarov, A.Dadamuhamedov kabi ijrochilar bor.

Sulaymon Maniyevich Taxalov (1942 yilda tug'ilgan) ajoyib ijro texnikasiga



va alohida tovush jozibasiga ega bo'lgan, an'anaviy va akademik ijro usulini birdek mukammal egallagan rubobchilardandir. Konservatoriyada o'qishni tugatgach, F.N.Vasilev sinfida (1958) qashqar va afg'on ruboblari hamda tanbur ixtisosliklari bo'yicha saboq berdi. S.Taxalov Moskvada bo'lib o'tgan Yoshlar va o'quvchilarning VI Jahon festivalida ishtirok etgan (1957). U xalq cholg'ulari ijrochilari Butunittifoq konkursining o'zbek xalq musiqasi nota yozuvi va tavsifini takomillashtirish sohasida katta ilmiy-tadqiqot ishlarining sohibi. U "Afg'on rubobini, chalishni o'rgatish metodikasi asoslari" nomli o'quv qo'llanma muallifidir. S.Taxalov 1985 yildan dotsent, 1988 yildan esa san'atshunoslik fanlari doktori, professor ilmiy daraja va unvonlarini olgan.

Abdusalom Malikovich Malikov (1939-1979). Dotsent vazifasini bajaruvchi bo'lib xizmat qilgan. A.Malikovning rubob-prima ixtisosligi bo'yicha 60-65 yillarda konservatoriyada V.Y.Borisenko rahbarligida olib borgan ijodiy faoliyati alohida e'tiborga loyiq. U 1967 yildan xalq cholg'ulari ijrochilik kafedrasida ishlagan. I Respublika ko'rik-tanlovining sohibi (1971).

G'ulomqodir Ergashevich Ergashev (1946 yilda tug'ilgan). Toshkent konservatoriyasining sobiq o'quvchisi (1969). F.N.Vasilevning shogirdi, afg'on rubobi ijrochisi, turli xil dasturlar bilan tez-tez konsertlarda qatnashib turadi. 1967 yildan TDKsida o'qituvchi, 1988 yildan kafedra dotsenti lavozimida ishlagan

Chang musiqacha cholg'usi tanburning o'ttiz ikki pardasidan olinib ixtiro qilingan. Ba'zi rivoyatlarda go'yo Arastun (Arestotel) Hakim Zuhro yulduziga qiyos qilib ixtiro qilgari deyiladi<sup>22</sup>. Undan tashqari Abdulqodir Marog'iy o'zining "Maqosid ul alhon" (kuylar maqsadlari) kitobida chang musiqacha cholg'usini yuziga teri tortilgan unga 24 ta tor ikki tomoniga ip bilan bog'lab qo'yilgan" degan ma'lumot berilgan bo'lib, noxun (tirnoq) vositasida ijro etilgan. Qadimgi chang musiqacha cholg'usining bir turi bu cholg'uning yuz qismiga teri emas balki yog'och qoplangan. Torlari ip bilan emas cho'plar vositasida berkitib qo'yilgan.

Hozirgi kunda O'zbekiston hududida musiqacha ijrochiligida qo'llanilayotgan "Chang" nomli musiqacha cholg'usi Sharq va boshqa xalqlarning milliy musiqacha ijrochiligida turli xil nomlanishlarga ega. Belarussiya va Ukrainada - simbala. Uyg'ur xalqlarida - chang, Eronda-santur deb nomlanib O'zbekistondagi - "Chang" musiqacha cholg'usiga o'xshash. Ko'pgina musiqiy risolalarda zikr etilgan "Chang" cholg'usi hamda XVI asrlarda yashagan Darvesh Ali Changiy ijro etgan "Chang" nomli musiqacha cholg'usi tamoman boshqa ko'rinishda bo'lib, hozirgi kunda musiqacha ijrochiligida qo'llanilayotgan "Arfa" musiqacha cholg'usining aynan o'zidir.

---

<sup>22</sup> Nag'mai niyogon. Tahqiq va tahiyai A. Rajabov. Dushanbe. Adib, 1988.124 s..



### Nazorat savollari:

1. “Tasnig” atamasi qanday ma’noni anglatadi?
2. Terma haqida ayting.
3. Mehnat qo‘shiqlari bu –
4. Oilaviy marosim ayimlari -

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mark Feezell. “Music T’eory Fundamentals” Copyrig’t. 2011 All Rig’s Reserved. Learn Music T’eory. Net-2011
2. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.– T.: “Nihol” nashriyoti, 2013, 2016.–279b.
3. James Tackett. “Fundamentals of church music T’eory” Austin Christian Akappella Musik. Abilene Christian University. 2009.
4. Norenkov I.P., Zimin A.M. Информационные технологии в образовании: Учебное пособие.–М.: Izd. MGTU im. N.Baumana,2002.-336s.
5. Подласый И. Педагогика. Новый курс: учебник для студ. педаг. вузов. - в 2-х кн. – М.: VLADOS, 1999. – 567 s.
6. Peter Master. english Grammar and Technical Writing. Regional Printing Center. 2004
7. Sergeev I.S. Основы pedagogicheskoy deyatelnosti: Uchebnoe posobie. – SPb.: Piter. Seriya “Uchebnoe posobie”, 2004–316 s.
8. G‘ulomov S.S., Begalov B.A. Informatika va axborot texnologiyalari.– T.: Fan, 2010.–686с.
9. Pedagogika nazariyasi va tarixi // To‘xtaxo‘jayeva M.X.tahriri ostida. – T.: “Moliya-iqtisod”, 2008. – 208 b.
10. Inoyatov U.I. Muslimov N.A., va boshq. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob. 2012 y. Toshkent, “Ilm-Ziyo” nashriyoti. 12 b.t.
11. Mishael Pil’ofer and ‘olly Day “Music T’eory for dummies” Indiana USA 2007. Wiley Publishing Inc.
12. Catorine Sadolin. Complete vocal techniyue. 2012. www.Completevocalinstitute.com
13. Sayidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya, 2003. – 172 b.
14. Tolipov O‘., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari – T.: 2006. – 163 b.
15. Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Bo‘lajak o‘qituvchining loyihalash faoliyati. // Metodik qo‘llanma. – T.: TDPU Rizografi, 2014 yil. 6,5 b.t.



16. American popular music. Larri Star & Christopoer Waterman. Oxford Universite Press. Inc. 2007.
17. Qahharov N.V. Vokal asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent. Iqtisod-moliya. 2008. 314 b.
18. Mirzayeva N.A.. Xonandalik uslubiyoti asoslari. Ma'ruzalar matni. Toshkent. 2008. 48 b.
19. Вахромова Т.А. Справочник по музыкальной грамоте и солофеджио. М., 2004.
20. Nurmatov H. va boshqalar. 1-3 sinf "Musiqqa" darsliklari. 2016
21. Ibrohimov O. 4-sinf "Musiqqa" darsligi. 2016
22. Mansurov A. va Karimova D. 5-sinf "Musiqqa" darsligi. 2015
23. Bekmatov S. 6-sinf "Musiqqa" darsligi. 2017
24. Ibrohimov O. 7-sinf "Musiqqa" darsligi. 2016



## IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

### **1-amaliy mashg'ulot: O'zbek musiqashunosligi asoslari, uning shakllanish davrlari, dunyo musiqashunoslik ilmini rivojlanishidagi ahamiyati.**

#### **Reja:**

1. Ibtidoiy jamiyatga oid ijod shakllari va musiqa ijodiyoti
2. Musiqiy madaniyatning rivojlanish jarayonlari
3. Qoraxoniylar davrida musiqiy-madaniy hayot (XI-XIII asrlar)
4. Ilk davlat tizimi davriga oid musiqiy ijod
5. Qadimgi Xorazm musiqa madaniyati

**Tayanch iboralar:** ibtidoiy jamiyat, musiqa cholg'ulari, dunyo, musiqashunoslik, ilk cholg'u, Markaziy Osiyo.

Ibtidoiy davr odamlarining hayot shart-sharoitlari hamda diniy qarash, e'tiqod va marosimlarining yuzaga kelishida tarixiy jarayonlarning o'rni va ahamiyati juda katta. Davrlar o'tishi bilan ibtidoiy odamlarning turli topinish va e'tiqodlar bilan bog'liq bo'lgan marosimlarning yuzaga kelishi, ularning badiiy-ijroviy xususiyatlari o'ziga xos tarzda shakllanganligini ko'rish mumkin. Bularning ovoz va qadimgi cholg'ular vositasida "ommaviy o'yin" va "yakkaxonlik" shakllarida namoyon bo'lishida shubhasiz mehnatning o'rni va ahamiyati juda katta ekanligini arxeologik topilmalar va yodgorliklar guvohlik beradi. Mazkur ijroviy shakllarning musiqiy jihatlari hamda birlamchi janr andozalari (nutqdosh ohanglar, o'yin-raqs usullari, darak beruvchi iboralar va b.)ning qaror topishi ibtidoiy odamlar orasida mulokot, so'zlashuv san'atini rivojlanishi turtki berdi. Musiqa cholg'ularining ilk shakl va turlari yuzaga kela boshladi. Ibtidoiy davr odamlari tomonidan tayyorlangan dastlabki "musiqa cholg'ulari" qadimgi davr marosimlarda hamda turmush yumushlarida musiqa qurollarining bajargan vazifalar "darak beruvchi", "o'xshatma", "jodu" va ommaviy o'yin marosimlarida usul beradigan musiqa qurollari va boshqalarni keng rivojlanganligini ko'rishimiz mumkin. Albatta, bu jarayonlar mamlakatimizdagi tarixiy yodgorliklarni saqlanib qolganligi keyingi o'rganishlar natijasida juda ko'p qimmatli ma'lumotlarni ochib bermoqda. Jumladan, Kushon xonligi Markaziy Osiyo xalqlari tarixida massaget qabilalariga mansub tohar sulolasidan birining nomi bilan atalgan. Xitoy manbalarida yozilishicha, Daxya, ya'ni Baqtriyaga ko'chib o'tgan massaget (yuechji)lar beshta vassal hokimlikka bo'lingan bo'lib, ulardan biri Guyshuan deb nomlangan.



**Musiq**a ijrochiligida tizimining paydo bo'lishi va rivojlanishi xususida xorijiy adabiyotlar (tahlili, ta'lim jarayoniga tatbiq etish masalalari). Mumtoz musiqani o'rgatish uslubining zamonaviylashtirilishi. Ta'lim tizimida cholg'u ijrochiligini o'rgatish borasida ilg'or mahalliy va xorijiy tajribalar. Musiqiy asarlarni o'zlashtirishda ijrochilikning an'anaviy va zamonaviy uslublar. Repertuar tanlash va cholg'u ijrochilarini tayyorlashda individual yondashuv masalalari. Mashhur cholg'uchilarning ijodi. Ular yaratgan uslublarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish masalalari.

Professional ijrochilik o'zining mukammalligi, har bir kuyga oqilona yondashishi bilan ajralib turadi. Mukammalligi shundaki: ijro paytida o'zini tutishi, har bir shtrix, har bir zarb, har bir parda o'z o'rnida bo'lishi; har bir kuyga oqilona yondashishini shunday izohlash mumkin: cholg'uchi ma'lum bir kuyni ijro etishdan oldin yaxshilab o'rganib chiqadi, kuyning murakkab jihatlari, pardalari, tarixiy kelib chiqishi, ruhiyatidan kelib chiqib, ijodiy yondashadi.

Havaskor ijrochilik esa aksincha, sahnada o'zini tutishi, kuyning ba'zi jihatlari, unsurlarini sezmay tashlab ketishi, shtrix va zarblarini poyma-poy ketishi, chalayotgan kuyga xos bo'lmagan pardalarini ijro etishi bilan farqlanadi.

### **Mashhur cholg'uchilarning ijodi.**

Mashhur cholg'uchilarning ijodi bilan talabalarni tanishtirib borish ham ustoz sozanda zimmasidagi vazifalardan biridir. Har bir kuyni ijro etishdan oldin ushbu kuyni mashhur ijrochilari, ijrochilarning qaysi maktab vakillari ekanligi haqida gapirish ustoz uchun ham qarz, ham farzdir. Bu ijrolarni magnet yozuvlarini eshitirib, dars o'tilsa nur ustiga a'lo nur bo'lar edi.

Mashhur cholg'uchilar yaratgan uslublarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish masalalari hozirgi kunda dolzarb vazifalardan biridir. Mazkur vazifa yana ustozlar zimmasiga yuklatiladi. Har bir berilgan kuyni ijrochi ustoz kayfiyati chog' paytida uz uslubida ijro etib, magnet tasmalariga yozmog'i kerak. Ushbu berilgan kuyni boshqa ijrochilar, boshqa ijrochilik maktabi vakillarini ham magnet yozuvlarini topib talaba sozandaga navbatma-navbat eshittirib, ustoz ijrochilik maktablarini farqini, yutuq va kamchiliklarini aytib talabaga tushuntirsa ustoz-shogird tizimining zamonaviy ko'rinishi bo'ladi.

**Ishdan maqsad** – Ta'lim tizimida musiqiy avangardizmni o'rgatish borasida ilg'or mahalliy va xorijiy tajribalarni tahlil qilish. Tinglangan audio yoki tinglab tomosha qilingan video lavha yuzasidan asosli fikr-mulohaza yuritish ko'nikmalariga ega bo'lish.

**Masalaning qo'yilishi:** Tinglovchilar kichik guruhlariga bo'lingan holda ularga har bir vazifa bo'yicha berilgan savollarga javob tayyorlab, asosli sharhlab berishlari talab etiladi.



### Ishni bajarish uchun namuna

O'qituvchi tinglovchilarni 2- (3 yoki 4) guruhga bo'ladi. Mavzu bo'yicha tayyorlangan topshiriqlarni tarqatadi. O'quv natijalari nima berishini aniklashtiradi, erishiladigan natijaning yutuq va kamchiliklarining mohiyatini aytadi. Qanday qo'shimcha materiallardan foydalanish mumkinligi haqida ma'lumot beradi. (darslik, ma'ruza matni, internet materallari). Guruhlarda ish boshlash vaqtini e'lon qiladi.

Guruhlardagi hamkorlik ishlarining takdimotini tashkillashtiradi va boshqaradi. Takdimot muddati 20 minutdan oshmasligini e'lon qiladi.

O'qituvchi har bir savolga yakun yasaydi.

Mashg'ulotni baholash. Voqeliklarning ketma-ketligi, topshiriqlarni asoslab berish, shuningdek tinglovchilar bilim saviyasini shakllantirishga, tushunchalaridan to'g'ri xulosalar chiqarishiga e'tibor qaratadi.

Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu maqsadiga erishishdagi talabalar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi.

#### Guruhda ishlash qoidalari

Har kim o'z o'rtoqlarini tinglashi, hurmat bildirishi kerak.

Har kim aktiv, birgalikda, berilgan topshiriqqa mas'uliyat bilan qaragan holda ishlashi kerak.

Har kim zarur bo'lgan holda yordam so'rashi lozim.

Har kim undan yordam so'ralganda albatta yordam berishi kerak.

Har kim guruh ishi natijasini baholashda ishtirok etishi shart.

Har kim aniq tushunishi kerakki:

- boshqalarga o'rgatib o'zimiz o'rganamiz.

- kemaga tushganning joni bir: yo birga qutilamiz yoki birga cho'kamiz.

#### Topshiriqni bajarish ketma-ketligi va reglamenti.

1. Individual o'qish-2 minut.
2. Muhokama qilish -3 minut.
3. Prezentatsiya (takdimot) varag'ini tayyorlash- 5 minut.
4. Prezentatsiya (takdimot) qilish -5 minut.
5. Guruhlar boshqa guruhlarni prezentatsiya (taqdimot)lari vaqtida ularni baholash.
6. Baholash natijalarini rahbarga aytish.



### Nazorat savollari:

1. Qadimgi Xorazm musiqa madaniyati
2. Ilk davlat tizimi davriga oid musiqiy ijod
3. Qoraxoniylar davrida musiqiy-madaniy hayot (XI-XIII asrlar)
4. Musiqiy madaniyatning rivojlanish jarayonlari
5. Ibtidoiy jamiyatga oid ijod shakllari va musiqa ijodiyoti

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Апраксина.О.А. Методика музыкального воспитания в школе. (Учебное пособие для пед. институтов по спец. 2119 «Музыка и пение») -М.: Просвещение, 1983-222с
2. Музыкальная психология: Учебное пособие. / автор сост. Кадиров Р.Г., -Т. Музыка, 2005. -80 с.
3. S.Begmatov, D.A.Karimova Q.MAmirov T.G'ofur G'ulom nashriyoti, 2008 y.
4. Panjiyev Q. O'zbek xalq musiqa ijodi. 2020 y. 274 b.
5. Abdukarimov M. "Cholg'ushunoslik" Toshkent 2005 y
6. Lutfullayev A . O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi.-T.: Musiqa.

**2-amaliy mashg'ulot: Etnomusiqashunoslik, uning xalq ijodiyotidagi o'rni va ahamiyati. O'zbek musiqasining tarkib topish qadriyatlari, an'ana, qadriyat, urf-odat, marosim musiqasi va uning musiqa o'qituvchisi faoliyatidagi ahamiyati.**

### Reja:

- 1.Etnomusiqashunoslik, uning xalq ijodiyotidagi o'rni va ahamiyati.
- 2.O'zbek musiqasining tarkib topish qadriyatlari,
- 3.An'ana, qadriyat, urf-odat, marosim musiqasi va uning musiqa o'qituvchisi faoliyatidagi ahamiyati.

**Tayanch iboralar:** Etnomusiqashunoslik, marosi, qadriyat, an'ana, urf-odat, musiqa o'qituvchisi.

XV asrning ikkinchi yarmidagi o'zaro urushlar shaharlarning bo'shab, vayronaga aylanishi O'rta Osiyo xalq ommasining qashshoqlanishiga olib keldi. Bu protsess o'zlarini o'zbeklar deb atagan ko'chmanchilar boshlig'i Shayboniyxon hokimiyatni qo'lga olgan XVI asrniig boshidayoq faollashgan edi. Ana shu vaqtdan boshlab "o'zbeklar" degan xalq nomi qaror topadi. XVII va XVIII asrlarda



feodal tarqoqlik kuchayadi. Katta feodal davlati alohida xonliklar Buxoro, Xiva hamda Qo'qon xonliklariga bo'linib ketdi. Bunday bo'linish o'zbek xalqining musiqa madaniyatida ham aks etdi. O'zbek xonlari saroyidagi musiqiy hayot asosan temuriylarning Hirot va Samarqand saroylaridagi an'analarini davom ettirardi.

**Ishdan maqsad** – Ta'lim tizimida mashhur cholg'uchilarning ijodi; mashhur cholg'uchilar yaratgan uslublarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish masalalarini tahlil qilish. Tinglangan audio yoki tinglab tomosha qilingan video lavha yuzasidan asosli fikr-mulohaza yuritish ko'nikmalariga ega bo'lish.

**Masalaning qo'yilishi:** Tinglovchilar kichik guruhlariga bo'lingan holda ularga har bir vazifa bo'yicha berilgan savollarga javob tayyorlab, asosli sharhlab berishlari talab etiladi.

### **Ishni bajarish uchun namuna**

O'qituvchi talabalarni 2- (3 yoki 4) guruhga bo'ladi. Mavzu bo'yicha tayyorlangan topshiriqlarni tarqatadi. O'quv natijalari nima berishini aniklashtiradi, erishiladigan natijaning yutuq va kamchiliklarining mohiyatini aytadi. Qanday qo'shimcha materiallardan foydalanish mumkinligi haqida ma'lumot beradi. (darslik, ma'ruza matni, internet materallari). Guruhlarda ish boshlash vaqtini e'lon qiladi.

Guruhlardagi hamkorlik ishlarining takdimotini tashkillashtiradi va boshqaradi. Takdimot muddati 20 minutdan oshmasligini e'lon qiladi.

O'qituvchi har bir savolga yakun yasaydi.

Mashg'ulotni baholash. Voqeliklarning ketma-ketligi, topshiriqlarni asoslab berish, shuningdek talabalar bilim saviyasini shakllantirishga, tushunchalaridan to'g'ri xulosalar chiqarishiga e'tibor qaratadi.

Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu maqsadiga erishishdagi talabalar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi.

### **Guruhda ishlash qoidalari**

Har kim o'z o'rtoqlarini tinglashi, hurmat bildirishi kerak.

Har kim aktiv, birgalikda, berilgan topshiriqqa mas'uliyat bilan qaragan holda ishlashi kerak.

Har kim zarur bo'lgan holda yordam so'rashi lozim.

Har kim undan yordam so'ralganda albatta yordam berishi kerak.

Har kim guruh ishi natijasini baholashda ishtirok etishi shart.

Har kim aniq tushunishi kerakki:

- boshqalarga o'rgatib o'zimiz o'rganamiz.

- kemaga tushganning joni bir: yo birga qutilamiz yoki birga cho'kamiz.



**Topshiriqni bajarish ketma-ketligi va reglamenti.**

1. Individual o'qish-2 minut.
2. Muhokama qilish –3 minut.
3. Prezentatsiya (takdimot) varag'ini tayyorlash- 5 minut.
4. Prezentatsiya (takdimot) qilish –5 minut.
5. Guruhlar boshqa guruhlarni prezentatsiya (taqdimot)lari vaqtida ularni baholash.
6. Baholash natijalarini rahbarga aytish.

**1-ilova****Birinchi guruh uchun vazifa.**

<b>Savollar</b>	<b>Tushuncha va sharh</b>	<b>Izoh</b>
Mashhur rubob cholg'uchilaridan kimlarni bilasiz?		
G'ijjakda an'anaviy ijro bilan akademik ijroning nima farqi bor?		
An'anaviy cholg'u ijrochiligida qaysi zarbli cholg'ular ishlatiladi?		

**Ikkinchi guruh uchun vazifa.**

<b>Savollar</b>	<b>Tushuncha va sharh</b>	<b>Izoh</b>
